



NIKOLAY GOGOL

DAHSHATLI INTIQOM



SLT 18

Nikolay Gogol

DAHSHATLI INTIQOM



Umel 2019 +

«O'zbekiston milliy ensiklopediyasi»

Davlat ilmiy nashriyoti

Toshkent – 2018

P2

UO'T: 821.161.1
KBT 84(2poc-pyc)1
G61

Rus tilidan Nabi Alimuhamedov tarjimasi

Nikolay, Gogol

G61

Dahshatli intiqom: qissalar / Nikolay Vasilyevich Gogol. T.: «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2018. 288 b.

Rus adabiyotining mahoratli yozuvchisi Nikolay Vasilyevich Gogolning «Dikanka qishlog'i oqshomlari» to'plamidan joy olgan «Dahshatli intiqom» asarida sir-sinoatlarga boy g'aroyib voqealar tasvirlangan. Yozuvchi mazkur asarni afsona, rivoyat, ertak, shuningdek, onasidan eshitgan hikoyalari asosida yozgan.

Asar qahramonlari – g'ayritabiiy kuchlarga ishonuvchi sodda qishloq odamlari. Asar «May kechasi yoki suv parisi» nomi ostida 1831-yilda ilk marta nashr qilingan.

Yengil, yumoristik ruhda yozilgan ushbu qissalar to'plami sizga manzur bo'lishiga ishonchimiz komil.

UO'T: 821.161.1
KBT 84(2ros-rus)1

ISBN 978-9943-07-416-3

© «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi»
Davlat ilmiy nashriyoti, 2017-y.

QR MA'LIMLEME

KITAPXANA WORAYI

INV № 40980

DIKANKA QISHLOG'I OQSHOMLARI

BIRINCHI QISM

MUQADDIMA

«Dikanka qishlog'ining oqshomi» degani nimasi? Qayoqdagi bir asalarichidan chiqqan gap-da! Xudoyo tavba! Shuncha g'ozning pati yulinib qalam bo'lsa ham, shuncha latta qog'ozga ketsa ham kamlik qilibdi! Qo'li siyohga bo'yalgan har xil qalang'i-qasang'ilar kammidi! Endi asalarichi ham ularga taassib qilibdi! Bosmaxonada chop etilib chiqqan qog'oz shunaqa serob bo'lib ketdiki, odam nima o'rashni bilmay qoldi».

Bu gaplarni asalarichi eshitganiga bir oy bo'ldi, ya'ni aytmoqchi bo'lgan gapim shuki: bizdek becho-ralar mabodo qishlog'imizdan chiqib ba'zi ulug' martabalilar orasiga kirib qolguday bo'lsak, sho'rimiz quriydi! Gohida kattakon boyning hovlisiga kirib qolguday bo'lsak, darrov odamlari o'rab olib kalaka qila boshlaydi. Agar martabasi balandroq xizmatkorlar kalaka qilsalar-ku mayli-ya. Yo'q, yoqimsiz ko'rinishda chiqqan mayda-chuyda tirrancha malay bolalar ham pashshaxo'rdalik qiladi. «Qayoqqa borasan, qayoqqa, yo'qol, ket qishloqi!..» – deb har qaysisi har yoqdan o'dag'aylaydi. Shunga o'xshab ulug'lar orasiga kirganda ham kishi shunaqa merovlanib qoladi. Aytaversam... nimasini ham aytaman! Bunaqa joyga borguncha sudyda dastyori, pop hazratlari besh yildan beri aftimni ko'rmagan Mirgorodga borganim tuzukroq, ammo borib qolgudek bo'lsak, dod desang ham javob qaytarmay ilojing yo'q.

Aziz o'quvchilar, yana jahlingiz chiqmasin (keksa bir asalarichi siz bilan xuddi urug'-aymog'i yoki osh-na-og'aynisidek bermalol so'zlashganiga jahlingiz chiqmadimi), bizning ovulda qadimdan qolgan bir rasm bor; dala ishlari bitdi deguncha erkak zoti pechkaga chiqib, qishi bilan tushmasdan dam oladi. Bizning hamkasblarimiz ham arilarini yerto'laga qamaydi; osmonda turna, nok daraxtida nok qolmagan vaqtida, qorong'i tushar-tushmas ko'chaning hov bir yog'ida chiroq miltillab yondimi – o'yin-kulgi, qo'shiq eshitaverasiz; balalayka, gohida skripka ovozi ham chiqib qoladi, sho'xlik boshlanadi... Oqshom o'yinlari deganimiz shu. Bizning bu oqshomlarimiz sizning raqs kechangizga o'xshaydi. Ammo ayni o'zi deb bo'lmaydi. Siz o'yinga tushmoq va qo'lingizni og'zingizga tutib esnamoq uchun borasiz. Bizda qizlar gala-gala bo'lib yig'iladi, biroq o'yinga tushmoq uchun emas. Hammasi qo'lida dugi-yu piltakachi bilan keladi. Boshda har qaysisi ish bilan banddek ko'rindi: duglar chirpirak aylangan, qo'shiq avjiga chiqqan, hech kim boshini ko'tarib, yon-veriga qaramaydi ham. Ammo o'spirin yigitlar skripkachini boshlab uyga gurullab kirdimi – tamom, shovqin-suron, sho'xlik, o'yin-kulgi boshlanib ketadi, shunaqangi to'polon bo'ladiki, ta'rifini aytgan bilan ado bo'lmaydi.

Ammo hammasi bir yerga g'uj bo'lib cho'pchak aytishsa yoki u yer-bu yerdan gap boshlansa, bunisi juda ajoyib, Xudo yo'q mavzuning o'zi yo'q. Qayoqdagi eski gaplarni kavlab topishadi! Biram vahima soladilarki, ammo asalarichi Rudiy¹ Pankoning oqshom majlisidagi suhbatda aytilganidek, ajoyibot-u g'aroyibot hech qayerda hikoyat bo'lgan emas. Ham-qishloqlarimiz nima sababdan menga bunday laqab qo'yanini, azbaroyi Xudo, aytolmayman. Soch-soqolim ham sariqdan ko'ra ko'proq oq bo'lsa kerak. Ammo

¹ R u d i y – sariq, malla.

xfafa bo'lmaisiz, bizda shunday odat borki: agar birovga birorta laqab qo'yilgan bolsa, bu laqab o'la-o'lguncha qoladi. Gohi arafa kunlarida bir qancha ulug' zotlar asalarichining kulbasiga mehmon bo'lib, dasturxon tepasida o'tirganida shunday shirin suhbatga aylanar ediki, aslo qo'yavering. Shunisi ham borki, majlis ahli unaqa-bunaqa qishloqi yigitlar emas. Kimnikiga qadam ranjida qilsalar u odamning boshi ko'kka yetardi. Chunonchi Dikan qishlog'ining ruhoniysi Foma Grigoryevichni bilasizmi? Haqiqiy donishmand! Shunday g'alati hikoyatlar aytar ediki, bu hikoyatlardan ikkitasi risolada bor. Bu kishi sira qishloq dyakonlari kiyadigan olacha to'n kiymas edi. U kishinikiga qachon borsangiz, kartoshka unidan qilingan sovuq atala rangiga o'xshash, Poltavada gazini olti so'mmi, qanchadan olib tiktingan nafis movut chakmon kiyib chiqar edi. Qishloq kishilaridan hech kim bu kishining etigidan qora moy hidi keladi, demaydi va lekin etigini g'oz moyi bilan moylaganini hamma bilardi. Uning etik moylagan moyini boshqalar jon deb ovqatlariga solardi. U kishining sirasidan bo'lgan boshqalar etaklari bilan burunlarini artar edi, lekin u kishining umrlarida biron marta etaklari bilan burun artganlarini hech kim ko'rdim, deya olmasdi. Burun artmoqchi bolsa, cheti alvon ip bilan tikilgan, taxlog'liq oq ro'molchasini qo'ynidan chiqazib, ishini ado qilgandan keyin ro'molchani o'n ikki buklab, yana qo'yniga solib qo'yardi. Mehmonlar orasida bittasi bor edi... shunday basavlatki, qozixona vakili qilib yoki qozilik mansabiga o'tqazib qo'ysa ham bo'lardi. Qo'lini bigiz qilib, barmog'iga tikilib olib gapirib ketardiki, xuddi kitobdan o'qiyotgandek oho-ri to'kilmagan gaplarni topib, lapar o'qib so'zlardi. Shunday iboralar bilan so'zlardiki, gohida gapiga tu-shunmay, bunday g'alati gaplarni qayerdan topib aytadi, deb hayron qolardik. Foma Grigoryevich bir kun uning bu xil gaplariga kinoya qilib, g'alati bir hikoya so'zlab berdi: bir maktab bolasini dyakon lotincha

gapga shunday usta qilibdiki, bola, hatto o'z tilimizni unutib, nima gapirsa «us» qo'shib so'zlaydigan bo'lipti: kurakni – kurakus, xotinni – xotinus deydig'an bo'lipti. Bir kun otasi bilan dalaga chiqib, bu yerda xaskashni ko'rib, otasidan: «Dada, sizlarning tilingizda buni nima deydi?» – deb so'ramoqchi bo'lib, xaskashning mix tomonini oyog'i bilan bosgan ekan, otasi javob bergunicha ham bo'lmay, xaskashning yog'ochi ko'tarilib, angrayib turgan bolaning peshonasiga tekkan ekan, bola peshonasini ushlaganicha bir gaz nariga qochib: «Ha, bo'lmag'ur xaskash! Oti nima edi, padariga la'nat, yomon tegarkan», – debdi. Ana shunaqa. Xaskashning oti ham boyaqishning esiga kelib qolipti. Bu gaplar hikoyatchiga yoqmadi shekilli, indamay o'rnidan turib, uning o'rtasiga borib turib oldi, keyin boshini andak egib, bir qo'lini mallarang koptonining¹ orqa cho'ntagiga solib, yaltiragan dumaloq tamaki qutisini oldi. Qutichaning ustidagi musulmon podshosining suratiga bir chertib qo'ygach, undan bir xil o't bilan kul aralashtirilgan burnakidan katta bir chimdim olib, hatto boshmaldog'ini ham burniga yetkizmasdan uzoqdan bir tortgandi, burunaki uning bor-yo'g'i burniga kirib ketdi, ammo hanuzgacha hech narsa demadi. Keyin yana bir cho'ntagiga qo'l solib, katakkatak ko'k chit ro'molchasini olgandan keyin eshitilar-eshitilmas g'o'ng'illab masal o'qiganday, «eshak qulog'iga tanbur chalmang», deb qo'ydi. Foma Grigoryevich boshmaldog'ini ikki panjası orasıga olib turganını payqab, ichimda: «janjal boshlanadi», deb qo'ydim. Xayriyatki, kampirim farosat bilan fahmlab dasturxonga darhol issiqliqna moylik oshirma non keltirib qo'ydi. Hammalari ovqat yeyishga tutindi. Foma Grigoryevich haligi vaziyatda ushlab turgan qo'lini mana deb ko'rsatish o'rniغا moylik nonga uzatdi va odaticha bu safar ham kampirning pazandaligini maqtab ketdi.

¹ Kopton – to'n.

Yana bir hikoyatchim bor edi, ammo bunisi shunday qo'rqinchli hikoyatlar aytardiki (bemahalda uni aytish ham chakki-ku), etlarimiz jimirlab ketardi. Shuning uchun uning hikoyatlarini bu kitobimga qo'shmadim. Hammani vahimaga solib, yana baloga qolmay. Xudo urib asalarichini ko'rganda hamma jindan qochganday qochmasin, dedim. Agar Xudo umr berib, kelasi yilgacha o'lmasdan yana bir kitob chop qilib chiqazsam, mana bu kitobda narigi dunyodan qaytib kelganlar bormi, dinimiz quvvat topgan yurtimizda, qadim zamonlarda bo'lib o'tgan ajoyibotlar bormi hikoyat qilib odamlarni bir vahimaga solay. Bu hikoyatlar orasida asalarichining o'z nabiralariga hikoya qilgan latifalari ham chiqib qolar. O'qib tinglasangiz bo'lgani, andak dangasaligim bor, shunisi yomon, bo'lmasa, aytaver-sam, bunday kitobdan o'nta ham bo'ladi.

Sal bo'lmasa gapning kattasi yodimdan chiqadigan ekan. Azizlar, menikiga bormoqchi bo'lsangiz katta yo'l bilan to'ppa-to'g'ri Dikankaga yo'l olavering. Adashmasdan tezroq yetib borishsin, deb bu nomni atayin kitobning boshiga bitib qo'ydim. Dikanka qishlog'ining ta'rifini xo'b eshitgandirsiz! Shuni ham aytayki, undagi uy allaqanday asalarichining poxol kapasidan yaxshi. Bog'ning ta'rifini aytgan bilan ado bo'lmaydi, sizning Peterburgingizda bunday bog' bo'lmasa kerak. Dikankaga kelgach, uchragan kir ko'ylak g'ozboqar boladan «asalarichi Rudip Pankoniki qayerda?» deb so'rasangiz, darrov «ana» deb ko'rsatib beradi, agar xohlasangiz eltib ham qo'yadi. Faqat iltimosim shuki, qo'lingizni orqangizga qilmay judayam gerdymas-dan boring, chunki qishlog'imizning yo'llari sizning borgohlaringizga boradigan yo'llardek tekis emas. Foma Grigoryevich burnog'i yili to'riq baytalini yangi aravasiga qo'shib kelgan ekan, Dikankadan chiqaverishda bir chuqurga ag'anab ketipti, tag'in tizginini o'zi tutib, ko'zi ustiga yana bir ko'z xarid qilib taqib olgan ekan.

Lekin qadam ranjida qilib mehmon bo'lib borsangiz, umringizda totmagan shirin qovunlarni so'yib beraman. Azbaroyi Xudo, hech bir qishloqda topilmaydigan asallar bor. Shunday xushbo'yki, hidi uyni tutib ketadi. Tozaligi ko'z yoshiga yoki qimmatbaho sirg'alarining aqiq toshiga o'xshaydi. Kampir pishirgan pishiriqlarni-ku aslo qo'yavering! Qand-u asal. Yesangiz moyi og'zingizdan oqib ketaveradi. Xotinlarga balliya. Afandilar, nok suvidan na'matak solib qilingan yoki mayiz bilan olxo'ri solingan sharbat ichganmisiz yoki shirguruch yeganingiz bormi? Xudoyo tavba, dunyoda shunday turli mazali ovqatlar bor ekan-da! Lazzat-a - lazzat! Maqtovini aytgan bilan tamom qilib bo'lmaydi. O'tgan yil... iye, menga nima bo'ldi, muncha javrayman. Ish qilib boring, albatta boring, kechikmasdan boring-a. Ziyofatni shunday boplaymizki, duch kelanga maqtaydigan bo'lasiz.

Asalarichi Rudiy Panko

SOROCHI YARMARKASI

I

Zerikdim uyimda oltirib,
Hoy, meni tez olib ketinglar.
Qizlarjon oynashib-kuldirib,
Yigitlar ko'nglini toldirib,
Yurishgan joylarga eltinglar.

Qadimgi afsonadan

Malorossiyaning yoz kunlari qanday go'zal, qanday dilbar! Kun qiyomga kelib poyonsiz ko'm-ko'k dengiz gumbazi go'yo yerni quchmoq bo'lgandek, uning ustiga to'ntarilmish va go'zal mahbubasini og'ushiga olgach, go'yo buning lazzatiga botib rohat uyqusiga tolmish;

issiq haddan oshib, hamma jimigan bu paytda kishi qanday toliqadi! Osmon gumbazida bulutdan asar ham yo‘q. Dalalar jimjit, go‘yo borliq o‘lgan. Faqat baland osmonda to‘rg‘ay sayraydi, xolos. Uning kumushdek jaranglagan ovozi havo narvonidan yugurganicha tushib, yuragida muhabbat o‘ti yongan yer ustiga to‘kilmoqda. Ahyon-ahyonda baliqchi qushlarning chag‘illagan ovozi, sahroda sayroqi bedanalar tovushi eshitilmasa, boshqa tovush chiqmaydi. Bulut bilan o‘pishtgan chinorlar xuddi sayr-u tomoshaga chiqqandek shalpayib xomush turadi. Ko‘z nurini olgudek oftob shu‘lalari barglarga nayzadek qadalib, alvon turli rang ichida tovlantiradi, ba‘zilariga tun qorong‘isidek qora ko‘lanka tashlaydi, bu barglar qattiq shamolda quyoshning zar nurlaridan bahra olmasa boshqa mahalda ololmaydi. Osmonda pirillab uchib yurgan zumrad, zabarjad va yoqut kapalag-u kapalakchalar sarvqad kungaboqlardan chamandek ochilib turgan ekinzor yerkirada yog‘ilmoqda. Dalalarda bosilib qo‘yilgan pichanlar, g‘aram-g‘aram sap-sariq bug‘doylar qator-qator ketayotgan, keti ko‘rinmagan karvonga o‘xshaydi. Gilos, olxo‘ri, olma va noklarning tarqalib ketgan shoxlari mevasining og‘irligidan egilmish. Osmon uning oynadek ravshan yuzi, ko‘m-ko‘k chor-cho‘p ichiga olinib, himmat bilan baland ko‘tarilgan daryodir... Malorossiyaning yozida qancha lazzat, qancha gasht bor!

Bir ming sakkiz yuz... sakkiz yuz ...-inchi yilda issiq avgust oyining ana shunday dilbar, gashtli bir kuni edi... Xullas, bundan o‘ttiz yilcha avval Sorochinets mavzesidan taxminan o‘n chaqirimlik joyda yo‘llar atrofidagi mavze va qishloqlardan yarmarkaga kelayotgan odamlarga to‘lgan edi. Tuz, baliq ortgan aravalar erta sahardan uzun-uzun karvon bo‘lib kelmoqda. Poxolga o‘ralib tog‘-tog‘ qilib aravaga bosilgan mo‘ndi-yu xurmachalar qorong‘ida qamalib qolganiga xafa bo‘lgandek sekin-sekin kelmoqda. Sirlangan mo‘ndichalar, ko‘va-ko‘vachalar xuddi maqtangandek aravaning baland

chetanidan unda-bunda ko'riniib, yaxshi molga mehr qo'yan kishilarning havasini keltiradi. Bu qimmat-baho matoning egasi loydan yasalgan oliftalari bilan serkarashma satanglarini avaylab, ochilib qolganlarini poxolga o'rabi, aravaning ketidan asta-sekin bormoqda. Ko'p yo'lovchilarning baland bo'yli kulolga havasi kelardi.

Qop, kanop, mato va boshqa turli ro'zg'or buyum ortgan ho'kiz arava bir chekkadan, sekin-sekin kelmoqda. Oppoq surp ko'ylak va dog'-dug' tekkan oq surp chalvor kiygan egasi arava orqasidan imillab kelyapti. Chiroylig-u xunukni ayirmasdan, chaqirmaganda ham o'zi kelib necha ming yillardan beri hech kimsani xohlamaganiga qo'ymay, butun odamzodning soch-soqolini oq upaga bo'yab kelayotgan battol sartarosh oppoq qilib qo'yan uzun mo'ylovidan ham, qoraygan yuzidan oqib ketayotgan terini ham xushyoqmaslik bilan zo'rg'a artib qo'yardi. Uning yonida aravaning ketiga bog'langan baytal ham bor. Bechoraning yuvosh-yuvosh borishi qarib qolganidan dalolat berardi. Ko'p kishilar, xususan yosh yigitlar aravasi ketidan borayotgan bu kishiga ro'para kelganda bosh kiyimini olib salom berardi. Ammo bu hurmatning boisi uning mo'ysafidligi yoki savlat bilan yurishi emas. Boshingizni andak yuqori ko'tarib qarasangiz, buning asl boisi nima ekanini darhol ko'rasiz. Aravada bo'tadek ko'zlari o'tkir yonib turgan, qora qoshlari yoydek qayrilib tushgan, qizil gul g'unchasidek lablari tabassum qilib turgan, sochini qizil va ko'k tasmalar bilan bog'lagan dumaloqqina ko'hlik qizi o'tripti. Boshidagi tasmalari, uzun sochlariiga taqilgan chechak gullar chiroyli boshining husniga husn qo'shib turitti. Uni har bir narsa mashg'ul qilganday, har narsa qiziqtirganday, ajoyibday ko'rinaridi. Shahlo ko'zlari har tarafga qarab o'ynardi. Nega o'ynamasin. Yarmarkaga kelgani shu! O'n sakkiz yoshti qiz yarmarkaga endi birinchi kelishi!.. Lekin yarmarkaga boraman deb otasiga qancha yalinib-yolvorganini yo'lovchilardan hech kim

bilmaydi. Otasi qizini avval ham yarmarkaga olib bor-gisi kelardi-yu, ammo uzoq xizmati badaliga endi bu-gun bozorga loyiq ko'rilgan baytalni otasi o'ziga qanday rom qilib olgan bo'lsa, uning o'zini ham shunday rom qilib olgan xotini hech qo'ymas edi. Chakagi tinmagan xotin... Ey, esimizdan chiqibdi. Egnida ko'k ko'yak, ola bayroqli yo'l-yo'l yubka, boshida gul dor chit qalpoqcha kiygan onasi aravaning ustida o'tirardi. Ko'ylagiga xuddi qunduzga tikilgandek, qizil parchalar ulangan, boshidagi qalpoqchasi uning to'ladan kelgan qip-qizil yuzini allanechuk salobatli qilib ko'rsatardi. Uning yu-zida qandaydir bir sovuqlik, qandaydir yoqimsizlik bor. Shuning uchun ham kimningki ko'zi unga tushsa, dar-hol nigohini undan uzib, kulib turgan qizning chiroyli chehrasiga qadardi.

Yo'lovchilarning ko'ziga yiroqdan Psel¹ ko'rina boshladi. Uzoqdan shabada turib, salqin ham tushib qoldi. Qattiq issiqning shiddatidan keyin shabadaning ta'siri darrov bilina qoldi. O'lanzor ichida chalakam-chatti o'sib yotgan oq terak, mirzaterak va qora tollar-ning ko'm-ko'k va yashil yaproqlari orasidan sovuq ichida yiltirab turgan o't uchqunlari ko'rindi. Nozanin daryo kumushdek ko'kragini ochmish, daraxtlarning parishon yashil kokillari uning oq badaniga yoyilib tushmish. Zar kokillari jingalak bo'lib oydek yuziga, nozik kaftlariga, marmardek oq bo'yniga yoyilib tush-gan sitamgar bir tannoz noz-karashma bilan oynaga boqqanda yuz jilva qilib, zar-zevarlarni birini tashlab, birini olganda nechuk itob-u istig'no ko'rsatsa, bu daryo ham sho'xlik bilan har yili o'zga bir soy paydo qilar, oqar yo'lini o'zgartirar, yangi joylardan o'tar edi. Qator-qator tegirmonlarning og'ir parragi suvni mav-jantirib, tolqon qilib har tarafga sachratar, sochar, to'polon ko'tarar edi. Biz bilgan odamlar tushgan ara-va bu choqda ko'prik boshiga kirdi. Daryo ham butun

¹ P sel – joy nomi. (Tajr.)

hashamat-u savlati bilan ular ko'z o'ngida azamat bir oynadek ochildi. Osmon, ko'm-ko'k yashil daraxtlar, borayotgan odamlar, ko'za-yu mundi ortgan aravalalar, atrofdagi tegirmonlar teskari bo'lib to'ntarilgancha lojuvard suvning tagiga tushmay, muallaq osilib qoldi. Aravadagi nozanin kela-kelguncha tinmay chaqib kelayotgan pistasini ham unutib, atrof manzarasiga mahliyo bo'lib qoldi. Qizning xayoli qochib turgan paytda birovning: «Qandingni ur, qizcha!» degan xushomadi qulooqqa chalindi. Qayrilib qaragach, ko'prik ustida to'planib turgan bir necha o'spirin yigitlarga ko'zi tushdi. Kiyim-boshi boshqalarnikidan oliftaroq bo'lib, ustiga oq to'n, boshiga ko'k barradan qalpoq kiygan bir bo'z yigit kerilib, belini ushlagancha odamlarga qarab turardi. Yigitning oftobda qoraygan, lekin yoqimtoy chehrasi, go'yo parivashni u yon-bu yonidan teshguday bo'layotgan, charaqlagan ko'zlari go'zal qizning nazarini jalb etmay qolmadi. Xushomad qilgan odam shu kishimikin degan xayol ko'nglidan o'tishi bilan qiz ko'zlarini yumib oldi. Oq to'nli yigit ko'zini qizdan olmay yana xushomad qilib:

– Qandingni ur! – deb qo'ydi. – Agar bir o'ptirsa, topgan-tutganimning hammasini berardim. Oldida anavi ajina o'tiripti-da!

Hamma xaxolab kulib yubordi. Lekin shoshmasdan asta-sekin ketayotgan arning yasangan xotiniga yigting bu xushomadi uncha xush kelmadi shekilli, qizil yuzlaridan olov chiqib, birtalay tutilmagan qarg'ishlar sho'x yigitning ustiga yomg'irday yog'ildi:

– Afting qursin, kemakash, iloyim tiqilib o'lgin! Otangning boshida xurmacha sinsin! La'natি dajjol, otang muzdan toyib yiqilsin! U dunyoda otangning soqoliga shayton o't qo'ysin!

Yigit to'satdan bunday qarg'ishlarni eshitib hayron qolgandek:

– Qarg'ishini qara-ya. Jodugarga o'xshab, tili og'rimasdan javraydi-ya! – deb qo'ydi.

Yoshi o'tinqirab qolgan barno juvon yigitning gapini ilib ketdi:

– Jodugar-a!.. Ta'viya, avval basharangni yuvib olsang-chi! Juvonmarg shum! Onangni-ku ko'rganim yo'q, onang ham, otang ham o'zingdan battar, amma-xolang ham ta'viyasi chiqqan taraqqosdir! Jodugar deydi-ya, onasining suti og'zidan ketgani yo'q-ku...

Bu paytda arava ko'prikan o'tib, xotinning nima deyayotgani eshitilmadi, lekin yigit mojaroni bu bilan tamom qilgisi kelmadi shekilli, hash-pash deguncha bir dumaloq loy olib otdi. Loy ham mo'ljallangandek xotinning naq boshiga borib tegdi. Yangi o'ragan chit durrachasi loyga belanib, sho'x bo'z yigitlar esa qat-tiqroq xaxolab kulib yuborishdi. Savlatli satangning joni chiqquday bo'ldi, ammo bu orada arava ancha nariga ketib qolgach, u hamma alamini bechora o'gay qizi va bu xil mojarolarga avvaldan ko'nikib qolganidan g'azabnok xotinning fasod gaplariga parvo qilmay, indamay ketayotgan eridan oldi. Bovujud xotinning charchamagan tili tinmasdan, shaharga yaqin joyda turuvchi bir chekkasi qarindosh – eski tanishlari kazak Sibulanikiga yetguncha javrab bordi. Ko'pdan beri ko'rishmagan qavm-qarindoshlarini ko'rgach, yo'ldagi noxush mojaro birpas eslaridan chiqib, yarmarka xususida gaplashib ketishdi va uzoq yo'l yurib charhashgan ekan, bir oz dam olishdi.

II

Yo Ollo, yarmarkada yo'q narsa bormi!

Do'ngalak deysanmi, oyna deysanmi,

qoramoy, tamaki, qayish, piyoz dey-sanmi, hamma narsa bor, birov

olgan, birov sotgan... kissangda o'ttiz

so'ming bo'lsa ham hamma yarmarkani

sotib ololmaysanmi!

Uzoqdagi sharsharaning ovozini eshitganingiz bordan. Suvning sharillagan, gurillagan ovozi olamni bosib, allaqanday noma'lum to'polon nag'malar qulog'ingiz atrofida girdobdek gur-gur aylanadi. Qishloq bozoridagi yarmarkaga borganda ham o'zingizni xuddi shunday his etasizmi? Bozor o'rtasi, yo'llari odamga to'lib, hamma bir-biriga yopishib, xuddi vahimali katta bir maxluqdek g'ivir-g'ivir qiladi, xolos. Shovqin-suron, hoy-huy olamni bosadi. Baqirgan-chaqirgan, birovni birov so'kkan, mollar ma'rashgan, to's-to'polon, g'ovurg'uvur. Bir yoqda ho'kizlar, bir yoqda qop-qop yulkar, poxol-pichanlar, lo'lilar, mo'ndi-yu mo'ndichalar, xotin-xalaj, shirin kulchalar, boshlardagi telpag-u qalpoqlar hammasi rang-barang bo'lib, to'polon bilan hali u yoqqa, hali bu yoqqa g'uv-g'uv yuguradi, ko'zingizni qamashtiradi. Shovqindan biror gapni anglab bo'lmaydi. Shunday bir to'fonki, hech bir so'z bu to'fon girdobidan qutilib chiqib ketolmaydi. Hech bir gapni aniq eshitib bo'lmaydi. Yarmarkaning har tarafidan yakkash qiyishib, savdolashayotganlarning bor barakasi eshitiladi, xolos. Bir yoqda arava singan, bir yoqda temir dang'illagan, yerga tashlangan taxtalar taqillagan. Odamning boshi aylanib, qayoqqa qarashini bilmay qoladi. Haligi qishloqimiz ham allaqachon qora qosh qizi bilan to'polon ichida turtinib-surtinib yuribdi. Hali bu, hali u aravaning oldiga borardi, unisini-bunisini ushlab ko'rardi, narx-navoni surishtirardi, lekin o'y-xayoli bozorga keltirgan o'n qop bug'doyi bilan qarib qolgan baytalida edi. Qizning avzoyidan, un ortgan, bug'doy ortgan aravalalar orasida tentirab yurish unga uncha xush kelmaganga o'xshardi. Chiroyli qizil uqalarni, isirg'alarni, qo'lom, mis butlarni, tanga-jivaklarni yoyib o'tirgan do'kondorlar tarafiga borsaydim, derdi. Ammo qizga bunda ham tomosha ko'p topildi, bir lo'li bilan mardikor baraka qilaverib qo'llari og'rigandan voy-voylasalar ham zo'r berib qiyishib turganlarini, bir mast juhud bir xotindan musht yeb g'urra orttirganini,

urishib qolgan ikki bozorchi xotin qarg'ashib bir-biriga qisqichbaqa otganini, bir moskal¹ bir qo'lil bilan echki soqolini silab, bir qo'lil bilan... ko'rib, toza kuldii. Bir mahal birov ko'ylagining gul tikilgan yengidan ushlab tortdi. Qayrilib qarasa, haligi oq to'n kiygan o'spirinchay ko'zlarini javdiratib uning oldida turipti. Tomir-tomiri jimirlab, yuragi shunday orziqib ketdiki, har qanday suyunganda ham, xafa bo'lganda ham hech-hech mahal yuragi bunday o'ynagan emasdi. Bir yoqdan suyunsa, bir yoqdan g'alati bir hol ro'y berib ajablanar, nima bo'lganini o'zi ham bilmasdan hayron edi.

Yigit uning qo'lidan ushlab, astagina:

- Jonim, qo'rhma, qo'rhma! Yomon gap aytmayman!
- dedi.

Barno qizning ko'nglidan, yomon gap aytmayman degani rost bolsa rostdir, ammo o'zimga o'zim hayronman... Ayyor ekan. Bunday turmoq uyat ekanini bilaman-u, lekin qo'limni tortib olishga majolim yo'q, degan gaplar o'tdi.

Otasi qiziga qarab bir narsa demoqchi bo'lib turganda, bir yoqdan «bug'doy» degan gapni eshitib qoldi. Afsuni zo'r bu so'zning sehri shu ondayoq uni shang'illashib gaplashib turgan ikki savdogar yoniga tortdi. Shunday angrayib qoldiki, endi hech narsa uni bundan chalg'itolmas edi.

III

Ko'rdingmi, bo'z yigit! Razm sol bundoq,

Undaylar dunyoda juda ham ozroq.

Bo'zadek ichadi may-u aroq.

Kotlyarevskiy - «Eneyida»²

¹ Moskal – rus demakdir.

² Kotlyarevskiy – Ukrainianing mashhur yozuvchisi (1769-yilda tug'i-lib, 1838-yilda o'lgan). Yozuvchining «Eneyida» degan muhim asari, qadimgi Rim shoiri Vergiliyning shu nomdag'i asariga taqlidan Ukrainianing XIII asrdagi

Aftidan bu yerning odami bo'lmay shu atrofdagi biron ta mavzedan kelgan kishiga o'xshagan, olacha shalvari chirk tegib, dog'-dog' bo'lib qolgan bir odam yonidagi yamog'lik to'n kiygan, peshonasi g'urra bir odamga qarab:

– Hamshahar, bug'doyimiz o'tmaydi deb o'ylaysanmi? – dedi.

– O'ylasam, o'ylamasam shu. Agar bir qadoq sotsak ana shu terakka mayram kuni shipda osig'liq turgan kolbasadek osib qo'ysang ham mayli.

– Hamshahar, kimni laqillatmoqchisan? Bozorga biznikidan boshqa bug'doy kelgani yo'q-ku! – deb e'tiroz bildirdi olachadan shalvar kiygan, bizga oshna bo'lmish odam.

Bu ikki o'jarning gapiga astoydil qulq solib turgan bizga oshna bo'lmish boyagi odam: «ko'nglingizga kelganini gapiravering. Gapiring. O'n qop donni taxlab qo'yibman», – deb o'yładi o'zicha.

Peshonasi g'urra odam ilmoqdor qilib:

– Ana shunday jin aralashdimi, bo'ldi. Ochdan qancha hayon bo'lsa, bundan ham shuncha hayon, – deb qo'ydi.

Oalachadan chalvor kiygan sherigi darrov:

– Jining nimasi, – dedi.

Peshonasi g'urra:

– Odamlarning gapini eshitmadingmi? – dedi xo'mraygan ko'zlarini alanglatib.

– Xo'sh!

– Xo'sh, deganini qara buning! Boyning olcha shartabi labiga tegmagur yarmarkaga shunday jin tekkan joyni beribdiki, bunda o'sang bitta don sotlmaysan. Hov anavi tepalik yonidagi xarob og'ilxonani ko'rdingmi? (Barno qizning gapiga qulq solib turgan otasi shu paytda yana yaqinroq keldi, uning butun a'zoyi-badani qulq bo'lib ketganga o'xshardi.) Ana shu xarob

og'ilxonada jinlar o'yin qilar ekan. Bu yerda hech bir yarmarka biror falokatsiz omon-eson o'tmagan. Kecha mahkamaning mirzasi bemahal bu yerdan o'tib qolgan ekan, tomoning tuynugidan bir to'ng'iz tumshug'ini chiqarib xo'rillasa, badani jimirlashib ketipti. Yana qizil chakmon¹ chiqmasa deyman!

– Qizil chakmoning nimasi?

Hamma gapni diqqat bilan eshitib turgan boyagi oshnamizning tepe sochi tikka bo'lib orqasiga qayrilib qarasa, qizi bilan haligi yigit butun dunyoni tark qilib quchoqlashib, ishq-muhabbatdan bir-biriga afsona aytib turipti. Bu holni ko'rib vahimasi tarqab, yana eski beparvoligiga qaytdi.

– E-ha! Hamshahar, quchoqlashning juda mashqini olganga o'xshaysan. Men marhuma Xveskani olganimda, to'rt kungacha quchoqlashni bilmagan edim, kuyovnavkar bo'lgan bir oshnam o'rgatib qo'ymasa, sira bilmas edim.

Qizning otasi soddaroq odamligini yigit darhol pay-qadi, uni qanday qilib o'z tomoniga og'dirib olish fikriga tushdi.

– Yaxshi kishi, sen meni tanimasang kerak, lekin men seni darhol tanidim.

– Tanigan bo'sang tanigandirsan.

– Agar xohlassang nomingni, laqabingni ham, hammasini aytib beraman. Isming Solopiy Cherevik.

– To'g'ri, Solopiy Cherevik.

– Yaxshilab qara-chi, meni tanidingmi?

– Yo'q, tanimadim. Jahling chiqmasin, umrimda har xil odamlarni juda ko'p ko'rganman, qaysi biri esimda qolsin.

– Golopupenkoning o'g'lini esingdan chiqarib qo'yganiningni qara-ya!

– Oxrimning bolasimisan?

– Bo'lmasam-chi? Undan boshqa kal yo'qmi?

¹ Shayton ma'nosida.

Bu gapdan keyin ikki oshna bosh kiyimlarini qo'lg'a olib so'rasha ketdi, bir-birini o'pdi. Golopupenkonning bolasi fursatni g'animat bilib, darhol yangi oshnasini qo'lg'a olish payiga tushdi.

– Endi-chi, Solopiy, menga qara, qizing bilan men bir-birimizga xushtor bo'ldik, o'la-olguncha bir-birimizdan ajralmaydigan bo'ldik.

Cherevik qiziga qarab kulib:

– Nima deysan, Paraska, maylimi, qo'shilib birga... bu o'tloqda o'tlaysizmi? Maylimi? Qo'l olishaveraymi? Qani, yangi kuyov, ber beradiganingni.

Bir mahal uchovlari yarmarkaning mashhur bir restoraniga kirib keldi. Bir juhud xotin allaqancha katta-kichik har xil shishalarni qator qilib qo'yipti.

Cherevik andak shirakayf bo'lgandan keyin, kuyovlikka atalmish yigitning katta qadahini to'ldirib, yuzini aslo burishtirmasdan bir shimirganda top-toza ichib, qadahini yerga urib chil-chil qilganini ko'rgach:

– Barakalla, qoyilman! Paraska nima deysan? Xo'b kuyov topdimmi senga! Qara-ya, araqni shimirishini qara-ya... – dedi.

Keyin xushvaqt bo'lib qizi bilan birga gandiraklab arava tepasiga keldi. Yigit bo'lsa mis qoplagan ser sham belanchak, so'ngra qaynota-qaynona va boshqa xesh-aqrabolarga sovg'a-salom olish uchun, hatto Poltava guberniyasidagi eng katta shaharlardan bo'lgan Gadyach va Mirgoroddan kelgan savdogarlar do'kon ochgan matofurushlar rastasiga qarab ketdi.

IV

Balki xotin gar kirmsa,

Erning izmiga,

Erdan lozim bo'yun sunmoq

Xotin so'ziga.

– Xotin, nima deysan? Qizingga kuyov topdim.

– Hozir xo'b kuyov qidiradigan vaqt-da, tentak, devona! O'la-o'lguncha shu ko'yda o'tadiganga o'xshaysiz. Yaxshi odam shu tobda kuyov qidirganini qayerda ko'rdingiz, qayerda eshitdingiz? Bug'doyni pullashni o'ylasangiz-chi, topgan kuyovingiz ham qashshoqning qashshog'i, bir yalangoyoqdir-da.

– Nima deyapsan, shundoq bir bo'z yigitki, ko'rsang havasing keladi. Kiygan chakmonining o'zi ko'k ko'ylaging bilan qizil etitingdan qimmat turadi. Araq ichishini ko'rsang... Bir o'spirin bolaning yarim shisha araqni bir ko'targanda ichganini umrimda ko'rgan bo'lsam meni ham, seni ham ajina chalsin.

– Yaxshi bo'pti. Araqxo'r, sayoq bo'lsa, o'zingizning nusxangizdan ekan. Garov bog'lashamanki, shu yigit ko'prikda bizga tegishgan shum bolaning xuddi o'zi; qo'limga tushmayapti-da, tushsa-ku adabini berardim.

– Xo'sh, xotin, agar o'shaning o'zi bo'lsa nima qilipti, nega shum bo'ladi?

– Ana! Nega shum, deydilar-a! Ey, esi past odam! Nega shum, deysiz-a! Tegirmon oldidan o'tib kelayotganimizda, tentaknikiga o'xshagan shu ko'zingiz qayerda edi. Tamakiga belangan tumshug'ingizning tagginasida birov xotiningizni haqorat qilsa ham ishingiz yo'q.

– Xo'b, mayli shunday ham deylik, lekin nega endi shum deysan. Maqtasa maqtaguday yigit. Basharanga ozroq shaltoq surtganini etmasa, boshqa shumligi yo'q.

– Obbo! Gapirgani ham qo'ymaydiganga o'xshaysiz-ku! Axir, maylimi? O'zingiz bo'lsangiz nima qilardin-giz? Bir narsa sotganingiz ma'lum emas-ku, allaqachon ichib olganga o'xshaysiz...

Juda haddidan oshib ketganini Cherevikning o'zi ham fahmladi shekilli, g'azabga kelgan hamxobi darhol tirnoqlari bilan soch-soqoliga yopishishini pay-qab, darrov ikki qo'li bilan yuz-ko'zini bekitib oldi.

O'dag'aylab kelayotgan xotinidan o'zini olib qocharkan: «Ana xolos, to'yim chiqdi. Tappa-tuzuk odam bo'lsa, endi unga qanday qilib, yo'q bo'lmasdi deyman. Xudo-yim, qaysi gunohimiz uchun biz bechoralarni shuncha azobga qo'yding. Dunyoda yomonlar kammidi, yana xotin degan mahluqni yaratibsan», – deya ko'nglidan o'tkazardi sho'rlik.

V

Chinorginam shoxing egma,
Hali ko'ksan, quvvating bor.
Kazak yigit alam chekma,
Hali yoshsan, sensan shunqor.

Maloros qo'shig'i

Oq chakmonlik yigit aravasi yonida o'tirib, odamlarning shovqin-suroniga ag'rayib, qarab turardi. Asta-sekin tobish urib, tushni o'tkazgan, qiyom-dan oshgan, toliqqan oftob xuddi kishini o'ziga jalb qilib, ko'zni qamashtiradigan darajada qizarganidek, tobish urib botardi. Oq chodirlar bilan oq kapalarning tepalari o'tdek shu'la urib, allaqanday qizg'ish tovlanardi. Yerda uyulib yotgan derazalarning oynasi chirog'dek yonardi. Araqfurush ayollarning stollarida terib qo'yilgan ko'k shishalar, ko'k qadahlar cho'g' bo'lib yondi, tog'-tog' uyulib yotgan qovun-tarvuzlar, oshqovoqlar go'yo oltin bilan jezdan quylanga o'xshardi. G'ovur-g'uvur kamayib, bozorchi xotin va erkaklar bilan lo'lilarning tillari charchab, gapga kelmay qoldi. Bir yoqda chirog' yonib, jimigan ko'chalarni oshning hidi tutdi.

Qoradan kelgan baland bo'yli lo'li yigitning yelkasiga qoqib:

– Nimaga xafa bo'lib o'tiribsan, Gritsko? Ho'kizingni berasanmi yigirmaga, nima deysan, – dedi.

- Sening darding ho'kizda. Sizlar shunday toifa ekansizki, foyda bo'lsa bas. Sodda odamni ko'rsangiz darrov aldasam deysiz.

- Badbaxt! Hazilakam jin urmaganga o'xshaydi seni. O'zingga o'zing balo orttirganingga pushaymonmisan?

- Yo'q, mendan emas. Men-ku lafzimda turaman. Bir ishni boshladimmi, sira qaytmayman. Lekin chol Cherevikning sariq chaqalik uyati yo'q ekan. So'zidan qaytib orqasiga... o'tiribdi. To'g'risini aytganda undan gina qilib bo'lmaydi-ya, u nima-yu yotgan to'nka nima! Hammani qilayotgan anavi ajuza. Bugun ko'priq boshida bolalar bilan uni xo'b masxara qilgan edik. Qani endi podshoh bo'sam yoki davlatim bo'lsa-yu, bu xil nomard hezalaklarning hammasini dorga ossam...

- Agar Cherevikni ko'ndirib Paraskani olib bersak, ho'kizlarni yigirmaga berasanmi?

Gritsko hayron bo'lib unga qarab qo'ydi. Lo'lining qora chehrasida qandaydir badjahllik, zahar-zaqqum, simyonlik, pastlik alomatlari bilan birga mag'rurlik alomati ham bor edi: uning betiga bir karra qaragan odam darhol bu odamda shunday katta fazilatlar borki, bu fazilatlarning mukofoti olamda bitta, u ham bo'lsa dordir, derdi. Cho'zinchoq engagi bilan burnining o'rtasi o'pirilib ketganday og'zi kemshik, labidan zaharxanda hech ketmaydi, ko'zlari kichik-ku, lekin o'tdek yonib turadi. Yuzi har damda bir o'zgarib necha xil o'y va hayollar alomatini ko'rsatardi. Xuddi men-ga munosibi shu degandek, egnidagi g'alati kiyimlari ham bu xislatlariga juda monand edi. Qo'l tegsa to'zib ketadigandek, to'q jigarrang chakmoni patila-patila bo'lib ikki yelkasiga tushib turgan uzun qora sochlari, qop-qora oyog'iga shilling pocha kiygan boshmoq, hammasi o'ziga juda munosib bo'lib asl zoti kimligini ko'rsatib turardi.

- Agar aldamasang yigirma emas, o'n beshga ham beraman, - dedi yigit, betiga tikilib turib.

- O'n beshga-ya? Xo'p! Lekin esingdan chiqmasin o'n beshga deding! Manavi ko'k qog'oz¹ senga zakolat!
- Agar aldasang-chi?
- Aldasam zakolat seniki!
- Xo'p, qo'lingni ber!
- Ber!

VI

Sho'rim qursin, Roman kelib qoldi,
ichak-chavog'imni ag'daradi endi, sizni
ham, taqsir, sira sog' qo'y maydi.

Maloroscha komediyadan

– Bu yoqqa keling, Afanasiy Ivanovich! Mana bunda devor pastroq, oyog'ingizni ko'taring, muncha qo'rqa siz. Devonam moskallar tag'in bir narsani ko'tarmasinlar, deb og'aynisi bilan aravani poylab yotgani chiqib ketdi.

Cherevikning rafiqasi devor tagida qo'rqa pisib turgan pop o'g'liga shu qabildagi so'zlar bilan dalda berib chaqirardi. U darrov sakrab devorga minib oldi-yu, lekin qayerga tushishini bilmay, haybatli alvastiga o'xshab, terakdek tippa-tik turardi; bir mahal kakra o't ichiga gumburlab yiqlib tushdi.

Xavronya Nikiforovna bo'lsa achingandek:

– Sho'rim qursin. Hech yeringiz mayib bo'lma dimi, Xudo panohida saqlasin-ku, ishqilib bo'yningiz sin-madimi? – deb shivirlar edi.

– Jim turing! Hech narsa bolgani yo'q, marhamatli Xavroniya Nikiforovna! – dedi zo'rg'a pop bolas-i o'rnidan inqillab turarkan. – Marhum hazratning qavlicha aytganda ilondek zaharli bo'lgan bu alafning chaqqani bo'lmasa, boshqa hech ziyan yetmadi.

– Bo'lmasa yuring, uyga kiraylik, hech kim yo'q. Afanasiy Ivanovich, sizga aytsam, qorin-porningizga

¹ Ko'k qog'oz – rangi ko'k besh so'mlik qog'oz pul.

yoki biron yeringizga xala tegib og'rib qoldingizmi, deb o'yladim. Dom-daraksiz ketdingiz. Omon-esonmisiz? Janob, otangizga go'r yerdan anchagina tushibdi deb eshitdim!

– Xavronya Nikiforovna, hammasi behuda gap. Bizingning padarga ro'zaning boshidan buyon tushgan narsa atigi o'n besh qopcha bahori bug'doy, to'rt qopcha qo'noq, yuztacha kulcha, tovuq bo'lsa elliktaga ham yetmaydi, tuxum bo'lsa ko'pi palag'da. Endi rostini aytsam, lazzat iltifot siz tomondan bo'lar, degan umidim bor! – derdi pop bolasi unga yaqinroq surilib.

U dasturxonga idishlarni qo'yarkan, xuddi o'zi jo'rttaga yechib qo'ymagandek uyalgan bo'lib, qiy panglab ko'ylagini tugmasini o'tkazayotib:

– Afanasiy Ivanovich, sizga atagan tortig'im chuchvara, yog'li kulcha, bo'g'irsoq-da! – dedi.

Pop bolasi bir qo'lini bo'g'irsoqqa uzatib, bir qo'l bilan chuchvarani oldiga tortib turib, maqtab ketdi:

– Azbaroyi Xudo, garov bog'laymanki, bu ovqatlarni Momo Havo jinsidan bo'lganlarning pazandasidan pazandasini pishirmagan bo'lsa. Lekin Xavronya Nikiforovna, ko'nglim sizdan bu ovqatlarning jamidan mazaliroq boshqa bir lazzatli ovqat tilaydi.

– Voy, Afanasiy Ivanovich, ko'nglingiz yana qanday taomlar tusashini men qaydan bilay! – dedi zabardast nozanin, o'zini tushunmaganga solib.

Pop bolasi bir qo'lini chuchvaraga uzatarkan, bir qo'l bilan xotinning yo'g'on belidan quchoqlab turib:

– Qanday taom bo'lardi, albatta, siz nodirai zamonning muhabbattingizni xohlayman-da! – dedi shivirlab.

Xavronya Nikiforovna sharmi kelganday ko'zlarini suzib:

– Qo'ying, Afanasiy Ivanovich, Xudo xohlasa, hali ko'p nag'malar chiqaradiganga o'xshaysiz. Hali o'paman deb qolmasangiz go'rgaydi! – dedi.

– Bu borada sizga o'z boshimdan o'tgan bir voqeani aytib bersam ham bo'ladi. Bursada o'qib yurgan vaqt-

larimda bo'lsa kerak, bir zamonlarda, hozir ham xuddi ko'z oldimda turgandek, esimda ... – deb gap boshlashi bilan hovlida it vovillab, eshik taqilladi. Xavronya Nikiforovna yugurib chiqdi-yu, rangi o'chib darrov qaytib keldi.

– Voy, Afanasiy Ivanovich, ikkovimiz ham sharmanda bo'ldik. Bir gala odam eshikni taqillatib kelibdi, qo'shning tovushiga o'xshaydi...

Chuchvara popvachchaning bo'g'zida qoldi... Xuddi narigi dunyodan birov kelib uni qo'rqtib ketgandek ko'zlar kosasidan chiqib ketdi.

Quti uchib ketgan Xavronya Nikiforovna shundoq-qina shipda ikki yog'ochga taxta mindirib, go'r-yerlar saranjomlab qo'yiladigan so'richani ko'rsatib:

– Bu yoqqa chiqing, bu yoqqa, – deb baqirardi.

Xatar qahramonimizni g'ayratga mindirdi. Birozdan keyin esi o'ziga kelib, avval yerdagi so'richaga chiqdi, so'ngra sekingina shipdagi so'riga chiqib oldi; Xavronya Nikiforovna es-hushini yo'qotib, yugurgancha darvozaxonaga ketdi, chunki darvozaning taqillashi had-dan oshgan edi.

VII

Ajoyibotlar bunda-ku,
marhamatli afandim.

Maloroscha komediyan.

Yarmarkada ajab g'alati bir voqeа bo'ldi; qayerdanadir, mollar orasida «qizil chakmon ko'rini bdi», – degan ovoz yoyildi. Teshikkulcha sotib yurgan bir kampirning ko'ziga bahaybat to'ng'iz suratiga kirgan shayton ko'rini bdi. Bir narsa qidirgandek aravalarni oralab yurgan emish. Bu gap darrov to'poloni bosilib tinchigan bozorning har tarafiga yoyildi. Araqfurush xotinning bir yonida aravachadan do'kon qilib o'tirgan boyagi kampir kechgacha bekordan bekorga hamma bilan

so'rashib yurgan va oyog'i bilan yerga teshikkulchalar-
ga o'xshagan chiziq chizib yurgan bo'sa ham, boyagi
so'zlarga ishonmaslikni har kim gunohi azimligini bi-
lardi. Buning ustiga viloyat mirzasiga xarob og'ilxonada
ko'ringan ajina to'g'risidagi vahimalar qo'shilib, ham-
ma vahimaga tushdi, shunday vahima bosdiki, kechga
yaqin odamlar bir-birining pinjiga tiqildi. Hammaning
tinchligi buzilib, vahima hech kimni uxlatmadi. Yurak-
siz, uylarida xilvatxonalari ham bo'lgan bir nechalar
tezroq uylariga jo'nab qoldi. Cherevik bilan yonidagi
qadrdoni va qizi ham shu qabila odamlaridan edi, yana
bir necha o'zlariga o'xshaganlar bilan birga eshikni
taqillatib Xavronya Nikiforovna bechorani taka-puka
qilgan shular edi. Oshnasi andak tortib olganligidan
bo'sa kerak, uyni topolmasdan aravasi bilan hovlini
ikki-uch bor aylanib chiqdi. Boshqa mehmonlar ham
shirakayf bo'lganliklaridan mezbondan avval uyga kirib
yotaverdi. Mehmonlar uyning har yerini kavlashti-
rishga tutinganida, Cherevikning rafiqasi o'tirishga joy
topolmay tipirchilab qoldi.

Eshikdan kirib kelgan qadrdoni:

- Egachi nima qildi, hali ham bezgak qaltiratyaptimi, - dedi, baqirib.
- Ha, tobim yo'qroq, - dedi Xavronya Nikiforovna shipdag'i so'riga alanglab.
- Qani xotin, aravadagi bochkachani olib kel-chi, - dedi qadrdoni birga kelgan xotiniga qarab. - Yaxshilar bilan birga o'tirib ichaylik, la'natি xotinlar shunday qo'rqitib yuborishdiki, odam birovga aytgani ham uyaladi, - keyin qadahdan bir qultum araq xo'plarkan: - og'aynilar, azbaroyi Xudo, bekorga qochib keldik-a! Nomard xotinlar bizlarni laqillatmagan bo'salar boshimdagi yangi bosh kiyimimni tikaman. Bordi-yu, jin rost bo'sin. Xo'sh, jin bo'sa nima qiladi? Basharasiga tupur. Agar shu paytda xuddi ro'paramga kelib qarab tursa ham, mushtumimni tumshug'iga ishqamasam itvachcha bo'lay!

Mehmonlar ichidan o'zini doim mard olib maqtanib yurgan eng novchasi shovqinlab:

- Nega birdaniga ranging bo'zarib ketdi? – dedi.
- Menmi?.. Xudo saqlasin, tush ko'rdingizmi?

Mehmonlar iljayib qo'yishdi. Novcha botirning yuzida xursandlik ko'rindi.

– Endi rang ham o'chmaydi, yuzlari lolaqizg'aldoqdek ochilib ketdi. Endi piyoz emas, lavlagi yoki hammani vahimaga solgan «qizil chakmon», – dedi yana birovi.

Bochkacha stoldan dumalab ketib, mehmonlar ning ko'ngli yana ochildi. Qizil chakmon sira xayolidan ketmay, uning nima ekanini bilgisi kelib, hech tinchiyolmasdan o'tirgan Cherevik qadrdonidan hadeb so'rayverdi.

– Sadag'ang ketay! Kimdan so'ramay, hech kim tuzuk javob bermaydi, axir bu qurib ketgur qizil chakmon deganinglar nimasi?

– E, og'a, buni kechasi-ku aytib bo'lmaydi-ya, ammo seni va bundagi yaxshilarni qiyolmaganimdan so'zlab bersam, beray (buni deb mehmonlarga qarab qo'ydi), bu voqeani bilmoqqa senga o'xshab ularning ham ishtiyoqi balandga o'xshaydi. Aytsam, aytay, quloq solinglar!

Yelkasini qashib, etagi bilan betini artib olgandan keyin ikki qol'ini xontaxtaga tashlab gap boshladi:

– Bir kuni, qaysi gunohi jazosiga, azbaroyi Xudo, men ham bilmayman, nimayam bo'lipti-yu, bir shaytonni do'zaxdan quvlab yuboripti.

– Qanday qilib shaytonni do'zaxdan quvlaydilar, qizig'-a! – dedi Cherevik, uning so'zini bo'lib.

– Qanday qilib bolardi, itning egasi quvlab yuborgandek uni ham quvlab yuboribdi-da, nimasini so'raysan. Jini kelib biron ta savob ish qilib qo'ygan bolsa, eshikni ochib yo'l ko'rsatib qo'ygandir-da. Qo'ying-chi, shayton do'zaxni sog'inib, juda xafa bo'lib jonidan to'yihti. Keyin hech iloj topolmay, ichkilikka ruju qilib ketipti. O'zing ko'rgan tepe tagida-

gi vayrona og'ilni joy qilib olipti. Endi u yerdan hech kim cho'qinmasdan o'tolmaydi. Shunday qilib, shayton ichkilikka shunaqangi o'rganib ketiptiki, bizning yigitlarimiz ichida unaqasini topib bo'lmaydi. Ertadan kechgacha araqxonadan chiqmas ekan!

Idrokli Cherevik bu o'rinda gapni yana bo'ldi:

– Qayoqdagi yo'q gaplarni gapirasan, og'a! Shaytonni araqxonaga kim kirgizadi? Axir, Xudoga shukur, uning panjalarida uzun tirnoqlari, boshida shoxi bor-ku!

– Boshida qalpog'i, qo'l-oyog'ida paypoqlari bor ekan-da. Kim tanisin, xo'b yallo qilib yurgandan keyin, aloha bor-yo'g'idan ajrab, hech narsasi qolmapti. Araqfurush avval nasiyaga bersa ham, keyin bermay qo'yipti. Keyin shayton noiloj qolib, yarmarkadagi araqfurush juhudga qizil chakmonini garov qo'yib: «Hoy juhud, xuddi bir yil deganda chakmonimni ol-gani kelaman, ehtiyyot qil», – deb badar ketgan ekan. Juhud chakmonni yaxshilab qarasa, hatto Mirgorodda ham topilmaydigan juda g'alati movutdan ekan, rangi ko'zni olgudek qip-qizil, juhud qachongacha poyleymen, depti-da kokilining tagini qashib-qashib, boshqa yurtdan kelgan bir boyga uncha-munchaga emas, salkam besh tillaga sotib yuboripti. Juhud garov mud-datini yodidan ham chiqarib yuborgan ekan. Bir kuni kechki payt birov kelib: «Qani juhud chakmonni ber», – debdi. Juhud avvaliga tanimapti, yaxshiroq tikilib qaraqandan keyin tanib: «Qanaqa chakmon, chakmon-pakmonni ko'rganim yo'q sendan», – debdi. U ham indamasdan ketaveribdi; kechqurun juhud hujrasini bekitib, sandig'idagi pullarini sanab bo'lib, boshiga choyshabini yopinib, ibodat qilayotgan ekan, bir mahal bir narsaning sharpasi eshitilib, har derazadan bit-tadan cho'chqanинг tumshug'i ko'rinishi...

Darvoqe, shu onda cho'chqanинг xo'rillaganiga o'xshagan ovoz chiqdi, hammaning rangi o'chdi... Hikoya qilayotganning yuzidan ter chiqib ketdi.

Cherevikning kapalagi uchib, qo'rqqanidan:

- Nima boldi? – dedi.

Qadrdoni titrab-qaqshab:

- Hech nima! – dedi.

Mehmonlardan biri:

- Nimaydi? – deb so'radi.

- Bir nima dedingmi?..

- Kim xo'rilladi?

- Azbaroyi Xudo, hech kim yo'q, nega bekorga va-hima qildik!

Hammalari qo'rqa-pisa, asta-sekin uyning to'rt tarafini qidirib ketdi. Xavronya Nikiforovna joni chiqqu-day bo'lib, gezarib qoldi.

– E, hezalaklar, sizlar ham erkakmi! Hammangizning qo'lingizga piltakach berib, oldingizga charx qo'yib ip yigirtirish kerak! Xudo urdi ketdi... Bitta-yarimtangiz o'tirgan kursi g'ijillab ketsa, hammangiz xuddi jindek har yoqqa qochar ekansiz-da! – dedi shovqinlab.

Xotinning bu so'zlariga botirlarning ori kelib, sal o'zlariga keldi. Hikoyachi bir ho'plab ichib olib, yana so'zga kirdi:

– Juhud taxta bo'lib qolibdi, lekin yog'och oyo-qdek uzun-uzun oyoqli cho'chqalar derazadan tushib, uch quyruqli qamchi bilan savalab, uni darrov esiga keltiribdi. Har urganda juhud manavi so'ridan ham baland sakrab tusharkan. Juhud darrov bo'yniga olib-di... Ammo chakmonni qayerdan topsin?! Chakmonni boydan bir lo'li yo'lda o'g'irlab, bozorchi xotinga sot-gan ekan. Bozorchi xotin chakmonni yana yarmarkaga olib kelsa, hech kim undan mol olmasmish, keyin o'ylab-o'ylab bilsa, sir – qizil chakmonda ekan. Qachon kiymoqchi bolsa, bir narsa kelib bo'g'arkan, shundan payqabdi. Xotin u yoq-bu yog'ini o'ylab o'tirmasdan o'tga tashlagan ekan. Kuymasmish. E, shaytonniki ekan, deb o'ylabdi-da, bozorga moy olib kelgan birovning aravasiga tashlab ketipti. Ahmoq moyfurush chakmonni ko'rib suyunipti, lekin, moyini hech kim

olmay qo'yibdi. Keyin chakmonni bebaraka birov tashlab ketgan ekan, deb boltani olib chopsa, yana butun bo'lib qolarmish. Keyin cho'qinib olib, chopqillab darrov u yoq-bu yoqqa otib tashlab, o'zi jo'nab ketibdi. Shundan beri har yili yarmarka vaqtida shayton cho'chqa suratiga kirib, bozor aylanib chakmonini qidirarmish, endi hammasini topgan emish-ku, bitta chap yengi qo-lipti. Shundan beri odamlar bu yerdan hazar qiladi, o'n yildan buyon bu yerda yarmarka bo'lmas edi, bu yil oqsoqolni nima jin uripti, u...

So'zining yarmi hikoyachining bo'g'zida qoldi...

Deraza qarsillab, oynalari chil-chil bo'lib tushdi. Bir mahal bahaybat bir cho'chqa tumshug'ini chiqazib xuddi: xo'sh, yaxshilar, nima qilyapsiz, degandek ko'zlarini baqraytirib tursa-ya.

VIII

Dumini qisib turar it kabi,
Qobil kabi titrardi butkul
Va burnidan chiqar tamaki.

Kotlyarevskiy – «Eneyida»

Uydagilarga vahima tushib qutlari uchib ketdi. Latifachi og'zini ochgancha taxta bo'lib qotib qoldi. Ko'zlar o'ynab chiqquday bo'lib chaqchayib ketdi, qo'li ko'tarilgancha qolib, qaltirardi. Baland bo'yli mard jon-poni chiqib, bir sakrab tushdi, boshi shipdagi taxtaga tegib, taxta surilib popvachcha gumbillagancha yiqilib tushdi. Mehmonlardan biri – eshakka yotib olib, qo'l-oyog'ini tipirchilatib, voy-voylardi. Yana biri boshiga po'stinini yopinib olib, ovozining boricha dodlab baqirardi. Quti uchib taxta bo'lib qolgan latifachi bu to'polondan keyin esiga kelib, darrov xotinining etagi ichiga kirib ketdi. Novcha botir bo'lsa siqilganiga qaramay, pechkaning kichkina teshigidan kirib eshigi-

ni yopib oldi. Cherevik birov qaynoq suvni boshidan quyib yuborgandek, bosh kiyimini qo'yib, xurmacha-ni boshiga ilib olib, zing'illaganicha ko'chaga chiqib, xuddi jinni bo'lgan kishidek chopar edi. Hayriyatki xo'b charchaganidan keyin yugurishi biroz pasaydi. Yuragi tegirmonning do'lidek duk-duk urardi, yuzlaridan ter chak-chak oqar, tinkasi qurib, yiqilay degan chog'da, nazarida orqasidan birov quvlab kelayotganga o'xshab joni halqumiga keldi... Esi yo'q telbadek oyog'ini yerga tekkizmay «Jin! Jin!» deb baqirgancha qochib, bir ma-hal hushidan ketib yiqildi. Orqasidan quvlab kelayot-gan odam ham: «Jin! Jin!» deb baqirardi. Keyin bir nar-sa do'pillab, uning ustiga kelib tushganini bildi. Hushi boshidan uchib, tor tobutda yotgan o'likdek ko'chaning o'rtasiga cho'zilib, dong qotib yetaverdi.

IX

Oldidan qarasang hech narsa emas,
orqasidan, azbaroyi Xudo, ajinaning
xuddi o'zi!

Xalq cho'pchagidan

Ko'chada uxlab yotgan odamlar ichida biri, boshini ko'tarib:

– Vlas, eshitdingmi? Shu yaqinginada birov ajinani chaqirganday bo'ldi-ya! – dedi.

Uning yonida yotgan lo'li kerishib:

– Nima ishim bor, menga desa hamma urug'-aymog'ini chaqirmaydim! – dedi.

– Axir birov bosib bo'g'ayotgandek baqirdi-da!

– Odam uyqusiraganda har balo deyaveradi-da!

– O'zing bilasan-ku, ammo bir qarash kerak. Qani o'tingni chaq-chi!

Yotgan lo'li g'o'ng'illab o'rnidan turdi, ikki marta chaqmoq chaqib, keyin piltasini puflab o't oldirgan-

dan keyin bir parcha sopolga qo'y yog'i quyib qilingan, Malorossiyada rasm bo'lgan qora chiroqni ko'tarib yo'ldan boraverdi.

– Tura-tur, bir narsa yotganga o'xshaydi! Bu yoqqa tut chirog'ingni!

Shu onda yana bir necha kishi yetib keldi.

– Vlas, yotgan nima?

– Ikki odam ustma-ust mingashib yotipti. Ajinasi qaysi – bilolmadim!

– Tepasidagi qanaqa odam?

– Xotin kishi!

– Bo'lmassa ajina o'sha-da!

Xaxolagan kulgidan yotganlarning hammasi uyg'onib ketdi.

Odamlar ichidan birov:

– Xotin kishi minib olipti, barakalla, xo'b chavandoz ekan-da! – dedi.

Yana biri Cherevikning boshida bir parchasi qolib, sinib tushgan xurmachaning sopolini olib:

– Og'aynilar, manavini qarang! Bechoraning boshiga kiyib olgan bosh kiyimini qarang! – dedi.

Kulgi, shovqin-surondan o'liklar uyg'onib ketdi. Solopiy bilan xotini vahimadan dovdirab lo'lilarning qora aftlariga baqraygancha angrayib qoldi. Pir-pir qilib, dam uchib, dam yonib turgan chiroqning shu'lesi ular yuziga tushib, tim qora kechaning zulmati ichida yer qa'ridan ko'tarilib kelayotgan rutubatli bir hovur girdobida g'ivirlashib yotgan jinlarga o'xshar edi.¹

X

Yuzing bolsin teskari, qoch yo'limdan mal'un.

Maloroscha komediyadan

¹ Ajinaning ziyan-zahmatidan saqlaydigan duo.

Tongning izg'irin shabadasi uyqudan turgan yarmarkachilar ustida o'ynar edi. Oftob ko'tarilib, mo'rilardan chiqqan tutunlar go'yo uning istiqboliga chiqqanday u tomonga o'rmalardi. Yarmarka bozorida yana g'avg'o boshlandi. Qo'ylar ma'rashib, otlar kishnab, g'ozlar g'avg'osi, bozorchi xotinlarning shovqin-suroni yana olamni bosdi; olamni yoritgan tong yorug'i paydo bo'lishi bilan kecha bemahal oqshom paytida odamlar ni buncha qo'rquvga solgan qizil chakmon to'g'risidagi vahimali gaplardan asar ham qolmadi.

Cherevik oshnasinikida poxol tomlik bostirmaning tagida ho'kizlar, un va bug'doy qoplari orasida esnoq kelib, mudroq bosib, ko'knori xayollari bilan kerishib yotgan chog'da, dangasalik makoni bo'lgan o'z uyidagi aziz pechkasidek yoki uning ostonasidan o'n qadam-chha joyda turguvchi uzoq bir xeshining mayxonasidek tanish bir tovush qulog'iga eshitildi.

Xulqi muloyim xotini qulog'i tagiga kelib azza-bazza yengidan tortib:

– Tur, tur! – deb to'ng'illadi.

Cherevik hech javob bermasdan lunjini to'ldirib, qollarini xuddi nog'ora chalgandek o'ynataverdi.

Xotini erining aftiga tegishiga sal qolgan mushtumiga chap berib:

– Devona! – deb qichqirdi.

Cherevik o'rnidan turgach, ko'zini biroz ishqalab u yon-bu yoniga qarab oldi-da:

– Tushimda – yolg'on bolsa g'animim meni olsinki, tushimda ko'rsam sening afting nog'ora emish. Oshnam aytgan tunov kungi cho'chqa tumshuqlar kelib, xuddi o'risni nog'ora chaldirgandek menga ha deb shu tong nog'orasini chaldiryaptilar-da... – dedi.

– Bo'ldi, bas, bemaza gaplaring qursin, bor tez baytalni sot! Sharmanda bo'ldik-ku! Yarmarkaga kelib, nahotki bir qisim po'ta sotmasak-a...

– Xotin, nima qilamiz, uyatga qoldik-ku, hamma kuladi, – dedi Solopiy xotininining og'zidan so'zini olib.

– Bor! Bor, tezroq! Allaqačon hammaga kulgi boľding!

Cherevik esnab turib, orqasini qashirkan:

– Axir ko'rib turibsan-ku, yuzimni yuvganim yo'q, – dedi har na dangasalik qilib olmoq niyatida.

– Juda bemahal ozodagarchililing tutibdi! Qachon-dan bunaqa ozoda bo'lib qolding? Mana sochiq, afting-ni artib ola qol...

Xotini o'rog'liq bir narsani qo'liga olishi bilan quti uchib, darrov uni otib yubordi. O'rog'liq narsa qizil chakmon yengining uchi ekan.

Qo'rqqanidan qo'l-oyog'i bo'shashib, tishi-tishiga tegmay qaltirab ketayotgan erining holini ko'rib, o'zini biroz mardona tutib, nafasini rostlab olgandan keyin xotini:

– Tur endi, ishingni qil! – dedi, yana qaytarib.

Eri baytalni yechib bozorga yetaklab ketayotganda o'z holicha g'uldirab:

– Endi sotish qayda! Bu badbaxt yarmarkaga ot-lanib chiqqanimda, xuddi birov harom o'lgan sigirni ustimga ortib qo'ygandek ko'nglim g'ash bo'lib, oyog'im tortmagani bejiz emas ekan, ho'kizlar ham ikki marta orqalariga qaytgan edi. Endi esimga keldi, uydan xuddi dushanba kuni chiqmabmidik – bu kasofatlar shuning uchun ekan-da!.. Shayton badbaxt ham jim yurmaydi, chakmonini bir yengisiz kiysa, nima qilar kin, bechora odamlarga shuncha tashvish solmasa nima qilar kin? Xudo saqlasin-ku, lekin, agar men shayton bo'lsam, bir parcha falokat lattani kechasi demay qidirib yurar-midim?

Shu paytda birovning qattiq do'rillagan ovozi eshitilib, Cherevikning gapini bo'ldi, qarasa baland bo'ylik novcha lo'li oldida turibdi:

– Nima sotmoqchisan, baraka topgur?

U indamadi, lo'lining oyog'idan boshigacha xo'b qarab olgandan keyin otning jilovini qo'y may, bemalol, asta-sekin ketaverdi.

- Nima sotayotganimni ko'rib turibsan-ku!
- Lo'li uning qo'lidagi yuganga qarab:
- Tasma sotasammi? – dedi.
- Agar baytal tasma bo'lsa, to'g'ri, tasma sotaman!
- Hamshahar, deyman otingni poxol berib boqqanga o'xshaysan-a!
- Poxol berib?

Cherevik baytalini tuzukroq ko'rsatib, noinsof yol-g'onchini sharmanda qilish niyatida yuganni bir siltab tortgandi, qo'li yengilgina ko'chib engagiga kelib tegdi. Qarasaki, qo'lida kesilgan yugan-u, yuganga qizil yengning bir parchasi bog'liq – esxonasi chiqib tepe sochi tikka bo'lib ketdi. Osmondan tushgandek to'satdan paydo bo'lib qolgan bu tuhfani ko'ra solib, tupura-tupura cho'qinarkan, qollarini siltab, yosh boladan ham ildam-roq yugurgancha qochib, odamlar orasiga kirib ketdi.

XI

O'z donimga o'zimni o'g'ri qildilar.

Masal.

Ko'chaning tor joyiga borganda yigit-yalanglardan bir nechtaşı:

- Ushla! Ushla uni! – deb qichqirishardi. Bir mahal Cherevik o'zini birovning qattiq changalida ko'rdi.
- Tutinglar! Haligi bechoraning baytalini o'g'irlagan xuddi shu.
- Xudo yarlaqagurlar! Sizlarga nima bo'ldi, nega mening qo'limni bog'layapsiz.
- Qilg'ilikni qilib, yana so'rashini qara! Bechora mu-sofir Cherevikkining otini nega o'g'irlading?
- Yigitlar, jinni bo'ldingizmi? Axir odam o'zinikini o'zi o'g'irlaydimi?
- Eski hiylani qo'ysangchi, kim bilmaydi hiylangni! Nega bo'lmasa xuddi orqangdan balo-qazo quvlab ke-layotgandek shataloq urib qochding?

– Shaytonning kiyimini ko'rgandan keyin qochmay ko'r-chi!..

– Hoy, bunaqa gapingni bitta-yarimta boshqaga ay-tib alda. Ajina-pajina deb hammaga vahima solganing-ga hali da'voshidan ham jazoingni olasan.

Ko'chaning yana bir yog'ida tag'in:

– Ushla! Ushla uni! Bu yoqda, mana bu yoqda qoch-gan o'g'ri! – degan shovqin chiqdi.

Cherevik ko'zini ochib qarasa, qo'llari orqasiga bog'langan og'aynisini ham bir necha yigit oldiga solib haydab kelyapti.

Yigitlardan biri:

– Xo'p ajoyib gaplar chiqdimi! Aft-basharasi manamen o'g'ri, deb tursa ham bu muttahamning gapini qarang. Nega jin tekkandek juftak urib qochding desa: «Tamaki olaman deb cho'ntagimga qo'limni solsam qo'limga xaltacha emas, shayton chakmonidan bir parchasi chiqib, darrov o't olib yonib ketdi, shuning uchun oyog'imga quvvat ber, deb qochdim-da!» – dey-di-ya.

– E-ha, ikkovi ham bir uyadan parvoz qilgan qush-ku! Olib boring ikkovini!

XII

Ey yaxshi odamlar, aytингiz, qildim ne gunoh?

Nimaga bunchalik qiynaysiz, – der g'arib-gado.

Nimaga siz meni xo'rlaysiz, xo'sh, aytинг, ey-voh.

Deb belin ushladi bechora, chekib nola-oh.

Ko'zidan oqdi yosh, ne chora yig'lar, dil siyoh.

Artemovskiy-Gulak, «Boy ila it»¹

¹ Ukraina yozuvchisi va Xarkov universitetining professori N. P. Artemovskiyning hajviy manzumasidan.

Poxol yopgan chaylada bandda yotgan Cherevik yonidagi og‘aynisiga qarab:

– Bitta-yarimtaning biror narsasini urganing rost-mi? – deb so‘radi.

– Og‘ayni, sendan shu gap kelsa endi! Agar umrimda birovning bitta cho‘pini olgan bo‘lsam qo‘l-oyog‘im shol bo‘lsin-a. Uyda enamdan qaymoq bilan chuchvara o‘g‘irlab yeganim bor, u ham bo‘lsa o‘n yoshimda bo‘lgan ish.

– Og‘ayni, qaysi gunohimiz bizni bu baloga soldi? Senga-ku uncha emas, birovnikini o‘g‘irlabsan deydi, ammo men bechoraga bu tuhmat nimasi? O‘z otimni o‘zim o‘g‘irlagan emishman. Og‘ayni azaldan toleimiz past ekan-da!

– Sho‘rimiz qursin, biz bechora g‘ariblarning!

Ikki og‘ayni birdaniga ho‘ngillab yig‘i boshladи.

Bu chog‘da to‘sattan kirib kelgan Gritsko:

– Solopiy, nima qildi senga? Kim seni bunday bog‘lab qo‘ydi? – dedi.

Solopiy xursand bo‘lib:

– Bormisan, e, o‘g‘lim! Bormisan! – dedi shovqinlab.

– Hoy, og‘ayni, senga aytgan edim-ku, o‘sha ana shu. Xo‘p azamat-da! O‘lay agar ko‘z oldimda xudi sening kallangdek keladigan kuvachani to‘ldirib, pinagini buzmasdan shimirdi.

– Og‘ayni deyman, shunday azamat yigitni izzat qilmadingmi?

Cherevik yigitga qarab:

– Ko‘rib turibsan-ku, seni xafa qilganimga Xudoning qahri kelganga o‘xshaydi. Gunohimdan o‘ta qol, sadag‘ang ketay, Xudo haqi, gap menda bo‘lsa, nima desang qilardim, nima qilay, kampir shaytonning vasvasasiga kirib ketgan.

– Solopiy, men ginaxonlik qilib yuradigan odam emasman. Agar xohlasang bo‘shatib yuboray!

Bu gapdan keyin u eshikda poylab turgan bolalarga ko‘zini qisib, ishora qilgan edi, ular darrov yechishga kirishdi.

– Lekin sen ham to'yni o'rniga qo'yasan-da! Bazmada shunday o'ynaylikki, bir yilgacha oyog'imiz og'risin, xo'pmi?

Solopiy orqasiga qoqib:

– Barakalla, barakalla! Hozir xuddi kampirimni uruslar olib ketgandek suyunib ketyapman. O'ylab o'tiramanmi, bo'lsa-bo'lmasa bugun to'yni qilaveramiz, vassalom! – dedi.

– Solopiy, bilib qo'y, bir soatdan keyin senikiga boramani, endi uyingga jo'na, baytaling bilan bug'doyingni oladigan xaridorlar uyingda poylab turishibdi!

– Baytal topildimi?

– Topildi.

Cherevik xursandligidan dong qotib, bolaning orqasidan qarab qoldi.

– Xo'sh, Gritsko, ishni o'rinaltdikmi? Endi ho'kizlar menikimi? – dedi baland bo'yli novcha lo'li, shoshib-pishib ketayotgan yigitga qarab:

– Seniki! Seniki!

XIII

Aslo qo'rqlama, aslo qo'rqlama ayaqiz,
Qizil etik kiyib olgin, u-la tez – yovni yanchgin,
Bag'rin sanchgin.

Sen yurganda yarqirasin nag'allaring jaranglab.
Jim qolsinlar, qon qussinlar g'animlaring bos, jadal-lab.

To'y qo'shig'i

Paraska yolg'iz uyda chiroylikkina engagini qo'liga tirab, xayol surib o'tirardi. Zar kokillari o'sib tushgan boshi shirin-shirin xayollar ichida aylanar, la'lidek lablarida to'satdan muloyim bir tabassum, qandaydir noma'lum bir xursandlik paydo bo'lib, qora qosh-

lari yuqori ko'tarilar, keyin yana o'ya tolib xayol surib ketsa, ko'tarilgan qoshlari tag'in shamchiroqdek yonib turgan bo'ta ko'zlariga tushardi. U o'z holicha shivirlab: «Uning aytganlari bo'lmasa nima qilaman, – derdi, ko'ngliga shubha tushib. – Agar unga bermasalar nima qilaman? Agar... nahotki yo'q deyishsa. Enam ko'ngliga nima kelsa shuni qiladi, men nega ko'nglimdagini qilolmayman? O'jarligim o'zimga yetgulik. Biram chiroqli, qora ko'zlari yonadi-ya, gaplari biram shirin, jonim Paraskaxon! – deb gapiradi. Oq chakmoni biram yarashgan. Agar belbog'i guldorroq bo'lsa yana ham yarashardi. Mayli, uy qilganimizdan keyin o'zim tikib beraman. Esimga tushsa bir suyunib ketaman, – derdi, yarmarkan sotib olgan, chetiga qizil qog'oz yopishtirilgan kichkina oynasini qo'yndan olib, ich-ichidan quvonib qararkan. – Agar biron joyda onam bilan uchrashib qolsam ko'rishmayman, o'zini o'zi urib oldirsa ham ko'rishmayman. Bo'ldi endi, o'gay qizni kaltaklamoqlik, ona! Toshdan qum ko'karsa ham, chinor toldek suvga egilsa ham senga bo'yin egmayman. E, esimdan chiqipti-ya, o'gay onam-niki bo'lsa ham kiyib boqay-chi, qalpoqchasi menga yarasharmikin!» U oynani qo'lidan qo'y may, boshini engashtirib oynaga qaragancha, o'rnidan turdi-da, xuddi yiqilib tushadigandek sekin avaylab uyning bir yog'iga qarab yurdi. Uyning shipidagi pop bolasi yiqilib tushgan taxta so'ri, tokchada turgan idish-tovoqlar oynada ko'rindi. O'ziga o'zi kulib: «Menga nima bo'ldi, xuddi yosh boladek yurgani qo'rqaman-al!» – dedi-da, bir-ikki marta dadil-dadil oyoq bosgandan keyin, bir mahal chap qo'li pastga tushib, biqinini ushlagancha poshnasini taqillatib, oynaga qarab doim aytadigan qo'shig'ini aytib, o'yinga tushib ketdi.

Ko'm-ko'kkina majnuntol
past egila qol.
Qoshi qora, so'zi bol

yorim kela qol.

Ko'm-ko'kkina majnuntol
egil sen pastroq.
Qoraqosh yor, so'zi bol
kelgil yaqinroq.

Shu paytda eshikdan kirib kelgan otasi qizining oynaga qarab o'yin tushib turganini ko'rib angray-gancha qotib qoldi. O'zi bilan o'zi ovora bo'lib, hech narsadan xabari bo'lмаган qizining bu qilibiga ku-lib birpas tikilib turdi, lekin qulog'iga tanish qo'shiq eshitilishi bilan uning ham zavqi qo'zg'ab, ikki qo'li belida, kerilib turib o'yinga tushib ketdi. Ishlari ham esidan chiqdi. Bir mahal oshnasi kelib qolib xaxolab kulib yubordiki, ota-bola ikkovi cho'chib tushdi.

– Barakalla, ota-bola allaqachon to'yni boshlab yuboripsiz-ku! Bu yoqqa chiqinglar, kuyov keldi.

«Kuyov keldi» deyishi bilan qizning yuzi boshidagi qizil jiyakdan ham qattiqroq qizarib ketdi, beg'am otasi ham hushiga kelib, uning nimaga kelgani esiga tushdi.

– Qizim, tez bo'l! Onang otni sotganimga suyunib, yugurganicha ketdi, – dedi otasi u yon-bu yonga alang-lab qararkan.

– O'ziga ko'ylaklikka matomi-e, nima balolar olgani ketdi, u kelmasdan ishni bitirib qo'ya qolaylik!

Qiz uyning ostonasidan o'tar-o'tmas bir to'da odam bilan ko'chada poylab turgan oq chakmon kiygan yigit uni mahkam ushlab olganini bilib qoldi.

Cherevik qiz bilan yigitning qo'lini bir-biriga tutqazib qo'ygach:

– Xudo yorlaqasin! Qo'sha qaringlar! – deb fotiha qildi.

Shu paytda odamlar shovqinlashib qoldi.

Solopiyning xotini kelib qolib:

– O'sam ham bu ishni boldirmayman! – deb baqirardi, ammo turgan odamlar xaxolab kulib, uni itarib-itarib tashlashdi.

Cherevik ham xotinining ikki qo'lini ikkita azamat lo'li mahkam ushlab turganini ko'rib:

– Jinnilik qilma, xotin, qo'y, bo'lgan ish bo'ldi, aynishni yomon ko'raman! – dedi juda beg'amlik bilan.

Xotin:

– Yo'q, yo'q, aslo ko'nmayman!.. – deb har qancha baqirsa ham, uning gapiga hech kim qulq solmadi. Bir necha odam kuyov bilan qizni o'rtaga olib, o'yinga tusha ketdi.

Jun chakmon kiygan, mo'ylovlar buralgan g'ijjakchi qo'liga kamonchasini olib g'ijjagini chalib yuborishi bilan o'rtadagi janjal-to'polon to'xtab, shunday bir ulfatlik paydo bo'ldiki, agar birov bu ishlarga qarab turgan bolsa, hayron qolardi. Chehralarida azaldan abadgacha kulgi alomati ko'rilmaganga o'xshagan badqovoq, tund odamlar oyoqlarini tepib, yelkalarini qoqa boshladi. Go'yo bor-yo'q tebranardi, hamma o'yin tushardi. Lekin yuzidan lahad hidi kelib turgan kampirlarning kulib turgan ochiq yoshlari orasida urinib-surinib yurganlarini ko'rgan odamning taajjubi yanada ortgan bo'lardi. Beg'am va beparvo kampirlar. Ularda, hatto go'daklik quvonchi ham, hech kimning ular bilan ishi ham yo'q, birov jonsiz mashinaning qulog'ini burab, yurgizib turgandek, kampirlarga ham odamzoddek qiliqlarni qildirayotgan mastlik edi, ular sarhush boshlarini sarak-sarak qilib, hatto kelin-kuyovga ham parvo qilmay, kulgan-o'ynagan sho'x yoshlari bilan baravar o'ynashardi.

Qiy-chuv, o'yin-kulgi, ashula va raqlar sekin-sekin pasayib, kamonchaning ovozi susayib, taronalari so'nmoqda edi: uzoqdagi ulug' daryoning gurillagan ovoziga o'xshagan dupur-dupur asta-sekin tinib, birpasdan keyin jimjit bo'lib qoldi.

Xursandlik degan barno, aziz mehmon ham bizni shunday tashlab ketadi emasmi, bu aziz mehmon bizni tashlab ketganda, tanholikda har qancha xonish qilsak ham, xursandlik qaytib kelmaydi, shunday emasmi? Tanholikda chiqqan bu ovozning aks sadosi qulqqa

xarobat ichida chiqqan alamli bir mungdek eshitiladi. Sho'xlik ichida g'urur bilan o'tgan yoshlikning quvnoq do'stlari ham shu kuyda birin-sirin parishon-parokanda bo'lib, eskidan qolgan bir ko'hna ulfatni o'rinaliga qoldirib, o'zları to'zib ketishmasmikin? Tanho qolganga qiyin! Ko'ngli buzilib, yuragi siqilar, ammo bu dardga davo topilmas.

IVAN KUPAL ARAFASI

...dagi butxonaning ruhoniysi aytgan hikoya

Foma Grigoryevichning juda g'alati odati bor ediki, bir marta aytgan hikoyasini sira qaytib aytmasdi. Gohida, biron hikoyani yana aytib bering deb so'rasangiz, darrov boshqasini aytib berar yoki eskisini xuddi yangidek to'qib ketardi. Bir kun anavi ulug'lardan biri (bizga o'xshagan avomlar, ularning nomlarini ham aytolmaymiz) yozuvchi desam, yozuvchi emaslar, bizning yarmarkamizdagi olibsotalar bo'ladi-ku, ana shunaqa odamlar. Undan-bundan so'rab, eshitib, birovnikini o'g'irlab, oyda yoki haftada alisbodek keladigan kitobchalar chiqaradi¹. Mana shu afandilardan biri bu hikoyani Foma Grigoryevichdan bilib olgan bo'lsa ham, bu voqeа uning xotirasidan batamom ko'tarilib ketipti. Bir kun yuqorida aytilgan malla chakmonlik odam Poltavadan kelib qoldi, uning bir hikoyasini o'qigandirsiz deb o'ylayman. Bu odam bir risolacha keltirgan ekan, uning o'rtasini ochib bizga ko'rsatdi. Foma Grigoryevich qanshariga oynagini mindirmoqchi bo'lgandi, ammo ipini o'ramaganligi va mum yopishtirmaganligi esiga tushib, risolani menga uzatdi. Men savoddan oz bo'lsa-da xabardor bo'lib, ko'zoynak taqmaganimdan uni o'qishga tushdim. Ikki

¹ Bunda Gogol faqat foyda ko'rish uchun turli jurnal va to'plamlar chiqargan noshirlarga kinoya qiladi. Noshirlarning bu toifasi yozuvchi-shoirlardan bo'larbo'imas she'r, hikoya va maqolalar yozdirib, ishqilib foyda bersa bo'lgani deb, kitob qilib chiqarardi.

betini ham o'qib ulgurmasimdan, u qo'lidan ushlab to'xtatdi¹.

– Shoshmang! Avval aytinq-chi, nimani o'qiyapsiz?

Rostini aytsam bunday savol meni biroz taajjubda qoldirdi.

– Foma Grigoryevich, nimani o'qiyapsan, deganingiz nimasi, o'zingiz aytgan qissani, o'zingiz aytgan gaplarni o'qiyapman.

– Bu gaplarni meniki, deb sizga kim aytди?

– Bundan ortiq nima bo'lsin, axir falonchi aytgan, deb yozib qo'yibdi-ku!

– Buni yozgan odamning kallasiga tuf deng! Itning hamma gapi yolg'on. Shunaqa debmanmi, men? Miyasi aynib qolibdi. Quloq soling, hozir o'zim aytib bera-man.

Biz xontaxtaga yaqinroq kelib o'tirdik. U kishi gapini boshladи:

– Xudo rahmatli bobom (oxiratda yemishi kulcha bilan kunjutli nonu asal bo'lsin) latifani yaxshi aytardi. Bir gap boshlasa, kechgacha qimirlamasdan eshitging kelardi. Endigi qiziqchilarga o'xshamas edi. Endigilar ichlaridan chiqarib yolg'onnei gapiraveradi, gaplari uch kun ovqat yemagan odamnikiga o'xshaydi, eshitganda kovushingni qo'lingga olib qochguday bo'lasan. Mar-huma onam hayot edi. Qishning uzun kechalarida, sovuq qahrini o'tqazib uyimizning kambargina darchasi yaxlab qolgan vaqlarda oldiga piltakachini qo'yib olib, qo'li bilan ip yigirib, oyog'i bilan beshik tebratib o'tirgani ham ko'z oldimda turibdi, aytgan allasi hali ham qulog'imda. Uyimizda yonib turgan qora chiroq xuddi bir narsadan qo'rqqandek hali lopillab ketar, hali lip-lip qilib pasayib qolardi. Onamning dugi g'ir-g'ir q-

¹ «Отечественные записки» («Vatan maktublari») jurnalining noshiri P. P. Svininka (1798–1839) kinoya. Bu odam 1830-yilda «Ivan Kupal arafasi» hikoyasini bosib chiqardi, lekin Gogolnikidan boshqacha qilib, buzilgan tarzda chop ettirdi. Gogol bu hikoyani alohida kitob qilib nashr ettirmoqchi bo'lganda, Svininning tuzatishlarini olib tashladi va yana bir necha joyini o'zgartirdi.

lar, bola-chaqalar hammamiz g'uj bo'lib olib, keksay-ganidan besh-olti yildan beri pechkasidan tushmagan bobomning so'zini eshitib o'tirardik. Lekin bizlarga yoqqani burungi zamonda bo'lib o'tgan voqealar, zaporoyyeliklarning bosqinlari yoki polyaklar to'g'risidagi gaplar emas, Podkovaning botirliliklari, Poltora – Kojux bilan Sagaydachniyning¹ qilgan polvonliklari ham emas. Bizlarga ko'proq qadim zamonlarda bo'lib o'tgan ajoyibotlar yoqardi; bularni eshitganimizda badanimiz jimirlashib, tepe sochimiz tikka bo'lib ketardi. Gohida bu hikoyalardan shunday vahimaga tushar edikki, kech bo'ldi deguncha hamma yoqni jin bosardi.

Kechasi o'rningdan turib tashqariga chiqquday bo'sang, qaytib kelguningcha o'rningga oxiratdan qaytgan birov yotib olganga o'xshardi. Gohida yechib boshimga tashlab qo'ygan o'z chakmonim o'zimga g'umbak bo'lib, bekinib yotgan ajinaga o'xshab ko'rinnagan bo'lsa jonim hiq etsin. Ammo bobom hikoyalarining g'alatiligi shu ediki, hech yolg'oni bo'lmasdi, nimaiki gapisrsa, hammasi chin edi. Uning ajoyib hikoyalaridan birini sizga aytib beray.

Sudxonalarda ariza yozishni xo'b yaxshi bilgan savodxon odamlar borki, duo va fotihalar bitilgan kitobni qo'liga bersangiz boshini qashib turaveradi-yu, lekin tishini irjaytirib kulishni xo'b biladi. Nima desang kulishdan boshqasini bilmaydi. Ana shunaqa shakkoklar ko'payib ketdi. Yolg'on aytsam Xudoning qahriga uchray, bibi Maryam ursin, sizga yolg'on menga chin, bir kun ajinadan so'z chiqibdi, ajinaga ishonmaydigan bir juvonmarg bor ekan. Xudoga shukr, dunyoga kelib shuncha yashab, popning oldiga tavbaga borganda ham yolg'on gapirovchi kazzoblarni umrimda juda ko'p ko'rdim, ular uchun popni aldash bizga o'xshaganlarga burunaki otgandek gap. Bular ham ajinaga ishonmay-

¹ Ivan Podkova, Poltora – Kojuxa, Sagaydachniy (Petr Konashevich) Ukrainianing mashhur atoqli podsholaridan.

di. Agar tushlarida, otini aytmay qo'ya qolay, haligini ko'rganday bo'lalar, u yog'ini qo'yavering.

Marhum bobom aytardiki, bundan yuz yil yoki undan ham ko'p yillar avval bizning bu qishlog'imiz juda kichkina, xarob bir joy ekan. Dala yerda undabunda hammasi bo'lib, o'ntacha xonadon bor ekan. Uylar suvalmagan, tomi yo'q, mol bog'laydigan, arava qo'yadigan og'ilxona, bostirma degan narsalar sira yo'q ekan. Bularning hammasi hali boylarnikida, bizga o'xshagan bechoralar esa yerto'lani uy qilib o'tirishar ekan. Agar tutun chiqmasa, yerto'lada odamzod borligini bilib ham bo'lmas ekan. Nega bu zaylda yashashar ekan deb so'rasangiz kerak, buni kambag'allikdan deb bo'lmaydi, chunki u zamonda talonga bormaydigan odam kam bo'lardi, hamma boshqa yurtlarga borib ko'p dunyo talab kelardi. Tuzukkina uy-joy qilib o'tirishga hech kimda havas yo'q edi. Qrimliklar deysizmi, polyaklarmi, litvaliklarmi, har joydan odamlar bor edi; o'ziniki kelib o'z elatini talab ham ketaverardi. Ishqilib har narsa bo'lardi.

Ana shu kichkina ovulda goho-goho bir odam paydo bo'lib qolarkan, odam ham emas, odam suratiga kirgan shayton. Qayerdan, nega kelib qolganini hech kim bilmas ekan. Xo'p tarala, toza araqho'rlik qilib, yurib-yurib, bir kun onsizdan yo'q bo'lib, qorasi ko'rinxay ketar ekan. Yurib-yurib bir kun osmondan tushgandek yana paydo bo'lib kelar ekan-da, endi asari ham qolmagan-u, lekin u zamonda Dikankadan yuz qadamcha narida bo'lgan qishloq ko'chalarida izg'ib yurarkan. Yo'liqqan birovni yoniga olib, o'yin-kulgi qilgani-qilgan. Pulni xo'p sarf qilar, araq suvdek oqar... Chiroyli qizlarni ko'rsa zanjir, marjonlar ularshib borarkan. Ko'hlilik qizlar bu narsalarni olganida, Xudo bilsin qanday harom qollarga kirib chiqqan ekan bu narsalar deb, sal gumonsirab qolarkan. Boboming xolasi hozirgi Oposhnya yo'lida araqxonan ochgan ekan. Basavryuk degan haligi shaytonsifat odam

hamma vaqt shu yolda yurarkan. Ana shu xotin har qanday mol-dunyosi bolsa ham undan hech bir narsa olmas edim, der ekan. Olmasang ham balo, qovog'ini solib, har qaysisi ninadek-ninadek qoshini chimirib, xo'mrayib qarasa, har qanday odam qo'rqib qayoqqa qochishini bilmay qolarkan. Agar bergen narsasini ol-sang tag'in baloga qolasan. Ertasigayoq kechasi jarlikdan chiqqan shoxlik mehmonlar kelib marjon olgan bo'sang bo'yningdan bo'g'averadi, uzuk olgan bo'sang barmog'ingni tishlaydi, zanjir olgan bo'sang soching-dan tortadi. Berganini olganingga ming pushaymon bo'lasan. Bu ham mayli-ya, keyin sira qutulolmay-san, marjoninimi yoki uzuginimi suvga tashlasang cho'kmaydi, yana qo'lingda paydo bo'lib qolaveradi.

Qishloqda bir butxona bor edi, esimdan chiqmagan bolsa, avliyolardan Panteley bobo butxonasi edi shekilli. Mazkur butxonada Xudo rahmatli Afanasiy bobo ruhoniylik qilardi. Haligi Basavryuk dam olish kunlari ham butxonaga kelmaganini payqab, unga jazo berib, tavba qildirishmoqchi bo'lipti. Be! O'zi zo'rg'a qochib qutilgan ekan. «Taqsim-chi hoy, agar echki bo'yningga issiq qo'g'irmoch yopishmasin desang, o'zingni bil-u, o'zgani qo'y!» – debdi. La'natiga nima deb bo'ladi! Afanasiy bobo nima qilishini bilmay har kim Basavryuk bilan aloqa qilsa Iso dinining dushmani, odamzodning yovi va kofir bo'ladi, deb hammaga e'lon qilibdi.

O'sha qishloqda Korj degan bir odam bo'lib, uning yetim Pyotr degan bir xizmatkori bor edi. Uni nega yetim deb chaqirishlarini bilmayman, balki uning ota-onasi kimligini hech kim bilmaganidanmi, unisi men ga noma'lum. Oqsoqol, uning ota-onasi bola bir yoshga to'lar-to'lmash vabodan o'lib ketgan, derdi. O'tgan yilgi qorga bizning muhtojligimiz qancha bolsa, bechora Pyotrning urug'-aymoqqa muhtojligi ham shunchalik edi-ku, ammo bobomning xolasi oqsoqolning gapini sira inobatga olmasdan, uning ham urug'-aymoqlari bor deyishni qo'ymasdi. Pyotrning otasi hali ham bor,

Zaporojyeda emish, turklarga bandi tushib, ko'p azob-uqubatlar tortib, axiri bir kun haram og'asi kiyimini kiyib urra qochibdi, derdi. Qora qosh qizlar bilan juvonlar uning ota-onasini surishtirmasdi. Ular agar Pyotrni yangi to'n kiydirib, beliga qizil po'tadan belbog' bog'lab, boshiga qora barradan tepasi ko'k telpak kiygizib, yoniga rumiy qilich osib qo'ysa, bir qo'lliga qamchin yana bir qo'lliga kumush qoplama mushtuk berib qo'ysa, u vaqtida har qanday yigitni yo'lda qoldirib ketadi, deyishardi. Lekin sho'rlikning bitta-yu bitta ko'k chakmoni bor, uning ham yirtig'i juhudning kissasidagi tangadan ko'p edi. Bu ham mayli-ya, falokat bosganini qarang. Korj cholning bir qizi bor ekan, chunonam ko'hlik ekan, bunday ko'hlikni aslo ko'rmagandirsiz. O'zingiz ham bilasiz, xotinlar xafa bo'lmasinlar-ku, lekin xotin kishiga o'z toifasidan bo'lgan birovni chiroylideyish, ajina bilan o'pishishdan ham qiyinroq, shunday bolsa ham marhum bobomning xolasi u qizning maqtovini shunday qilar ediki, uning lo'ppidan kelgan yuzi toza va tiniqligi, shabnam suvi bilan yuzini yuvib, endigina ko'tarilgan oftob oldida jilva qilib, yaprog'ini yoygan ko'knor gulining rangiga o'xshab tovlanardi; qoshlari bolsa qizlarimiz qishloqma-qishloq bozor qilib yurgan chorbozorchi o'rislardan bo'yinka taqadigan but va tumorchalarga qora bog'ich sotib oladilar-ku, ana shunga o'xshardi, xuddi chiroqdek yonib turgan ko'zlariga tikilib, mo'ralab turgandek egilib tushgan edi, dahanini aytsangiz, u zamonning yoshlari uning og'ziga qarab havasi kelardi, bulbuldek sayrash uchun yaratilgandek edi. Zulukdek tim qora, ipakdek muloym sochlari qo'ng'iroq-qo'ng'iroq bo'lib, kimxob kamzul ustiga yoyilib tushgandi. (U vaqtida qizlar sochlarni rang-barang piliklar bilan mayda qilib o'rmasdi.) Soch-soqolimga oq tushib, mo'ysafid bo'lib qolgan bo'sham ham, kampirim ko'zga tushgan cho'pdek yonimda o'tirgan bolsa ham, agar o'sha qiz hozir oldimda bolsa o'pib-o'pib olmasam butxonaning minbariga chiqish

menga nasib qilmasin. Qiz bilan yigit bir uyda turdimi, bo'ldi... oqibati nima bo'lishini o'zingiz yaxshi bilasiz. Gohida ertalab tongotardan boshlab Pidorka Petrusasi bilan suhbatlashgan joyda qizil etiklar nag'alining o'rni qolar ekan. Korj hech narsani payqamas ham edi-yu, lekin bir kun Petrusaga shayton vasvasa qilib, u yon-bu yonga qaramay yo'lakda qizni yoqut lablari dan cho'lpillatib o'pib olgan ekan. Petrusaga vasvasa qilgan haligi, tushingga but kirgur, mal'un shayton cholga ham vasvasa qilib, chol uyning eshigini ochib yuborgan ekan, ko'zi qiz bilan yigitga tushib, eshikni tutgancha ag'rayib qotib qolibdi. Falokat o'pich cholni es-hushidan ayirib qo'yandek bo'ldi. Zamonamizda miltiq dori bilan pilta miltiq yo'qligidan endigilar kelib dasta bilan jinni ko'chiradi-ku, shunga o'xshab, o'pich ovozi uning qulog'iga kelisop bilan devorga urgandek eshitildi.

Korj hushiga kelib, devorda osig'liq turgan bobosidan qolgan qamchinni olib, bechora Pyotrni savalamoqchi bo'lib turgan paytda, Pidorkanинг оlti yashar ukasi Ivas oyoq ostidan chiqqanday kelib qoldi-yu, qo'rqib ketib, otasining oyog'iga mahkam yopishib: «Dada, dada, urmang!» – deb yig'ladi. Nima bolsa ham ota-da. Ota bolasiga mehribon bo'ladi-da. Uning ham bag'ri toshdan emas axir. Qamchinni ilib qo'yib, Pyotrni sekin tashqari olib chiqib: «Agar ikkinchi shu uyga qadam bossang yoki derazam tagida ko'rinsang, qora mo'yloving bilan qulog'ingdan ikki buralab tushgan kokilingni boshingdan judo qilmasam, azbaroyi Xudo, Terentiy Korj degan otimni boshqa qo'yaman!» – deb gardaniga bir musht urib jo'natib yubordi. Pyotr oyog'i yerga tegmay urra qochdi. Xullas, o'pisha-o'pisha axiri qo'lga tushishdi. Bechoralar bir-biridan judo bo'ldi. Bundan keyin qishloqda zARBOP kiygan, shop-shaloplilik, mo'ylovdor, oyog'ida jing'iroqlik, kissasi butxonamizning jomchisi Tarasning hamyonidek jaranglagan bir polyak Korjnikiga qatnab yurgan emish, degan gap tarqadi. Qora qosh

qizi bor otanikiga ko'p keluvchilarning maqsadi nima-ligi ma'lum. Bir kun Pidorka ukasi Ivasni qo'lidan ushlab debdi: «Jonom ukam Ivas, opang sendan o'rgilsin. Darrov yugurganingcha Petrusaning qoshiga bor, yoydan chiqqan o'qdek yugur, nima desam borib ayt, bo'ta ko'zlarini suyardim, oq yuzidan o'pardim, nima qilayki, qismat buni menga nasib qilmadi. Ko'z yoshimdan necha-necha ro'mol ho'l bo'ldi, ichim qorong'i, ko'nglim buzuq, o'z otam dushmanim bo'ldi. Ko'nglim bo'limgan kishiga bermoqchi bo'ldi. Borib ayt, to'y bo'lmoqchi, ammo to'y emas, aza bo'lur, qo'biz bilan surnay chalimmas, ruhoniy kelib janoza o'qiydi, qaylig'im bilan o'yin tushmayman, meni ko'tarib borurlar. Qaro yer uyim bo'lur, uyimning tomiga mo'ri emas, yog'och but tikilur!»

Ma'sum, begunoh bola shirin tili bilan Pidorkaning bu so'zlarini kelib aytganda Pyotrning es-hushi ketib ag'rayib qoldi. «Men baxti qora Qrimga, undan Turk mamlakatiga borib, oltin-kumush talab, dunyo orttirib, so'ng qoshingga bormoqchi edim, e jononim. Ni-yatimdan qaytdim. Yomon ko'z tushdi bizga. Suvdag'i tilla balig'im, men ham qilurman to'y, ammo bu to'yda nikoh o'qilmas, tepamga pop o'rniqa qora qarg'a kelib qag'illar, dasht-u dala bo'lur makonim, qora bulut bo'lur soyabonim, burgut kelib cho'qir bo'ta ko'zlarim, sellar oqizar, shamol quritar suyaklarimni. Biroq na chora, kimdan o'pka qilay, hasratimni kimga aytay? Taqdiri Xudo shu ekan, taqdirga tan berishdan bo'lak chora yo'q! – dedi-da, to'ppa-to'g'ri araqxonaga keldi oshifta.

Marhum bobomning xolasi Pyotrni araqxonada ko'rib, tag'in mo'min kishilar ertangi namoz o'tamoq uchun butxonaga boradigan pallada uni araqxonada ko'rib, andak taajjublandi. Pyotr uncha-muncha emas, bordaniga yarim chelak araq so'raganida bechora xotin uyqudan cho'chib uyg'ongandek esankirab, baqraygancha qarab qoldi. Ammo bechora Pyotr alamini araqdan ham ololmadi. Araq tilini xuddi chiyon o'tdek

chaqar, zahar o'tdek achchiq ko'rinardi. Kosasini yerga urdi. Bu onda birov tepasiga kelib, do'rillagan tovush bilan: «Muncha xafasan yigit?» – deb so'radi. Boshini ko'tarib qarasa, Basavryuk. Vajohati qursin. Sochlari to'ng'iz ylidek, ko'zlar buqanikidek. «Hojating menga ma'lum, muroding mana bu!» – dedi-da, iblisona kulisirab kamariga bog'liq charm hamyonini jaranglatib qo'ydi. Pyotrning yuragi bir orziqib tushdi. Basavryuk tillalarini qo'lidan-qo'liga shopirib turib:

– Bay-bay, yiltillashini qara, jaranglashini qara! Bit-ta ish qilsang bas, shunaqadan bir to'pini olaverasan! – dedi bahaybat tovush chiqazib.

– Shayton! Mayli ber, nima desang qilay! – dedi Pyotr.

Ikkovi qo'l olishdi.

– Pyotr, voqif bo'l, hozir xo'b fursati, vaqt ni qo'ldan berma, ertaga Ivan Kupal kuni¹. Qirqquloq yilda bir marta shu kuni ochiladi. Tun yarmida Ayiqsoyda seni poplayman.

Pyotr kech kirishiga shunday intizor bo'ldiki, hatto tovuqlar ham hech qachon don separ vaqtga muncha ko'z tikmagandir, deb o'layman. Daraxtning soyasi uzaydimi, botayotgan oftob qizardimi yo'qmi, deb har onda bir qarar, toqati tobora toq bo'lib, sabri chidamasdi. Munchayam kun uzaydi-ya! Xudoning kuni yo'lda quyrug'ini yo'qotib qo'yganga o'xshaydi. Niho-yat kun botdi, osmonning bir yoqqinasi qizarib, xira tortdi, dasht-u dalaga salqin tushdi. Avval g'ira-shira kech bo'lib, keyin qorong'i tushdi, zo'rg'a kech bo'ldida. Pyotr, yuragi qinidan chiqquday bo'lib yo'nga tushdi, daraxtzor tepasidan sekin tushib, Ayiqsoy degan adirga tushdi. Basavryuk allaqachon kelib, uni poylab

¹ Ivan Kupal – 23-iyun bilan 24-iyun kechasida o'tkaziladigan bayram. Bu kecha qilinadigan juda eski rasm-odatlар Ivan kechasi bilan bog'liq bo'lgan. Xalq bu kecha paporotnik degan o't qip-qizil cho'g'dek bo'lib ochiladi, bu gulni uzgan odam dunyo topadi, so'ngra o'simliklar bilan hayvonlar tilini bilib oladi, lekin uni uzish juda qiyin, chunki jinlar uzgani qo'ymaydi, deb ishonadi.

o'tirgan ekan. Tim qorong'i, hech narsa ko'rinnmaydi. Ikkovi qo'l ushlashib chakalak bo'lib o'sib yotgan tikanlarni ushlab, har qadamda bir qoqinib, botqoq yerdan zo'rg'a yurib borardi. Bora-bora sayhon yerga chiqdilar. Petro u yon-bu yoniga alanglab qarab qo'ydi; bu yerga sira kelmagandi. Basavryuk ham shu yerga kelib to'xtadi.

– Oldingda ko'riniib turgan uch tepe bormi, unda rang-barang gullar ko'p. Ammo u gullardan bittasini uza ko'rma. Qirqqulok ochilsa darrov uz, orqangda nima bo'lsa ham sira qayrilib qarama.

Pyotr undan bir narsa so'ramoqchi edi, qarasa bir dan g'oyib bo'lib qoldi. Pyotr, ko'rsatgan uch tepe oldiga kelib qarasa, hech narsa ko'rinnmaydi, gul qayoqda? Burgan o't qop-qorayib ko'rinnardi, xolos. Qalinligidan undan boshqa hech o't ko'rinnmasdi. Osmonda chaqmoq chaqilib, umrida sira ko'rmagan turli-tuman gullar chamandek ochilib ketdi. Gullar orasida qirqqulokning barglari ham ko'rindi. Pyotr gumonsirab ikki biqinini ushlagancha hayol surib, hayron bo'lib qoldi.

– Bu xil o'tlarni kuniga o'n marta ko'raman, buning nimasi taajjub? Nimasi g'alati? Shayton meni ahmoq qilganga o'xshaydi.

Bir mahal qarasa, kichkina qizil gul ochilib turibdiyu, xuddi joni bordek qimirlaydi. Darvoqe, ajoyib ekan, qimirlagan sari katta bo'lib, qip-qizil cho'g'dek yondi. Bir mahal bir uchqun chiqib, chars etgan ovoz chiqdi, keyin gul xuddi uning ko'zi tagiga kelib, o'tdek yonib ochilib ketdi, uning ravshanida boshqa gullar ham ko'rindi.

Pyotr ko'nglida, endi uzsam bo'lar, dedi-da, qo'lini uzatdi. U qo'l uzatishi bilan uning orqasida bir necha yuz tukli qollar ham gulga uzatildi. Orqasida bir narsa hadeb sakraganday bolardi. Ko'zini chirt yumib, gulga qo'l uzatib yulib oldi. Bir zumda hammasi g'oyib bo'lib, jimjit bo'lib qoldi. To'nkada xuddi murdadek ko'karib Basavryuk o'tripti. Taqir qimirlamaydi. Ikki ko'zi bir

narsaga tikilib turipti, ammo bu narsa undan boshqa hech kimga ko'rinnmasa kerak. Og'zi sal ochiq, churq etmay o'tiripti. Shunday jimjitki, odamning vahimasi keladi! Bir mahal hushtak chalgandek bir tovush chiqdi. Pyotrning ichiga g'ulg'ula tushdi, uning nazarida o't qimirlab, gullar kumush qo'ng'iroqdek jaranglab, bir-biri bilan so'zlasha boshlagandek bo'ldi. Daraxtlar shovillab, so'kinishni boshladidi... Basavryukning yuziga jon kirib, ko'zlarini yorishdi. «Zo'rg'a qaytib keldi-ya, yalmog'iz, deb qo'ydi jahl bilan Pyotr, hazir bo'l bir barno oldingga keladi, nima desa, aytganini qil, bo'lnasa baloga qolasan!» Buni deb butoqlik kaltak bilan tikaning orasini ochgandi, tovuq oyog'iga qo'ndirilgan bir uy ko'rindi. Basavryuk bir musht urgandi, uyning devori qimirlab, kattakon qora it angillagancha yugurib chiqdi-da, bir dumalab mushuk bo'ldi, keyin ikkoving ko'ziga chang soldi.

Basavryuk:

– Quturma, ajina kampir quturma! – dedi-da, keyin yaxshilab bir so'kdiki, uning bu so'kishini uncha-muncha odam eshitsa, yuragi yorilar edi. Bir mahal mushuk g'oyib bo'lib aft-basharasi qovjiragan olmadek burishgan-tirishgan, doldek ikki bukchaygan, burni qayrilib engagiga yopishib, yong'oq chaqadigan ombirga o'xshab qolgan badbashara bir kampir paydo bo'ldi. Pyotrning eti jimirlab: «Xo'b barno ekan!» – deb qo'ydi. Kampir uning qo'lidagi gulini yulib olib, ikki bukchaygancha, uzoq nimalarnidir pichirlab dam urdi, allaqanday suv purkadi. Og'zidan o'tlar chiqib, lablari ko'pirib ketdi, keyin gulni Pyotrga berib: «Tashla!» – dedi. Pyotr gulni tashlagandi, ajab bir holni ko'rди, gul yerga tushmasdan qorong'i kechada xuddi cho'g'dek yonib, suvda ketayotgan kemadek havoda yurib ketdi, bora-bora sekin pasayib uzoqqa borib tushdi, borib tushgan joyida tariqcha kichkina bir yulduzdek miltillab turdi. Kampir xirillab: – Shu yer! – dedi. Basavryuk Pyotrga kurakni tutqazib: – Kavla

shu yerni, Korja ham, sen ham tushingda ko'rmagan dunyo topasan! – dedi. Pyotr qo'liga tupurib, bir-ikki kavlagan edi, kurak qattiq bir narsaga qadaldi. Yaxshi-roq qarasa temir qoplangan sandiqcha, qo'lini uzatib sandiqni tortib olmoqchi bo'lgandi, sandiq yerga qarab kirib ketaverdi. Orqasida birov qahqaha urib kuldil, lekin bu kulgi ilonning vishillaganiga o'xshadi. Kampir: «Odamzod qonidan menga topib bermaguningcha til-lalar senga tegmaydi», – dedi-da, ustiga oq choyshab yopingan olti-yetti yashar bolani olib kelib, boshini ke-sishga ishora qildi. Pyotr taxta bo'lib qoldi. «Arzimagan narsaga odam qonini to'kaymi, tag'in begunoh ma'sum go'dakni-ya!» Jahl bilan bolaning boshiga yopingan choyshabni tortib qarasa, bola Ivas ekan. Bechora go'dak qo'llarini ko'kragiga qo'yib qovushtirib yotibdi, boshi osilib qolibdi... Pyotr achchig'i chiqib qo'lida pi-choq bilan kampir tepasiga kelib qo'lini ko'tarishi bilan Basavryuk shunday bir baqirdiki, ovozi tig'i parrondek orqasini teshib ketgandek bo'ldi.

– Qiz badaliga nima va'da qilgan eding?..

Ajina kampir yerni bir tepgandi, yerdan ko'm-ko'k olov chiqib ketdi. Olovning o'ttasi xuddi oq aqiqdek yorishib ketib, yer tagida nimaiki bor bo'lsa, hammasi ravshan ko'rindi. Sandiq-sandiq qizil oltinlar, qimmatbaho javohirlar ular oyog'i ostida ko'rindi. Pyotrning ko'zları o'ynab ketdi, boshi aylandi... Telbalardek pichoqni qo'liga oldi, ma'sum go'dakning qoni tirqirab ko'ziga sachradi... Ib-lisona qahqaha olamni bosdi, bahaybat alvastilar uning oldida sakrardi. Yalmog'iz kampir och bo'ridek boshsiz tanaga yopishib, qonini ichardi... Pyotrning boshi aylandi, bor kuch-quvvatini yig'ib, yugurib ketdi. Nazarida, butun borliq qizil qonga bo'yaldi, daraxtlar ham qonga bo'yalib o't bo'lib yonar, faryod qilardi. Osmon yorilib, larzaga keldi. Chaqmoq chaqqandek har tarafga o't so-childi. Darmoni qurib, xarob uyiga zo'rg'a yetib keldi va go'yo uni birov o'roq bilan o'rgandek tappa yiqildi-yu, o'likdek qotib uqlab qoldi.

Pyotr shu holatda ikki kecha-yu ikki kunduz taxta bo'lib yotdi. Uchinchi kunga o'tganda uyg'onib, uyingning to'rt tarafiga alanglab qaradi, lekin nima voqea bo'lganini hech eslolmadi. Esi cho'ntagidan bir chaqa chiqishi qiyin bo'lgan qashshoq mardikorning hamyoniga o'xshardi. Bir kerishib olgach, oyog'i ostida bir narsa jiringlab ketganini eshitdi, qarasa ikki xalta oltin. Ana shundan keyin esiga kelib dunyo izlagani, chakalakda yolg'iz qolib qo'rqqani yodiga tushdi. Ammo bu dunyoni qanday va nimaning badaliga topganini sira eslay olmadi.

Korj xaltadagi oltinlarni ko'rib, iyib ketdi. «Sada-g'ang ketay chiroyligim Petrus! Yomon ko'rarmidim men seni? O'z o'glimdek ko'rmasmidim men seni?» Mug'ombir chol shunday tilyog'lamatlik qilib avradiki, Pyotr yig'lab yubordi. Pidorka Ivasni lo'lilar o'g'irlab ketganini gapirib berdi. Uning aqalli aft-basharasi ham Pyotrnинг esida qolmabdi, la'natni shayton shunchalik esini olib qo'yipti. Sustlik qiladigan vaqt emas, darrov polyakni tumshug'iga mushtlab jo'natdilar-u, to'yni boshlashdi. Non-u kulchalar yopishdi, ro'molu ro'molchalar tikishdi, bir bochka araq ham olib kelisti. Kelin-kuyovni to'rga o'tqazib non ushatishdi, nog'ora-yu do'mbiralar, karnay-u surnaylar, qo'bizlar chalanib to'y-u tomosha boshlandi.

Burungi to'ylar endigiga o'xshamasdi. Bobomning xolasi gapirib beraversa, og'zimiz ochilib qolardi. Qizaloqlar ko'k-u sariq, rang-barang uqalardan tikilib, tepasiga zar qadalgan qalpoqchalarni boshlariga kiyib, chokiga qizil ipakdan mag'iz qo'yilib tikilgan, mayda piston qadalgan yupqa ko'ylak, oyoqlariga nag'al qoq-qan baland poshnali saxtiyon etik kiyib olib, tovusdekk xiromon bo'lib pirpiragiga olib o'yinga tushib ketishardi. Juvonlar tepasi kimxobdan, orqasidagi o'ymasidan tagidagi zar do'ppi ko'rinish turgan kema suratli qalpoq kiyardi. Qalpoqning ikki yog'ida mayin qo'zi barradan qunduz bo'lardi. Qimmatbaho ko'k shohidan qizil jiyak

tutgan mursak kiyardi. O'yinga tushganda bitta-bitta bo'lib, bellarini ushlab olib, savlat bilan bir tekisda o'ynashardi. Yigitlar bo'lsa baland telpak, nozik movut kamzul, bellarida zarrin kamar, og'izlarida chilim, qiz-juvonlar oldiga kelib hazil-mutoyibalar bilan gap otib, xushomad qilib ular ko'nglini ovlardi. Korj ham yosh-larni ko'rib, sabri chidamasdan o'yinga tushib ketdi. Mo'ysafid chol qo'liga do'mbira olib, mushtugini tortib, may to'la kosani boshiga qo'yib, cho'kkalab o'yinga tushib ketdi. Yoshlar xaxolashib kulishdi. O'yin-kulgi deb nimalarni qilishmasdi! Yuzlariga odam qiyofasiga o'xshamagan allanimalar kiyib olishardi. Endigi to'ylarda kiyadigan suratlarga sira o'xshamasdi. Hozirgilar nima bo'libdi? Lo'li bilan o'ris bo'ladi, xolos. U vaqtida biri juhud, biri shayton suratini kiyib olib, boshida xo'b apoq-chapoq o'pishib turib, keyin bir-birining kokiliga yopishib ketardi. Azbaroyi Xudo, shunaqa kulgi bo'lardiki, ichaklar uzilib ketardi. Ba'zida tatarcha, turkcha liboslarda kiyinib chiqardilar, kiyimlar ham o'tdek lovillardi... Qiziqchilig-u masxarabozlik boshlansa, tavba derdingiz... Marhum bobomning xolasи ham shu to'yda bor ekan, uni juda qiziq qilibdilari. Uning egnida keng-mo'l tatarcha kiyim ekan, mehmonlarga sharob quyib berayotganda bir palakat kelib ustiga araq sepib yuboribdi, yana bir palakat qurg'ur kelib o't chaqib yuborgan ekan, birdan yonib ketibdi. Xola bechoraning esi chiqib ketib, odamlarning oldida kiyimlarini yechib tashlayveribdi, xaxolagan kulgini qo'yavering. Yarmarkada ham bunaqa qiy-chuv bo'lmaydi. Xullas, keksalar haligacha bunday yaxshi to'y bo'lgan emas, deydi.

Pidorka bilan Petrus boyvachchalardek yashay boshlashdi. Nima desalar tayyor, hech narsaga muh-tojligi yo'q... Biroq o'zini bilgan yaxshilar ularning yurish-turishini ko'rib, boshini chayqab qo'yardi. Hamma: «Shaytondan yaxshilik chiqmaydi. Odamni yo'ldan ozdirgan shaytonga imonini sotmagan bo'lsa, shuncha

dunyo unga qayoqdan kelardi. Shuncha oltinni qayerdan olardi? Nega bo'lnasa bunga davlat kelib bo'yigan kundan boshlab, Basavryuk ko'zdan g'oyib bo'lib qoldi?» – deyishardi. Behuda gaplarni odamlarning o'zi to'qiydi, deysiz-a? Yo'q, oradan bir oy o'tar-o'tmas Petrusni hech kim tanimaydigan bo'lib qoldi. Nega, nima boldi, buni Xudodan boshqa hech kim bilmaydi. O'tirgan joyida indamasdan o'tiraveradi. Xayol suradi, xolos. Yakkash bir narsani o'ylagani-o'ylagan. Pidorka bir iloji qilib uni gapga solsa, esi o'ziga kelib so'zlashadi, chiroyi ochiladi-yu, lekin bexosdan ko'zi xaltaga tu-shib qolib: «Shoshma, shoshma, esimdan chiqdi!» – deb baqiradi-da, yana xayol surib, bir narsani o'ylab ketadi. Ba'zida bir joyda uzoq o'tirib xayol surib ketsa, bir narsa esiga kelganday bo'ladi-yu, tag'in xotirasidan ko'tarilib ketadi. Araqxonada o'tirgani, araq keltirib berilgani, araqning achchig'i, ko'ngli tortmagani, birov kelib yelkasiga qoqqani sal esiga kelganday bo'ladi-yu, ammo undan u yog'ini tag'in bilolmaydi, xuddi qora parda to'silgandek, qora terga g'arq bo'lib, yuzlaridan chak-chak ter tomadi-da, madori ketib yana o'rniga kelib o'tiradi.

Pidorkaning qilmagan ishi qolmadi; folbinga ham ko'rsatdi, cho'chigandanmi deb qur'a¹ tashlatib ham ko'rdi, qorin og'rig'idan kinna soldirib ham ko'rdi, bularning hech qaysisi foyda bermadi. Shu zaylda yoz ham o'tdi. Ko'p kishilar qazo qilib ketdi, sho'xroq, g'alatiroq kishilar urushga otlandi. Gala-gala o'daklar hali bizning ko'llardan ketgani yo'q; ammo qorabovurlar allaqachon ketdi. Dashtlar qizarib, g'aram qilib

¹ Qur'a tashlash – odam bir narsadan cho'chigan bo'lsa, nimadan cho'chiganini bilish uchun qilinadigan irim. Qo'rg'oshin bilan mum eritilib, suvga tashlanadi, bular suvda nimaning suratiga kirsalar, odam shundan cho'chigan bo'ladi va bu amaldan keyin qo'rqqan odam tuzalib ketadi. Qorin og'rig'idan kinna soldirish uchun ozroq kanop kuydirilib, sopol idishga solinadi, so'ngra bir tovoq suvni betobning qorniga qo'yib, haligi idishni tovoqdagi suvga to'nkarib qo'ygach, duosini o'qib, suvdan bir qoshiq olib betobga beriladi. (Yozuvchidan.)

qo'yilgan bug'doylar har qadamda xuddi kazaklar-ning qalpog'idek qubba bo'lib turardi. Yo'llarda o'tin, shox ortgan aravalar uchrardi. Yer qotib, unda-bunda muzladi. Osmondan qor uchqunlab, daraxtlarning shoxi qirovdan po'stin kiydi. Ayoz kunlari ham kelib, qizil tomoq tog' chumchuqlari polyak boyvachchala-ridek oliftalik qilib qor ichidan don qidirar, go'daklar uzun-uzun tayoq bilan muzda pirildoq pirillatardi, ularning otalari bolsa, qahraton qishning sovug'idan xafa bo'lib, xo'bgina so'qmoq yoki shamollab kelmoq uchun yo bo'lmasa bostirmaga chiqib bo'rsib qolgan donni yanchish uchun har zamonda bir og'izlarida mushtuk bilan tashqari chiqmasalar, boshqa vaqt pechkadan sira tushmay bahuzur yotardilar. Qor ham erib, cho'rtan baliq dumi bilan muzni urib yoradigan vaqt ham bo'lib qoldi, lekin Pyotrning holi o'sha-o'sha, qaytaga tobora battar bo'ldi. Xaltalarni oyog'i tagiga bosib, uyning o'rtasida qoqqan qoziqdek o'tiraverardi. Odam yovvoyisidek soqol-mo'ylovleri o'sib, kim ko'rsa qo'rqedigan bo'lib qoldi. Xayol surgani-surgan, bir narsani o'ylagani-o'ylagan, esiga kelmaganiga achchig'i kelib, jahli chiqardi, goh-gohida birdaniga o'rnidan turib ketar, bir narsani tutmoqchi bo'lgandek, bir yerga tikilib olib qo'llarini qimirlataverardi. Qachonlari yodidan ko'tarilib ketgan bir so'zni esiga solmoqchi bo'lgandek lablarini pichirlatib turib, keyin mahkam yumib olardi... Telbalanib qo'llarini tishlar, chaynar, alamidan sochini yular, keyin kuchdan ketib, horib, charchab, esi og'ib yiqlardi. So'ngra, o'ylab ketar, yana tentaklanar, yana qiynalardi... Xudoning qanday balosi ekan? Pidorka jonidan to'ydi. Avval uyda yolg'iz qolgani qo'rqedisti, keyin noiloj ko'nikib qoldi-yu, lekin avvalgi Pidorka yo'q edi, yuzida qizili, labida kulgisi qolmadidi. Tamom bo'ldi. Qurib xazon bo'ldi, yig'layverib ko'zlarida nur qolmadidi. Bir kuni birovning ayolga rahmi kelib: «Ayiqsoyda bir folbin bor, u bilmaydigan dard dunyoda yo'q emish, shunga borib ko'r» deb maslahat beribdi.

Pidorka buni ham qilib ko'ray deb, kampir bilan u yoq-bu yoqdan gaplashib bo'lgandan keyin uni birgalikda uyiga borishga ko'ndiribdi. Ivan Kupala bayramining xuddi arafa kechasi ekan. Esi og'ib, behush so'rida yotgan Pyotr kelgan mehmonni ham payqamabdi. Bir-rozdan keyin asta-sekin o'rnidan turib, tikilib-tikilib qaragandan keyin, xuddi jallod kelib boshini kesayot-gandek dag'-dag' titrab, sochlari tikkayib, shunday bahaybat ovoz bilan kulgan ekan, Pidorkaning yuragi yorilguday bo'libdi. Xaxolab kulganicha baqirib: «Yodimga tushdi, yodimga!» – deya solib, boltani olib kampirga otsa, bolta eman eshikka tegib, ikki barmoq kirib ketibdi. Kampir birpasda g'oyib bo'lib, oq ko'ylakli, boshi o'rog'liq olti-yetti yashar bola uyning o'rtasida paydo bo'libdi. Bolaning boshidan choyshab tushib ketishi bilan Pidorka qichqirib, «Ivas» deganicha yugurib borsa, xayoldek ko'ringan bolaning bosh-oyog'i qora qonga bo'yalib, uy qizg'ish bo'lib ketdi... Pidorka qo'rqib yurgurgancha dahlizga chiqdi. Ammo esi o'ziga kelib, bolaga qaray desa, u dahlizga chiqishi bilan eshik qattiq yopilib qolib hech ochilmadi. Odam to'planib, eshikni xo'b taqillatishdi, sira ochilmagandan keyin buzib ichkari kirsalar, hech kim yo'q emish. Uyni tutun bosib, Petrus turgan joyda bir to'p kul paydo bo'lib qolipti, kulning yon-atrofidan hovur chiqardi. Darrov xalta-larni olib qarashsa, oltin o'rniqa sopol parchalar qolibdi. Kelganlar qoqqan qoziqdek ag'rayib, murtlarini qimirlatgani ham hollari bo'lmay, hayron bo'lib qotib qolishdi, ularning qo'rqqani shunchalik.

Keyin nima bo'lgani esimda yo'q. Pidorka ziyoratga ketishni niyat qilib qo'ydi. Otasidan qolgan mol-bisotini yig'ishtirdi-da, bir necha kun o'tar-o'tmas qishloq-dan nom-nishonsiz yo'qolib ketdi. Ba'zi jonkuyar kam-pirlar uni ham Pyotr yoniga yubormoqchi bo'lgandi, haytovur Kiyevdan kelgan bir kazak bundagi Lavrada¹

¹ Lavra – tarki dunyo qilib, umrini toat-ibodat bilan o'tkazmoqchi bo'lgan

ozib, qoq suyak bo'lib qolgan bir so'fi xotinni ko'rdim, tinmasdan duo-fotiha o'qirdi, hamqishloqlarimiz bu xotinni taniydi, Pidorka ekan, haligacha hech kimga hech narsa demas emish; piyoda kelgan ekan, hazrat Maryamning suratiga toza toshlar qadalgan shunday g'alati bir chorcho'p keltiriptiki, kishining ko'zini qamashtirar emish, deb so'zlab berdi.

Shoshmang, gap hali tamom bo'lgani yo'q. Petrusni shayton olib ketgan kuni Basavryuk yana paydo bo'lib qolibdi. Ammo endi hech kim uning yaqiniga yo'lamadi, chunki ko'milgan dunyolarni topib olish uchun odam suratiga kirgan shaytonligi hammaga ma'lum bo'ldi. Harom qo'lga dunyo kirmaganidan yigit-yalanglarni aldab yoniga tortar ekan. Yerto'ladaqilarning hammasi shu yili qishloqqa ko'chib chiqdi, lekin la'nati Basavryuk qishloqda ham odamlarni tinch qo'ymadidi. Marhum bobomning xolasi: «Basavryuk hammadan menga yomonlik qilardi, Oposhnya yo'lidagi araqxonani tashlab ketganimga alam qilib, mendan o'ch olishga ko'p harakat qildi» – derdi. Bir kun qishloqning kattalari majlis qurib, binoyidek suhbatlashib o'tirgan edilar, dasturxonda, uncha-muncha desam yolg'on bo'lar, butunicha kabob qilingan qo'yedi. U yoq-bu yoq-dan so'zlashib gaplari har xil ajoyibot-u g'aroyibotlar, karomat va mo'jizalar borasiga o'tdi. Bir mahal o'tirganlarning biri bo'lsa mayli-ya, birdaniga hammasi nazarida qo'yla jon kirib boshini ko'targandek bo'lipti, ko'zlariga nur kirib, alanglab qarabdi, tikan-dek mo'ylov chiqarib o'tirganlarga tikilib mo'ylovini qimirlatib qo'yibdi. Qo'yning boshiga qarasalar, Basavryuk ekan, hammasi darrov tanishibdi. Bobomning xolasi, hali zamon araq so'rab qolmasa go'rga edi, deb vahimaga tushib qolipti... Bechora qishloq kattalari bosh kiyimlarini kiya solib urra qochibdi. Cherkov mutasaddisi ba'zida bobom bilan mayxo'rlik qilib, suh-

batlashib o'tirishni yaxshi ko'rар ekan. Bir kun may ichib o'tirganlarida, bir-ikki marta ichar-ichmas kosa bo'shab qolib, unga qarab salom beraveribdi. Bechora darrov kosani qo'yib, hadeb cho'qinar emish... Uning xotini katta tog'orada xamir qorayotgan ekan, bir mahal tog'ora sakrab qochib ketipti. «Hay, huy!» degani bilan qulq solish qayoqda. Tog'ora uyning o'rtasiga tushib olib, belini ushlab o'yinga tushaveribdi. Kulasisz-da, lekin sho'rlik bobolarimizga oson emasdi. Afanasiy bobo har kuni ko'chama-ko'cha yurib, muborak suvdan sepib shaytonni daf qilardi. Marhum bobomning xolasi, yaqin-yaqinda ham kech bo'lar-bo'lmas birov tomni taqirlatib, devorni tirmalagani-tirmalagan derdi.

Nimasini aytay. Shu qishlog'imiz turgan joyning o'zida qanday edi-ku. Endi tinchib qoldi, bo'lmasa yaqin-yaqinlarda marhum otam bilardi, men ham, araqxon-a buzilib ketsa ham, bu zoting qurg'ur jinlar o'zi yana tuzatib olardi va bu yerdan odam bolasi o'tolmasdi. Qorakuya bosgan mo'ridan burqirab chiqqan tutun osmon-u falakka shunday baland chiqib ketardiki, qaragan odamning do'ppisi yerga tushardi, tutun osmonga chiqib dala-yu dashtga o't yog'ardi, nomuborak otini tilga olmagan ham yaxshi, mal'un itvachcha ana shu jinxona uyida o'tirganda shunday chinqirardiki, eman-zordagi zog'chalar ham qo'rqib qag'illashar, har tarafga to'zib uchishardi.

MAY KECHASI YOKI SUV PARISI

Nima jin urdi! Bu Iso ummatlarini,
tovushqon quvlagan tozidek
yugurib-yeladilar-u, ishlari sira
o'nglanmaydi. Nimagaki shayton aralashsa,
xuddi osmondan tushgandek birpasda hozir-u nozir
bo'la qoladi.

GANNA

...qishlog'ining ko'cha-ko'ylarida ashula ovozlari xuddi seldek oqardi. Kunduzning ish va tashvishi bilan charchab, horigan yigit-yalang va qizaloqlar osmon charaqlab turgan paytda ko'ngillaridagi xursandchiligi ni mungli qo'shiqlarda izhor qilmoq bo'lib, yig'ilishadigan payt edi. Doim xomush ko'ringan oqshom, bor-u yo'qni go'yo bir parda ichiga yashirib, ko'z ilg'amas olisga qochirdi-yu, shirin xayollar ichida ko'm-ko'k osmonni og'ushiga oldi. G'ira-shira qorong'i tushib qolsa ham ashulalar tingladi. Qishloq oqsoqolining o'g'li bo'z yigit Levko ashulachilarga sekkingina chap berib, qo'lida do'mbira bilan bir tomonga boraverdi. Boshida barra tel-pak, do'mbirasini ting'llatib, asta-sekin o'yinga tushib ketyabdi. Oldida pastak-pastak olchalar ekilgan uyning eshigiga kelib to'xtadi. Kimning uyi ekan bu? Kimning eshigi ekan bu? U biroz jim turgach, do'mbirasini chalib qo'shiq boshladи:

Kun botganga o'xshaydi,
Shom bo'lganga o'xshaydi,
Tezroq chiqqin jonginam,
Vaqt yetganga o'xshaydi!

Yigit qo'shig'ini bas qilib derazaga yaqinroq keldida:

– Jodu ko'zli jononim qattiq uxlab qolganga o'xshaydi, – dedi. – Galyaxon, Galyaxon! Uxlab qoldingmi yoki chiqqing kelmaydimi? Birov ko'rib qoladi deb qo'rqasanmi? Yoki oppoq yuzimga sovuq tegmasin deysanmi? Qo'rqma, hech kim yo'q, sovuq emas. Birov kelib qolsa, bag'rimga o'rab, kamarim bilan chirmab quchoqlab olaman, hech kim bizni ko'rmaydi. Sovqotsang bag'rimga bosay, oppoq oyoqlaringga telpagim-

ni kiygizib qo'yay, o'pib-o'pib isitay. Dil-u jonim, tilla balig'im, marjonim bir nafas men bilan bo'l. Hech bo'masa qo'lingni derazadan chiqarib, oq bilagingni ko'rsat... – Tortgan xo'rligi o'ziga ta'sir qilib ori kelgan kishilar singari zarda bilan ovozini balandroq ko'tarib: – O'ziga bino qo'ygan mag'rur qiz, uxlaganing yolg'on, meni mazax qilyapsan! – deb qo'ydi.

Yoqasini ochib tashlab, telpagini dol kiyib olib, do'mbirasini ding'illatganicha asta-sekin deraza oldidan nariroq ketdi. Shu paytda eshikning yog'och tutqichi aylanib, g'irchillab eshik ochildi-da, bahordek ochilgan o'n yetti yashar qiz g'ira-shira qorong'ida eshik tutqichini qo'lidan chiqazmay, u yoq-bu yoqqa alanglab, sekin ostonadan o'tdi. Shamchiroqdek ko'zlar g'ira-shira qorong'ida javdirab yonardi. Bo'ynidagi qizil marjoni yiltirar, uyalinqirab ikki beti naqsh olmadek qizargan; uning qizargani yigitning o'tkir ko'zidan yashirin qolmadi.

Qiz ohistagina so'zlab:

– Muncha besabrsiz, darrov xafa bo'lganiningizni qarang! Nega bunday bemahalda keldingiz, ko'cha to'la odam bo'lsa... Qaltirab ketyapman... – dedi.

Yigit, uzun charmga bog'lab, bo'yniga osib olgan do'mbirasini orqasiga tashlab yubordi-da:

– Qo'y, qaltirama, gulnorim, kel bag'rimga kir! – deb qizni eshik tagida yoniga o'tqazarkan, bag'riga tortdi. – Bilib qo'y, seni bir soat ko'rmasam toqat qilolmayman.

Qiz yigitga qarab, o'ylanqirab, termilib turgach, uning so'zini bo'lib, dedi:

– Bilasanmi, ko'nglimga bir xil gaplar keladi. Birov bundan buyon ikkoving bir-biringni ko'rolmasdan zor bo'lasan, deb qulog'imga shivirlaganday bo'ladi. Qishlog'ingiz odamlari yomon ekan, qizlar meni ko'rgani ko'zi yo'q, yigitlar bo'lsa... Hatto onam ham yaqindan beri menga ho'mrayib qaraydigan bo'lib qoldi. Rostini aytsam, begona yurtda vaqtim ancha chog' edi.

Oxirgi so'zlarni aytganda qizning chehrasida al-laqanday sog'inish alomati ko'rindi.

– O'z yurtingga kelganingga ikki oygina bo'ldi-ku, darrov zerikdingmi. Menden ham bezor bo'lgandirsan?

Qiz kulimsirab turib:

– Yo'q, yo'q, sendan nega bezor bo'lay, qora ko'z yigit, sening oshig'ingman, quralay ko'zingga borman, menga har qaraganingda ko'nglim kulganday bo'ladi, quvonaman, suyunaman. Qora mo'ylovingni uchirga-ning, ko'chada yurganining, do'mbirangni chalib kuy-laganing o'zingga shunday yarashadi, men shunaqa zavqlanib qaraymanki.

Yigit qizni bag'riga qattiqroq bosib, yuzlaridan o'parkan:

– E, jonim oromi! – deb suydi.

– Shoshma! Turatur, Levko! Avval menga ayt, otang bilan gaplashdingmi?

Yigit xuddi uyqudan seskanib turgan odamdek:

– Niman? Ha, seni olmoqchiligidagi, sen menga tegmoqchiligidagi aytdim, – dedi, biroq «aytdim»ga kel-ganda, biroz ma'yuslanib qoldi.

– Xo'sh?

– Nima deb bo'ladi unga? Mug'ombir chol odatini qilib, o'zini eshitmaganga soldi. Karlikka olib, har qayerda sandiroqlab yurasan, ko'chalarda bolalar bilan sho'xlik qilib, tentirab yurasan, deb koyib ket-di. Biroq jonim Galya, sen xafa bo'lma! Agar otamni ko'ndirmasam, azbaroyi Xudo, yigit emasman.

– Levko, to'g'ri aytasan, nima desang aytganining bo'ladi, o'zimdan qiyos qilaman, ba'zida karligim tutib gapingga kirmay deyman-u, lekin bir gap ayt-sang qaytarolmayman, beixtiyor ko'naman! – Qiz boshini yigit yelkasiga qo'yib: – Aldama, tag'in al-dama! – deb qo'ydi-da, Ukrainianing bepoyon, ko'm-ko'k iliq osmoniga, ular tepasida shoxlarini shokilda qilib turgan olcha daraxtlariga tikilib qarab qoldi. – Anavini qara, hov anavi yodda yulduzlar

miltillab qoldi: bitta, ikkita, uchta, to'rtta, besh-ta... Farishtalar yorug' uylarining derazasini ochib bizga qarayapti-a, rostmi shu? Levko, rostmi, deyman? Farishtalar bizning yerimizga qarayapti-a? Odamlarda ham qushlarnikidek qanot bo'lsa nima qilar ekan-a, osmonga, hov o'sha balandlarga chiq-sang... Voy, odam qo'rqiadi-ya! Har qanday baland eman ham osmonga yetmas. Allaqaysi yurtda uchi osmonga tegadigan daraxt bormish, bizning pasxa bayramida kechasi Xudo shu daraxtdan pastga tusharkan.

– Yo'q, Galyajon, Xudoning osmondan yergacha yetadigan uzun shotisi bor. Pasxa kuni farishtalar uni yerga tushiradi. Xudo shotisiga oyoq qo'yishi bilan jami shaytonlar qochib, do'zaxga kirib ketadi, shuning uchun pasxa bo'lganda yer yuzida bitta ham shayton qolmaydi.

Galya atrofdagi qora tollar sochini yoyib, yig'layotgandek shokildalarini suvga osiltirib turgan majnuntollar soyasida qolgan hovuzga ishora qilib:

– Hovuzning suvi bola yotgan belanchak kabi tebrangandek mavjlanadi-ya! – dedi. Hovuz go'yo kuch-quvvatdan ketgan notavon bir choldek, baland-dagi qora osmonni sovuq bag'rige bosgan, muhtasham tun shohining hali zamon paydo bo'lishini bil-gandek, kechaning iliq havosida xira yonib sayr etgan yulduzlarni sovuq-sovuq o'par edi. Tepadagi chakalak oldida derazalari yopiq eski yog'ochuy jimjit uyquda edi. Uyning tomini maysa-yu, alaf bosgan. Derazalari oldida shoxlab ketgan olma daraxtlari, chakalakdagi daraxtlar soya solib, uyni mudhish bir qorong'i bosgan, uydan pastroqdagi yong'oqlar hovuz bo'yigacha cho'zilib kelgan.

Galya ko'zini tepadagi uydan olmay, dedi:

– Xuddi tushda ko'rgandek bolaman, qachonlardir yoshligimda, onamnikida turgan chog'imda shu uy to'g'risida allaqanday vahimali gaplar eshitgan edim.

Levko, sen ham bilarsan, gapirib ber!

– Oppog'im, qurib ketsin, nima qilasan eshitib! Xotin-xalajlar, nodonlar nima gaplar to'qishmaydi. O'zingni o'zing vahimaga solib, uyqungni notinch qilib nima qilasan, kechasi qo'rqib u xlabel olmaysan.

Qiz yuzini yigit yuziga surtib, uni quchoqlab, dedi:

– Qora ko'z bo'z bola, ayt! Aytmaganingga qo'ymayman! Bo'lmasa, meni sevmas ekansan, boshqasi bor ekan-da! Qo'rqlmayman, tinch xlabelman, ayt! Aytmasang endi xlabel olmayman, nima ekan, deb o'ylayverib, tinchimayman... Ayt!..

– Qiz bolalarning shaytoni zo'r bo'ladi, degan gap rost ekan-da. Bo'lmasa, jonim, qulq sol. Burun zamonda shu uy yuzboshiniki edi. Yuzboshining sendek ko'hlik, oppoq qizi bor edi. Yuzboshining xotini o'lgach, xotin olmoqchi bo'ldi. «Ota, uylansang ham meni avvalgidek erkalatasanmi?» – deb so'rapti qizi. «Albatta, oppoq qizim, yana ko'proq erkalataman, bag'rimga yana qattiqroq bosaman! Isirg'a, marjonlarning eng yaxshisini olib beraman, qizim», – debdi otasi. Yuzboshi yosh xotinni yangi uyiga olib kelibdi. Yosh xotini ko'hlik, yuzlari naqsh olmadek qip-qizil edi. Biroq uyga kelishi bilan o'gay qizga shunday bir yomon qarab qo'ydiki, qizning yuragi orziqib, chin-qirib yubordi, keyin berahm o'gay ona kechgacha bir og'iz so'z aytmadni. Kechqurun bo'lganda yuzboshi yosh xotini bilan ichkari uyga kirib ketdi, qizi ham uyning eshiklarini berkitib olib, xo'rligi kelib yig'lay boshladi. Bir mahal qarasa, bahaybat qora mushuk sekin kirib kelayotganmish. Yunglari cho'g'dek yonar, yurganda tirnoqlari temirdek shaqillar emish. Qizcha qo'rqqanidan so'riga chiqib olsa, mushuk ham quvlab chiqipti, o'ringa chiqsa, mushuk ham chiqib, changal solib bo'g'moqchi bo'lgan ekan, qiz chinqirib uni irg'itib tashlasa, badbaxt mushuk yana kelibdi. Qizcha jon achchig'ida otasining devorda osig'liq tur-gan qilichini olib chopgan ekan, temir tirnoqli panja

uzilib tushib, mushuk miyovlagancha burchakka kirib g'oyib bo'libdi. Yuzboshining yosh xotini kech-gacha ichkari uydan chiqmay yotibdi. Ikki kundan keyin qo'lini mahkam bog'lab chiqibdi. Qizgina o'gay onasining ajina ekanini, qilich bilan uni chopganini fahmlabdi. To'rt kun deganda yuzboshi qiziga uyni supur-sidir, suv tashib ber, ichkari uyg'a kirma, deb uni cho'ridek qilib qo'ydi. Qiz bechoraga har qancha qiyin bo'lsa ham, noiloj, otasining aytganini qildi. Besh kun deganda, yuzboshi qizini oyoqyalang qilib, bir burda non bermay haydab yubordi. Qiz op-poq yuzini bekitib olib yig'lashini ana endi ko'r! «Bemehr otam, o'z qizingni o'zing qilding nobud! Shay-tonga topshirding imoningni, Xudoga soldim, Xudo kechirsin gunohingni. Men baxtiqaroga bu dunyoda turmoqni nasib qilmagan ekan!..» Shunday qilib, hov anavi uyni ko'ryapsanmi? – Levko barmog'i bilan tepalikdagi uyni ko'rsatib, so'zida davom etdi: – uydan nariroqda jartepa bor-ku, qiz ana shu tepaga chiqib, o'zini suvga tashladi, shundan beri nomi dunyodan o'chdi...

Galya jiqt-jiq yoshga to'lgan ko'zini yigitga qadarkan hayiqib:

– Ajina xotin-chi? – deb so'radi.

– Ajinami? Kampirlar gap-so'z tarqatibdi, go'yoki, shundan beri oydin kecha bo'lganda suvga oqqan xotin-qizlarning bari ana shu boqqa chiqib oydinda isinarmish, yuzboshining qizi ularga bosh emish. Bir kun kechasi qiz o'gay onasini hovuz bo'yida ko'rib qolib, chinqirganicha suvga tortib ketibdi. Biroq ajina bunda ham hiyla qilib, darrov suvga oqqanlarning biri surati-ga kirib olipti, shu bilan uni savalash uchun tayyorlanib qo'yilgan xipchindan qutilib qolibdi. Xotinlarning gapiga ishonib bo'ladimi! Yuzboshining qizi har kecha suvga oqqanlarni yig'ib, hammasining aftiga bir-bir qarab chiqarmish-u, lekin ajinani topolmasmish. Agar birov uning qo'liga tushsa, darrov ajinani topib ber,

bo'lmasa suvgaga botiraman, dermish. Jonim Galya, qariyalar shunaqa deydi!.. Endigi boy xo'jayin bu yerga mayxona solmoqchi bo'lib, atayin may tayyorlovchini yuboribdi... Shoshma, birovning ovozi kelyapti. Biznikiilar qo'shiq aytib kelishyapti... Xayr, xush qol, Galya! Tinchgina uxla, xotinlarning bunday gaplarini ko'p o'layverma!

U shunday deb mahkam quchoqlab bir o'pdi-yu, ketdi.

Galya qorayib turgan chakalakdan ko'zini olmay:

– Xayr, Levko! – deganicha o'ylanib qoldi.

Shu onda to'lgan muhtasham oy cho'g'dek qizarib, viqor bilan usqidan ko'tarila boshladi. Yarmi hali yerdan uzelgan bo'lmasa ham, yer yuzi ajib bir nurga to'lib, olam yorishdi. Hovuz jimir-jimir tovlandi. Qorayib turgan daraxtlarning ko'lankasi aniq ko'rindi.

Qizning orqasidan:

– Galya, xush qol! – degan ovoz chiqib, shu ondayoq birov uni o'pib oldi.
– Qaytib keldingmi? – dedi qayrilib qarab. Biroq boshqa yigitni ko'rib teskari qaradi.

Shu paytda birov yana:

– Xush qol, Galya! – deb yana o'pib oldi.

Galya xafa bo'lib:

– Qaysi go'r dan kelib qoldi yana bunisi! – deb qo'ydi.
– Xush qol, Galyajon!
– Yana bittasimi!
– Xush qol! Xush qol! Xush qol, Galya! Har tarafдан o'pa ketdilar.

Galya har qaysisi bir quchoqlab qolmoqchi bo'lib yopishayotgan o'spirin bolalar qolidan chiqishga urinib:

– Voy, galakashmay qolinglar! O'pichga to'ymas ekan-da bular! Yaqinda bular dastidan ko'chaga ham chiqib bo'lmaydi shekilli, – dedi-da qochib ketdi.

Eshik yopilib, temir zulfinning g'ijirlagani eshitildi.

OQSOQOL

Ukraina kechalarini bilasizmi? Yo'q, bilmaysiz! Tomosha qiling: osmonning o'rtaidan oy mo'ralab turibdi. Bepoyon osmon gumbazi kengayib, bag'ri ni yana kattaroq ochdi, kuydi, yondi. Yer yuzi kumushdek oqardi. Dilbar xushhavo g'ir-g'ir essa ham dimroq, huzur ila lazzatga to'lgan, anbar hididan olam muattar. Ajab bir xushhavo kecha! Go'zal kecha! Daraxtlar ulkan soya tashlab, sokinlikda viqor bilan jimjit qorayib turadi. Hovuzlar ham sokin, jimjit, yam-yashil sabzazor uning sovuq suvini, salqin soyasini quchib qamab olgandek. Chakalak bo'lib yotgan gilos-u qoraqatlar sovuqdan seskana-seskana tomirlarini suvga tiqib, kechaning mayin shabadasi asta-sekin kelib o'pib olganda, achchiqlanib javrayotgandek shitir-shitir qiladi. Borliq uyquda. Osmonda nimaiki bor bo'lsa, hammasi tirik, nafasi jonbaxsh, go'zalligi, ajab hashamati bor. Ko'ngil yayrab-yayrab ochilar, bahra olar, zavq-shavqlarga to'lib, taxti-taxtida birtalay samoviy porloq xayollar, go'zal ilhomlar tug'ilari. Chiroyli, g'o'zal kecha! Birpasda butun tabiatga jon kirdi, daraxtzorlar, biyobonlar, suvlar tirildi. Bulbul ham fig'onini boshladi, ko'kdagi oy ham uning ovoziga maftun bo'lib, tek turib qolganga o'xshaydi... Tepalikdagi qishloq go'yo bulbul nag'masidan mast bo'lib, uyquga ketgandek mudroq ichida yotibdi. Qator-qator uylar, pastak-pastak devorlar zulmat kechaning qorong'i quchog'idan chiqib, yanada ravshanroq ko'rinadi. Kechaning qo'shig'i tindi. Jimjitlik bosdi. Mo'min-qobil kishilar allaqa-chon uyquda. Unda-bunda, bitta-yarimta darchadan chiroq ko'rinadi, xolos. Faqat ba'zi uylarda ovqati bemahalga qolganlar bo'lsa, ostonaxonada o'tirib ovqat yemoqda.

– Ha, gopakka¹ bunday tushmasdi! Endi bildim, nega hech kelishmaydi dedim-a. Og‘aynim bekor ayt�ti. Qani, barakalla, tush o‘yinga: gop trala, gop trala! Gop, gop, gop! – O‘rtal yoshlik bir odam andak sarxush bo‘lib olib, ko‘chada o‘z-o‘zi bilan shu maqomda so‘zlashib borardi. – Azbaroyi Xudo, gopakka bunday tushilmaydi! Yolg‘on gapirib nima qilaman! Azbaroyi Xudo, bunday emas! Qani, gop trala, gop trala, gop, gop, gop!

– Jinni bo‘lib qolipti! Yosh bo‘lsa ham go‘rgaydi. Xirsdek odam bolalarga mayna bo‘lib kechasi bemahal ko‘chada o‘yin tushib yuribdi-ya! – poxol ko‘tarib, o‘tib ketayotgan qartayganroq bir xotin shunday deb, koyib o‘tib ketdi. – Bor uyingga kir! Allaqaqachon yotar payt bo‘ldi!

Erkak yo‘lidan to‘xtab:

– Xo‘p bo‘ladi, kirib ketaman! Ketaman. Unaqa bunaqa oqsoqoldan tap tortmayman. O‘zini kim deb o‘ylaydi, otasi shaytonga uchrasin, qishda odamlarni suvga pishganiga, oqsoqolligiga mag‘rur bo‘lib qanqa-yadimi! Oqsoqol bo‘lsa o‘ziga, men ham o‘zimga oqsoqolman. Xudo ursin, o‘lay agar oqsoqolman. Yo‘lidagi birinchi uyga yaqinlashib kelarkan, yana baqirib:

– Bor, bilganini qilsin, bo‘lmasa-chi... – dedi-da, uyning derazasi oldida to‘xtab, darchaning yog‘och tutqichini izlab, paypaslab qoldi.

– Xotin, eshikni och! Hoy xotin, ildamroq deyman, och tezroq! Kazakning uyqusi keldi!..

Xo‘b o‘yin-kulgi qilib, qo‘sish qaytib kela-yotgan bir gala qizlar uni ko‘rib qolib:

– Hoy Kalenik, birovning uyini taqillatayabsan-ku! O‘zingnikini ko‘rsatib qo‘yaylikmi? – deyishdi kulishib.

– Jonon qizchalar, ko‘rsatib qo‘yinglar!

Qizlarning biri:

– Hoy, gapini eshitdinglarmi, qizchalar, deydi-ya.

¹ G o p a k – ukraincha raqs. (*Tarj.*)

Shirinso'zligini qarang. Shu yaxshiliga ko'rsatib qo'yaylik... Yo'q, avval o'ynab ber! – dedi.

Kalenik oyog'i bir joyda turmaganidan tek turolmay, gandiraklab turib:

- O'ynab beraymi? Hoy shayton qizlar, – dedi cho'zib.
- Hammangiz bittadan o'ptirasizmi? Hammangizni o'paman, hammangizni! – dedi-da, oyog'i chalishib, gandiraklab qizlarni quvlay ketdi.

Qizlar avval qiyqirishib, har tarafga to'zishib qochishdi-yu, Kalenikning oyog'i ildammasligini ko'rgandan keyin dadillanib, ko'chaning narigi betiga o'tib olishdi.

– Hov ana sening uying!

Qizlar ketarkan, boshqa uylardan kattaroq, qishloq oqsoqoliniki bo'lgan uyni ko'rsatib ketdilar. Kalenik ularning gapiga kirib, yana boyagidek oqsoqolni so'ka-so'ka gandiraklagancha qizlar aytgan tomonga qarab ketdi.

Endi buncha zam-zamaga qolgan oqsoqol kim bo'ldi? Bilib qo'ying, oqsoqol qishloqning ulug'i bo'ladi. Kalenik yetib borguniga qadar oqsoqol to'g'risida bir-ikki so'z aytib ulgurishimizga shubha yo'q. Qishloq ahli uni ko'rganda darrov bosh kiyimini qo'liga oladi. Yosh-yosh qizaloqlar ham engashib salom beradi. O'spirinlarning qaysi biri oqsoqol bo'lgisi kelmaydi? Hammaning tamaki xaltasi unga ochiq, oqsoqol beso'naqay, yo'g'on, g'adir-budir barmog'ini tamaki qutiga tiqib tamaki olguncha har qanday aza-mat ham bosh kiyimini qo'liga olib izzat bilan tura-di. Oqsoqolning hukmi bir nechagina kishining to-vushi bilan yursa ham, qishloq yig'inida yoki katta ma'rakalarda hamisha uning qo'li baland, aytgani aytgan, qishloqdagilardan kimni xohlasa yo'l tuzat-gani, ariq qazigani yuboraverardi. Oqsoqol badqo-voq, badjahl, ko'p gapni yoqtirmaydi. Qadim-qadim zamonda, Xudo rahmati ulug' malikamiz Yekaterina Qrimga ketayotganda unga yo'lovchilikka saylangan ekan. Ikki kun bu mansabda turib, hatto malika-

mizning izvoshlari yonida o'tirib ham borgan ekan. O'zini dono va sipo olib, shopdek buralib tushgan uzun mo'ylovini silab, qovog'ini solib o'qrayib qarash unga odat bo'lib qolgan edi. Shundan beri kimki oq-soqol bilan nima to'g'risida so'zlashsa, darrov gapni malikani kuzatib borganiga va uning izvoshi yonida o'tirganiga buradi. Oqsoqolning yana bir xislati shuki, ba'zida o'zini garanglikka solib oladi, xususan yoqtirmagan bir narsasini eshitib qolsa, darrov kar bo'lib oladi, oliftachilikni sira yoqtirmaydi, hamma vaqt kiygani qora ip chakmon, belida bo'yalgan jun belbog', malikamiz Qrimga borganlarida kuzatib borganda ko'k qozoqi chopon kiyganini aytmasak, boshqa vaqtda hamisha kiygan kiyimi shu. Lekin malikaning Qrimga o'tib ketayotgan vaqt esida qolgan odam qishloqda borligi juda shubha. U vaqtida kiygan choponini bo'lsa sandiqdan chiqarmaydi. Oqsoqol beva, ammo uyida qaynegachisi turadi. Ertalik, kechlik ovqat pishirish bormi, supurish-sidirish, uyni oqartirish, bo'z to'qish bormi, hamma ishni shu xotin qiladi. Qishloqda bu xotinning unga hech qarindoshligi yo'q, deyishadi, ammo oqsoqolning g'anislari ko'pligini, bular uning sha'niga bo'lar-bo'lmas gaplar to'qishini boyaga ko'rdik. Ba'zida oqsoqol o'roqchi xotinlar oldiga borib qolsa yoki yosh qizi bor kishinikiga kirib qolguday bo'lsa, xotinga uncha xush kelmasdi, shuning uchun boyagi gaplar tarqagan bo'lsa ham ajab emas. Oqsoqol so'qir, bi-roq bir ko'zi shunday yomonki, qishloqda ko'hlikroq xotin bo'lsa har qayerdan bo'lsa ham darrov ko'radi. Ammo yuz-ko'zi chiroyliroq juvonni ko'rib qolgan-da ham, avval u yoq-bu yoqqa qarab, qaynegachisi xabardor emasligini bilsa, so'ngra qaraydi. Oqsoqolning hamma ta'rif-tavsifini aytdik shekilli, endi mast Kalenikka kelaylik. U hanuz yo'lning yarmisiga ham yetgani yo'q, g'uldirab og'ziga nima kelsa, qaytarmay oqsoqolni xo'b so'kkanicha ketyapti.

KUTILMAGAN RAQIB. QASD

– Yo'q, yigitlar, qo'yinglar, yo'q, kerakmas! Sho'xlikdan sira tinmas ekansiz-da, haliyam ham-mamizning nomimiz bezoriga chiqib qoldi. Boring, yax-shisi uyingizga borib uxlang! – dedi Levko, uni yana allanechuk sho'xliklar yo'liga boshlamoqchi bo'lgan chapani tengqurlariga. – Og'aynilar, xayr! Yaxshi uxlab turing! – deb xo'shlashgandan keyin ko'chaga chiqib, ildam-ildam yurib ketdi.

U bizga tanish bo'lgan olchalik uyga yaqin kel-ganda, «Shahlo ko'zim uyqudamikin?» – deb xayoli-dan o'tkazdi. Tevarak-atrof jimjit-u, lekin bir yoqdan g'uvur-g'uvur gaplashgan ovoz eshitilib qoldi. Levko to'xtadi. Daraxtlar orasida oq ko'ylak ko'rindi... «Bu nima ekan?» – deb u yaqinroq kelib, daraxt orqasiga bekindi. Oyning shu'lesi uning oldida turgan qizning yuziga tushib turipti... Turgan qiz, Galya! Ammo orqasi bilan o'girilib turgan novcha kishi kim bo'ldi? U shuncha qarasa ham taniyolmadi, chunki haligi kishi qorong'idan ko'rinxas edi. Oldi tomondan unga ozroq yorug' tushib turgandi-ku, lekin Levko turgan joyidan bir qadam qo'yib qimirlaguday bo'lsa, siri ochilib qolardi. U daraxtga suyanganicha qimir-lamasdan tek turaverdi. Qiz ochiq-oydin qilib uning nomini aytdi.

– Levkomi? Levko hali yosh! – dedi xirillab baland bo'ylik odam. – Mabodo, uni senikida ko'rib qolsam, sochidan tortib uraman...

Levko og'zidan qattiqroq so'z chiqib ketmasligining ehtiyyotini qilib, tovushini chiqarmasdan sekingga:

– Meni sochimdan tortib urmoqchi bo'lgan olista kim ekan, bilsam edi! – deb, bo'yini cho'zibroq qaradi. Ammo u tanimagan odam sira eshitib bo'lmaydigan qilib juda ohista so'zlashaverdi.

Levko tanimagan odam gapini tugatgandan keyin, Galya unga:

– Hech uyating yo'q ekan! Gaplaring yolg'on, alday-san, meni sevmaysan, sevishingga sira ishonmayman! – dedi.

Baland bo'yli odam yana so'z boshlab:

– Bilaman, Levko senga har narsalar deb boshingni gangitib qo'yipti. (Yigitning nazarida bu tovush unga juda ham yot emas, qachondir uni eshitgandek edi.)

– Lekin uning adabini berib, o'zimning kimligimni bildirib qo'yaman, – dedi novcha odam. – Xayolida qilib yurgan sho'xliklarini meni bilmaydi, der. Itvachcha, hali mening mushtumimni yeb ko'rgani yo'q-da.

Levko bu gapni eshitganda achchig'iga chiday olmay, o'zini bosolmay qoldi. Uch qadam yaqin kelib, uni urmoqchi bo'lib qo'lini ko'tardi-yu, lekin zo'rg'a o'zini to'xtatib oldi. Agar urganday bo'sami, novcha har qancha baquvvat bo'lsa ham bardosh qilolmas edi. Shu paytda uning yuziga oydin tushib, Levko oldida turgan odam otasiligini bilib, turgan joyida qoldi. Taajjub va hayrati shunchalikka yetdiki, beixtiyor boshini chay-qab, tishi orasidan hushtak chalib qoldi, xolos. Narigi yoqdan shitirlagan ovoz chiqib, Galya shoshib-pishib uyiga kirib, eshigini berkitib oldi.

Shu paytda yigitlarning biri sekingga kelib:

– Xush bor, Galya! – deb oqsoqolni quchoqlab oldi. Lekin oqsoqolning mo'ylovi tikandek qadalib, quti uchib irg'ib tushdi.

Yigitlarning yana biri kelib:

– Go'zal qiz, xayr! – deyishi bilan oqsoqol turtib yuborgan edi, ag'anab tushdi.

Bir necha yigit birdaniga oqsoqolning bo'yniga osilib, har qaysisi Galya bilan xayrashgan bo'lardi.

Oqsoqol ularni turtkilab itararkan depsinib:

– Yo'qolinglar-a shum badbaxtlar! Galya qilib oldinglarmi meni! Yo'qoling-a shaytondan tarqagan, nomardlar, bo'yningiz dorda cho'zilsin! Asalga yo-

pishgan pashshadek yopishadi-ya! Galyalaringizni chiqarib qo'yarmal!.. – derdi.

Yigitlar:

– Oqsoqol ekan, oqsoqol! – deb qichqirishib, har tarafga to'zib qochishdi.

Levko hayratidan o'ziga kelib, bolalarni so'kkanicha ketayotgan oqsoqolning orqasidan:

– Barakalla, ota! – deganicha qoldi. – Men gap och-ganimda nega otam o'zini kar qilib oladi, derdim-a! Bunaqa ishlaring bor ekan-da, shoshmay tur, sen cholni bir boplay, yosh qizlarning derazasi tagida yurmaydigan, birovning qaylig'iga ko'z olaytirmaydigan qilib qo'ymasammi seni! – Yana to'planishgan o'spirinlarni chaqirib: – Hoy bolalar, bu yoqqa kelinglar, bu yoqqa! – dedi qo'lini silkib. – Qani uy-uyingizga borib uxlang, demoqchi edim-u, endi aynidim, beri kelinglar, endi tong otguncha o'ynayman sizlar bilan!

Qishloq yigitlari orasida hammadan sho'x, hammadan o'yinqaroq bo'lgan, yag'rirlari keng, zabardast yigit suyunib:

– Barakalla! Yaxshilab o'ynab, sho'xlik qilib olmasam xumordan chiqmayman, bir narsam kamdek, bosh kiyimimnimi, mushtugimnimi – bir narsamni yo'qtogandek bo'lib turibman. Ishqilib bir chakkam g'alatiroq bo'lib, yigitga o'xshamay qolaman, – dedi.

– Bugun oqsoqolni xo'b boplaylik, xo'pmi?

– Oqsoqolnimi?

– Ha, oqsoqolni. Axir juda haddidan oshib ketdi-da, ustimizdan xuddi hukmron bo'lib oldi. Hammamizni malay qilib olgani yetmagandek, endi qizlarimizga ham ko'z olaytira boshladi. Oqsoqol aylanishmagan tuzuk-kina qiz qishloqda qolmagandir, deb o'ylayman.

O'spirinlar hammasi unga qo'shilib:

– Bu gap-ku rost-al! Rost, – deb har tarafdan luqma tashlab, shovqin-suron ko'tarishdi.

– Yigitlar, axir biz uning malayı emasmiz-ku! Undan nima kamimiz bor? Xudoga shukr, hammamiz

ozod yigitlarmiz! Kelinglar, o'zimizning ozodligimizni unga ko'rsatib qo'yaylik!

– Ko'rsatamiz! Ko'rsatamiz! – deb yigitlar ma'qullashdi. – Oqsoqolning o'zini emas, mirzasini ham qo'yamymiz!

– Ha, mirzasini ham qo'yamymiz! Oqsoqol to'g'risida g'alati qo'shiq ham to'qib qo'ydim. – Levko do'mbirasini chertib turib: – qani yuringlar, qo'shiqn ni o'rgatib qo'yay, – dedi. – Shoshmanglar, har qaysing ustingga har narsa kiyib ol!

Boyagi azamat, sho'x yigit oyog'ini oyog'iga urush-tirib, chapak chalib:

– Yigit boshi omon bo'ssin, o'ynasin. Barakalla! Dorilomon bo'ssin! To'polon qilib, yayrab ketsang, burungi dorilomon zamon kelgandek bo'ladi. Ko'ngil suyunadi, shodlanadi, odam jannatga tushgandek bo'ladi. Barakalla, yigitlar, barakalla, o'ynanglar! – derdi.

Yigitlar galalashib, shovqin-suron solib, ko'chalarni boshlariga ko'tardi. To'polondan uyqulari bezovta bo'lib uyg'ongan xudojo'y kampirlar darchalarini ko'tarib qararkan, karaxt qo'llari bilan cho'qinib turib:

– Obbo, yigitlari tushmagur-ey, qutiribdilar-ku! – derdi.

IV

YIGITLARNING SHO'XLIGI

Ko'chaning oxiridagi bittagina uyda hali ham chi-roq yonig'liq, bu uy oqsoqolniki. Oqsoqol kechligini allaqachon yeb oldi, agar mehmoni bo'lmasa yotib uxlardi ham. Ozod kazaklar orasida bir bo'lak yeri bo'lgan boy bunda mayxona qurmoqchi bo'lib musallas tayyorlov-chini bu yerga yuborgan edi... Baqaloqdan kelgan, ko'zlari har doim kulib turgan mehmon uyning to'ridagi butlar osilgan burchakda o'tiribdi. Kaltagina mushtugi-

ni chekarkan, dam-badam tupurib, kulini qo‘li bilan bosib qo‘yganda topgan huzuri xuddi uning ko‘zlarida yozilib qo‘yilgandek edi. Mushtuk tutuni yoyilib, ko‘mko‘k tumandek uning boshini chulg‘ab oldi. Allaqanday mayxonaning yo‘g‘on mo‘risida turaverib zerikkanidan bir yozilib kelay, degan xayol bilan bu yerga kelib, oqsoqolning dasturxoni tepasiga o‘tirib olganga o‘xshardi. Qalin va kalta mo‘ylovleri dikkayib turardi. Ammo mushtuk tutuni ichida mo‘ylovi zo‘rg‘a ko‘rinar va musallas tayyorlovchi omborxona mushugining nasibasiga changal solib tutib olgan sichqonni og‘zida ushlab turganga o‘xshardi. Oqsoqol bo‘lsa, mezbonligini qilib, ko‘ylakchan, surup ishtonda o‘tirgan edi. Burgutnikidek o‘tkir ko‘zları kech payt ostobidek nuri o‘chib, xira tortib yumilib ketayotgan edi. Dasturxonning poygakida, bir chekkada oqsoqolning qo‘l ostidagi o‘n boshilardan biri uy egasiga hurmat yuzasidan chakmonini yechmay tamaki chekib o‘tirardi.

Oqsoqol esnab og‘zini cho‘qintirarkan musallas tayyorlovchiga qarab:

- Mayxonani qachon solmoqchisiz? – deb so‘radi.
- Xudo xohlasa, shu kuzda yurgizib yuborsak ham ajab emas. Agar oqsoqol taqsirlari oyoqlari chalishib, ko‘chaga aji-buji xat yozib yurmasalar Pokrov¹ bayramiga ko‘rasiz, nimalar qilib beraman.

Musallas tayyorlovchi shu so‘zni aytdi-ku ko‘zları yumilib ko‘rinmay ketdi, ko‘zidan qulog‘igacha eti taram-taram bo‘lib tortishib ketdi. Kulganida hamma tanasi zalvor bilan silkillab, lablari ham irjayib, tutab turgan mushtugi bir lahza og‘zidan tushdi.

Oqsoqol ham iljaygan bashara bo‘lib:

- Xudo xohlasa, – deb qo‘ydi-da, so‘ngra: – Xudoga shukur, hali mayxonalar uncha ko‘payganicha yo‘q. Ammo burungi vaqtida, men malikamizni Pereyaslav

¹ Pokrov kuni – ruslardagi diniy bayram. Eski yil hisobi bilan 1-oktyabrda bo‘ladi. Birinchi qor yog‘ishi munosabati bilan o‘tkaziladigan qoryog‘di bayrami.

yo'lidan kuzatib borgan vaqtimda marhum Bezborodko¹...

– Qarindosh, qachongi vaqtni aytasan-a! U vaqtida Kremenchugdan to Romenga² borguncha ikkita ham mayxona yo'q edi. Endi-chi... La'nati nemislarning o'ylab chiqarganlarini eshitdingmi? Yaqinda mayni siz-u bizdek nasroniylar singari o'tin yoqib tortmay, shayton o'rgatgan bug' bilan tortarmish. – Musallas tayyorlovchi bu so'zlarni aytib, o'zi o'ylanqirab qoldi-da, xontaxtaga va uning ustida turgan qo'liga ko'zi tushdi.

– Azbaroyi Xudo, hech bilmayman, bug' bilan qanday tortarkinlar! – deb qo'ydi.

Oqsoqol ham:

– Bu nemislar qanday bema'ni xalq ekan, Xudoyo tavba, – dedi. – Men bo'ssam u itvachchalarni tayoq bilan do'pposlardim! Axir bug' bilan bir narsani qaynatib bo'ladiimi? Shuning uchun-da, bir qoshiq sho'rvani labingiz yaqiniga keltirsangiz cho'chqa bolasi o'rniqa labingizni qovurib olasiz...

So'rida chordana qurib o'tirgan qaynegachisi gap qotib:

– Qarindosh, xotiningni keltirmay shunday turaverasanmi? – dedi.

– Xotinni nima qilaman? Tuzukroq bo'lsa ham mayliydi.

– Nega, chiroyli emasmi? – deb so'radi oqsoqol ko'zini unga baqraytirib.

– Chiroyi qayerda! Qarib, ajinaga o'xshab qolgan. Aft-angori bo'shab qolgan hamyondek burishib ketgan, – musallas tayyorlovchi xaxolab kulgandi, baqaloq tanasi yana zalvor bilan silkinib-silkinib tushdi.

Shu onda eshik orqasida bir narsa ivirsilagandek bo'ldi. Bir mahal eshik ochilib, birov bosh kiyimini ol-

¹ Knyaz A. A. Bezborodko (1742–1799) Yekaterina II ning bosh kotibi.

² Kremenchug va Romen shaharlari Ukrainada joylashgan.

may ostonadan o'tdi-da, uyning o'rtasiga kelib, shipga qarab serrayib turaverdi.

Kelgan odam tanishimiz Kalenik ekan.

U uydagilarga sira parvo qilmay, eshik oldidagi so'richaga o'tirarkan:

– Uyimga yetib oldim-a! – dedi. – Odamzodning dushmani nomard shayton yo'lning tanobini xo'b cho'zdi-da; ketyapman-ketyapman, oxiriga yetmayman-a! Birov oyog'imni sindirib qo'ygandek! Xotin, po'stakni tagimga tashlab ber. Pechkaga chiqib sen bilan yotmayman, oyog'im zirqirayapti. Po'stakni olib ber, ana burchakda yotipti. Ehtiyyot bo'l, xurmada tamaki ezib qo'yibman, to'kib yuborma. Yo'q, qo'ya qol, tegma! Bugun mast chiqarsan... Mayli qo'y, o'zim olaman.

Kalenik turmoqchi bo'lib, andak ko'tarildi-yu, turolmadi, allaqanday quvvat uni o'tirgan so'richasiga mixlab qo'ygandek edi.

Oqsoqol:

– Barakalla, shunisini yaxshi ko'raman-da, – dedi. Birovnikiga kelib, o'zinikidek kattalik qiladi-ya! Yaxshilikcha, omon-eson darrov chiqarib yuboring!..

Musallas tayyorlovchi oqsoqolning qo'lini tutib:

– Qarindosh, qo'y, bir pas damini olsin, – dedi. – Bunaqalar bizga foydali; bunga o'xshaganlar ko'proq bo'lsa, ishimiz rivojga minib ketadi...

Biroq musallas tayyorlovchi bu gaplarni ko'ngli bo'shligidan aytmadni. Har xil irim-sirimlarga juda ishonardi, shuning uchun uyga kirib o'tirib olgan kishini haydar chiqarish uning nazarida o'z boshiga o'zi balo orttirish edi.

Kalenik taxtaga yotarkan:

– Qarib qoldimmi!.. – deb to'ng'illadi. Mast bo'ssam ham mayli edi-ya, mast emasman. Xudo haqi, mast emasman! Yolg'on gapirib nima ham qilaman. Oqsoqolning oldiga borsam ham aytaman. Oqsoqolning nima menga? Itvachcha, harom o'ssin! Basharasiga tu-

purdim! Bir ko'zi ko'r shaytonni arava bossin! Odamlarni sovuqda suvgaga pishganiga...

Oqsoqol achchig'i kelib:

– E-ha, to'ng'iz, uyga kirib, endi dasturxonga oyog'ini uzatyaptimi? – deb o'rnidan turdi. Shu paytda kattakon tosh oynani chil-chil qilib uning oyog'i ostiga kelib tushdi. Oqsoqol to'xtab qoldi. Toshni yerdan ko'tarib olarkan: – agar qaysi dor tagidan qochgan otganini bilsam-chi, shunday adabini berardimki, – deb qo'lidagi toshning u yon-bu yoniga qaradi. – Otgan toshing halqumingga tiqilsin...

Ranggi o'chib, bo'zarib qolgan may tayyorlovchi:

– Qarindosh, shoshma-shoshma! Xudo saqlasin! Ikki dunyoda ham Xudo seni o'z panohida saqlasin, birovni hech bunday qarg'ay ko'rma! – dedi.

– E, yoqlashingni qara-yu! Qo'yaver o'lib ketsin!...

– Qarindosh, aslo bunday deya ko'rma! Mening qaynonam voqeasini eshitgandirsan?

– Qaynonangnimi?

– Ha, qaynonam voqeasini. Kechqurun, shu mahaldan sal ertaroq bo'lsa kerak, marhuma qaynonam, marhum qaynotam, malayi, cho'risi, yana beshtacha bolalari bilan kechki ovqatni yeishiga o'tirgan ekan. Qaynonam xamir oshi qilib, sovisin, deb ozroq tuppani qozondan idishga olib qo'ygan ekan. Ishdan keyin hammasining qorni ochib qolgan ekanmi, soviguncha sabrlari chidamabdi. Tuppani uzun cho'p bilan yeishni boshlagan ekan, shu paytda kimligini, qayerdanligini Xudo bilmasa boshqa hech kim bilmagan bir odam eshikka kelib, suqatoylik bilan dasturxonga o'tirib olibdi. Och odamga ovqat bermay bo'ladimi! Unga ham cho'p beribdi, biroq mehmon shunday tushirib beribdiki, och mol ham poxolni bunday yemaydi. Boshqalar bittadan olib, yana qo'l uzatgunicha tovoqning taqiri chiqibdi. Qaynonam mehmon endi to'ygandir, sekinroq oshalar deb, yana keltirib qo'yibdi. Yo'q, boyagidan ham battarroq oshalab, bu

tovoqni ham bo'shatibdi! Och qolgan qaynonam, tiqilib o'lgur, deb ichida qarg'ashi bilan haligi mehmon qalqib ketib, shu onda yiqilibdi. Qarasalar allaqachon joni chiqibdi. Tiqilib o'lib qolibdi.

– La'nati ochofat ekan, ajab bo'lipti! – dedi oqsoqol.

– Shunday-ku, lekin oqibati yomon bo'ldi-da; qaynonam shundan keyin hech tinchlik ko'rmadi. Kech bo'lar-bo'lmas haligi o'lik kelib, badbaxt og'zida xamir oshi bilan mo'riga minib olarmish. Kunduzi bo'lsa jimjit, sharpasi ham ko'rinxmay, kech bo'ldi deguncha tomga qarasang, itvachchani mo'riga minib olgan, ko'raverasan...

– Og'zida xamiri bilan-a?

– Og'zida xamiri bilan.

– Qarindosh, ajab gaplar! Marhuma malika zamonida ham shunga o'xhash bir voqeani eshitgan edim...

Oqsoqol shu so'z ustida to'xtab qoldi. Deraza tagida shovqin, tapir-tupur o'yin tushgan ovoz eshitildi. Avval sekin chalingan do'mbira ovozi chiqdi, so'ngra unga ashula qo'shildi. Do'mbira torlarining ovozi balandroq chiqdi. Bir necha kishi qo'shilishib ayta boshladilar, shunday qilib ashula avjiga chiqdi:

Bildingizmi yigit-yoronlar?

Bizning boshlar qattiq emasmi!

Oqsoqolning boshi shu onlar

Yorilibdi, tushib chegasi.

Bo'chkachi, siz tutib boshini

Po'lat gardish bilan bog'langiz.

Savag'ich-la bizning oqsoqolni

Savalangiz, xo'p savalangiz.

Oqsoqol sassiq, iblis chol,

Qarisa ham sira quyulmay,

Xotin-qizdan qitdak tiyilmay,

Surkaladi bamisoli mol.

Yigitlarga tenglashganingcha –
Go'rga kirsang yaxshimasmi chol?
Oqsoqolni ur o'lgunicha,
Kallasiga boplab-boplab sol.

Musallas tayyorlovchi boshini sal qiyshaytirib turib, bunday gustoqlikni ko'rib, serrayib, taxta bo'lib qolgan oqsoqolga qarab:

– Qarindosh, alomat qo'shiq ekan! Juda alomat-u, biroq oqsoqolning sha'niga andak beadablik joyi bor ekan-da., – deb qo'ydi.

Deraza tagidagilar: «Yana boshidan!» – deb xaxolab kulishayotganlaridan musallas tayyorlovchi yana tinglamoqchi bo'lib, ko'zlari allanechuk suzilib, ikki qo'lini xontaxtaga tashladi. Biroq xushyorroq odamning ko'zi oqsoqolning serrayib taxta bo'lib qolgani hayratidan emasligini darrov bilardi. Uning bu turishi, tullak, mug'ombir mushuk xom va nodon sichqonni ko'rganda yaqiniga kelguncha indamay qo'yib berishiga o'xshaydi. Mushuk indamay poylab turib, sichqonni qanday qilib iniga kirgizmasdan tutib olish hiylasiga kirishadi. Oqsoqolning bitta-yu bitta ko'zi derazaga tikilib turgan, o'nboshiga ishora qilgan qo'li hanuz eshikning yog'och tutqichidan uzilguncha bo'lmay, ko'chada birdan shovqin-suron bo'lib qoldi... Bir qancha fazilatlari orasida har narsaga ajablanish odati ham bo'lgan musallas tayyorlovchi darrov mushtugini tamakidan to'dirib olib, yugurgancha ko'chaga chiqdi, ammo sho'xlik qilib yurganlar allaqachon qochib ketgandi.

Oqsoqol teskari ag'darilgan qora jun po'stinni boshiga ilib olgan birovni qo'lidan sudrab kelarkan:

– Yo'q, endi qo'limdan chiqolmaysan! – derdi.

May tayyorlovchi fursatni g'animat bilib, ularni bunday bezovta qilgan odamning aftini ko'rmoqchi bo'lib yugurib keldi. Biroq uzun soqolini ta'viya qilib, qora surtilgan basharasini ko'rib, qo'rqqanidan ketiga tisa-

rildi. Oqsoqol bo'lsa qo'liga tushgan haromini to'ppa-to'g'ri dahlizga sudrab borarkan: «Yo'q, endi qo'lidan chiqolmaysan!» – derdi, lekin u ham xuddi o'z uyiga kirib kelayotgandek, hech tixirlik qilmay indamasdan kirib kelaverdi. Oqsoqol o'nboshini chaqirib:

– Karpo, omborni och! Qorong'i omborga qamab qo'yaylik! Keyin mirzaboshini uyg'otib, o'nboshilarni chaqirib, nomardlarning barisini tutib, hammasiga shu kuniyoq hukm chiqaramiz! – dedi.

O'nboshi dahlizda turib, kichkina osma qulfni chaqillatib omchorxonani ochdi. Shu paytda bandga tushgan odam qorong'ilikdan foydalanib, kuchining boricha siltab, qo'ldan chiqdi.

Oqsoqol uni yoqasidan yana qattiqroq ushlab:

– Qayoqqa borasan? – deb baqirdi.
– Qo'yib yubor, menman! – degan ingichka ovoz chiqdi.

– Og'ayni, hiyla qilma, foydasi yo'q, xotin kishi bo'lmay, ajina bo'lib chinqirsang ham aldayolmaysan!
– deb uni qorong'i omborga shunday itarib yubordiki, u inqillab yiqlib tushdi. So'ngra oqsoqol o'nboshi bilan birga mirzaboshinikiga qarab ketdi. May tayyorlovchi ham xuddi kemadek tutun burqiratib, ular ketidan ketdi.

Uchovi boshini quyi solib, xayol ichida borardi, to ko'chaning muyulishiga yetganda, peshonalari bilan urilib ketib, hammasi birdaniga qichqirishib yubordi. Shu onda bu tomondagilar ham qichqirib yubordilar. Oqsoqol ko'zlarini qisib qarasa, mirzaboshi bilan ikki o'nboshi ekan, ularni ko'rib oqsoqol hayron qoldi.

– Hurmatli mirzaboshi, men senikiga ketayotgan edim.
– Hurmatli oqsoqol, men ham senikiga borayotgan edim.
– Mirzaboshi, ajab g'alati ishlar bo'lyapti.
– Hurmatli oqsoqol, ajoyib ishlar.
– Nima gap?

– O'spirinlar qutirib ketipti! Ko'chalarda galalashib yurib, beboshlik qiladi. Seni shunday so'zlar bilan behurmat qiladiki, aslo qo'yaver, gapirgani odam uyaladi, mast kishining aljigan tili ham bunday so'zlarga bormaydi. (Alachadan shalvar, malladan nimcha kiygan qotma mirzaboshi bu gaplarni gapirganda kekirdagini bir cho'zib, bir tortib qo'yardi.)– Ko'zim andak uyquga ketib mudragan ekanman, haromilar tapir-tupur, to'polon qilib, ashula aytib, uyqumdan bezovta qildi! La'natilarning xo'b adabini bermoqchi edim, shalvarim bilan nimchamni kiygunimcha qochib ketishdi va lekin boshlig'i qutulolmadi. Hozir u avaxtaxonada yotipti. U nomardning kimligini bilishga juda qiziqdim-u, biroq nomardning aft-basharasi do'zaxilarni osishga mix qiladigan shaytoni lainga o'xshab, qop-qoraga bo'yalgan ekan.

- Hurmatli mirzaboshi, ustidagi kiyimi qanaqa?
- Hurmatli oqsoqol, itvachchaning ustida qop-qora ag'darma po'stin.
- Hurmatli mirzaboshi, yolg'on so'zlamayapsanmi? Sen aytgan haromi mening omborimda yotgan bo'lsa nima deysan?

– Yo'q, hurmatli oqsoqol, jahling chiqmasin-ku, sen o'zing bilmay turib yolg'on so'zlayapsan.
– Chiroq keltiring, bo'lmasa, uni ko'raylik-chi!
Chiroq keltirib, eshikni ochishgan edi, oqsoqol qaynegachisini ko'rib, hayron bo'lib, taajjubda qoldi.

Qaynegachisi unga o'dag'aylab:

- Ayt-chi menga, qolgan-qutgan aqlindan ham ajralmadingmi? Meni qorong'i omborxonaga itarib yuborganingda, bir ko'zi ko'r boshingda zarracha aql bormidi, xayriyatki, boshim temir sanchiqqa borib tegmadi. Axir, menman, menman, deb baqirdim-ku! So'laqmon o'lgur, nahotki temir panskashadek qo'llari bilan ushlab, itarib yuborsa-ya! Seni ham oxiratda shayton jahannamga itarsin!..

Oxirgi so'zni eshikdan chiqqach, hovliga hojat uchun chiqib ketayotib aytdi.

Oqsoqol hushiga kelib:

– Ko'rdim, sen ekansan! – dedi. – Mirzaboshi, bunga nima deysan, bu nomard shum emasmi?

– Hurmatli oqsoqol, shum, shum.

– Bu haromilarni tutib, ta'zirini berib, shumlikni tashlatsak bo'lmaydimi?

– Hurmatli oqsoqol, allaqachon shunday qilish kerak edi, allaqachon.

– Nomardlar ko'p ahmoq bo'lipti... Ko'chada qaynegachim qichqirganday bo'ldimi, voy tavba, ahmoqlarning xayolida men ularning tengquriman, shekilli. Xayollarida o'ylardiki, yurgan har bir kazak menga teng bo'laveradi!.. – Bu so'zdan keyin oqsoqol biroz yo'talib olgach, o'shshayib atrofiga qarab qo'ydi. Bu qilig'i uning kattaroq, g'alati bir gap aytmoqchi bo'lganidan xabar berardi.. – Bir ming...e, shu yillarning nomi ham qursin, o'ssam ham hech aytolmayman; ishqilib o'sha yili u vaqttagi hokimimiz Ledachega kazaklar orasidan esli-xushlirog'ini tanlab, hov! (Oqsoqol «hov» deganda barmog'ini ko'tarib salmoqlab qo'ydi.) Hammadan eslirog'ini tanlab tayinlang, malikani ku-zatib qo'ysin, degan buyruq kelgan edi. U vaqtda men...

– Hurmatli oqsoqol, buni gapirib nima qilasan, hamma biladi-ku! Malikaga manzur bo'lib, undan iltifot ko'rganining hammaga ma'lum. Endi o'zing ayt, meniki to'g'ri chiqdими! Ag'darma po'stin kiygan haromin tutdim deb, yolg'on so'zlab, qaytaga gunoh orttirdingmi?

– Po'stinni ag'darib kiyib olgan shaytonni kishanga solib, xo'b jazosini berish kerak, toki boshqalarga ibrat bo'lsin, hukumat bilan hazillashib bo'lmasligini bilishsin! Oqsoqol podshoh tomonidan bo'lmay kim tomonidan qo'yilipti? Keyin boshqalarini ham tutamiz; la'natilar mening paykalimga cho'chqalarni hay-dab yuborib, karam va bodringlarimni yedirganlari,

bug'doyimni yanchib bermaganliklari esimdan chiqqani yo'q, yana... go'rga kirsinlar-a, po'stinni ag'darib kiyib olgan kimligini bilmasam tinchlanmayman.

Bu gaplar tamom bolgancha, qal'abuzar zambarakni o'qlagandek lunjiga tutun tolib, kalta mushtugi labidan tushib, og'zidan tutun burqirab turgan musallas tayyorlovchi:

– Bunisi hammasidan shumroqqa o'xshaydi! – deb qo'ydi.
– Bunday odamni mayxonada saqlamoq ham yomon bo'lmaydi. Lekin qandil qilib terakka osib qo'ygan ma'qulroq!

Musallas tayyorlovchining nazarida o'zining bu hazili chakki bo'l maganday ko'rindi shekilli, boshqalarga manzur bo'lgan-bo'l maganiga boqmay, xirillab kulib qo'ydi.

Shu onda ular qulay-qulay deb turgan kichkina bir uyga yaqinlashib qoldi va bunga qiziqishi yanada oshdi. Hammalari eshik oldida g'uj bo'lib to'plandi. Mirzaboshi kalitni chiqarib jiringlatib qo'ydi, ammo bu kalit sandig'ining kaliti ekan. Sabrlari chidamay shoshardi. Kissasini axtarib kalitni topolmay xit bo'lib so'kardi. Bir mahal engashib olib, olacha shalvarining kattakon cho'ntagini kavlashtira-kavlashtira «topdim!» – dedi. Bu so'z uning og'zidan chiqqanda azamatlarning qalblari birlashgandek bo'ldi. Bu kattakon qalbi shunday qat-tiq ura boshladiki, hatto qulfning chaqillashi ham uning duk-duk urgan ovozini bosib ketolmadi. Eshiklar ochildi... Oqsoqol bo'zdek oqarib, serraygancha qotib qoldi. Musallas tayyorlovchining badaniga sovuq yugurdi, sochlari hurpayib, uchib ketganday bo'ldi. Mirzaboshining quти uchib ketdi. O'nboshilar qadalgancha qoldi va ag'rayib ochilib qolgan og'izlarini yopolmadidi. Ular oldida turgan oqsoqolning qaynegachisi edi.

Qaynegachi ham ulardan battar hayron bo'lib qolgan bolsa ham, o'ziga kelib, ular tomoniga yurib kelaverdi.

Oqsoqol baqirib:

– To'xta! – deb darrov eshikni yopib oldi. – Birodarlar, bu odam emas, jin! Tezroq chiroq keltiring, darrov! Podsholik bolsa ham ayamayman, uyga o't qo'yamiz! O't qo'y, nomardlarning suyagi ham yer yuzida qolmasin!

Qaynegachisi bu vahimali gaplarni eshitib kapalagi uchib, o'takasi yorilayozdi.

– Og'aynilar, sizlarga nima bo'ldi! – dedi musallas tayyorlovchi. – Xudoga shukr, sochlaringiz oppoq qordek, lekin haligacha aqlingiz kirmapti. Jin degan narsa o'zimizning rosmana o'tdan yonarmidi. Uni mushtug o'ti yondirmasa, boshqa o't kor qilmaydi. Shoshmanglar, hozir o'zim saranjom qilaman!

Musallas tayyorlovchi mushtugidan bir chimdim kul olib, bir siqim poxolga qo'yib puflay ketdi. Shu onda bechora qaynegachi jon achchig'ida baqirib, ularga yalina boshladi:

– Og'alar, shoshmanglar! Bekorga gunohkor bo'lmaylik, balki jin emasdир, – dedi mirzaboshi. – Bunda o'tirgan narsani cho'qintirib ko'raylik, agar cho'qinishga rozi bolsa, unda jin emasligi ma'lum bo'ladi.

Uning taklifi ma'qul tushdi. Mirzaboshi og'zini qulf teshigiga to'g'rilib:

– Daf bo'l, jin bo'lsang! – dedi-da, keyin yana: qimir-lamasang ochamiz, – dedi.

Eshik ochildi. Oqsoqol, mabodo orqaga qochish lozim bo'lib qolsa ko'rib qo'yish kerak deganday, orqasiga qarab-qarab qo'ygach:

– Cho'qin, cho'qin! – dedi.

Qaynegachisi cho'qindi.

– Qanday balo bo'ldi. Qaynegachimning xuddi o'ziku!

– Qaynegachi, qaysi jin seni bu yerga keltirib tashladi?

Qaynegachi piqillab yig'lay-yig'lay, bolalar ko'chada uni ushlab, har qancha olishsa ham zo'r bilan uyning

derazasidan uni itarib, derazaning orqasini mixlab tashlaganlarini so'zlab berdi. Mirzaboshi qarasa, derazaning zulfini sug'urilgan, ustidan tanbalanib qoqib tashlanipti.

Qaynegachi orqasiga tisarilib, hali ham uni ko'zi bilan chamalashini qo'yman oqsoqolga do'q qilib:

– Bir ko'zlik mal'un! Niyating nimaligini xo'b bila-man. Maqsading meni kuydirmoq, men kuyib o'sam suyunasan, qiz bolalar ketidan qolmasang-a? Birov seni tiymasa, mo'ysafid cholning qilgan tentakligini hech kim ko'rmasa-a? Bugun kechqurun Galya bilan nimalar haqida gaplashganingdan meni bexabar deb o'ylaysanmi? E-ha, hammasini bilaman! Meni laqil-latish oson emas, sen kallavaram meni aldab bo'psan. Men arqonni uzun tashlab qo'yaman-u, lekin keyin, mendan gina qilma...

Qaynegachi bu so'zni aytib mushtumini o'qtalib qo'ygach, g'izillab ketaverdi. Oqsoqol bezrayganicha qoldi. Oqsoqol boshini qashirkан:

– Yo'q, bu ishga shayton aralashmasdan iloji yo'q, – deb o'ylanqirab qoldi.

Shu paytda o'nboshilar yetib kelib:

– Tutdik! – deb baqirishdi.

– Kimni tutdinglar? – deb so'radi oqsoqol.

– Ag'darma po'stinlik shaytonni!

Oqsoqol ular tutib kelgan bandini qo'lidan ushlab olib:

– Itaringlar bu yoqqa! – dedi. – E, jinni bo'libsiz, buningiz mast bo'lib yurgan Kalenik-ku.

– Qanday balo bo'ldi! Hurmatli oqsoqol, o'z qo'limiz bilan ushlagan edik-ku. La'nati shumtakalar tor ko'chada o'rab olib, xo'b o'yin qildi, tillarini osiltirib mas-xara qildi, tortqilab, turtkilab, qo'limizdan yulqib olmoq-chi bo'ldi... Obbo, shumlar-e, qanday qilib uning o'rniga bu go'ngqarg'a qo'limizga kirib qolganini Xudo biladi!

– O'zim va butun fuqarolarim nomidan amr qila-man, u o'g'ri shu ondayoq tutilsin. Shuning bilan

baravar ko'chada kimni ko'rsangiz tutib jazosini berish uchun mening qoshimga keltiring!..

O'nboshilarning ba'zilari oqsoqolning oyog'iga bosh urib:

– Hurmatli oqsoqol, vajohatini ko'rsang edi, axir tug'ilib, shuncha yoshga kirib bunday badnamolarni sira ko'rganimiz yo'q. Hurmatli oqsoqol, tag'in bir baloga yo'liqib o'tirmaylik, bitta-yarimtani chalib ketsa, keyin ko'chiriq qiladigan kampir topilmasdan o'tirmasini.

– Chalish-malishinglar qursin! Xo'sh! Bo'yin tovla-moqchimisiz? Balki sizlar ham ular bilan bиргадирсиз? Bog'ovotmisiz¹. Xo'sh, nima? Bu nimasi?.. O'g'rilik, bosmachilikmi?.. Sizlar... hokimga bildiray! Hoziroq, eshitdingizmi, shu topdayoq bildiray... G'izillang, qush bo'lib uching! Toki men sizni... toki siz meni...

Har qaysisi har tarafga yugurib ketdi.

V

SUV PARISI

Bu mojarolarga sabab bo'lgan odam, beparvo-yu falak, hech g'am yemay, ketidan yuborilgan izquvarlardan ham sira tap tortmay, bemalol yurib, eski uy va hovuz tomonga qarab borardi. Bu odamning Levko ekanini aytib o'tirishga hojat bo'lmasa kerak, deb o'ylayman. Qora po'stinining tugmalari ochiq, shapkasи qo'lida. Betidan ter sharillab oqib ketyapti. Zarang-zor oydinda tim qorayib, ho'mraygandek vahima bilan xomush turardi. Sokin hovuzning salqin shabadasi yo'lovchini hovuz bo'yida birpas dam olmoqqa majbur etdi. Atrof jimjit. Daraxtzor ichida bulbulning sayrashidan boshqa ovoz chiqmaydi. Uyqu yengib, ko'zlari yumilib ketaverdi; charchaganidan a'zoyi-badani ssayib, shalvillab ketyapti, boshini ko'tarolmay og'ib

¹ Bog'ovot – isyonchi, bosh ko'targan.

ketyapti... «Yo'q, tag'in bu yerda uxbab qolmay! – dedi o'rnidan turib, ko'zlarini uqalarkan. Atrofiga alanglab qarab qo'ydi. Tun qorong'isining mahobati bu yerda yana ham dabdabaliroq ko'rindi. Oyning yorug'iga yana allaqanday jozibali bir nur ham aralashganga o'xshardi. Bunday manzarani haligacha sira ko'rgan emas. Atrofga cho'kkан tuman kumushga o'xshaydi. Olma guli bilan kechasi ochiladigan gullarning hidi olamni atirga to'lg'azdi. Levko oromda turgan hovuzning sokin suviga hayrat bilan qarab, tikilib qoldi, chunki boyning qadimgi uyi, suvda to'ntarilib allanechuk ozoda va muhtasham bo'lib ko'rindi. Qorong'i qilib turgan darpardalar o'rniqa oynavonli yop-yorug' eshik va derazalar. Uyning zarhal sirlari tovlanib, oynadan ko'rinish turibdi. Bir mahal deraza ochilgandek bo'ldi. U nafasini ichiga tortib, qimirlamasdan, ko'zini hovuzdan olmay tikilgancha shunday qotib qoldiki, go'yo suv tagiga tushib ketdi. Bir mahal, avval oppoq bilak ko'rindi, keyin yoyilib tushgan sariq kokillari orasida ko'zlar o'tdek yonib, charaqlab turgan chiroylikkina bir bosh chiqib, tirsagiga suyaldi. Levko nazarida qiz boshini sekingina chayqab imlagandek, tabassum qilgandek bo'ldi... Dili o'ynab ketdi... Hovuzning suvi jimirlab, darcha yana yopildi. Levko sekingina o'rnidan turib, hovuzdan nariroq borib, uy tomonga boqdi: qorong'i qilib turgan darpardalar ochiq, darchaning oynasi esa oydinda yiltirardi. «Odamlarning gapiga qulq solinsa oqibati shu-da», – deb qo'ydi ichida. Yangi uy, bo'yoqlari toza, bugungina sirlanganga o'xshaydi. Bunda birov tursa kerak deb, tovush chiqarmay sekin uy yaqiniga keldi, ammo uy jimjit. Bulbullar ajab faryod urib, xushovoz sayramoqda; ular charchab, nolalari pasaysa, chigirtkalarning chirillashi yoki suv ko'zgusini silliq tumshug'i bilan cho'qiyotgan to'qay qushining ovozi eshitilib qolardi va bu choqda uning ko'ngli ochilib, yayrab, totli orom olardi. U do'mbirasini sozlab qo'shiq boshladi:

Hoy ko'kdagi oy, mening oyim,
Yulduzginam, yorug' yulduzim,
Yer uyiga sochingiz nurlar,
Bahra topsin go'zal qunduzim.

Darcha sekin ochilib, hovuzda aksi ko'ringan haligi ko'hlik bosh ko'rindi, qo'shiqqa qulqoq tinglab turdi. Uzun-uzun kipriklari suzilib, ko'ziga tushgan, rang-barang surupdek, oyning yorug'idek oppoq. Qanday go'zal, qanday chiroyli! Qiz kului... Levko titrab ketdi. Qiz boshini bir yonga tashlab, qalin kipriklarini suzib turib:

- Yigitcha, bir ashula aytib ber! – dedi.
- Go'zal qiz, qanday ashula aytib beray?

Qizning oppoq yuzidan yosh shirillab oqib ketdi.

– Yigitcha! Hoyyigitcha, o'gayonamnitopib bersang-chi menga! – dedi. Uning bu so'zida ko'ngilni eshadigan haddan ziyod bir hazinlik, ma'yuslik bor edi. – Mukofoting berurman. Ko'p mol-u dunyolar olursan! Yenglik ukam bor, marjon, marvaridlarim bor. Marvarid taqqan zarrin kamarim bor, oltinim bor, hammasi senga mendan tortiq bo'lsin. O'spirinchcha, topib ber menga o'gay onamni! Badnamo ajinani! Yorug' dunyoda undan ko'p ozor topdim, tinchimadim. Menga ko'p azob berdi, cho'risidek ishlatdi. Yuzimga qara, jodu ko'zi bilan qizil yuzimni sarg'aytirdi; oppoq bo'ynimni ko'r, temir tirnoqlarining ko'k dog'i sira ketmaydi, hech ketmaydi. Oppoq oyoqlarimni ko'r, gilamda emas, issiq qum-u toshlarda, zax tup-roqda, chakamug' tikonlarda yuraverib qavardi. Ko'zlarimga boq, ko'zlarimga, yig'idan ko'rmas bo'ldi... O'spirinchcha, topib ber, topib ber o'gay onamni!..

Baland ko'tarilib kelayotgan ovozi yana bo'shashdi, o'chdi. Ko'z yoshlari oppoq yuzidan ariq bo'lib oqdi. Yigit achinib, dard-u hasrat, alam tuyg'ulari yuragini qisdi, ezdi. Yigitning qalbi jo'sh urib:

– Malikam, yo'lingda har ishga tayyorman, lekin ayt, uni qanday topay, qayerdan izlay? – dedi.

Qiz tez-tez so'zlab:

– Ana, ana qaragin! Shu yerda, suv bo'yida kanizlarim ichida yuripti, oydinda isinyapti. Biroq makr qiladi, ayyor. Suv qizi suratiga kirib olgan, ammo bila-manki, shu yerda, ovozi qulog'imga kiradi, nafasim bo'g'iladi, og'irlashaman, uning dastidan baliqdek yayrab yurolmayman, toshdek suvga cho'kaman, botaman. Yigit, topib ber uni menga!

Levko hovuz bo'yiga qarab kumushdek oppoq tu-man ichida oq chamandagul ko'ylak kiyib, hilpillab yurgan qizlarni ko'rди. Hammasining bo'ynida oltin tumor, marjon va marvaridlar yiltirardi. Ammo barisi rangsiz, badanidan qon qochgan, go'yo tiniq bulutdan yaratilganga o'xshar va oyning kumush nurida badan-lari oynadek ko'rinardi. Qizlar chanbar tortib o'ynay-o'ynay uning yaqiniga keldi.

– Kelinglar, qarg'a-qarg'a o'ynaymiz, kelinglar! – deyishib, ular jimjit oqshom paytida esgan shabada bo'sasidan shitirlab ketgan suv bo'yidagi qamishdek chuvullashdi.

– Kim qarg'a bo'ladi?

Chek tashladilar; qizlardan biri qatordan chiqdi. Levko unga xo'b tikilib qaradi. Yuzi, ko'ylagi, boshqa kiyimlari hammasi bir xilda, faqat bu o'yinni xush ko'rmaganligi bilinib turipti. Qizlar qator tizilib, olg'ir qarg'aning chovutidan qochishardi. Qiz quvlashdan charchab:

– Bo'ldi endi, qarg'a bo'lmayman! Jo'janing bechora onasiga rahmim keladi! – dedi.

Levko, sen ajinamassan, deb qo'ydi ichida.

– Kim qarg'a bo'ladi?

Qizlar yana chek tashlamoqchi bo'ldi. Qatordan bir qiz chiqib:

– Men bo'laman! – dedi.

Levko uning aftiga qattiqroq tikila boshladi. Talabgor bo'lib chiqqan qiz juda ildam, chaqqon-chaqqon har tarafga yugurib, jo'jani tutishga astoydil urinardi. Levko unga tikilibroq qarab, uning badani boshqalarnikidek toza emasligini payqadi. Badanining ichi qorayib ko'rinardi. Shu onda qizlar chuvillashib qoldi. Qarg'a qatordagilarning birini ushlab oldi; tutgan vaqtida panjası ochilib, tirnoqlari ko'rinib ketganday bo'ldi, yuzida alamzadaning kulishiga o'xshagan xunuk bir kulish zohir bo'ldi. Levko unga qo'li bilan ishora qilgancha, unga boqib turib:

– Ana ajina! – dedi.

Malika kulib yubordi, qizlar chuvullashib qarg'a bo'lganni olib ketdi.

– Yigitcha, nima muroding bor? Senga oltin kerak emasligini bilaman, sen Galyani sevasan, ammo bemehr otang unga uylanishingga to'sqinliq qilib turitti. Endi to'sqinlik qilolmaydi. Manavi xatni unga eltib ber...

Uning oppoq qo'li uzatilib, yuzi allaqanday barq urib, ochilib ketdi... Yuragi o'ynab, g'alati bir iztirob bilan xatni oldi. Oldi-yu, uyg'onib ketdi.

VI

UYG'ONISH

Levko o'tirgan do'ng joyidan turarkan:

– Ajabo, uxlagan ekanmanmi? – dedi ichida. – Xuddi o'ngimda ko'rgandek-al!.. Ajoyib, ajoyib! – derdi orqasiga alanglab.

Uning xuddi tepasiga kelib to'xtagan oy yarim kecha bo'lganidan darak berardi. Jimjit hovuzdan shabada esar, darpardalari yopiq xafagezak eski uy hovuzi tepasida xomush turardi. Burgan o'tlar, maysalar odam bolasi bu uyni tashlab ketganiga ko'p bo'lganini ko'rsatardi. Levko uyqudaligida mahkam yumib olgan

panjasini yozdi, qo'lida xat borligini sezib, hayratidan qichqirib yubordi. Xatni u yon-bu yonini ag'darib, xo'b tomosha qilgach:

– Attang, o'qishni bilsam-ku! – deb qo'ydi. Shu onda orqa tomongan tovush chiqib qoldi.

– Qo'rwmanglar, tuting! Nega qo'rqsiz? Bizlar o'n kishimiz. Garov bog'lashamanki, ajina emas, odam! – Oqsoqol birga kelgan odamlarga shunday derdi, Levko bo'lsa o'zini bir necha odam qo'lida ko'rdi va bu qo'llarning ba'zisi qo'rquvdan qaltirardi. Oqsoqol uni yoqasidan tutib:

– Og'ayni, ustingdagi bahaybat po'stiningni yech! Odamlarni shuncha jinni qilganing bas! – dedi. Bir mahal unga tikilibroq qarab, quti uchib ketdi. Hayratidan orqasiga chig'anib, yoqasini qo'yib yubordi.

– Levko, o'g'lim, senmisan, itvachcha senmisan! Ha, shaytondan tarqagan! Qanday ajina, qanday alvasti bunday maynabozlikni qilyabdi, dedim-a! Ko'cha-ko'yda to'polon qilib, hunar ko'rsatib, qo'shiq to'qib yurgan sen ekansan-da, ha, otangning go'riga tosh qalansin!.. Barakalla, barakalla Levko! Xo'sh bu nimasi? Orqang qichiganga o'xshaydi-ya. Boglanglar!

– Ota, shoshma! Manavi xatni senga topshirishimni aytishgan edi! – dedi Levko.

– Endi xat-patingni qo'y, chirog'im! Boglanglar!

Mirzaboshi xatni ochib ko'rib:

– Hurmatli oqsoqol, shoshma, hokimning qo'liga o'xshaydi, – dedi.

– Hokimnikiga?

O'nboshilar ham birvarakayiga:

– Hokimniki? – deb so'radi.

Levko ichida: «Hokimniki, ajab, bunisi yana g'alati!» – deb qo'ydi.

– Qani o'qi-chi, o'qi-chi, hokim nima debdi? – dedi oqsoqol.

Musallas tayyorlovchi ham og'zidagi mushtugi bilan chaqmog'ini chaqarkan:

– Qani eshitaylik-chi, hokim nima yozipti! – dedi.

Mirzaboshi avval bir yo'talib olgach o'qidi: «Oqsoqol Yevtux Makogonenkoga buyruq: «Sen ahmoq chol eski boqimondalarni yig'ish va qishloqda tartib barpo qilish o'rniغا, aqling ketib, bemazagarchiliklar qilib yurgan emishsan, bu ishlarining bizga ma'lum bo'ldi...»

– Azbaroyi Xudo, hech eshitganim yo'q! – deb o'qishni bo'ldi oqsoqol.

Mirzaboshi yana boshidan o'qidi: «Oqsoqol Yevtux Makogonenkoga buyruq: Sen ahmoq chol...»

– Bas qil, bas qil, kerakmas! – dedi, baqirib oqsoqol. Eshitmagan bo'sam ham bildimki, gapning mazmuni bu emas. Davomini o'qiyver!

«Shu sababdan o'g'ling Levko Makogonenko-ni darrov o'z qishlog'idagi Galya Petrichenkovaga uylantirmog'ingni, so'ngra katta yo'ldagi ko'priklarni tuzatib qo'yamog'ingni buyuraman. Mening amrimsiz sud amaldorlariga, garchi to'ppa-to'g'ri yuqori davlat mahkamasidan bo'salar ham, fuqaroning oti berilmassisin. Agar borsam va bu buyruqni bajo keltirilmaganini ko'rsam, yolg'iz seni javobga tortaman. Hokim, sobiq poruchik Kuzma Derkach – Drishpanovskiy».

Oqsoqol og'zini ochib:

– Ana, gapni eshitdingizmi! Nima bo'lsa oqsoqol javobgar, demak uning buyurganini qiling, nima desa xo'p deng, bo'lmasa ginani o'zingizdan qiling... – dedi. So'ngra Levkoga o'girilib: – Hokimdan buyruq bo'lganligi tufayli men seni uylantiraman, garchi bu gaplarning unga borib yetganligi g'alati bo'lib tuyulayotgan bo'lsa ham uylantiraman. Ammo avval qamchi yeysan! Burchakda devorda osig'liq turgan qamchini bilasan-ku, ertaga qamchinni yangilab olaman... Bu xatni qayerdan olding?

Levko ishning bunaqasiga aylanib ketganiga juda taajjublanib, hayron qolgan bo'lsa ham, esini yo'qotmay, javob tayyorlab qo'ygan edi, xatning qanday qilib uning qo'liga kirganini yashirdi.

– Kecha kechqurun shaharga borgandim, hokim aravadan tushayotgan ekan, ko'rib qoldim. Meni bu qishloqdan ekanligimni bilib, bu xatni berdi. Keyin, qaytganda sizlarnikiga kirib o'taman, otangga aytib qo'ygin ham, dedi.

– Uning o'zi shunday dedimi?

– Shunday dedi.

Oqsoqol unga ergashib yurgan hamrohlariga o'girilib:

– Eshitdingizmi? Hokimning o'zi biznikiga, ya'ni menikiga ziyofatga kelarmish-a! – deb qo'ydi, kerilmachoqliq qilib, oqsoqol buni aytib, barmog'ini nayza qilib, boshini xuddi bir narsaga quloq solayotgandek vaziyatda ushlab turdi. – Eshitdingizmi, hokim menikiga ziyofatga kelarmish! Hurmatli mirzaboshi, sen nima deysan, qarindosh, sen nima deb o'ylaysan, hazil emas-ku, rostmi?

Mirzaboshi oqsoqolning og'zidan so'zini olib:

– Agar yanglishmasam haligacha hech bir oqsoqol hokimni ziyofat qilgan emas, – deb qo'ydi.

Oqsoqol ham xursand bo'lib:

– Hamma oqsoqol bir emas, – deb qo'ydi. Og'zi qiyshayib, hammalari uzoqda qaldiriq qaltiragandek qiqillashib kulishdi. – Hurmatli mirzaboshi, qanday maslahat berasan, bunday aziz mehmon uchun uyboshidan bir donadan jo'ja xo'rozmi, matami, mayli yana biron narsami keltirsin deb buyruq bersam, qalay bo'larkan... Nima deysan?

– Hurmatli oqsoqol, chakki bo'lmaydi, – dedi mirzaboshi.

– Ota, to'y qachon? – deb so'radi Levko.

– To'ymi? To'yingni-ku ko'rsatardim-a!.. Xo'b, mayliga, aziz mehmon sharofati bilan... Ertaga pop kelib sizlarni nikoh qilib qo'ysin. Mayli, qanday botartibligimizni, qanday farmonbardorligimizni hokim ham ko'rib qo'ysin. Qani azamatlar, endi vaqt boldi, uy-uyingizga borib uxlang! Bugungi hodisalar anavi

eski zamonlarni yodimga soldi. Men malikaga... – Bu so'zlarni deganda oqsoqol odati bo'yicha o'zini sipo-lardek ulug' olib, tumshug'ini ko'tarib bir qarab qo'ydi.

– Oqsoqol tag'in boshladi-ku, malikaga hamroh bo'lib borganini so'zlamoqchi! – deb Levko ildam-ildam yurib, olchazor ichidagi pastakkina o'sha uy tomon shoshib-pishib ketdi. Ichida: «Marhamatli go'zal ma-lik, Xudo yarlaqasin seni! Oxiratda hur-u g'ulmonlar bilan o'ynab-kulgin! Bu kecha bo'lgan voqeani hech kimga aytmayman, jonim Galya, sendan boshqa hech kimga aytmayman. Yolg'iz sengina bunga ishonasan va menga qo'shilib, sho'rlik qizning arvohiga duo qilasan!»

Shu choqda u uy oldiga keldi. Uyning darchasi ochiq, oyning shu'lasi darcha tagida yotgan Galyaga tushib turardi; qo'lini boshiga yostiq qilib yotibdi; ikki beti qip-qizil olovdek, lablari shivirlab uning nomini aytardi. «Uxla, malikam! Yorug' dunyoda nimaiki yax-shi narsa bo'lsa tushingga kirsin!» Qizni cho'qintirib, sekingina darchani yopib ketdi. Bir necha daqiqadan so'ng qishloqdagilarning bari uyquga kirdi. Ukraina-ning hashamatli ajib keng osmonida yolg'izgina oyning o'zi viqor bilan nur sochib borardi. Dabdabali qora tunning nafasida ham bir gasht, surur bor, kishiga samoviy zavqlar bergan muhtasham, go'zal kechaning gashti tamom bo'lib, so'nib bormoqda; kumush nurlar sochilgan yer ham osmondek go'zal, ammo bu go'zallik gashtini suruvchi hech kim yo'q, hamma uyquda. Goh-gohida itlar uvullab sukunatni buzadi, xolos. Mast Kalenik hali ham uyini topolmay, ko'cha-ko'ylarda ko'p tentirab yurdi.

YO'QOLGAN YORLIQ

... dagi butxonanining ruhoniysi aytgan hikoya.

Bobomdan yana hikoya qilib bergen, deysizmi? Xo'p, latifaga xursand bo'lsangiz nega aytmay?! Burungining nimasini aytasiz, hay-hay burungi! Dun-

yoda bir vaqtlar, bundan necha yil-u, necha oy avval bo'lib o'tgan voqealarni eshitganda kishining ko'ngli qanday quvonadi, qanday ochilib yayraydi. Ayniqsa, hikoyaga bobongizmi, katta bobongizmi, biron ta urug'ingiz aralashgan bo'sami, omin Allohu akbar. Hikoyadagi ishlarni xuddi o'zingiz qilayotgandek bo'lasiz, bobongizning arvohi sizning tanangizga yoki sizning tanangiz uning arvhiga kirgandek bo'lmasangiz, bir Varvarning arvhiga fotiha qilganda qalqib ketay... Ammo qizaloqlar bilan o'g'il bolar eshitsa, menga hammadan shu yaxshi. Ko'zlariga ko'riniq qoldimmi, bo'ldi: «Foma Grigoryevich, Foma Grigoryevich, vahimaliroq hikoyangizdan aytib bering», – deb osilib oladi, javrayverib qo'ymaydi. Hikoya aytib berishdan-ku qochmayman-a, ammo keyin uslashga yotganlarida nima holga tushadi, desangizchi. Eshitganlarning hammasi ko'rpara burkanib olib, bezgak tutgandek dag'-dag' qaltiraydi, boshi bilan po'stiniga burkanib olgudek bo'ladi. Mabodo kalamush kelib ko'zani qitirlatsa yoki o'z oyog'i kosovga tegib ketsa bormi, Xudo o'zi saqlasin, yuragi orqasiga tortib ketadi. Ertasiga hech nima ko'rmagandek, vahimali hikoya aytib ber, deb yana osilgani-osilgan. Nimani aytib beray. Darrov to'satdan esga kela qolmaydi-da... Xo'p, men sizga ajinalarning marhum bobom bilan qarta o'ynaganlarini aytib beray. Ammo oldindan aytib qo'yay, sizlar meni adashtirmang, tag'in og'izga olib bo'lmaydigan bemaza sharbatga o'xshab qolmasin. Shunisini aytib qo'yayki, marhum bobom zamonasining ulug'laridan edi. Hijjalab o'qishni, hamza qo'yib o'qishni juda puxta bilardi. Hayitda shunday qiroat qilib kitob tushirardiki, hozirgi poplarimiz uning oldida lol bo'lib qolardi. O'zingizga ma'lum, u vaqtida Baturindagi savodxonlarning barisini yig'sangiz, bosh kiyimingizni tutmay qo'ya qoling, hammasi bir hvuchga sig'ardi. Shuning uchun kimki uni ko'rsa, enkayib salom bergenligi taajjub emas.

Bir kun ulug' getman podshoga bir noma yubor-moqchi bo'libdi. U vaqtdagi askar mirzaboshisi, oting qurg'ur nima edi, esimdan chiqibdi... Viskryakmidi, Motuzochkami, Goloputsekmi, bilmadim, allanima balo edi... Xullas, g'alati bir nomi bor edi. Ana shu mirza-boshi bobomni chaqirib, getman sizni podsho huzuriga chopar qilib yubormoqchi boldi, debdi. Bobom uzoq otlanishni yoqtirmasdi, darrov yo'lga tushdi. Nomani qalpog'iga qistirib olib, otni yetaklab chiqdi. Bobomning ikki o'g'li bor edi, ularni xo'tikchalarim deb suyardi. Shu ikki o'g'ilning biri bizning padarimiz bo'ladi. Xotinini, ikki bolasini o'pib, xo'shlashib jo'nab ketdi. Oti ko'chani shunday to'zitib, to'polon ko'tarib ketdiki, xuddi o'n besh yigit alash-alash o'ynagandek. Ertasiga xo'roz to'rt marta qichqirmsandan avval bobom Konotopga kirib bordi. Shu vaqtda u yerda yarmarka bo'layotgan ekan. Ko'chaga odam yig'ilib, qaraganning ko'zi qamasharkan. Vaqt erta bo'lganidan hamma cho'zilib uxbab yotardi. Sigirning yonida burni tog' chumchuqdek qizarib ket-gan o'spirin bola mast yotar, uning yonboshida sochma o'q, gugurt, bo'yoq, teshik kulcha sotib yurgan chorbo-zorchi xotin xurrak otib uxbab yotardi; arava tagida bir lo'li baliq ortib kelgan arava ustida bir chumak¹ yotibdi. Yo'l ustida paxmoq soqolli rus, qo'lida qo'lqop, belida belbog'i bilan yastanib yotibdi... xullas, yarmarkada kimlar bo'lmaydi, har xil qalang'i-qasang'ilarning barisi shu yerda. Bobom u yoq-bu yoqni tuzukroq ko'rib olay, deb to'xtabdi. Shu orada kapalardagilar ham qimir-lashib qoldi. Araqfurush juhud xotinlarning kuvachalari ham chaqir-chuqur qilib qoldi. Unda-bunda tutun osmonga o'rmalab, issiq quymoqning hidi hamma yoq-ni bosdi. Chaqmog'i, tamakisi yo'qligi bobomning esiga tushib qolib, yarmarkaga tentirab ketdi. Yigirma qadam yurar-yurmas bir zaporojyelikka uchradi. Sayoqligi aft-

¹ Chumak – qadimda Ukraina bozorlarida shaharma-shahar mol olib borib, mol keltirib savdogarchilik qilib yurgan karvon. (Tarj.)

angoridan ham ma'lum bo'lib turibdi! Chalvari qip-qizil cho'g'dek, chakmoni ko'm-ko'k, belida guldor belbog', qilichi tovonigacha tushgan, mis zanjirga mushtugini osib olibdi, xullas, Zaporojyedan kelgan kazakning xuddi o'zi. Xo'b g'alati xalq-da! Qaddini rostlab, mo'ylovini burab, nag'allarini chaq-chaq urib o'yinga tushib ket-sami! Qo'yaverasiz. Xotin kishining qo'lida dug qanday chirillab aylansa, ularning oyoqlari ham shunday aylanadi. Chirpirak bo'lib ketadi. Do'mbirasini chalib, biqini ushlab, cho'kkalab o'yin tushib ketsa, qo'shig'ini qo'yib yuborsami, kishining ko'ngli chamandek ochilib ketadi-ya!.. Endi u vaqtlar o'tib ketdi, endi ularni ko'rish qayda! Shunday qilib, ikkovi uchrashib qolib, gap oshnachilikka aylandi. Hangoma bilan ovora bo'lib, bobom yo'lni ham esidan chiqaribdi. Ichkilik xuddi shak kuni bo'lgan to'ydagidek avj olib ketdi. Ko'za sindirish, pul sochish ham ko'ngillariga tegib, zerikib qoliptilar, axir yarmarka ham tamom bo'ladi-ku. Ikki oshna ayrilmasdan birga hamroh bo'lishga ahd-paymon qilishdi. Kech kirib, allamahal bo'lib qolganda dalaga chiqishdi. Oftob istirohatga yotdi. Uning o'rniqa osmonning goh-goh yeriga qizg'ish yo'l tushdi. Dalalardagi ekinlar, qora qosh juvonlarning hayit ko'ylaklaridek rang-barang tovlandardi. Boyagi zaporojyelik bir hangoma qilib ketibdi. Bobom bilan uning yoniga qo'shilib olgan yana bir sayilchi ikkovi, uning ichiga shayton kirib olmadimi, deb o'ylanib qolishipti. Har qayoqdan shunday g'alati gaplarni topib, qiziq hikoyalarni so'zlarmishki, bobom kulaverib ichagi uzilguday bo'pti. Yo'lni ham borgan sari qorong'i bosibdi, ammo azamatning gapi ham aljib, poyma-poy bo'lib qolipti. Aloha hikoyasini bas qilibdiyu, lekin bir narsa sal shitirlaguday bo'lsa cho'chib tushaveribdi.

– E-ha, hamshahar! Hazilakam mudrayotganga o'xshamaysan! Tezroq uyimga borib, pechkaga chiqa qolsam, deb qolding shekilli! – debdi bobom. U bo'lsa ularga o'girilib baqraygancha qarab turib:

– Sizlardan bekitib nima qilaman. Imonimni shaytonga sotib qo'yanman, – dermish.

– Ha, nima qilibdi! Shaytonga ishi tushmagan odam bormi? Olguncha sho'xlikni endi qilish kerak-da!

– E, azamatlar! Sho'xlik qillardim-u, biroq bugun kechasi kunim bitadi-da! E, og'alar! – debdi, ular qo'lliga qo'llini urib. – Hoy, darmonda qoldirmang. Bir kecha uxlamanglar, ola-olguncha yaxshililingizni unutmayman.

Birovning boshiga bunday kulfat tushganda, yordam qilmay bo'ladi? Bobom: «Boshimdagi kokilimni kestirsam kestiraman-u, ammo bu nasroniyning imonini shayton nomardning iflos tumshug'iga hidlatib qo'ymayman», – debdi.

Agar kechasi osmonni qora bulut chodiri o'rabi olmasa, dalalarni qora po'stin burkagandek tim qorong'i bosmasa, yo'lovchilar to'xtamasdan boraverardi. Uzoq-dan miltillab chiroq ko'rinish qolib, otlar ham yaqin o'rtada otxona borligini payqab, quloqlarini chimirib, qorong'iga ko'zlarini tikib yurishlarini ildamlatdi. Chiroq ham xuddi ular tomonga kelavergandek bo'lib, zi-yofatda xo'b ichib, bir tomonga tob tashlab kelayotgan xotindek, yonboshlab qolgan araqxona ko'rinishdi. U vaqtlardagi araqxonalar hozirgidaymidi! Mabodo birov o'yinda tushmoqchi bolsa, joy qayda! Sarxushlik boshlanib, oyoq joyida tek turmay gandiraklab qolinsa, yetarga joy bo'lmasdi. Hovli karvonlarning ot-aravalari bilan tirband. Bostirma-yu og'ilxona-otxonalarda birov mukka tushib, birov chalqanchasiga mushukdek xur-rak otib yotishardi. Araqxonaning egasi jin chiroqni oldiga qo'yib olib, karvonlarning qancha araq ichganini cho'pxatga chizardi. Bobom uch kishiga uch chorak araq buyurib, tashqariga, saroyga chiqib ketdi. Uchovlari qator yotishibdi; bir mahal bobom qarasa, ham-shaharlari tirrakdek qotib uxbab qolibdi. Bobom ularga hamroh bo'lib olgan yigitni uyg'otib, anaviga uxlamaymiz, deb va'da bermaganmidik, debdi, ammo u birpas

turib, o'tirib, ko'zini uqalay-uqalay yana uxbab qolibdi. Nima qilsin, yolg'iz o'zi poylab o'tiraveribdi. Uyqusini o'chirish uchun aravalarga, otlarga bir-bir qarab chi-qibdi, mushtugini chekib, yana kelib o'tiribdi. Jimjit, pashsha uchsa bilinadi. Bir mahal yonida turgan arava orqasidan bir qora mavjudot sekin shoxini chiqargandek bo'libdi... Ko'zlar hadeb yumilib ketaveribdi, shuncha uqalasa ham bo'lma libdi, keyin qolgan araq bilan yuvibdi. Sal ko'zi ochilsa, haligi narsa g'oyib bo'larmish. Birpasdan so'ng jinga o'xshagan haligi narsa yana ko'rinar mish... Bobom ko'zini kattaroq ochib, uxlamaslikka har qancha urinsa ham, ko'zini xira bosib, qollari akashak bo'lib, boshi qiyshayib ketaveribdi, keyin dong qotib, xuddi birov kelib chopgandek yiqilib tushibdi. Shu yotganicha yotib, kun ko'tarilib, tarashlangan taqir boshidan issiq o'tgach, uyg'onib o'rnidan turibdi. Bir-ikki yo'l kerishib, boshini qashlab u yoq-bu yoqqa qarasa, aravalar kechagidan ancha kamayib qolibdi. Karvonlar tong otmasdan yo'lga tushibdi. Hamrohlari tepasiga kelib qarasa, anavi yigit uyquda-yu, ammo zaporoyjelik yo'q. So'ray desa, hech kim bilmaydi. Yotgan joyida bitta chakmoni qolibdi xolos. Bobomning quti o'chib, hayron bo'libdi. Otlarni borib qarasa, na uning oti bor, na buning. Ta-ajjub! Zaporoyjelikni shayton olib ketdi, deya qolaylik, otlarni kim olib ketibdi? Bobom o'y lab, o'y lab, shayton piyoda kelgan ekan-u, do'zaxgacha yo'l anchaligidan mening otimni minib ketib qolipti-da, degan fikrga kelibdi. Bergan va'dasining ustidan chiqolmaganligi juda alam qilibdi. «Endi nima qilardim, boshqa chora yo'q, piyoda ketaveraman. Yo'lda bitta-yarimta yar-markachi asp jallob uchrab qolsa, bir ilojini qilib ot sotib olarman», – deb bosh kiyimini qarasa yo'q; kecha kechqurun zaporoyjelik bilan ikkovi qalpoqlarini vaqtincha almashtirgani esiga tushib, marhum bobom chapak chalgancha qolibdi. Ajina o'g'irlab ketmasa kim olib ketadi. Barakalla, chopar. Nomanı podshoga

xo'b eltid berdingiz! Bobom shaytonni so'kib, bulg'ab ketdiki, do'zaxda yotib, necha marta aksirgan bo'lsa kerak, deb o'ylayman. Ammo so'kkan bilan biron foyda chiqarmidi; boshini har qancha qashisa ham o'ylab, o'yiga yetolmadi. Iloj qancha? Boshqalarning aqliga tutindi. Araqxonadagilarning barchasini, karvonlarni va boshqa yo'lovchilarni ham yig'ib, boshiga tushgan falokatni so'zlab berdi. Karvonlar iyaklari bilan qamchinlariga suyanib turib, xo'b o'yladilar. Keyin boshlarini chayqab, isaviylar olamida hech qayerda bunday ajoyibotni, podshoning nomasini ajina o'g'irlab ketganini eshitmadik, debdilar. Ba'zi birovulari, shayton bilan moskal birlashib bir narsa o'g'irlasalar, aslo topilmaydi, debdi. Yolg'iz bir araqfurush bir burchakda indamasdan o'tirgan ekan. Bobom uning oldiga boribdi. Indamasdan o'tirgan odam bormi, albatta aqli dono bo'ladi. Ammo araqfurush gapga juda baxil ekan. Agar bobom kissasidan besh tanga chiqarmasa, oldida qadalib turaverarkan. Araqfurush bobomni bir chetga chaqirib:

– Yorlig'ingni topish yo'lini o'rgatib qo'yaman, – debdi. Bobomning ko'ngli sal yorishdi. – Mard yigitling ko'zlariningdan ham ko'rinish turibdi, hezalak-massan. Bu yoqqa qara, araqxonadan nariroqda yo'l o'ng tomonga, chakalakka qarab qayriladi. Kechki payt bo'ladi-ku, shu vaqt tayyor bo'lib tur. Chakalakda lo'lilar bor, ular jinlar kosovga minib chiqadigan qorong'i kechalari uylaridan chiqib, taqachilik qiladi. Ularning hunari bilan ishing bo'lmasin. Chakalakda taqir-tuqur ko'p bo'ladi, ammo sen taqirlagan tarafga yurma. Bir tomonda kuygan daraxt oldida kichkina yo'l keladi. Shu yo'ldan boraverasan, boraverasan... Tikanaklar yopishadi, yong'oq yo'lingni to'sadi, parvo qilmay boraver; ketaverib, ketaverib, suv bo'yiga chiqasan, ana shunda to'xtasang bo'ladi. Shu yerga borganingda senga kerak odamni topasan. Kissani nima uchun qilgan, bilasan-a, shu narsadan solib ol.

Bu narsani ins-u jins hamma baravar yaxshi ko'radi. Araqfurush boshqa bir og'iz so'z aytmay hujrasiga kirib ketibdi.

Marhum bobom uncha-munchaga qo'rqa digan odam emas edi. Agar bo'rige duch kelib qolsa, dumidan mahkam ushlab olardi, agar galaga teksami, har musht urganda bittasini dumalataverardi. Ammo tim qorong'i kechada chakalakka kirganda, badani jimir-lashibdi. Osmonda bitta yulduz bo'lsa-chi. May turadigan tunakdek¹ zulmat. Baland osmonda sovuq shamol daraxtlar uchini oralab yurganligi eshitilardi, xolos. Daraxtlar bo'lsa mast kishining boshidek be-qaror silkinar, barglari mastlar suhbatidek shitir-shitir so'zlashardi. Bir mahal, qattiq sovuq turib, bobom po'stinini kiyib olibdi. Birdaniga xuddi yuztacha bolg'a taqir-tuqur qilib, boshi gangib qolibdi. Shu paytda daraxtzorning ichi xuddi mash'ala qilgandek yorishib ketibdi. Daraxtzor yorishishi bilan bobomning ko'zi chakalak oralab borgan yo'lga tushibdi. Kuygan daraxt, tikanak ham bor emish. Xuddi boyaytilgandek, araqfurush aldamagan ekan. Ammo tikanzor ichidan oralab borish hazilakam ish emas. Bunday yomon qadaladigan tikanlarni bobom haligacha sira ko'rmagan ekan, har qadam bosganda bir baqirguday bo'larmish. Sekin-sekin yalangroq joyga chiqibdi, nazarida daraxtlar siyraklanib, Polshaning u tomonida sira ko'rinnagan yo'g'on daraxtlar paydo bo'libdi. Bir mahal daraxtlar orasida jilg'a ko'rinipti, qop-qora po'latga o'xsharmish. Bobom suv bo'yida u yon-bu yonga alanglab tursa, narigi tomonda miltillagan o't ko'riniib qolibdi. Bir yonib, bir o'charmish, o'tning shu'lesi suvgaga tushib, Shlyaxtich² kazak panjasida tipirchilagandek jimir-jimir qilarmish. Ko'priham ko'riniibdi, biroq undan shayton aravasi o'tmasa,

¹ Tunak – qorong'i yerto'la, uy. (*Tarj.*).

² Shlyaxtich – Polshaning asilzoda boyonlaridan bo'lgan odam. (*Tarj.*).

boshqasi o'tolmas emish. Ammo bobom qo'rqmasdan qadam qo'yib, birovlar qortig'idagi burunakisini otib olguncha ham bo'lmay, bir zumda g'izillab o'tib olibdi. Qarasa o't oldida odamlar o'tirishibdi, shunday badbashara emishki, boshqa vaqtida bo'lsa bobom bundaylarga yo'liqmaslik uchun Xudo biladi, nimalarni berishga rozi bo'lardi. Lekin endi iloj qancha, shunga majbur. Bobom noiloj xuddi boshi yerga tek-kuncha engashib, salom beribdi: «Xudo yoringlar bo'sin, yaxshilar!» Ulardan bittasi ham aqalli boshini qimirlatmabdi. Indamay o'tirib, olovga bir narsa sepishar emish, xolos. Bir joy bo'sh ekan, bobom indamasdan borib o'tirib olibdi, haligi taraqqoslar ham indamas emish, bobom ham. Shu zaylda indamasdan ancha o'tirishibdi. Bobom zerikib, diqqat bo'lgandan kissasini kavlab, mushtugini olib u yon-bu yonga qarasa, hech qaysisi unga qayrilib qaramay, o'z holicha o'tirishaveribdi. «Azizlar, iltifotiningizni darig' tutmang, chunonchi, qanday desam bol'lar ekan...» (bobom ko'pni ko'rgan odam bo'lganidan sipolikka ham usta edi, xonasi kelib qolsa, podsholar oldiga borganda ham gapni qoyil qilib ketardi). «Qanday desam o'zimni xursand qilgan, sizlarni esa ranjitmagan bolaman, mushtugim bor-ku, biroq o'tga hayron bo'lib turibmanda, oti qurg'ur yo'q ekan». Bunga ham bittasi churq etib javob bermasa-chi. Ajinaga o'xshaganlarning bittasi yonib turgan cho'g'ni olib, bobomning xuddi manglayiga olib kelsa bo'ladi! Bobom darrov o'zini opqochganda-chi, sal qolsa bir ko'zidan ajrarkan. Keyin qarasa vaqt ketyabdi; shaytondan tarqaganlar, quloq solsa, solmasa, baribir aytib ko'ray, deb aytibdi. Badbasharalarning quloqlari dikkayib, qo'llari cho'zilibdi. Bobom darrov fahmlab kissasidagi pulning barisini qismlab olib, itga tashlaganday ular o'rtasiga tashlabdi. Pulni tashlashi bilan hamma yoq ostin-us-tun, to's-to'poloni chiqib, yer ham zilzilaga kelibdi. Keyin nima bo'lganini o'zi ham bilmaydi. Xuddi do'zaxga

tushib qolgandek bo'libdi. Keyin u yon-bu yonga yax-shiroq qarasa, ana xolos, bunday badnomalar ham bo'larkan-a! Aft-basharasiga o'xshamaydi, degan gap bor-ku, xuddi shuning o'zi. Hamma yoqni ajina bosib ketibdi, chillada yoqqan qordek yog'ilibdi. Hammasi yasangan, bezangan, yarmarkaga kelgan qizaloqlardek. Hammasi mast-alastdek, allaqanday ajinalar o'yinga tushyapti. Shunday changitib, to'zitib yubor-dilarki, Xudo o'zi panohida saqlasin. Agar shayton-vachchalarning sakrashini bironta mo'min-qobil, sod-daroq odam ko'rsami, vahimasi kelardi. It tumshuq, chillak oyoq ajinalar dumlarini likillatib, xuddi yigitlar chiroyli qizlar tevaragida gir-gir aylanganidek bir yalmog'iz kampir tevaragida dingillab sakrashar emish; bobom ularning bu qiliqlarini ko'rib, qo'rquvi ham esidan chiqib, kulib yuboribdi. Ajinalarning musiqachilari lunjlarini do'mbira qilib, burunlarini karnay qilib chalarmish. Bobomni ko'rib qolib hammasi galalashib yopirilishibdi. It tumshuq, cho'chqa tumshuq, ot tumshuq hammasi tumshug'ini cho'zib bobomni o'pmoqchi bo'larmish. Bobom, qanday haromisizlar, deb tupurib-tupurib tashlabdi. Axiri uni tutib, qo'ymasdan dasturxonga o'tqazishibdi, stolning uzunligi Konotop bilan Baturin o'rtasidagi yo'lcha kelarkan. Bobom dasturxonada yana qovurma go'sht, yaxna taomlar, piyoz aralash to'g'ralgan karam va boshqa turli laziz ovqatlarni ko'rib «Xayriyat-e, bunday bo'lsa yomon emas! Nomard shaytonvachchalar ro'za tutmas ekanlar-da!» – deb qo'yibdi ichida. Shuni ham bilib qo'ysangiz chakki bo'lmaydiki, bobom ancha xulosaxo'r va taomni yaxshi ishtaha bilan yer edi; shuning uchun gapni cho'zmay kertib-kertib, to'g'rab qo'yilgan moy bilan yaxna go'sht turgan tovoqni oldiga tortib, dehqonlar poxol tashlaydigan ayridek keladigan sanchqi bilan lo'ndagina bir bo'lak go'shtni olib, bir burda nonga qo'shib, og'ziga olib boshqa bilan g'oyib bo'lib, boshqa og'izga kirib ketganday

bo'larmish. Xuddi qulog'i tagida birovning chapillatib chaynab-chaynab ovqat yegani ham baralla eshitilar-mish. Bobom sir boy bermasdan indamay yana bir bo'lakni olib og'ziga olib borib, hatto bir chekkasini tishlaganday ham bo'libdi-yu, lekin yana birov ilib ketibdi. Yana olsa, yana shu voqea. Bobomning jah-li chiqib, qo'rqishni ham yig'ishtirib qo'yib, kimning qo'lidaligini ham unutib, ajinalar tepasiga kelib:

– Horundan tarqagan mal'unlar, meni mayna qilyapsizmi? Agar qalpog'imni hozir topib bermasan-giz, cho'chqa tumshug'ingizni teskari qilib yuborma-sam, katolik¹ dinimdan chiqib ketay!.. – deb dag'-dag'a qilibdi. Bobom gapni tamom qilguncha ham bo'lmay, ajinalar tishlarini irjaytirib shunday kulgi qilishibdiki, bobomning o'takasi yorilguday bo'libdi. Ajinalarning bittasi turib:

– Xo'p, – debdi, bobom bunisini hammasidan beshbattarligini ko'rib, ichida kattasi shu bo'lsa kerak, deb qo'yibdi. – Qalpog'ingni beramiz, ammo avval biz bilan uch marta beshqarta o'ynaysan!

– Endi qandoq qilaman? Xotinlar bilan qarta o'ynash kazakka or-ku!

Bobom avval ko'nmay, keyin noiloj rozi bo'libdi. Poplarning qizlari, qayliqlari to'g'risida fol ochadigan yag'iri chiqib ketgan kir qartalar bo'ladi-ku, ana shunaqa qarta keltiribdilar.

Haligi ajina:

– Hoy, eshitib qo'y, bir marta yutsang ham qalpoq seniki, ammo uch martaning hammasida yutqizsang, o'zingdan ko'r, qalpoq qalpog'-a, yorug' dunyodan ham benasib bo'lasan! – debdi.

– Suz, suz, ajina! Nima bo'lsa bolar, – debdi bobom.

Shunday qilib, qarta suzilgach, bobom qo'liga olib qarasa, shunday rasvo qartalarki, hech bo'lmasa otiga bitta kuzir chiqsa-chi, qartasining eng zo'ri o'nlik xo-

¹ Katolik – nasroniyalar mazhablaridan biri.

los, par bo'ladigani sira yo'q. Ajina yakkash beshtalab yurarmish. Bobom qartadan ahmoq bo'lib qolibdi. Qolishi bilan darrov: «Ahmoq! ahmoq! ahmoq!» – deb har tarafdan bittasi akillarmish, bittasi xo'rillarmish, bittasi hangillarmish.

Bobom qulog'iga barmog'ini tiqib olib, «shaytondan tarqagan palidlar, bas e, yorilib o'lgurlar» deb keyin: «Ajina tirriqlik qilgandir, endi bu gal o'zim suzay», – deb bobom o'zi suzibdi. Kuzir chiqdi. Most qartalar ham ko'p, kuzir ham bor. Avval bobomning qo'li baland ekan, ajina nuqul sholardan beshqarta yuribdi. Bobomning qo'lida nuqul kuzirlar ekan, uzoq o'ylab o'tirmasdan sholarini kuzirlar bilan bossa, ajina:

– Hoy, hoy, bu ishing o'g'il bolaning ishi emas-ku! Hamshahar, qarab bos, nima bilan bosding? – debdi.

– Nima bilan bo'lardi, kuzir bilan!

– Sizlarda bu kuzir dir, ammo bizlarda kuzir emas!

Qarasa darvoqe kuzir emas, to'g'ri qarta emish. Nima balo bo'ldi. Yana qolishga to'g'ri kelib, ajinalar haligidek yana «ahmoq, ahmoq»qa olishibdiki, stol o'ynoqlab, qartalar sakrab ketibdi. Bobom alamiga chidolmay oxirgi marta yana suzibdi. Boshda yana tuzuk ekan, ajina beshtani birdan yuribdi. Bobom hammasini bosib, yana qo'lini to'ldirib olibdi.

– Kuzir! – debdi bobom qartani tashlab. Tashlaganda qarta bukilib ketibdi. Ajina indamay-sindamay sakkiztalik to'g'ri qarta bilan bosibdi.

– Hoy, shaytonning qarisi, nima bilan bosding!

– Ajina qartani ko'tarsa, tagida otilik to'g'ri qarta emish.

Bobom:

– Shaytonlarning tirriqligini qara! – deb, alamidan stolga bir musht uribdi. Hayriyatki, ajinaning qo'lida yomon qarta qolgan ekan, bobomda esa par qarta ekan. O'rtadagi qartadan olsa, yalang yomon qartalar chiqarmish, bobomning hafsalasi pir bo'lib, umidini uzibdi. O'rtada qarta qolmabdi; bo'lar ish bo'ldi, deb otilikni yursa ajina ko'taribdi. «Ie, bu qanday bo'ldi!

Buni bir balosi bo'lsa kerak!» Bobom qartalarini sekin stol tagiga olib cho'qintirib olgan ekan, qarasa, qo'lida kuzirning tuzi, shosi, salloti emish. Haligi yurgani oltilik emas, xotin ekan.

– Xo'b nodonlik qilibman-da! Kuzirning shosi! Xo'sh, ko'tardingmi? Ha, mushukdan tarqaganlar!.. Tuzga xushing bormi? Tuz! Sallot!

Do'zaxda momoqaldiroy turib, ajina tirishib akashak bo'lib qolipti. Qayoqdan tushganligi noma'lum, bir mahal qalpoq bobomning naq betiga kelib tegibdi. Bobom dadil bo'lib, qalpog'ini kiyarkan:

– Yo'q, bu bilan qutulmaysanlar. Agar shu tobda arg'umoq otimni topib keltirmasangiz, hammangizni butga cho'qintirmasam mana shu iflos makoningizda menga yashin tegsin! – deb, qolini ko'tarishi bilan otning suyaklari oyog'i ostiga kelib tushibdi.

– Mana oting!

Bobom bechora otning suyaklarini ko'rib, yosh bo'ladek ho'ngillab yig'lab yuboribdi. Qadrdoniga aylan-gan otiga juda achinib ketibdi.

– Mayli, qanday bo'lsa ham bir ot bering, bu makoningizdan chiqib olay!

Ajina qamchisini bir qarsillatsa, o'tga o'xshagan asov ot o'ynoqlab kelibdi-yu, bobomni qushdek osmonga ko'tarib ketibdi.

Ot na shovqinga qulq solmay, na boshini tortganga qaramay, o'r-tepalardan, suv-quruqdan oshib ketaver-gach, bobom qo'rqib ketibdi. Agar borgan joylarini so'zlab bersa, odamning badaniga titroq tu-shadi. Keta turib pastga qararmish, o'takasi yorilguday bo'libdi, jahannam emish, tagi ko'rinnasmish. Shayton ot bo'lsa parvo qilmay, sakrab o'tib ketibdi. Bobom mahkam yopishib olsa ham bo'lmay, o'nqir-cho'nqirlardan, to'nkalardan dumalab jarlikka tushib, yerga shunday yopishib qolibdiki, joni chiqquday bo'libdi. Ishqilib o'shanda nima bo'lganini o'zi ham bil-maydi, esi ketib qolgan ekan. Hushiga kelib, u yon-bu

yoniga qarasa, allaqachon tong yorishib qolganmish. Ko'zini ochib qarasa, ko'rib yurgan, bilgan joylari emish, yotgan joyi o'z uyining tomi emish.

Bobom tomdan tushib cho'qinib olibdi. E, mal'un! Qanday balo bu, odamzod bilan ham shunday taaj-jub ishlar bolarkan-a! – deb qo'liga qarasa, qo'li qon emish, suv tomdirilib qo'yilgan bochkaga qarab yuzini ko'rsa, yuzi ham qonga belangan emish. Bola-chaqlar qo'rqishmasin deb, avval yuvinib olib, sekin uygakirsa, bolalari undan qochishib: «Qara, enamni qara, jinniga o'xshab irg'ishlayabdi», – deb, orqaga tisarilib ketayotgan emishlar. Darvoqe, qarasa, xotini qo'lida taroq bilan shona tepasida mudrab o'tirib, dikkadikka o'ynarmish. Bobom kampirning qo'lidan tutib, sekin uyg'otibdi: «Xotin, omonmisan, salomatmisan!» Kampir ko'zini baqraytirib, ag'raygancha o'tirib-o'tirib, keyin zo'rg'a tanibdi. Tush ko'rayotgan ekan, tushi-da pechka o'rnidan qo'zg'alib, uydagi xurma bormi, tog'ora bormi – hamma narsani belkurak bilan haydab yurganmish. Bobom: «Sen tushingda ko'ribsan, men o'ngimda. Bir is chiqarib, uyimizni tozalab olmasak bo'lmaydiganga o'xshaydi, lekin men endi tezroq boray», – debdi. Bobom biroz dam olib, bir ot topib yo'lga tushibdi, ammo endi kecha-kunduz baravar yo'l yurib, yorliqni podshoning o'z qo'liga yetkazmaguncha hech yerda to'xtamabdi. Ana u yerda ko'rgan ajoyibotlarini bobom ko'p vaqtlargacha gapirib yurdi, so'zlab berganda odam hayron qolardi. Shunday baland borgohlarga olib kiribdilarki, bizlarning uylarimizdan o'ntasini ustma-ust qo'ysa ham yetmasmish. Bir uygakirsa malika yo'qmish, unisiga kirsa unda ham yo'qmish. Shunday qilib, uch-to'rt uydan o'tib borsa, bir uyda boshida oltin toj, egnida yangi kamzul, oyog'ida qizil charm etik, tilla kulchalar yeb o'tirganmish. Bobomning qalpog'ini ko'k qog'ozga¹ tomdirib beringlar, deb amr qilibdi... Eh, qay-

¹ Ko'k qog' oz – besh so'mlik qog'oz pul.

si birini aytasan. Ajinalarga yo'liqqanini keyin esidan ham chiqarib yubordi. Birov esiga solib gapirsa ham, indamasdan, unga dahli bo'lmagandek o'tiraverardi, bu to'g'rida uni gapirtirish nihoyatda qiyin edi. Juda qistasangiz zo'rg'a gapirardi. O'sha vaqtida darrov is chiqarib yubormaganlari uchun bo'lsa kerak, har yil, vaqt kelganda, kampirning jini qo'zib dikka-dikka o'yin tushaverardi. Ishqilib, nima qilsa ham, oyoqlari dingillab o'yin tushib turardi.

IKKINCHI QISM

MUQADDIMA

Mana bu yana bir kitob, to'g'risini aytsam, oxirgisi. Buni ham chop ettirishni xohlamagan edim, sira xohlamagan edim, darvoqe kishiga obro' ham kerakda! Sizga aytsam, qishlog'imizda meni masxara qiladigan bo'lib qolishdi. Chol bobo esini yo'qotib qo'yibdi, keksayganda bolalarning ishini qiladi, deyisharmish. Darvoqe, to'g'ri aytishadi, allaqachon tinmoq kerak edi. Aziz o'quvchi, mug'ombirlik qilib, o'zini qartaygan-ga oladi, desangiz ham ajab emas. Og'zimda bir donatishim qolmagandan keyin, mug'ombirligi bormi! Endi, yumshoqroq narsa bo'lsa yezman, ammo qattig'iga sira tishim o'tmaydi. Shunday qilib, sizga yana bir kitob chiqarib beray, ammo meni koyib yurmang, xushlashganda, alalxusus: yana ko'rish-ko'rmasligingiz dargumon bo'lgan odam bilan xushlashganda, koyish yaxshi emas. Bu kitobda Foma Grigoryevichni mustasno tutganda o'zingiz deyarli tanimagan-bilmagan hikoyachilar og'zidan hikoya eshitasiz. Anavi masxaraboz kishi bormi, gapga chechan, Moskov xalqidan bo'lgan ko'p odamlar uning tiliga tushunmasdi, bu odam qachonlar dan beri yo'q. Hamma bilan xafalashib qolgandan beri biznikiga ham kelmaydi. Shoshmang, bu voqeani sizga aytganim yo'qmi? Nihoyatda qiziq voqea bo'ldi. O'tgan yili, yoz kirish vaqtida, tag'in xuddi men tug'ilgan kuni menikiga bir necha mehmonlar kelgandi (aziz o'quvchi, aytib qo'ymog'im kerakki, Xudo salomat qilsin ularni, hamqishloqlarimiz, cholni haligacha yodlaydi. Ellik yil bo'ldi, har yil nom qo'yilgan kunimni xotirlab

qo'yaman, lekin hozir necha yoshga kirganimni o'zim ham, kampirim ham sizga aniq aytolmaymiz. Yetmishga yaqinlashib qolgan dersiz. Dikanka qishlog'imizning popi Xarlampiy buzruk qachon tug'ilganimni bilardi, lekin afsuski, u kishining olamdan o'tganiga ellik yil bo'ldi). Shunday qilib, mehmonlar kelishdi. Zaxar Kirilovich Chuxopupenko, Stepan Ivanovich Kurochka, Taras Ivanovich Smachnenkiy, sud a'zolaridan bo'lmish Xarlampiy Kirilovich Xlosta dodho, yana bir kishi bor edi, nomi qurg'ur yodimdan chiqibdi. Osip... Osip... E Xudoyo tavba, butun Mirgorodga mashhur-a, gapirganda qo'lini qarsillatib, belini ushlab turib gapiradi-ku, kim edi... xayr, o'sha-da, bir kun esimga kelib qolar. So'ngra o'zingiz bilgan poltavalik boy ham kelgan edi. Foma Grigoryevichni qo'shmadim, chunki o'zimizga qarashli odam. U yoq-bu yoqdan gaplashib o'tirib, (yana sizni ogohlantirib qo'yayki, bizning suhabatimizda mayda-chuyda gap bo'lmaydi. Men o'zim suhabatning bama'nisini yaxshi ko'raman, ya'ni gapda ham maza bo'ssin, ham matra deyishadi-ku, ana shunisini) olmani qanday tuzlash usulidan gap ochilib ketdi. Mening kampirim, avval olmani yaxshilab yuvib, keyin kvasga solib qo'yish kerak, keyin...», – deb gap boshlashi bilan, poltavalik ikki qo'lini malla chakmoni cho'ntagiga solib olib, biram g'alati savlat bilan uyning u yog'idan-bu yog'iga yurib turib: «Bundan hech narsa chiqmaydi! Avval kanavpar¹ sepmoq kerak, undan keyin...» deb qoldi. Aziz o'quvchi, o'zingizga havola qildim, insof bilan ayting, olmaga ham kanavpar sepadimi, axir? Maymunjon, sebarg, shuvoq, shunga o'xshash o'tlarning bargini soladi, bu to'g'ri, ammo kanavpar solganini hech qayerda eshitmaganman, olma tuzlashni hech kim mening kampirimdan yaxshi bilmasa kerak. O'zingiz ayting, axir! Men uni hurmat qilib, jo'rttaga bir chetga chiqazib: «Hoy, Makar Nazarovich,

¹ Kanavpar – xushbo'y o't.

o'zingni uyatga qo'yma! Unaqa-bunaqa odam emas-san, axir! Gubernator bilan bir dasturxonda o'tirib ovqat yeganman deysan. Agar o'sha yerda ham bunday o'tirsang masxara bo'lsan, axir!» – dedim. Nima dedi, deng! Indamay, yerga bir tupurib, bosh kiyimini kiyib chiqib ketdi. Xayrlashish, loaqal bosh ishorasi bilan xushlashish qayoqda; darvozaga qo'ng'iroqlik arava kelganini eshitib qoldik xolos, o'tirdi-yu, ketdi-qoldi. Yaxshi bo'ldi, bunday mehmonning nima keragi bor bizga! Aziz o'quvchi, men sizga aytsam, dunyoda ana shu nasabдорлардан yomoni yo'q. Qaysi bir amakisi bir vaqtarda hokim bo'lган ekan, shunga juda tumshug'ini ko'tarib yuboribdi. Hokimdan baland amal dunyoda yo'qdek! Xudoga shukr, hokimdan kattasi ham bor. Sira yoqtirmayman-da shu martabaliqlarni. Chunonchi, Foma Grigoryevichni ko'ring. Nasabi ham uncha baland emas, ammo savlatiga qarang. Chehrasida ajab bir nuroniylit bor, hatto anchayin jo'n burunaki tortganda ham salobati odamni bosadi. Butxonada minbarga chiqib, hofizlik qilsami, tavsifga sig'maydigan maza qilasiz, odamning a'zoyi-badanini eritib yuboradi!.. Shu kishi ham... keling, mayli u kishi ham, hikoyalarini juda aziz qilib yubordi, u kishi aytmasa boshqa hikoya yo'qdek. Mana, axir butun boshli bir kitob bo'lganday hikoya chiqdi-ku.

Bu kitobda mening ham o'z hikoyam bo'ladi, degan edim shekilli. Shunday qilmoqchi ham edim, biroq mening hikoyam uchun bunaqangi kitobdan uchtasi kerak ekan. Alovida chop qildirsammikin, deb ham o'yladim, keyin aynidim. Sizni yaxshi bilaman. Bechora mo'ysafidni masxara qilib yurasiz. Yo'q, sira xohishim yo'q! Xush qoling! Endi uzoq vaqt, balki sira ham ko'rishmasmiz. Bu gaplarning nima hojati ham bor, agar men dunyoga sira kelmagan bo'ssam ham, sizga baribir emasmi? Bir yil o'tar, ikki yil o'tar, hech qaysingiz chol asalarichi Rudiy Pankoni esingizga ham olmassiz, unga achinmassiz ham.

ROJDESTVO KECHASI

Rojdestvoga bir kun qolgan edi, u ham o'tdi. Charaqlagan yorug' qish kechasi keldi. Osmonda yulduzlar charaqlab chiqdi. Oy ham yaxshilarning yo'lini yoritsin, olam ro'shno bo'lsin, hamma quvonib, lapar-u marsiyalar aytsin, Iso alayhissalomga madh o'qisin, deb sha'n-shavkat, shukuh bilan chiqdi. Havo ertalabkidan ko'ra qattiqroq sovuq. Ammo shunday osuda ediki, oyoq ostidagi qorning g'archillashi, yarim chaqirimdan eshitilardi. O'spirinlar hali darcha tagida to'plangani yo'q. Yolg'iz oygina yasangan qizlarni g'archillama qor ga tezroq chiqinglar, deb, chaqirayotgandek darchalar dan mo'ralardi. Bir uyning mo'risidan burqsib chiqqan tutun osmonga chirmashib ketdi, tutun ichida supurgi mingan ajina ham osmonga chiqib ketdi.

Agar shu paytda sorochinlik sud a'zosi fuqaroga qarashli otdan uchtasi qo'shilgan aravada, bo'z yigit sarvozlar singari qunduzi telpak, yoqasiga qora bar ra tikilgan beshbel kamzul kiyib, aravaga tushganda doim qo'lida ushlab boradigan to'qima qamchinini ko'tarib o'tib qolsami, darrov ajinaga ko'zi tushardi, chunki dunyoda hech bir ajina yo'qli, uning ko'zidan qochib qolsin. Kimning moli nechta tuqqanini, kimning sandig'ida qancha bisoti borligini, saxiy kishi ulug' bayram kunida bisotidan, ro'zg'oridan nimas ini chiqarib, araqxonaga garov qo'yishini ham biladi. Ammo sorochinlik sud a'zosining bugun yo'li bu yoqqa tushmadi, tushganda ham boshqalar bilan uning nima ishi bor, o'zining tashvishi ko'p. Ammo ajina osmon-u falakka chiqib shunday balandladiki, qora ko'lankaga o'xshab ko'rindi. Qora ko'lanka osmonning qayeriga borsa, yulduzlar birin-ketin g'oyib bo'laverdi. Ajina bir pasda yengini yulduzga to'dirib oldi. Uchta-to'rtta yulduz qoldi, xolos. Shu paytda narigi tomondan ham qora bir narsa paydo bo'lib tobora cho'zilib, birpasda ulg'ayib ketdi. Ko'zi xira, shabko'r odam ko'zoynak

emas, hokim aravasining g'ildiragini burniga taqib olsa ham bu narsaning nimaligini bilolmasdi. Oldidan qaraganda nemisning¹ xuddi o'zi: tek turmasdan qimirlab, nima ko'rsa hidlab turgan tumshug'i bizning cho'chqalarimiz tumshug'i singari dumaloq chaqaga o'xshardi, oyoqlari chillakday; agar Yareski² qishlog'i oqsoqolining oyoqlari bunaqa bo'lsa, bir o'yinga tushishda sinar edi. Ammo orqasidan qaraganda gubernator noibining xuddi o'zi edi, chunki hozir rasm bo'lgan mundir etagidagi quyruqqa o'xshagan uning ham ingichka, uzun quyrug'i bor edi. Faqat iyagi tagida osilib turgan takasoqoli, boshidagi shoxchasi ham momdan chiqqan go'loxchidan battar qoraligi, uning nemis ham, gubernator noibi ham emas, balki yorug' dunyoda oxirgi kun tentirab yaxshilarni yo'ldan ozdirib yurgan, ertaga ertalab jom chalinishi bilan dumini qisib, ketiga qaramasdan jahannamga kirib ketadigan shaytonning o'zginasi ekanini ko'rsatib turardi.

Bu orada ajina oyni o'g'irlash payida sekin-sekin poylab kelyabdi; qo'lini uzatib oyni ushlarloqchi ham bo'ladi-yu, lekin qo'li kuygandek tortib oldi, barmog'ini og'ziga tiqib, dingillab qoldi. Keyin u tomondan kelib ushlarloqchi bo'ldi, tag'in qo'lini tortdi. Ammo hiylagar ajina shuncha pand yesa ham sira qo'ymasdan shaytonligini qilaverdi. Yugurib kelib, ikki qo'li bilan oyni ushlab oldi; tamaki chekmoqchi bo'lgan odam cho'g'ni qo'lidan qo'liga olib, puf-puflagandek, u ham aft basharasini bujmaytirib, oyni u qo'lidan bu qo'liga olib sovutgandek bo'ldi-da, darrov cho'ntagiga solib, hech narsa ko'rmagan kishidek yugurgancha ketaverdi.

Ajina oyni o'g'irlab ketganini Dikankadagilarning hech qaysisi eshitmadni. Lekin viloyat mirzasi araqxonadan emaklab chiqayotganda, oy osmonda turib birdaniga qimirlab o'ynab ketganini ko'rgan ekan; az-

¹ Fransuzmi, ruminmi, shvedmi, xullas, boshqa yurtdan kelganlarning hammasini bizda nemis deyishadi. (*Yozuvchidan.*)

² Yareski – Poltava gubernasi, Mirgoroddagi qishloq.

baroyi Xudo, deb qasam ichib aytsa ham qishloqdagilarning hech qaysisi uning gapiga ishonmasdan, masxara qilib kului. Ammo ajinaning bunday qonunga xilof ish qilishining boisi nima? Boisi yo'q emas, bor edi: Chub boy ni butxonaning popi sumalak oshiga chaqirganini bilar edi. Bu mehmondorchilikka oqsoqoldan bo'lak rahnamo qoshidan kelgan va popga qarindoshligi bo'lib, nihoyatda yo'g'on ovoz bilan hofizlik qiluvchi ko'k chakmon kiygan hofiz, kazak Sverbiguz va yana bir necha kishilar chaqirilgandi. Bu o'tirishda sumalak oshidan bo'lak sharbat, za'far qo'shilgan chag'ir va boshqa turli-tuman laziz ovqatlar bo'ladigan edi. Otasi mehmondorchilikka ketganda butun qishloqqa nomi ketgan chiroyli qizi uyda yolg'iz qolsa kerak, yolg'iz qolgan qiz oldiga yo'g'ondan kelgan norg'ul azamat taqachi yigit kelsa kerak. Ajina buni Kondrat buzrukning xutbalaridan ham battar yomon ko'radi. Taqachi ish-dan bo'shaganda suratkashlik ham qilar va bu atrofda undan usta naqqosh yo'q edi. Marhum yuzboshi L...koning o'zi tirikligida uni atayin Poltavaga chorlatib, uyning taxta devorini bo'yattirgan edi. Dikan-ka qishlog'idagilarning sho'rva ichadigan tovoqlarini bo'yagan shu taqachi edi. Taqachi xudojo'y odam bo'lib, ko'pincha aziz avliyolarning suratlarini chizar edi. T...dagi butxonada injil yozgan Lukaning taqachi solgan surati hali ham bor, ammo taqachi hunarining avjiga chiqqani, butxonaning o'ng tomonidagi hujra devoriga solgan surati edi. Bunda mahshar kuni qo'lida bir shoda kalit bilan do'zaxdan shaytonni haydab chiqarayotgan vali Pyotrning tasvirini solgan edi. Shayton kuni bitganini bilib qo'rqqanidan har tarafga qochar, do'zaxdagi gunohkorlar qamchin bormi, g'o'la bormi, qo'llariga nima tushsa, urib quvlashardi. Naqqosh bu suratni katta taxtaga solayotganda, shayton unga ko'p xalal bergandi. Qo'lidan turtkilab, qo'rasidagi kulni to'zitib surati ustiga sochardi. Lekin shaytonning bu g'alamisligiga qaramay suratni tamom qilib, taxtani

butxona hujrasining devoriga qoqib qo'yan edi. Ana shundan beri shayton u bilan o'chakishib, undan o'ch olmoqchi bo'lib yonib qo'yan edi.

Yorug' dunyoda yana bir kungina izg'ishi qoldi. Bir kun qolgan bo'lsa ham shu kecha taqachidan bir iloq qilib alamini olmoqchi bo'ldi. Shuning uchun bora-digan joyi ancha uzoq bo'lganidan keksayib qolgan Chub, dangasalik qilib bormasin, degan maqsadda bu ishlarni qilgan edi. Qishloq orqasidan o'tib, tegirmondan, go'riston dan o'tib, jarlikdan aylanib borilar edi. Oydin kecha bo'lsa, shirin-sharbatlar, laziz ovqatlar nafsi ni tinch qo'ymasdan sudrab borardi, ammo bunday qorong'i kechada hech kim uni pechkasidan tushirib, uyidan chiqarolmasa kerak. Burundan u bilan chiqishmagan taqachi har qancha zo'r bo'lsa ham, uyidaligida yurak betlab qizning oldiga borolmas edi.

Shunday qilib, ajina oyni cho'ntagiga solib olishi bilan olamni shunday zulmat bosdiki, unaqa-bunaqa odam popning xonadoni u yoqda tursin, araqxonani ham topolmas edi. Ajina qorong'ida qolib birdaniga chinqirib yubordi. Shayton darrov yo'rg'alab kelib uni qo'ltilqlab olgach, odatda xotin zoti qulog'iga qanday shivirlansa, u ham ajinaning pinjiga kirib shunday shivirlab ketdi. Dunyoning ishlari g'alati-da! Olamdag'i maxluqlarning bari bir-birining qilig'ini qilishga, bir-birini ermak qilishga urinadi. Burun Mirgorodda yolg'iz suda bilan shahar hokimi qishda movut qoplangan kalta po'stin kiyardi, boshqa mayda-chuyda amaldorlar teri po'stin kiyardi. Endi bo'lsa, sud a'zosi ham, daha sudyasi ham barra teridan yangi po'stin tiktirib, movut qoplatib olibdi. Daftarchi bilan viloyat mirzasi ham o'tgan yili gazini ikki miridan ko'k xitoy mato olibdi. Panomar¹ bo'lsa, katak-katak matodan yozlik shalvar, yo'l-yo'l matodan kamzul tiktiribdi. Xullas,

¹ Panomar – butxona ruhoniysi, jom chaluvchisi.

hamma odam qatoriga kirmoqchi bo'ladi. Qachon bu odamlar tinchirkin. Bahs bog'laymanki, shayton ham o'zini odam qatoriga qo'shganini ko'rishsa hamma hayron bo'ladi. Hammadan ham ta'sir qiladigan joyi shuki, shayton o'zini juda bejirim, ko'hlik deb o'ylardi, holbuki siyog'i qursin, hech kim uni ko'rishga orzumand emas. Foma Grigoryevich aytganidek, basharası xunukdan battar, ajina, ammo shayton ham muhabbatbozlik qiladi! Biroq yer-u osmonni shunday qorong'ilik bosdiki, ajina bilan shayton o'rtasida keyin nima gaplar o'tganini sira ko'rib bo'lmadı.

Chub uyning eshididan chiqib kelarkan, qotmadan kelgan novcha bo'yli, kalta po'stin kiygan, soqoli o'sgan, ustarsiyo'q erkaklar soqol qiradigan bir parcha chalg'i sinig'i ikki haftadan beri uning betiga tegmaganidan darak berib turgan kishiga:

– Hali, og'a, popning yangi uyini ko'rganim yo'q, degin? Bugun u yerda yaxshigina ichkilik bo'ladi! – dedi-da, betini silab qo'ydi. – Ishqilib kech qolmasak bo'lgani...

Chub bu so'zni aytganda, po'stini ustidan mahkam bog'lab olgan belbog'ini rostlab oldi, boshidagi telpagini bostirib kiyib, pashshaxo'rdalik qilgan itlarning kushandasibolgan qamchi dastasini mahkamroq ushlab qo'ydi, lekin shu paytda osmonga qarab to'xtadi...

– Nima balo! Uni qara! Uni qara, Panas!..

Og'aynisi:

– Nimani? – deb so'radi-yu, u ham boshini ko'tarib yuqori qaradi.

– Nima deganingni qara, oy g'oyib bo'libdi.

– Hoy, nima balo bo'ldi? Darvoqe, oy yo'g'-a.

Chub og'aynisining beparvoligidan xafa bo'lib:

– Ha, endi bildingmi, yo'q-da, hech parvoyingga kelmaydi-ya, – dedi.

– Nima qilay?

Chub yengi bilan mo'ylovini artarkan, so'zini ulashtirib:

– Ertalab bir piyola araq nasib qilmag‘ur qanday shayton darrov aralashibdi-ya!.. Xuddi masxara qilganday... Uyda o‘tirganimda atayin oynadan qaragan-dim-a! Juda yaxshi havo edi. Yop-yorug‘, qor oydinda yiltirardi. Kuppa-kunduzidek hamma narsa ravshan ko‘rinib turgandi. Eshikdan tashqari chiqar-chiqmas, qorong‘i bosdi! – dedi.

Chub javrab, valdirab, boraymi, bormaymi deb anchagacha o‘ylanib turdi. Borib u yoq-bu yoqdan hangama qilib o‘tirgisi bor. Oqsoqol bilan qal’adan kelgan hofiz allaqachon kelib o‘tirishgani aniq; har o‘n besh kunda Poltavaga qatnab turgan askiyaboz qora mayfurush Mikita ham allaqachon borgandir. Bu kishi askiya qilganda hamma kulaverib, ichagi uzilardi. Chub dasturxonda turgan sharbatni ham xayolan ko‘rib turibdi. Bular uning nafsi qitiqlar edi-yu, lekin tun qorong‘usi hamma kazaklarga juda yoqqan yalqovlikni ham qo‘zg‘atar edi. So‘riga chiqib, chordana qurib, tamaki chekib o‘tirgani, darcha tagiga to‘planishib o‘yin-kulgi qilgan yigit va qizlarning qo‘shiqlarini eshitib, mudrab o‘tirgan yaxshi emasmi! Agar o‘zi yolg‘iz bolsa-ku, albatta uyda o‘tirib maza qilardi-ya, biroq ikki kishi bo‘lgani uchun qorong‘ida yurish xatarli emas, zerikishmaydi ham, so‘ngra boshqalar oldida o‘zini qo‘rkoq va yalqov ko‘rsatgisi ham kelmadi. Jav-rashini tamom qilib, hamrohiga qarab dedi:

– Shunday qilib, oy yo‘qmi?

– Yo‘q.

– Taajjub-al! Qani burunakingdan ol, otaylik! Qayerdan olasan, juda yaxshi-da burunaking?

– Yaxshi qayoqda! – dedi hamrohi guldor tamaki qu-tisini yoparkan. – Qari tovuqqa ham kayf bermaydi!..

Chub yana o‘sha zaylda gapirib:

– Marhum araqfurush Zuzulya menga Nejindan bir tamaki keltirib bergen edi, xo‘b tamaki edi-da! Nihoyatda yaxshi edi! Xo‘sh, og‘ayni, nima qilamiz, juda qorong‘i-ku!

Hamrohi eshikning tutqichini ushlab:

– Bo'lmasa, bormay qo'ya qolamiz, – dedi.

Agar og'aynisi qolamiz, demasa Chub bormas edi, ammo endi kajligi tutib:

– Yo'q, og'ayni, yur, bormasak bo'lmaydi, – dedi.

Buni aytdi-ku, darrov aytganiga pushaymon qildi. Bunday tunda sira ham borgisi kelmadi. Ammo birovning maslahatiga kirmay o'z bilganini qilib, kajligini ko'rsatganligiga xursand edi.

Og'aynisi uyda o'tiradimi, ko'chaga chiqadimi, unga baribir bo'lganidan, chehrasida hech bir pushaymonlik alomatini ko'rsatmay, beparvolik bilan u yon-bu yonga qarab qo'ygach, qamchi dastasi bilan yelkasini qashib qo'ydi xolos, keyin ikkovi yo'lga tushdi.

Endi chiroyli qizning uyda yolg'iz qolib nima ish bilan bandligini ko'raylik-chi. Oksana hali o'n yetti yoshga to'lganicha yo'q, lekin u Dikankaning u yog'ida ham, bu yog'ida ham, xullas, hammaning og'zida. Oksanadek qiz qishloqda sira bo'limgaganligi va bo'lmasligi to'g'risida yigitlarning barisi yakdil edi. Oksana uning sha'nidagi gaplarni eshitgan, bilganidan o'ziga mag'rur bo'lib, noz-u karashma qilar edi. Agar tivit yubka, latta fartuk kiymay, tuzukroq uzun ko'ylak kiysa, hamma qizlarni yo'lda qoldirib ketardi. Yigitlar gala-gala bo'lib uni payidan yurardi, lekin sabrlari yetmay uni tashlab, boshqa, jo'nroq qiz bilan bo'lib ketardi. Faqat shu taqachi hech qolmasdan shilqimlik qilib yuraverardi; unga ham ro'yixush bermasdan, boshqalarga qilganday qilsa ham, u xiralik qilib sira tashlamas edi.

Otasi chiqib ketgandan keyin qalay baldoqlik kichkina oynaga qarab, anchagacha o'ziga zeb berib, xo'b oynaga soldi. O'z-o'zi bilan bekorchilikdan hangomalashishdan boshqa ishi bo'limgandek, xushyoqmaslik bilan: «Odamlar mening nimamni maqtaydi! Ko'hlilik qiz ekanman, bekorlarning beshtasini aytishibdi!» – deb qo'ydi. Ammo oynada ko'ringan toza va ozoda oraz, undagi qora ko'zlar, ko'ngilga o't soluvchi ajabtovur

chiroyli tabassumi, buning xilofiga dalolat berardi. Go'zal qiz qo'lidagi oynani qo'ymay: «Qoshim, ko'zim qorami? Dunyoda misli yo'q qosh, misli yo'q ko'zmi? Qanqaygan burnimning, betimtning, labimning nimasи yaxshi? Qora sochimni yaxshi deydilar!? Vaholanki, uni kechasi ko'rgan odam qo'rqib ketadi. Qora chag'ir ilondek boshimni o'rab, chulg'ab olibdi. Endi bilsam, hech husnim yo'q!» – deb, oynani nari surib qo'ydi-da, ovoz chiqarib: «Yo'q, chiroyliman! Voy, qanday aomat husnim bor! Malakman! Meni xotin qilgan tolelik bo'ladi! Erim husnimga qarab to'ymas! Esi ketib qolar, o'paverib o'dirar.»

Ohistagina kirib kelgan taqachi sekin shivirlab:

– Go'zal qiz! Maqtanishi ham hazilakammas! Bir soatdan beri o'zini oynaga solib tomosha qiladi-yu, to'ymaydi, tag'in o'zini o'zi maqtab ham qo'yadi! – dedi.

Zebo qiz nozlanib, hanuz o'z-o'zi bilan suhbat qu-rardi: «Hoy, yigitlar, sizga tengmanmi men, menga qarang, xiromon yurishimga boqing, ko'ylagimning choki qizil ipakdan. Boshimdagi jamalaklarimni qarang! Bunday go'zallikni ko'rishlik umrbod sizga nasib bo'lmas! Qallig'im yer yuzining borib turgan mard yigit bo'lsin, deb otam olib bergen bularni!» Qiz iljayib qayrilib qarashi bilan ko'zi taqachiga tushdi. Bir orziqib tushdi-da, g'azab bilan xo'mrayib qarab turdi. Taqachi serrayib, qo'llari shalvillab tushdi.

Go'zal qizning qorachadan kelgan ko'hlik yuzi qanday tuyg'ularni izhor qilayotganini bilish qiyin. Uning chehrasida qahr-u itob bilan birga, esxonasi chiqib hayron bo'lib qolgan taqachini mayna qilish ham bor. Itob-u istig'nodan yuzi sal qizarinqirab tovlandi. Bu itob, bu istig'no qo'shilishib, uning husnini shunday ochdiki, ta'rifga sig'may ketdi. Bu choqda uni million marta o'pib-o'pib olmoqdan yaxshisi yo'q.

– Nega kelding? – dedi gap boshlab. – Qo'limga kurak olib haydaymi? Xo'b usta bo'libsiz-da hamman-giz shilqimlikka! Otamiz uyda yo'qligini darrov fahmlay

qolasiz. Xo'b yaxshi bilaman, sizdakalarni! Sandig'im bitdimi?

– Jonim, bitib qoldi, hayit bayramidan keyin bitadi. Qancha ovora bo'lganimni bilsang-ku! Ikki kecha ish-xonamdan chiqmadim. Ammo hech qaysi popning qizida yo'q sandiq qilib beraman-da, qoplamasiga shunday temir qildimki, Poltavaga ishlagani borganimda yuzboshining aravasiga ham bunday asl temir qoplasmagan edim. Naqshini shunday chiroyli qilamanki, op-poq oyog'ing bilan yurtni boshdan-oyoq yurib chiqsang ham bundayini topolmaysan! Har yog'ini qizil, ko'k rangga bo'yab beraman, cho'g'dek yonib turadigan boladi. Menga jabr qilma! Birpas gaplashib o'tirsam, husningni tomosha qilsam maylimi?!

– Kim senga yo'q deydi, gaplashaver, tomosha qilaver!

Qiz kursiga o'tirib, yana oynaga boqdi, o'ziga oro berib, sochini tuzatdi. Tomog'iga, ipak chokli ko'ylagiga qarab qo'yanida, la'l labida, toza betida, shahlo ko'zida andak zavq alomati zohir bo'ldi.

– Yoningda men ham o'tirsam maylimi? – dedi taqachi.

Oksana chiroyini buzmay, yuz-u ko'zidagi haligi shodonlikni saqlab:

– O'tir, – dedi.

Yuragiga dalda kirgan taqachi:

– Go'zal Oksana, husningga to'ydir, karam qil bir o'pay! – dedi-yu, o'pmoqchi bo'lib, og'ushiga tortib qu-choqladi. Ammo Oksana taqachining lablariga yaqin kelib qolgan betini olib qochib, uni itarib yubordi.

– Tag'in nimalar istaydi ko'ngling? Asal bergach, qoshiq ham ber, deysanmi! Yo'qol, qo'llaring temirdan battar. O'zingdan ham tutun hidi keladi. Hali hamma yerimni qorakuya qilganamdirsani.

Buni deb yana o'zini oynaga solib, o'ziga oro berib qo'ydi.

Taqachi boshini quyi solib, ichida: «Meni yaxshi ko'rmaydi-ku, – deb qo'ydi. – Uning nazarida hamma mayna, men bo'ssam uning oldida ahmoq bo'lib, ko'zimni undan olmasdan mo'tirab o'tiribman. Tikilib tursam turaverardim, yuz yil bo'lsa ham ko'zimni olmasdim! Alomat qiz! Ko'ngli kimdaligini, kimni sevganini birov menga aytsa, har neni tilasa berardim. Ammo u hech kimni yoqtirmasa kerak, o'ziga o'zi shaydo. Men bechorani qiynaydi, men sho'rlik qayg'u-alamlar ichida kuyaman, ro'shnoligim yo'q, unga muhabbatim shunchalikki, dunyoda hech kim birovni mendek sevgan emas, bundan buyon ham mendek seuvuchchi kishi bo'lmas».

– Seni onang ajina emish, rostmi? – deb kulib yubordi Oksana.

Taqachining nazarida butun ich-eti kulib yuborgandek bo'ldi. Bu kulgi birakayiga ko'ngliga ham, ohistagina jimirlashib ketgan qontomirlariga ham ta'sir qilganday bo'ldi va bunday yoqimtoy kulgan betdan o'polmaganiga dog' bo'lib, alam qildi.

– Onam bilan nima ishim bor? Onam ham, otam ham bu dunyoda nimaiki menga aziz bo'lsa hammasi sensan. Agar podsho meni chorlab aytsaki, taqachi Vakula, mening qalam ro'yomda nimaiki yaxshi narsa bo'lsa so'ra mendan, berdim senga desa, oltindan sandon, kumushdan bolg'a qildirib bera-man desa, yo'q kerak emas, qimmatbaho javohirlar ham, oltin sandon ham, mamlakating-u yurting ham menga kerak emas, Oksanamga yetkazsang bo'lgani, derdim! – dedi.

– Ko'rdingmi qanaqasan! Biroq otam ham xo'b tullak-da, onangni olmaganini ko'rarsan, – deb ayyorlik bilan kulib qo'ydi. – Nega qizlar haligacha kelmaydilar-a... Nima bo'ldi ekan? Lapar aytishadigan vaqt bo'lib qoldi. Zerikib ketayapman.

– Go'zalim, qo'ysang-chi, Xudo olsin ularingni!

– Nega endi! Ularga qo'shilib yigitlar kelishadi! Ana

o'shanda o'yin bo'ladi-da. Hali qanday qiziq narsalar gapirib berishadi!

– Ular bilan bo'lsang xursandmisan?

– Albatta, sendan ko'ra ular bilan yaxshi-da! E, shoshma! Birov taqillatdi, qizlar yigitlar bilan kelishdi, shekilli.

Taqachi o'z-o'zi bilan so'zlashib: «Endi nima umidim qoldi. Meni mayna qilsa, uning oldida zanglagan taqachalik qadrim yo'q va lekin boshqaga men o'zimni masxara qildirib qo'ymayman, bilay-chi unga mendan ko'proq yoqqan kim ekan, ta'zirini berib qo'yay...», – derdi.

Eshikning taqillagani, sovuqda qulqoqqa noxushroq eshitilgan «och» degan ovoz uning xayolini qochirdi.

Taqachi alamidan daf'ataniga kim duch kelsa, och biqiniga tushiraman, degan niyatda:

– O'tiraver, o'zim chiqib ochaman, – deb eshikka chiqdi.

Sovuq zo'rayib, osmon shunday to'ngib ketdiki, shayton muzlab qolgan qo'lini sal isitib olish uchun tuyog'ini yerga tekkizmay o'ynoqlar, mushtumiga kuhkuhlari edi. Ertadan kechgacha do'zaxda yurgach, to'ngmasdan bo'ladi? Do'zax bizning qishimizdaqa sovuq emasligini bilasiz. Do'zaxda bolsa qalpog'ini kiyib olib, bakovulboshidek o'choq tepasiga minib olib, gunohkorlarni qovurgani-qovurgan edi. Xotinlar bayramda qanday suyunib go'sht qovursalar, shayton ham gunohkorlarni shunday suyunib qovurardi.

Qalin kiyinganiga qaramay ajina ham to'ngib qoldi. Shuning uchun yaxmalak otayotgan odamdek ikki qo'lini tepe qilib, hech bir bo'g'imini qimirlatmay, tippa-tigiga havodan pastga tushdi, xuddi muz tepadan sirg'anib tushgandek g'izillab tushdi-yu, to'ppa-to'g'ri mo'riga kirib ketdi.

Shayton ham shu zaylda uning ketidan tushib ketdi. Ammo bu hayvon har qanday luchchak olif-tadan ham epchil bo'lganidan, mo'rining og'zidayoq,

ma'shuqasining yelkasiga minib olib, birpasda ikkovi keng pechkaning ichiga tushib, ko'zachalar orasiga kirib olishdi.

Sayr qilib qaytgan ajina, o'g'lim Vakula uyg'a mehmon olib kelmadimikin, deb qarash uchun pechkaning qopqog'ini surib mo'raladi. Uyning o'rtasida yotgan qopdan boshqa hech kim yo'qligini bilib, pechkadan chiqdi, ustidagi eskirib ketgan po'stagini tashlab, o'zini rostlab oldi, endi uni ko'rgan odam haligina supurgi minib yurgan ajinaligini taqir bilmas edi.

Taqachi Vakulaning onasi qirqdan oshmagan, chiroyi yomon ham, yaxshi ham emas edi. Qirq yoshda chirolyi bo'lish ham qiyin. Ammo u har qanday sipo erkakni o'ziga bandi qilib olishga usta edi (ammo bularning xushro'ylik bilan uncha ishlari yo'q edi, buni aytib qo'ysak yomon bo'lmaydi), shuning uchun oqsoqoldan tortib, oqsoqol Osip Nikiforovichgacha (albatta, bashartiki xotini uyda bo'lmasa), kazaklardan Korniy Chub, Kasyan Sverbiguzgacha hamma unikiga kirib-chiqib yurardi. Unga qoyil qolish kerakki, bularning hammasini juda ustalik bilan saranjom qilar, hech qaysisi uning raqib ekanligini ko'ngliga ham keltirmasdi. Xudojo'y faqir mardikormi yoki boshlig'lik movut chakmon kiyganlari uchun o'zlariga asilzoda nomini qo'yib olganmi, kim bilsin, bozor kuni butxonaga yoki havo yomon bolsa araqxonaga bora turib, qaymoq bilan mazalik chuchvara yegani, issiqliqina uyda, yaxshi suhbatlashadigan mehmondo'st xotin bilan hangomalashgani Soloxanikiga albatta kirib o'tardi. Asilzoda bu uyg'a kirish uchun araqxonaga keta turib yo'lni aylanib o'tsa ham, yo'l-yo'lakay kirdim, derdi. Hayit kuni Soloxa oldiga fartuk tikkan xitoyi ipak ko'ylagini, uning ustidan orqasiga zar uqa qadagan ko'k yubkasini kiyib, yasanib butxonaga kelganda hammadan oldinga o'tib, shundoqqina mehrob tagiga borib tursami, oqsoqol, albatta bir yo'talib, ko'zining qiri bilan u tomonga bir qarab qo'yardi. Oqsoqol mo'ylovini silab, farqidagi

kokilini qulog‘iga burab, yonida turgan qo’shnisiga imo qilib: «Soz xotin-da! Shayton!» – deb qo’yardi.

Soloxa hamma bilan salomlashar, ammo har kim yolg‘iz men bilan salomlashadi, deb o’ylardi. Lekin hammaning kirdikoridan voqif kishilar, Soloxa hammadan ko’ra Chubga ko’proq iltifot qilganini darrov fahmlardi. Chub beva edi, uyining oldida doim sakkiz g’aram bug’doy turardi. Chetan og’ilxonada turgan ikki juft ho’kizi qachonki qo’shnisining sigirini yoki amakisining semiz buqasini ko’rib qolsa, boshini ko’chaga chiqazib, mo’-o’-lab qo’yardi. Soqoli uzun echkisi tomga chiqib olib, hovlidagi kurka-tovuqlarni masxara qilgandek, shahar boshlig‘iga o’xshab ma’rar, ammo uning achchig‘ini chiqarib soqoliga tegishadigan shum bolalarni ko’rsa, orqasini o’girib olardi. Chubning sandig‘ida bisoti, chakmon-u zar qadagan mursaklari, ip-matolari ko’p, chunki uning marhuma xotini satang boyvachcha edi. Rezavor ekinlardan: ko’knor, karam, kungaboardan tashqari, har yili ikki paykal yerga tamaki ham ekardi. Soloxa bu davlatning barisini o’zimnikiga qo’shib olsam yomon bo’lmas, degan niyatda edi. Davlati uning qo’liga o’tganda nimalar qilishini mo’ljallab ham qo’yanidan, qari Chubga ko’proq iltifot ko’rsatardi. O’g’li Vakula biron yo’l bilan Chubning qizini o’ziga og’dirib olib, bor-yo’q davlatni egallab, uni yaqiniga yo’latmay qo’ymasligi uchun qirq yasharli xotinlarning hammasi bilgan makrga qo’l urdi, ya’ni Chub bilan taqachi o’rtasida g’alamislik qilib, ularni hadeb urishtiraverdi. Uning shu g’alamis, ayyorligi tufayli ba’zida kampirlar, xususan bironta ziyofatga yig’ilishganda, me’yordan ortiq ichib qo’yishsa uning g’iybatini qilib, ajinaga chiqazib qo’yishardi. Xotinlarning ip yigiradigan dukchidek dumi bor emish, o’spirin yigitlardan Kizyakolupenko uning bu dumini ko’rganmish, o’tgan payshanba ko’chada birovning oldidan qora mushuk bo’lib o’tib ketganmish, bir kun popning xotini oldiga bir echki kelib, xo’roz bo’lib

qichqirganmish-da, Kondrat otaning bosh kiyimini kiyib, qochib ketganmish, derdi.

Bir kun kampirlar undan so'zlashib o'tirganida, oldilariga podachi Timish Korostyavyi kelib qolib, bir kun yozda xuddi Petrovka bayrami oldida boshiga po-xol qo'yib, og'ilxonada uxbab yotganida, sochi yoyilgan bir ko'yakchang ajina kelib sigir sog'ib turganini o'z ko'zi bilan ko'rganini, ajinaning harakatidan hayratda qolganini, labiga bir iflos narsa surkab ketganini va jirkani bilan tupurib yurganini so'zlab berdi. Lekin uning bu gaplariga ishonib bo'lmasdi. Chunki ajina Sorochin sud a'zosidan boshqa hech kimga ko'rinxmaydi. Shu sababdan ulug' kazaklarning hammasi bunday gaplarni eshitganida, qo'llarini siltab ketaverardi va hamisha aytadigan javoblari shu ediki: «Bekor aytibdi, nomardlar», – derdi.

Soloxa saranjom-sarishta ayol bo'lganidan, darrov pechkadan chiqib, uyni yig'ishtirishga tushdi. Ammo yerda yotgan qoplarga tegmadi: «Vakula o'zi olib kelgan, o'zi yig'ishtirsin!» Shayton bo'lsa mo'riga kirayotganda, bexosdan orqasiga qayrilib qaraganda birov bilan qo'ltiqlashib ketayotgan va uyda ancha nariga borib qolgan Chubga ko'zi tushgan edi. Darrov pechkadan uchib chiqib, ular oldiga o'tib oldi-da, yaxlab qolgan qorni to'zitib, socha boshladi. Birpasda bo'ron boshlanib, qattiq ayoz turdi. Har tarafдан qor uyilib, piyodalarning yuz-ko'zini, qulqoq-burnini qoplaguday bo'ldi. Shayton bo'lsa Chub hamrohi bilan uyga qaytib kelishiga, taqachini ushlab olib, bo'yoq cho'tkasini anchagacha qo'liga ololmaydigan va uni masxara qilib surat sololmaydigan qilib qo'yishiga ko'nglini to'q qilib, yana mo'riga qaytib keldi.

Darvoqe, bo'ron boshlanib, shamol ko'z ochdirmay qo'yishi bilan Chub yo'nga chiqqaniga pushaymon bo'ldi, tumog'ini qattiqroq bostirib olib, o'zini, shaytonni, hamrohini koyib ketdi. Ammo uning bunday xafaligi ham ayyorlik edi, chunki bo'ron ko'tarilganiga

xursand edi. Popnikiga ham yana shuncha yo'l bor. Xullas, yo'lovchilar ortga qaytishdi. Shamol orqadan esayotgandi, lekin bo'rondan hech narsani ko'rib bo'lmashdi.

Biroz yurgach, Chub hamrohiga qarab:

– Shoshma, og'ayni, boshqa yo'lga kirib ketibmiz shekilli. Bitta ham uy ko'zimga ko'rinxmayabdi. Tavba, bo'ron ham shunday quturadimi? Sen sal burilibroq bu tomonga yur-chi, zora yo'l topsang. Men esa bu yoqdan qarayman. Shunday bo'ronda yo'lga sudraganini qara, shaytonning ishida bu. Yo'l topsang meni chaqirib qo'y, yodingdan chiqmasin. Nomard mal'unni qara, ko'zimga qorni toza uribdi! – dedi.

Biroq yo'l ko'rinxmasdi. Hamrohi oyog'ida baland qo'njlik etik bilan tentirab-tentirab araqxonaga borib qoldi. Dunyo topgandek suyunganidan, ko'chada qolgan hamrohini unutib, ustidagi qorni qoqib, ichkariga kirib bahuzur o'tiraverdi. Bu orada Chub ham yo'l topgandek bo'lib, hamrohini chaqirib baqirishga tushdi, hamrohi ovoz bermagandan keyin o'zi ketaverdi. Biroz yurib borgach, o'z uyini ko'rdi. Uyining oldiga qor uyilib qolibdi, tomini ham ko'rib bo'lmaydi. Sovuqdan to'ngan qo'lli bilan eshikni urib taqillata-taqillata, qizini chaqirib: «och», – dedi.

Eshik ochgani chiqqan taqachi, do'q qilib:

– Kimsan, nima deysan? – deb baqirdi.

Chub taqachining tovushini tanib, orqaga tisari-libroq turdi. Ichida: «Bu, mening uyim emas ekan... Menikiga taqachi kirolmasdi. Lekin mundoq qarganda taqachiniki ham emas. Kimniki ekan? Ana xolos, taniyolmaganimni qara! Yaqinda yosh xotin olgan Levchenko cho'loqniki bolsa kerak. Unikidan boshqa uy, menikiga o'xshamaydi. Nega darrov kelib qoldim, dedim-a. Ammo Levchenko hozir ruhoniynikidaligini yaxshi bilaman, taqachi nima qilib o'tiribdi unda!.. Yosh xotinnikiga kelib yurarkan-da! Xo'p! Yaxshi, endi tushundim.»

Taqachi yaqinroq kelib yana qattiqroq do'q bilan:

– Kimsan, eshikma-eshik nima qilib yuribsan? – dedi.

Chub ichida: «Kimligimni aytmayman. Manglayi qora tag'in urib-netib yurmasin!» – deb ovozini bo'lakcha qilib:

– Duogo'y bir odamman, lapar aytib keldim eshigingizga, – dedi.

– Yo'qol! – dedi Vakula baqirib. – Nega yana ketmasdan turibsan, yo'qol, ket, hoziroq ket!

Chub o'zi ham baloga qolmasdan keta qolay, deb turgandi, ammo taqachidan bunday so'zlarni eshitgani alam qildi. Xuddi shayton pinjiga kirib, vasvasa qilayotganday, taqachining ziddiga bir narsa ayt-ayt deyayotgandek bo'ldi. Chub ovozini haligidek bo'lakcha qilib:

– Senga nima bo'ldi, muncha baqirasan? Nima endi lapar aytgani ham qo'yamsanmi, xohlasam aytavera-man-da! – dedi.

– E-ha! Tilingni tiymaysanmi hali!.. – Bu gapdan keyin Chub yelkasiga yaxshigina bir musht tushganini bilib qoldi.

U ketiga biroz tislaniq turib:

– I-ye, hali shunga mushtlashaverasanmi! – dedi.

Taqachi yana turtib:

– Ket-ket! – deb baqirdi.

– Senga nima bo'ldi, i-ye! – dedi Chub kaltak o'tib: «Hazilmi desam, rost ekan, yomon urisharkansan!» – Uning bu ovozida kaltakning alami ham, qo'rquvi ham bor edi.

– Ket-ket, yo'qol! – deb taqachi eshikni yopib oldi.

Chub ko'chada yolg'iz qolib:

– Botirligini qara-ya, yaqiniga borib bo'lmaydi. Shoshmay tur, hali, kerilma, shahar bedarvozami! Senimi bola, to'ppa-to'g'ri hokimga arz qilaman. Taqa-chililing-u, bo'yoqchililing menga pisand emas, qani yelkam bilan orqamga qaray-chi, ko'karib chiqqandir. Nomard yomon urdi, shekilli! Sovuq bo'lmasa-

yu, po'stinimni yechib... shoshmay tur, shaytonning temirchisi, meni urding, seni ajina ursin, taqachilik do'koningga jin tegsin, shoshma hali seni xo'b o'ynataman! La'nati, dorga osilgur! I-ye, shoshma, hozir-ku uyidamas, Soloxa yolg'iz o'tirgandir... Ha... Uyi uzoq ham emas, borsammikin vaqt ham shunaqaki, hech kim kelmaydi, zora murod hosil bo'lsa... La'nati taqachi yomon urgan ekan-da!

Chub orqasini qashib olib, yo'lning bu tomoniga burildi. Soloxani ko'rgach xursandligidan o'ylab, og'riq ham esidan chiqdi, charsillab turgan sovuq bo'ronning ayozi ham bilinmay ketdi. Bo'ron soqol-mo'ylovini qor bilan shundaysovunlab qo'yidiki, qo'liga tushgan odamning burnidan sira ayamay tortadigan har qanday chapdast sartarosh ham bundaysovunlay olmasdi; qor bosgan shu betida gohida quvonch paydo bo'lib, iljayib qo'yardi. Ammo qor bo'roni har tarafdan gupil-lab, ko'zini ochirmay qo'ymaganda, har qadamda yana necha marta to'xtab: «La'nati taqachi yomon urdi», - deb, yana yo'lga tushardi.

Echki soqol, dumi osilgan luchchak olifta oyni o'g'irlab, yonida osig'liq ko'lbariga solib olgandi. Mo'ridan chiqib-kirganida ko'lbari pechkaga ilinib ochilib ketdi va oy fursatni g'animat bilib, Soloxa uyingning mo'risidan chiqib, lop-lop uchib osmonga chiqib ketdi. Olam yorishdi. Bo'ron to'xtab, huddi boyagiday. Yerdag'i keng ko'rpa bo'lib yotgan qor kumushdek yaraqladi, shisha yulduzlardek sochildi. Havo iliganday bo'ldi. O'spirin yigit va qizlar yelkalarida to'rvalari bilan chuvillashib chiqdi. Qo'shiqlar jaranglab, lapar aytib kirilmagan eshik qolmadi.

Oy ajab tovlanib, tobish urib turibdi! Bunday xushhavo kechada o'ynab-kulgan quvnoq qizlar bilan jilmaygan tunda esga kelgan har bir hazil, har bir o'yinga tayyor turgan sho'x yigitlar bilan o'ynashmoq zavqini ta'rif qilib bo'ladimi!? Egningda po'stin bo'lsa

sovuoq yemaysan, sovuqda betlar yana battarrog yonadi. Sho'xlik bo'lsa, haybarakalla shaytondan.

Bir gala qiz yelkalarida to'rvalari bilan Chubnikiga kirib, Oksanani o'rab oldi. Ularning chuvillashi-dan taqachi esankirab qoldi. Har qaysisi bir-biridan oshiqib go'zal qizga bir narsa aytgisi kelardi, lapar aytib yiqqan chalpak, chapatilarini, bo'g'irsoq-chuchvaralarini xaltalaridan to'kib, maqtanardi. Oksana shod-xursand bo'lib, hali u, hali bu qiz bilan gaplashib, xoxolashardi. Taqachi qizlarning bunday quvonchlarini ko'rib havasing kelar, qizg'anchiqligi tutib, o'zi lapar aytishni yaxshi ko'rsa ham, lekin hozir undan bezor edi.

Go'zal qiz quvonch bilan qizlarning biriga qarab:

– Hoy Odarka! Yangi mahsi kiyib kelibsizmi, muncha chiroyli! Zarlig-a! Toleing baland-da, har narsalar olib beradigan kishing bor. Menga kim olib beradi bunaqa mahsini, – dedi.

Taqachi darrov:

– Jononim Oksana, xafa bo'lma, senga unaqa-bunaqa boyning qizi kiymaganidan olib beraman, – dedi.

Oksana lop etib qaradi-da, uni mensimagan bo'lib:

– Sen-a? – dedi. – Qani ko'ray-chi, men kiyadigan mahsini qayerdan topib kelarkinsan. Malikaning oyog'idan yechib kelsang, unda mayli!..

– Ko'rdingmi buni ko'ngli qanaqa! – deb, xoxolab kulishdi qizlar.

Go'zal qiz:

– Rost aytaman, hammangiz guvohsiz, agar taqachi Vakula malikaning oyog'idagi mahsini keltirsa, shu onda unga tegaman, – dedi.

Qizlar nozi baland go'zalni birga olib ketdi.

Taqachi ular ketidan chiqib:

– Masxara qilaver-chi, o'zimni o'zim ham masxara qilaman, o'ylab o'yimga yetolmay qoldim, bilmadim aql-hushim qayoqqa ketdi. Meni sevmaydi, sevmasa sevmasin, dunyoda undan boshqa qiz yo'qmi! Xudoga

shukr, undan boshqa qizlar ham bor qishlog'imizda. Nimasi ham bor? Undan ro'zg'orni eplaydigan tuzuk xotin ham chiqmaydi, yasanishdan, o'ziga zeb berishdan boshqani bilmaydi. Endi bo'ldi, bas qilish kerak.

Biroq taqachi bir yo'la bas qilmoqchi bo'lib turgandi, bilmadim qandaydir bir shayton: «Malikaning mahsisi ni keltirib bersang senga tegaman!» – deb kulib turgan sho'xchan suratini uning ko'ziga ko'rsatdi. Butun vujudiga bir iztirob tushib, Oksanadan bo'lak hech narsa xayoliga kirmadi.

Lapar aytib yurgan qiz-u yigitlar gala-gala bo'lib, ko'chama-ko'cha yugurishardi. Ammo taqachining ko'ziga hech narsa ko'rmasdan, bir zamonlarda ko'nglini quvontirgan bu o'yin-kulgilarga aralashmasdan yolg'iz borardi.

Bu orada shayton Soloxaga juda iyib ketdi. Sud a'zosi pop qizini ko'rganda qilgan qiliqlarni qilib, uning qollarini o'par, oh-voh qilib, ko'ksini ushlab, agar mening hirsimni qanoatlantirib, ko'nglimni olmasang, o'zimni har narsa qilaman, suvga tashlayman, jonimni to'ppa-to'g'ri saqarga¹ yuboraman, dedi dangaliga. Soloxa berahm emasdi, so'ngra shayton bilan sherik va bir nechani ketidan ergashtirib yurishni yaxshi ko'rар, suhbat qurmagan kuni kam bo'lardi. Biroq bugun kechqurun yolg'iz o'tirmoqchi bo'ldi, chunki qishloqning hamma ulug'lari popnikiga ziyofatga chaqirilgandi. Lekin ish boshqa yoqqa aylanib ketdi. Shayton boyagidek qisti-bastiga olib turgandi, to'satdan oqsoqolning yo'g'on ovozi eshitilib qoldi. Soloxa eshikni ochgani chiqib ketdi, chaqqon shayton darrov bir qopga kirib oldi.

Oqsoqol tumog'idan qorni silkitib bo'lgach, Soloxa ning qo'lidan bir piyola chag'irni ichib oldi, so'ngra bo'ron turib, to'polon bo'lganidan popnikiga bormaganini, uning uyida chiroq borligini ko'rib, bu kecha u bi-

¹ Saqar – do'zax.

lan suhbat qurish niyatida bu yerga kelganini so'zлади.

Oqsoqol so'zини tamom qilmagan ham ediki, eshik taqillab, popning ovozi eshitildi.

Oqsoqol shivirlab:

– Meni bir joyga berkit, meni ko'rib qolmasin, – dedi.

Soloxa, oqsoqoldek semiz mehmonni qayerga berkitishni bilmay ko'p o'yładi, aloha ko'mir turgan eng katta qop esiga kelib, ko'mirni bochkaga ag'dardi; oqsoqol so'loqmondek bo'lib, o'sha mo'ylovi, boshi va boshidagi tumog'i bilan qopga kirdi.

Pop uh-uhlab ko'zlarini uqalagancha kirib keldi. U mehmonlar kelishmaganiga nihoyatda quvonib, bo'ron turganiga qaramay, siz bilan andak rohatlashay deb keldim, dedi. Buni deb yaqinroq keldi, yo'talib olgach iljayib kului, uzunchoq barmoqlari bilan ayolning yalang'och, semiz qo'lini ushlab, ayyorligi bilan baravar huzur qilganligi ham ko'rinish turgan vajohat ko'rsatib:

– Savlatingizdan o'rgilay, bu nima? – deb sapchib o'zini nariroq tortdi.

– Nima bolardi! Qo'l-da, Osip Nikiforovich! – dedi Soloxa.

Pop gap boshlash uchun qilgan ishidan o'zi xursand bo'lib:

– Hm! Qo'l deng! Xe-xe-xe! – deb qo'ygandan keyin, uyning u yog'idan-bu yog'iga yurishni boshladi.

Yana yaqiniga kelib tomog'idan ushlab:

– Azizim Soloxa, bu nima? – deb yana haligidek sapchib qochinqirab turdi.

Soloxa unga:

– Osip Nikiforovich, ko'rib turibsiz-ku nimaligini, bo'ynim, bo'ynimda marjonim, – dedi.

– Hm! Bo'yningizda marjoningiz. Xe-xe-xe! – dedi da, qo'llarini uqalab, yana yurishga tushdi.

– Buningiz nima, xotinlar yaktosi?..

Pop uzunchoq barmoqlari bilan, bilmadik, qayerni ushlar edi, shu paytda eshik taqillab, Chubning ovozi eshitildi.

Ruhoniyning yuragi yorilib:

– Yo Rabbim, begona kishi-ku! Meni birov ko'rib qolsa nima bo'ladi... Kondrat buzruk eshitib qoladilar!
– dedi.

Ammo uning xavotiri boshqa tomondan edi. O'z xotinidan ko'proq xavotirda edi: hali ham xotinining dastidan boshidagi sochidan bir tola ham qolmagan-di. U qaltiragan ovoz bilan:

– Marhamatli Soloxa, Xudo haqi, bir iloj qiling. Sizning yaxshililingiz hazrat Luka Kitobining o'n uchin... Birov taqillatyabdi, azbaroyi Xudo, taqillat-yapti! Voy, voy, yashirsangiz-chi meni biron yerga.

Soloxa yana bir qopdagi ko'mirni bochkaga ag'dardi. Jussasi uncha katta bo'lмаган pop qopga tushib, o'tirgan edi, qopning allaqancha ko'mir sig'guday joyi bo'sh qoldi.

– Assalomu alaykum, Soloxa! – dedi uyga kiraverib Chub. – Meni keladi deb kutmagandirsan-a? Bemavrid kelib xalal qildim shekilli..., – dedi yana. Go'yo bir narsani bilganday kulimsirab iljayib qo'ydi. Uning bu qilig'i, befahm kallasi biron ta hazil-mutoyiba so'z aytish uchun, ancha ovora bo'lib bu gapni topganini ko'rsatib turardi. – Yoki birov bilan o'ynashib turgan-midingiz!?. Bitta-yarimtani yashirmadingmi-a? – Chub bu gaplariga o'zi zavq qilib, Soloxaning ko'ngli faqat menda, mendan boshqaga rag'bat yo'q, degan xayol bilan ich-ichidan quvonib kulib yubordi. – Soloxa, qani endi arag'ingdan keltir. Sovuqdan tomog'im to'ngib qolganga o'xshaydi. Ey, Xudo Rojdestvodek ulug' bayram oldida ham havoni shunday qilasanmi?! Shunday qiyratdiki, aslo qo'yaver, bay-bay... Quloq solsang-chi, Soloxa, qo'llarim akashak bo'lib qoldi, po'stinimni yecholmayman-a! Bo'ron shunday uryabdiki...

Tashqarida birov eshikni itarib:

– Och! – dedi.
– Birov taqillatyabdi, – dedi Chub to'xtab.
– Och! – deb avvalgidan qattiqroq baqirishdi.

Chub, shoshib tumog'ini olarkan:

– Taqachiga o'xshaydi, – deb qo'ydi. – Hoy, Soloxa, qayerga bekitsang bekit meni. U badbaxtning ko'ziga sira ko'ringim kelmaydi. Shaytonvachchaning ikki ko'ziga govmijja chiqsin!

Soloxaning quti uchib, jinni kishidek nima qilarini bilmay gangib qolib, popni qamagan qopni ko'rsatdi. Dangaldek odam, sovuqda to'ngib muzlagan etigi bilan uning ikki chakkasini bosganda ham bechora g'iq et-may jim o'tiraverdi.

Taqachi indamay kirdi-yu, boshidan qalpog'ini ham olmay, eshak ustiga yonboshladi. Avzoidan xafaligi bilinib turardi.

Soloxa o'g'lining ketidan eshikni yopishga ham ulgurmagandi, yana birov taqillatib qoldi. Kelgan odam Sverbiguz kazak ekan. Buni qopga joylash iloji ham yo'q, chunki sig'adigan qop topilishi qiyin. Uning jussasi oqsoqolnikidan kattaroq, bo'yi Chubning og'aynisinikidan novcharoq edi. Shuning uchun Soloxa uning aytmoqchi bo'lgan gapini yaxshilab eshitish uchun uni tashqariga chiqarib, ekin ichiga olib kirdi.

Taqachi parishonlik bilan uyning har tarafiga alanglab uzoqda lapar aytib yurganlarning ovozi o'qtin-o'qtin eshitilib qolganda qulq solib o'tirardi. Bir mahal qoplarga ko'zi tushib qoldi: «Nima qilib yotibdi bu qoplar, chiqarib tashlash kerak edi. Ahmoqlik qur-sin, bemaza muhabbat deb jinni bo'lib qoldim. Ertaga bayram bo'lsa, uy yig'ishtirilmabdi, har balo ivirsib yotibdi. Ishxonaga oborib tashlay!»

Taqachi tippa-tik turgan katta qoplar oldiga o'tirib, avval yaxshilab bo'g'ib, keyin orqalamoqchi bo'ldi. Ammo parishon xayoli uni har tarafga olib qochar-yotganligi bilinib turibdi, xayoli muncha parishon bo'lmasa, qopning og'zini bo'g'ganda Chubning kokilini ham qo'shib bog'lamas va uning pishillaganini, dangaldek oqsoqolni hiqichoq tutib, hiqillaganini eshitgan bolardi.

- Bu yaramas Oksana xayolimdan sira ketmasmikin-a? Hech o'ylamay desam ham o'yimga kelaveradi, o'chakishgandek yakkash o'sha esimga keladi, xolos. Nega bunday ekan, kishi xohlamaşa ham miyaga kiraverar ekan-da? Nima balo bo'ldi, qoplar og'ir tortib qolibdimi? Ko'mirdan bo'lak yana boshqa narsalar ham borga o'xshaydi. E, esim qur-sin! Har narsa menga og'ir ko'rinaraveradi endi, hech esimda yo'q. Avval bir mirilik chaqani, ot taqasini bir qo'lim bilan ikki bukaverardim, endi bir qop ko'mirni ko'tarolmayapman-a! Yaqinda shamolga yiqiladigan bo'lib qolaman shekilli, - keyin biroz indamay turib, o'ziga dalda bergandek: - yo'q, xotin emasman! O'zimni hech kimga mayna qildirib qo'ymayman! Bunaqa qop-dan o'ntasi bo'lsa ham ko'taraman! - deb shovqinlab qo'ydi. So'ngra kerilib, ikki polvon ko'tarolmaydigan qoplarni orqalab oldi. Ichida shayton g'uj bo'lib o'tirgan qopni ushlab: - buni ham olaymi, asboblarimni solib qo'ygan edim shekilli bunga», - deb qo'shiq aytgancha tashqariga chiqib ketdi.

Xotin olmoq hazil emas,
Botmon dahsar et kerak...

Ko'chadagi qo'shiq, shovqin-suron tobora avjiga mindi. Yaqin oradagi qo'shni qishloqlardan ham birtalay odam yig'ilib, to'polon qilib yurganlar yana ko'paydi. O'spirin yigitlar xo'b yayraydi. Lapar aytib yurganlar gohida yoshlarning bironiasi shu tobda to'qigan qo'shiqlardan ham aytib yuborardi. Gohida jo'ralar orasidan birov ovozining boricha baqirib, lapar o'rniqa alyor aytib yuborardi:

Shchedrik-vedrik¹
Varaqaga keldik.

¹ Yangi yil kirganda yosh bolalar eshikma-eshik yurib aytadigan qo'shiq.

Osh bering-mosh bering,
Qazidan bir bosh bering.

Hammalari kulishib, buni aytgan qiziqchini xursand qilardi. Darchalar ochilib, qartaygan erlari bilan uyda qolgan kampirlarning ozg'in, qari qo'llari bir bo'lak go'sht yoki somsa uzatardi. Yigit va qizlar, «menga, menga» qilib talashib, to'rvalarini tutardi. Bir joyda yigitlar bir gala qizni o'rab olgan; qiy-chuv bo'lib, chuvillashib, bir-biriga qor otishgan, bir-birining to'rvasini uloq qilgan. Bir joyda qizlar bir bolani chalib, to'rvasi bilan ag'anatgan. Tong otguncha shu zaylda to'polon qilib chiqadiganday ko'rinardilar. Tun ham ularga yor bo'lgandek iliq, oyning nuri qordan yana ravshan tortgandek ko'rinardi.

Taqachi galalashib yurgan qizlar ichida Oksananing kulgandagi naydek tovushini eshitganday bo'lib, qoplarini ko'targanicha to'xtadi. Tomirlari harakatga kelib, orqasidagi qoplarni yerga tashlagandi, qop tagidagi pop og'riqdan voy-voylab yubordi. Taqachi yelkasidagi yengil qopi bilan Oksananing ovozi chiqqan qizlar ketidan galalashib borayotgan yigitlarga qo'shilib ketaverdi.

«Shahlo ko'zi o'tdek yonib malikaga o'xshab turgan ul ekan! Barno bir yigit unga bir narsalar so'zlayabdi. Qiziq so'z aytayotgan bo'lsa kerak, qiz kulib turibdi. Ammo u doim kulgani-kulgan-ku!» Taqachi o'zi ham bilmay, beixtiyor birdan hammani oralab o'tib, uning qoshiga borib turdi.

Vakulani jinni qilguday bo'lgan boyagi masxaraomuz kulgi bilan:

– E, Vakula, shu yerdamisan! Qalaysan! Xo'sh, lapar aytib nima yig'ding? Qoping muncha kichik! Malikaning oyog'idagi mahsini keltirdingmi, keltirsang senga tegaman! – dedi sho'x qiz va kulganicha qizlarga qo'shilib, qochib ketdi.

Taqachi qoqqan qoziqdek qadalib turib qoldi. «Yo'q,

endi toqatim qolmadi... – dedi chidolmay. – E, Xudoyo tavba, nega muncha chiroylig-a, qurg'ur. Qarashi, so'zi, har bir qiligi o'rtantiradi-ya, o'rtantiradi... Hech toqatim qolmadi! Endi bir yoqli bo'lib, bas qilmasam bo'lmaydi. Olib ketay, muzni yorib suvga cho'kaman, nomim o'chsin!»

Keyin dadil bo'lib, ildam-ildam yurib, qizlar to'piga yetib oldi. So'ngra Oksanaga tenglashib, shovqinlab:

– Xayr, Oksana! Endi ko'nglingga yoqqan boshqasini top, boshqa kimni xohlasang ahmoq qilaver, lekin meni bu dunyoda endi ko'rmaisan! – dedi.

Barno qiz taajjublanganday hayron bo'lib qoldi, bir so'z aytmoqchi bo'ldi, lekin taqachi qo'llini siltab chopganicha ketib qoldi.

Uning chopib ketayotganini ko'rgan bolalar:

– Vakula, qayoqqa! – deb qichqirib qolishdi.

Taqachi ularga javob qaytarib:

– Xush qolinglar, og'aynilar! Xudo xohlasa, narigi dunyoda ko'rishamiz, ammo bu dunyoda endi birga o'ynamoq nasib bo'lmas. Xayr, yomonlab yo'qlamang! Kondrat otamizga aytинг, gunohkor arvohimga duoi-fotiha qilsin, dunyoning ishlari bilan ovora bo'lib, aziz-avliyolarga sig'inmadim, sham yoqmadim. Sandig'imda nimaiki bisot bo'lsa butxonaga xudoyi qildim! Xush qolinglar! – dedi.

Taqachi bu so'zlarni aytib, orqasida qopi bilan yana chopib ketaverdi.

Yigitlar orqasidan:

– Ziyon tegibdi shekilli, – deb qolaverishdi.

Ko'chadan o'tib borayotgan xudojo'y kampir:

– Xudo uribdi, taqachi o'zini osganligini borib ham-maga aytay! – deb o'zicha g'uldirab ketdi.

Vakula shu yugurbanicha ko'chama-ko'cha borib-borib, bir joyda dam olgani to'xtadi. «Hamma yoq barbod bo'lgandek qayoqqa chopib ketayapman, o'zim. Yana bir chorasini qilib, zaporojyelik qorni katta Patsyukka borib maslahat qilib ko'ray-chi, uni ham-

ma jinlar bilan tanish, har qanday mushkulni oson qilardi, deyishadi-ku. Mayli borib ko'ray, baribir o'lim kishisiman!»

Qopda haligacha qimirlamasdan jim yotgan shayton bu gapni eshitib, suyunganidan qopda turib o'ynay boshladi. Ammo taqachi qopga o'zim tegib qimirlatib yubordim shekilli deb, qopni bir mushtlab, bir silkitib qo'ygach, qorni katta Patsyuknikiga qarab ketdi.

Patsyuk qorin bir zamonlarda zaporoyje kazaklaridan bo'lganligi to'g'ri. Ammo u yoqdan haydalganmi yoki o'zi kelganmi buni hech kim bilmasdi. Dikanka qishlog'iga kelib yashayotganiga allaqancha, o'n yilmi, balki o'n besh yilmi bo'lgan. Avval xuddi zaporoyjelikning o'zi edi, hech ishlamas, kunning uch hissasini uyquda o'tkazar, olti o'roqchining tomog'ini yer, bir ko'targanda salkam bir chelak araq ichardi. Buncha ovqatning joylashadigan o'rni ham yo'q emasdi, chunki bo'yи pastroq bo'lsa ham eniga xiyla katta edi. Kiygan shalvarining kengligi shunchalik ediki, har qancha katta qadam tashlasa ham oyog'i sira ko'rinas, yurganida may to'ldirilgan bochka yurib ketayotganga o'xshardi. Shu tufayli qorin laqabini olgan bo'lsa ham ajab emas. Qishloqqa kelganiga uchto'rt kun bo'lar-bo'lmas folbinligi hammaga mashhur boldi. Birov betob bo'lib qolsa darrov uni chaqirtirardi; kelib shivirlab bir duo o'qisa, har qanday dardning shifosi topilardi. Nafsi buzuq ochofat asilzodalaridan biron-tasiga baliqning qiltanog'i tiqilib qolsa, Patsyuk boplab bir musht urganda, qiltanoq asilzodaning tomog'iga hech ziyon-zahmat yetkazmasdan joyini topib ketardi. Lekin so'nggi vaqtarda u kam ko'rinasidan bo'lib qolgandi. Buning sababi dangasaligi bo'lsa ham ajab emas, ammo yildan-yilga eshikka sig'maydigan bo'lib borayotganligidan bo'lsa ham ehtimol. Uning o'zi eshikka chiqmasdi-yu, lekin jamoa ahllaridan kimning unga ishi tushib qolsa, o'zi borardi.

Taqachi qo'rqa-pisa eshikni sekin ochib qarasa, Patsyuk chordona qurib o'tiribdi, oldida kichkina boch-

ka, bochka ustida tovoqda tappa oshi; tovoqni atayin og'ziga to'g'rilab baland qilib qo'yibdi. Qo'lini aslo qimirlatmasdan, boshini andak engashtirib tovoqdan ho'plab ichar, gohida tuppani tishi bilan tishlab olardi.

Vakula buni ko'rib:

– Bunisi Chubdan ham battar yalqov ekan, Chubku ovqatini qoshiq bilan yeydi-ya, bu qo'lini ko'targisi ham kelmaydi! – deb qo'ydi ichida.

Patsyuk tappa oshi bilan juda ovora bo'lsa kerak, ostonadan o'tar-o'tmas engashib salom bergen taqa-chining kelganini sira payqamadi.

Vakula yana salom berib:

– Men sening oldingga iltimos bilan keldim! – dedi.

Xo'ppa semiz Patsyuk boshini ko'tarib qarab qo'ygach, yana tuppasini yeyaverdi.

Taqachi nafasini rostlab olib:

– Achchig'ing chiqmasin, men bu gapni seni ranjish uchun aytayotganim yo'q, seni shayton bilan oz-roq qarindoshchililing bor emish, – dedi.

Vakula bu so'zlarni aytib qo'yib, keyin qaltis so'zlarni biroz yumshatmasdan, qo'polroq qilib gapirdimmi, deb qo'rqli va Patsyuk tovog'-u bochka bilan boshimga urib qolarmikan, degan xavotirda o'zini bir chekkaga olib, tuppaning issiq sho'rvasi betiga sachramasin, deb yengi bilan yuzini bekitib oldi.

Ammo Patsyuk bir qarab qo'yib, tuppasini yeyaverdi.

Taqachi sal botirlanib yana dedi:

– Patsyuk, Xudo hech narsadan kam qilmasin, davlating oshsin, non-u tuzingga baraka bersin, men senga panoh so'rab keldim! – Taqachi gohida suxandonlik ham qilib qo'yardi, chunki yuzboshining taxta devorini bo'yagani Poltavaga borganda ancha pishib qolgan edi. – Men gunohga botgan bechoraman, dardimga davo yo'q. Endi nima bo'lsa boldi, shaytonga yalinishdan o'zga chora qolmadi. Nima qilay, Patsyuk? – Patsyuk indamasdan o'tiraver vergach, – qanday qilay? – dedi, yana.

Patsyuk boshini ko'tarmay tuppasini oshalarkan:

– Shayton kerak bo'lsa, bor o'shangga! – dedi.

– Shuning uchun sening qoshingga keldim-da, shaytonga eltar yo'lni sendan boshqa hech kim bilmasa kerak, – dedi.

Patsyuk churq etmadi, qolgan tuppasini yeb bo'ldi. Taqachi uni o'z holiga qo'ymay:

– Rahm qilgin, yaxshi odam, qaytarma! Go'sht deysanmi, molmi, oq un, qora un deysanmi, gazlammagi, sharbatmi, nimaiki kerak bo'lsa beray, yaxshilikka yaxshilik qaytaraman, menda qolmas... Loaql shaytonga eltadigan yo'lni ko'rsatib qo'y, – derdi.

Patsyuk boyagiday bemalol va beparvo:

– Shayton orqasida turgan odam shaytonni qidirmaydi, – dedi.

Bu so'zlarning ma'nosi Patsyukning manglayida yozilgandek, Vakula unga tikilib qoldi. Uning yuzi, nima deyabdi, deganday edi. Sal ochilinqirab qolgan og'zi, Patsyukdan chiqqan har bir so'zni xuddi tuppadek yutib yuborguday bo'lib turardi, lekin Pat-syuk jim.

Vakula yaxshiroq qarasa, Patsyuk oldida na tovoq bor, na tappa. Lekin yerda ikkita zarrang kosa turibdi, birida chuchvara, birida qaymoq. Uning xayoli, ko'zi beixtiyor bu ovqatga qarab ketdi. O'ziga o'zi: «Ko'ray-chi, chuchvarani qanday yer ekan, tuppani yegandek boshini eggisi kelmas, eggan-da ham, baribir bo'lmaydi, chunki chuchvarani qaymoqqa botirib olish kerak-ku», – deb o'ylab qo'ydi.

Vakula buni endigina o'ylab turgandi, Patsyuk og'zini ochdi, chuchvaraga bir qarab qo'yib og'zini yana kattaroq ochdi. Chuchvara kosadan sakrab chiqib, qaymoqqa tushdi, unda bir dumalab, sapchib Patsyukning og'ziga kirib ketdi. Yeb bo'lgach yana og'zini ochdi, chuchvara yana shu xilda sapchib, og'ziga kirib ketdi. Uning ishi faqat chaynash-u yutish edi.

Taqachi taajjubidan ag'rayib, «ajab g'alati!» – deb hayron bo'lib turgan edi, chuchvara uning og'ziga ham kirib ketayotganini fahmlab qoldi. Labi allaqachon qaymoq bo'libdi. Taqachi chuchvarani yutib, labini surtib, dunyoda qanday g'alati ajoyibotlar bo'ladi-ya, shayton odamni qanday ishlarga boshlaydi-ya, – deb o'y o'ylab ketdi va Patsyukdan boshqa hech kim unga yordam berolmasligini bildi. «Yana bir salom berib ko'ray, uqtiribroq aytsin... I-ye, menga nima balo bo'ldi, bugun ro'za tutadigan kun edi-ku! Chuchvara yeb qo'ydim, chuchvara tuzlik-ku! Qanday ahmoqman, qarab turib gunohkor bo'ldim-a! Qoch endi!» Xudojo'y taqachi orqasiga qaramay yugurgancha uydan qochib chiqdi.

Ammo uning qopida bunday g'animatga suyunib o'tirgan shayton g'animatni qo'ldan chiqargisi kelmadidi. Taqachi qopni yerga qo'yishi bilan shayton darrov chiqib, uning yelkasiga minib oldi.

Taqachining badani jimirlab ketdi. Quti uchib, qoni qochib, cho'qinmoqchi bo'lib turganida, shayton it tumshug'ini uning o'ng qulog'iga yaqin keltirib:

– Menman, senga do'stman, do'stim, birodarim uchun har narsa qilaman, – keyin chap qulog'iga chiyillab: – pul desang har qancha beraman, – dedi. Keyin tumshug'ini yana o'ng qulog'iga: – Oksana shu bugunning o'zida bizniki bo'ladi, – deb shivirladi.

Taqachi o'y o'ylab qoldi. O'ylab-o'ylab, keyin:

– Xo'p, shu shart bilan men seniki! – dedi.

Shayton qarsak urib, xursandligidan taqachi ning yelkasida turib o'zin tushib ketdi. «Endi qo'limga tushdi-yu, shaytonlarni masxara qilib solgan suratlaringni alamini endi olaman. Qishloqning eng yaxshi Xudojo'y odami qo'limga tushganini sheriklarim bilsa nima deyisharkin?» – derdi, o'zicha o'ylab. Do'zaxdag quyruqlilar jinsi taqachini ko'rganda uni qanday mazax qilishlari, ularning vasvasachilikda eng birinchisi bo'lgan cho'loq shaytonga qanday alam qilishi esiga tushib, kulib yubordi.

Shayton, taqachi qochib ketmasin, degan xavotirda hali ham uning yelkasidan tushmay turib:

– Lekin Vakula, o'rtada bir shart bog'lamasdan hech bir ish qilinmasligini o'zing bilasan! – dedi chiyillab.

– Nima desang men hozirman, – dedi taqachi. – Sizlarda qon bilan qo'l qo'yish odat emish deb eshitdim; to'xta bo'lmasa, kissamdag'i miximni olay! – deb qo'lini orqasiga qilib, shaytonning dumidan tutib oldi.

Shayton kulib:

– Iye, hazilkash ekansan-ku! Qo'y hazilingni, bas! – dedi baqirib.

– Shoshma, shovvoz! Manabungaqara-chi, nimabu? – deb darrov cho'qintirgandi, shayton birpasda muloyim bo'lib, qo'zichoqdek yovvosh tortib qoldi. Keyin dumidan tortib yelkasidan tushirarkan:

– To'xta-chi, Iso ummati yaxshi odamlarni yo'ldan ozdiradigan, gunohga boshlaydigan senmi, shoshmay tur! – deb uning ustiga minib oldi, keyin cho'qinishga urinib qo'lini ko'tardi.

– Vakula, afv et! Nima buyursang bajo keltiraman, jonimni qo'yib yubor, tavba qildim, cho'qintirma meni, butingdan qo'rqaman! – deb yalindi shayton.

– Ha-ha! Endi boshqacha tiling chiqdimi, la'nati nemis! Nima qilishni endi o'zim bilaman. Hozir meni uchirib obor, qushdek uch!

Shayton xafa bo'lib:

– Qayoqqa? – dedi.

– Peterburgga! To'ppa-to'g'ri malikaning oldiga olib bor!

Havoga ko'tarilib uchishi bilan, taqachi qo'rqb, ser-raygancha qotib qoldi.

Oksana taqachining g'alati gaplarini o'ylab, ko'p xayol surib qoldi. Taqachiga haddan tashqari jabr qilganini o'zi ham bilib, ichida afsus qilardi. Agar rostdan ham yomon bir ish qilib qo'ysa nima bo'ladi? «Alamidan har narsa qilsa qilaveradi-da! Boshqa birovni yaxshi ko'rib, o'shani qishloqning barnosi deb maqtab yursa

ham yuraveradi-da. Yo'q, meni sevadi, mendek chiroyli bormi?! Menden aslo ajramaydi, hazillashib qo'ydi-da! O'n daqiqa ham o'tmasdan meni ko'rgani yana qaytib keladi. Chindan ham unga berahmlik qildim. Xohlamasam ham bir o'pich beray. Bir suyuntiray!» Yengiltak go'zal qiz o'rtoqlari bilan hazillashib o'ynab ketdi.

O'rtoqlaridan biri:

- Shoshmanglar, taqachi qoplarini esidan chiqarib tashlab ketibdi. Qaranglar, bir g'alati-ya qoplari. U laparni bizdaka aytmabdi, unga bir nimiradan go'sht tashlaganga o'xshaydilar. Go'sht-u non behisobdir. Mo'lchilik, hayit o'tguncha maza qilsak bo'ladi, - deb qoldi.

- Taqachining qoplarimi hali bu? - deb qoldi Oksana ham, - tez bo'linglar, unda biznikiga oborib yaxshilab qaraylik-chi, nimalari bor ekan.

Qizlarning hammasi qo'shilib, uning gapini ma'qullashdi.

Bir to'p qiz avval qoplarini ko'tarib ko'rib:

- Voy, bizlar ko'tarolmaymiz! - deb chuvillashdi.

- Shoshmanglar, - dedi Oksana, - darroz borib chana keltirib, chanaga ortib olib ketamiz.

Qizlar to'planishib chana olib kelishga ketishdi.

Pop barmog'i bilan qopni anchagina teshib qo'yan bolsa ham, har holda, qopga tushganlar juda zerikib qoldi. Agar odam bo'limganda edi, pop bir iloj qilib chiqib olardi, ammo hamma qarab turganda qopdan chiqib, o'zini o'zi mayna qilsinmi... Bu mulohaza uni sabr qilishga majbur qildi, shuning uchun, Chub uning etigini ancha ezganiga qaramay, inqillab, sabr qilishga qaror qildi. Chub ham tagidagi narsa o'tirishga noqulay ekanligidan tezroq qutulishni xohlardi. Ammo qizining boyagi so'zini eshitishi bilan xotirjam bo'lib, uysa yetguncha yuz qadam, balki undan ham ko'proq yurish kerakdir. Chiqadigan bolsa u yon-bu yonni rostlab, po'stinining bog'ichini taqishi, kamarni bog'lashi kerak, uning ustiga tumog'i ham Soloxanikida qolibdi; shu

mulohaza bilan chiqmay o'tiraverdi. Qizlar chanada el-tib qo'ygani yaxshi emasmi. Ammo Chub o'ylaganday bo'ljadi. Qizlar chanaga ketishganida, anavi novcha, qotma og'aynisi juda xafa bo'lib, parishonxotir holda araqxonadan chiqib kelaverdi. Araqfurush xotin unga ishonmasdan nasiyaga bermabdi. Bironta Xudo yar-laqagan badavlat kelib qolib ichirarmikin, degan umidda xiyla kutdi, lekin aksiga olganday, davlatmand boyonlarning barisi Xudojo'y nasroniy bo'lganliklaridan uylarida bola-chaqalari bilan birga bo'tqa oshi yeb o'tirardi. U odamlarning fe'li ketganligi, araqfurush juhud xotinning bag'ritoshligi to'g'risida o'y o'ylab borayotib, qoplarni ko'rib, esi og'ib to'xtab qoldi. U yonbu yonga alanglab qarab:

– Kim yo'nga qopini tashlab ketipti! Go'sht-po'shti bordir! Bitta-yarimta baxti ochilgan lapar aytib yiqqanku shuncha narsani! Muncha bahaybat qoplar-a! Agar yasmiq unidan bo'lsa ham, bug'doy unidan bo'lsa ham ichi to'la non bo'lsa, u ham yomon emas. Nuqlul chapati patir bo'lsa yana ham yaxshi. U ham shirin bo'ladi. Araqfurush xotin bitta patirga nimchorak araq beradi. Birov ko'rib qolmasdan tezroq olib ketay! – Chub bilan pop tushgan qopni orqalab olmoqchi bo'ldi, lekin qarasa, juda og'ir. – Bir kishiga og'irlilik qilar ekan. Hayriyat, bo'zchi Shapuvalenko kelyabdi. Assalomu alay-kum, Ostap!

Bo'zchi ham to'xtab, salom berdi.

– Yo'l bo'lsin?

– O'zim oyog'im qayoqqa tortsa, shu yoqqa ketayapman.

– Yaxshi kishi, shu qoplarni ko'tarishib yubor! Birov lapar aytib yig'ib-yig'ib, ko'chaga tashlab ketibdi. Ichida nima bo'lsa bo'lishib olamiz.

– Qop? Nimasi bor ekan, patirmi, kulchami?

– Nima desang borga o'xshaydi.

Ular darrov chetan devordan ikkita kaltak sug'urib, qopni kaltakka qo'yib, yelkalab ko'tarib ketishdi.

Bora turib, bo'zchi:

- Qayoqqa olib boramiz, araqxonagami? – dedi.
- Men ham o'sha yerga boraylik degan edim-u, lekin badbaxt juhud xotin ishonmasdan, birovnikini o'g'irlab kelgan, deb o'ylarmikin deyman, so'ngra men hozirgina u yerdan chiqdim. Biznikiga olib boramiz, hech kim yo'q, bemalol, xotinim uyda emas.

Bo'zchi, ehtiyotini qilib:

- Yo'qligi aniqmi? – dedi.
- Xudoga shukr, aqlimizni yeb qo'yganimiz yo'q, agar uyda bo'lsa, jinni bo'pmanmi borib. Tong otguncha xotinlar bilan alahsib yursa kerak, – dedi.

Ikki do'stning dahlizdag'i g'ovur-g'uvurini eshitib qolgan xotini eshikni ochib:

- Kimsan? – dedi.

Eri xotinining uydaligini bilib, taxta bo'lib qoldi.

Bo'zchining ham qo'llari shalvillab:

- Ana xolos! – deb qo'ysi.

Uning xotini shunday bir qimmatbaho xazina edi-ki, bunday matodan dunyoda oz emas. Eri singari u ham sira uyda o'tirmas, ertadan-kechgacha qo'ni-qo'shnilar nikida, osh-nonlik qilib kampirlarnikida yurar, ovqatlarini maqtab-maqtab, ishtaha bilan xo'b yer edi, eri bilan faqat ertalab urishardi, chunki goh-go-hida ertalab ko'rmasa boshqa vaqtida uni sira ko'rmasdi. Uylari qishloq mirzaboshisining chalvaridan ikki hissa eskiroq, tomlarining poxoli tushib ketib, u yer-bu yeri ochilib qolgandi. Chetan devor allaqachon buzilib, titilib ketgan, chunki o'tgan-ketganlardan kimgaki it urgani kaltak kerak bo'lsa, falonchining devori bor-ku, deb uydan kaltak olmay, uning devoridan sug'urib ketardi. Pechkasi uch kunda bir yoqilardi. Xotini sahiylardan ni-maiki ta'ma qilib so'rab olsa, eridan yashirib, burchak-burchakka tiqr, lekin eri topganini darrov araqxonada yo'qotib kelmasa, zo'rlik qilib qo'lidan tortib olardi. Eri shuncha og'ir-vazmin bo'lsa ham xotinidan past kelishni xohlamas va aksari ikki ko'zining osti ko'karib, uy-

dan chiqib ketar, qadrdon zaifasi esa oh-voh qilib, erining zulmidan, yegan kaltaklaridan qo'shni kampirlarga hasrat qilgani chiqib ketardi.

Bo'zchi bilan og'aynisining bunday kutilmagan holdan qanday sarosimaga tushib qolganini o'zingiz tasavvur qilavering. Ular qopni yerga qo'yib, etaklari bilan qopni to'sib olishdi. Biroq fursat o'tdi, chunki kampir garchi ko'zi xiraroq bo'lsa ham qopni allaqachon ko'rgan edi.

– Mana bu ishing yaxshi! – dedi xotin. Uning basharasida jo'jaga ko'zi tushgan kalxatning avzoyi ko'rindi. – Lapar aytib shuncha ovqat yig'dingizmi, barakalla, yaxshi odam hamma vaqt shunaqa bo'ladi, biroq u yer-bu yerdan urib kelganmisiz, deb o'ylayman. Qani, menga hoziroq ko'rsating-chi qopingizni, tez ko'rsating deyman!

Eri savlat bilan kerilib turib:

– Boshida bir tuki qolmagan kal shayton ko'rsatmasa, biz ko'rsatmaymiz, – dedi.
– Bu narsalarni lapar aytib topganmiz, sening ishing nima? – dedi bo'zchi.

Xotini novcha erining iyagiga bir musht urib:

– Ko'rsatmaysanmi hali, voy yashshamagur bangi!
– deb qopga chovut qilib qoldi.

Ammo eri bilan bo'zchi mardlik ko'rsatib, qopni unga bermasdan, daf qilishdi. Lekin ular kampirning dag'-dag'asidan o'zlarini yig'ishtirib olishga hali ulgurmaslaridan kampir qo'lida temir kosov bilan dahlizdan yugurib chiqdi, kela solib erining qo'liga va bo'zchining yelkasiga tushirib, allaqachon qopning tepasiga kelib o'ziniki qilib oldi.

Bo'zchi hushiga kelib:

– Nega uni qop yaqiniga yo'latding? – dedi.
– I-ye, men yo'latdimmi, nega sen yo'latding, axir! – dedi, unisi shalvayib.

Bo'zchi birpas jim turgandan keyin yelkasini qashirkan:

– Kosovingiz temirga o'xshaydi-ya, o'tgan yili yar-marka bo'lganda xotinin chaqa pulga bir kosov olgan ekan, yomon emas... og'ritmaydi... – dedi.

Zo'r chiqqan xotini qo'lidagi qora chiroqni yerga qo'yib, qopni yechib qaradi. Ammo qopni darrov ko'rgan xira ko'zları endi aldandi, shekilli. Suyungani-dan chapak chalib:

– E-ha, butun boshli mol-ku! – dedi.

Bo'zchi yo'ldoshini turtib:

– Eshitdingmi, butun boshli mol ekan! Qilding qil ding, sen qilding! – dedi.

Unisi yelkasini qisib:

– Nima qilaylik! – deb qo'ydi.

– Bu nima deganining? Nima qilib, qarab turibsiz?

Qo'lidan qopni tortib olaylik, qani sen boshla!

– Nari tur, nari tur, sening haqing yo'q molda, bular bizniki, – dedi bo'zchi do'q qilib.

Eri ham xotiniga yaqinroq kelib:

– Nari tur, ajinaning xotini! Nima haqing bor unda sening! – dedi.

Xotini yana temir kosovga qo'l uzatgandi, shu payt-da Chub qopdan chiqib, uzoq uyqudan turgan kishidek kerishib, dahlizning o'rtasida turaverdi.

Kampir ikki qo'lini soniga urib qichqirib yubordi, hammasining og'zi ochilib hayron bo'lib qolishdi.

Eri ko'zini baqraytirib:

– Nodon bo'lmasa nega mol, deydi, mol emas! – dedi.

– Shundoq odamni ham qopga tiqadimi?! Nima desang ham, shaytonning ishi, boshqa emas, bo'lmasa qanday qilib darchaga sig'adi?! – dedi, qo'rqib ketgan bo'zchi o'zini chetga tashlab.

Unisi bo'lsa tikilibroq qaraganidan keyin:

– E, og'aynim-ku! – deb qichqirib yubordi.

Chub iljayib turib:

– Bo'lmasa kim, deb o'ylagan eding? Ha, xo'b mayna qildimmi ikkovingni? Sizlar bo'lsa, cho'chqa, deb meni yemoqchi edingiz-a! Shoshmanglar, qopda yana bir

narsa bor, to'ng'iz bo'lmasa ham, bolasi bo'lsa kerak yoki harnechuk bir jonivor-da, chunki tagimda yotib g'ivir-g'ivir qimirlar edi, – dedi.

Bo'zchi bilan yo'ldoshi birdan qopga yopishdi, xotin ham bir yoqdan yopishdi. Agar endi chiqmasdan iloji yo'qligini bilgan pop qopdan emaklab chiqmasa, ular o'rtaida yana talash boshlanardi.

Xotinning o'takasi yorilguday bo'lib, popning oyog'idan ushlab tortayotgan joyida qo'yib yubordi.

Bo'zchi qo'rqqanidan:

– Yana bittasi chiqdi! – deb baqirib yubordi. – Nima balo bo'ldi... Boshim aylanib qoldi... Endi lapar ayt-ganlarning qopiga go'sht-u kulcha orniga odam tashlaydigan bo'lishibdi!

Hammadan battar taajjubda qolgan Chub:

– Pop-ku! – dedi. – Barakalla, Soloxa! Qopga xo'b tiqqan ekan... Nega uyi to'la qop dedim-a... Endi bil-sam har qopda ikkitadan odam bor ekan, yolg'iz men bilan... deb o'ylagan edim, barakalla, Soloxa!

Qizlar qopning bittasini topolmay, hayron bo'lishdi.

– Mayliga shu bittasi ham bo'ladi, – dedi Oksana. Hammalari qopga yopishib chanaga ortishdi.

Oqsoqol qop ichida o'tirib o'yladi: agar qopni yechib, meni chiqaringlar deb qichqirgudek bo'lsam nodon qizlar, qopdag'i ajina ekan, deb qochib ketsalar, ertagacha ko'chada qolib ketaman, shuning uchun indamay deb, jim o'tiraverdi.

Qizlar bo'lsa qo'lma-qo'l ushlashib, g'archillama qorda chanani uchirgancha olib ketishdi. Bir nechali shoxlik qilib chanaga o'tirib oldi, oqsoqolning te-pasiga minib oluvchilar ham bo'ldi. Oqsoqol churq etmasdan bardosh qilishga qaror qildi. Nihoyat yetib kelishdi, dahliz va uyning eshigini lang ochib xaxolas-hgancha qopni sudrab kirishdi. Qizlarning barisi qopni yechishga urinib:

– Nima bor ekan, nima ekan, – deb chuvillashardi.

Shu payt, oqsoqolni boyadan beri juda qiyab

kelayotgan hiqichoq bilan yo'tal shunday qistab berdiki, aslo to'xtatolmasdan ovozining boricha yo'talib yubordi. Qizlar qo'rqishib:

– Odam yotibdi, – deb chinqirishganicha tashqariga qochib ketishdi.

Chub eshikdan kirib kelarkan:

– Nima balo bo'ldi sizlarga, jinni bo'ldingizmi? – dedi.

– Voy dada, qopda odam bor ekan! – dedi Oksana.

– Qopda? Bu qopni qayerdan oldingiz?

Hammalari birdaniga:

– Taqachi ko'chaga tashlab ketdi, – dedilar.

«Ana, xudbin aytmadimmi», – deb qo'ydi ichida Chub.

– Nimaga qo'rqasiz? Qani qaraylik-chi. Hoy kishi, ism-sharifingni bilmaymiz, xafa bo'lmayсан, qani chiq qopdan!

Oqsoqol chiqdi.

Qizlar «voy o'lay!» deb chinqirib yuborishdi.

Chub oqsoqolning boshidan oyog'igacha qarab, ichida: «Oqsoqol ham kirgan ekan-da», – deb hayron bo'lib, ana xolos!.. Obbo! – deganicha qoldi.

Oqsoqol ham Chubdan battar xijolat bo'lib, nima deyishini bilmasdi. Birozdan so'ng:

– Tashqarida havo sovuqmi?! – deb so'radi Chubdan.

– Ozroq sovuq, – deb javob berdi Chub. So'ngra: – so'rasam maylimi, etingga qoramoy surtasanmi, dumba moyimi? – dedi.

Uning muddaosi boshqa edi, nima bo'lib qopga tushding, deb so'ramoqchi edi, ammo nega bunday deganini o'zi ham bilmay qoldi.

– Qoramoy surtgan yaxshiroq! Chub, xayr! – deb, oqsoqol tumog'ini bostirib olib, uydan chiqib ketdi.

Chub oqsoqol chiqib ketgan eshikka qarab turib:

– Etigini nima bilan moylashini nega so'radim! – dedi, o'zicha. – Barakalla, Soloxa! Shunday odamni

qopga tiqqaningga qoyilman!.. Obbo shayton xotin-e!
Ofarin-e! Men ahmoq bo'sam... Qani haligi la'nat qop?

– Anavi burchakka olib borib qo'ydim. Hech narsasi
yo'q, – dedi Oksana.

– Bekor aytibsan, hech narsa yo'g-a! Qani bu yoqqa
keltir. Yana birov bo'lsa kerak! Yaxshilab qoqinglar...
xo'sh, yo'qmi?.. Ha, la'nat xotin! Ko'rinishi avliyoga
o'xshaydi, o'zini juda pokiza, pokdomon oladi.

Lekin biz Chubni shu achchiq va alam ustida
qoldirib, endi taqachiga kelaylik, chunki soat to'qqiz
bo'lay deb qoldi, shekilli.

Vakula osmonga ko'tarilib juda baland chiqib ket-
ganidan yerga qarasa, hech narsa ko'rinxmaydi; yura-
giga vhima tushdi. Pashshadek bo'lib oyning tagidan
o'tib ketdi, agar boshini egib o'tmaganida qalpog'i oyga
ilinib qolardi. Birozdan so'ng sal botirlanib, shayton
bilan hazillasha boshladi. Sanobar yog'ochdan qi-
lingan butini bo'ynidan olib, uning yaqiniga keltirsa
shayton aksa urib, yo'tali tutardi. Jo'rttaga boshi-
ni qashimoqchi bo'lib qo'lini ko'tarsa ham, shayton
cho'qintirmoqchi shekilli, deb yana balandroq uchardi.
Osmon charaqlab, hamma yog' yop-yorug'. Kumush-
dek tuman ichida havo tiniq, hamma narsa ravshan
ko'rinxardi. Hatto tuvak ichiga tushib olib, shamoldek
uchib o'tgan sehrgar joduni ham ko'rdi; yulduzlarning
to'p bo'lib ko'z bog'lash o'ynayotganlarini, bir tomonda
allaqancha arvoh g'uj-g'uj bo'lib pirillashib uchib yur-
ganini ham ko'rdi; oyning oldida dingillab o'ynab tur-
gan shayton uchib ketayotgan taqachini ko'rib bosh
kiyimini olib salom bergenini, yalmog'iz kampirni bi-
ron yerga eltid tashlab, endi o'zi salt qaytib kelayotgan
supurgini, xullas, yana birtalay bo'limg'ur narsalarini
ko'rdi. Nimaiki yolda uchrasa, birpas to'xtab, taqa-
chi tomosha qilib, keyin yana yo'lga tushardi. Taqa-
chi uchib-uchib, Peterburgga yetdi. Shu kuni shahar,
bilmadim, nima uchundir charog'on ekan. Shay-
ton yo'ldagi g'ovdan o'tgach, yerga tushib arg'umoq

otga aylandi; taqachi qarasa, sho'x, chopog'on otda ko'chada ketyabdi.

Yopiray! Tasir-tusur to'polon dabdabasi olamni buzgudek. Ko'chaning ikki tomonida to'rt qavatlilimoratlar. Otlarning' tasir-tusuri, do'ngalaklarning ovozi to'rt tomondan aks etardi. Uylar tobora ko'payib, xuddi yerdan o'sib chiqayotganday ko'rinaridi. Ko'priklar larzon, fayton aravalalar gumbir, izvoshchilar, kucherlar po'shtpo'shtlab qichqirishgan. Har tarafdan chopib ketayotgan ming-ming chanalar qorni to'zitib, uchirib o'tib ketardi, piyodalar qator-qator shamdon osilgan devorlar tagiga siqilib borardi, ularning uzun-uzun tarnov bo'yiy soyalari tomga yetardi. Taqachi hayron bo'lib har tarafga alanglardi. Nazarida hamma uylar chiroq ko'zlarini unga tikib turgandek. Movut po'stin kiygan boylar ko'pligidan, qaysi biriga salom berishini bilmay qoldi. «Yopiray! Boylar muncha ko'p ekan bunda!» – derdi ichida. – «Po'stin kiyganlarning bari sud a'zosi bo'lsa kerak! Oynavon aravalarda o'tganlar shahar boshlig'i bo'lmasa, hokim yoki undan ham ulug'dir». Shu paytda shayton: «To'ppa-to'g'ri malikanikiga boraveramizmi?» – deb so'rab qoldi. Taqachi ichida: «Yo'g'e, vahimaliku! – deb qo'ydi. – O'tgan yil kuzda Dikankadan o'tib ketgan zaporoyyeliklar shu o'rtada bir joyga tushgandi. Yurtlaridan podshoga xat olib kelgandilar; shular bilan maslahatlashsam yaxshi bo'lardi.»

– Hoy, shayton, darrov cho'ntagimga kir-da, meni zaporoyyeliklar qoshiga olib bor!

Shayton bir lahzada ozib, ramaqijon bo'lib qoldi va bemalol uning cho'ntagiga tushib oldi. Vakula hash-pash deguncha ulkan bir uyga yetib keldi. Tavakkal qilib ichkari kirdi, zinadan chiqib, eshikni ochar-ochmas, yasamol uyning dabdabasini ko'rib, vahimasi kelib, ortiga tisarildi. Lekin Dikankadan kelgan zaporoyyeliklar qoramoy surgan etiklari bilan shohi divanlarda chordana qurib, asil nav tamakilardan chekib o'tirganlarini ko'rib yuragi dadilroq bo'ldi.

– Assalomu alaykum ulug'lar, Xudo yor bo'sin, shunday joyda ko'rishdik! – dedi taqachi peshonasi yerga tekkuncha engashib salom berarkan.

Taqachining xuddi oldiginasida o'tirgan kishi yondagidan:

– Kim u kelgan? – deb so'radi.

– Hali tanimadingizmi meni, taqachi Vakula bo'laman! Kuzda Dikankadan o'tganingizda, Xudo salomat qilsin, umringiz uzoq bo'sin, omon bo'linglar, sal kam ikki kun qo'ngan edingiz. Aravangizning oldingi g'ildiragiga temir qoqib ham bergen edim, – dedi.

– Ha, anavi surat solishga usta taqachimi? – dedi boyagi kishi. – Omonmisan, hamshahar, Xudoyim nega seni bu tomonlarga keltirdi?

– O'zim, tomosha qilgim keldi, deydilarki...

Zaporojyelik o'ziga oro berib va ruscha so'zlashishni bilganini ko'rsatmoqchi bo'lib:

– Xo'sh, hamshahar, shahar katta ekanmi? – dedi.

Taqachi sharmanda bo'lishni xohlamadi, shaharni endi ko'rgan kishi ekanini ham bildirgisi kelmadi, bundan tashqari, tubanda ko'rilmusidek, o'zi ham so'zga chechan, savodi chiqqan edi, shuning uchun bamaylixitir so'zlab:

– Dong'i ketgan muzofot! Nimasini aytasiz, uylar ulkan-ulkan, hammasiga basavlat suratlar osig'liq, ko'p uylarga benihoyat zar bilan bitilgan. Nimasini aytay, bag'oyat bejirim va kelishgan!

Zaporojyeliklar taqachining gapga bunday chechanligini ko'rib, unga hurmatlari oshdi.

– Hamshahar, sen bilan keyin bafurja so'zlashamiz, hozir bizlar podshoning qoshiga ketyapmiz.

– Podshoning qoshigami? Ulug'lar, marhamat ko'rsatib meni ham olib boring!

Rostakam katta otga mindir, deb yalinib turgan to'rt yashar bolaga katta kishi qanday muomala qilsa, zaporojyelik ham unga shunday muomala qilib:

– Senimi? U yerda nima qilasan, yo'q, bo'lmaydi, –

dedi va: – birodar, bizlarning podsho bilan gaplashadi-gan gapimiz bor, – deb yuzini bujmaytirdi.

– Birga oboring! – deb qistadi taqachi. Keyin kissa-siga bir musht urib, shaytonga:

– So'ra sen ham, – dedi.

Buni aytar-aytmash, ulardan biri:

– Og'alar, olib bora qolaylik! – dedi.

Boshqalari ham:

– Oborsak oboraylik! – deyishdi.

Yana biri:

– Bizlarnikidek libos kiy! – dedi.

Taqachi yashil chakmonni endi kiyay deb turgan edi, eshik ochilib, oltin uqa tutgan odam kirib, otla-ninglar, vaqt bo'ldi, – dedi.

Ressorlik kattakon aravada tebranib borayotganida, to'rt qavatlik uylar oldidan o'taveraganida tek turib, tosh yo'l o'zi yurib ketayotgandek ko'ringanda taqachi yana taajjubda qoldi.

«Xudoyo tavba, shuncha ham yorug' bo'ladimi, bizning qishloqda kunduzi ham bunday yorug' bo'lmaydi!» – derdi, ichida.

Aravalar bir ajoyib borgoh¹ oldiga kelib to'xtadi. Hammalari aravalardan tushib, shon-shavkatli bir dolonga kirishdi, keyin dolondan o'tib, ko'zni qa-mashtirganday yorug' pillapoyadan chiqishdi.

Taqachi o'z-o'zicha: «Shunaqa ham pillapoya bo'ladimi? Oyoq bosgani ko'zing qiymaydi. Ana zeb-u ziynat, ertaklarning barisi yolg'on deydilar, oling-a yolg'on! Yo, piray, panjaraga qarang, xo'b ishlabdi-da, bitta temirning o'zidan ellik so'mlik ketgan bo'lsa kerak!» – derdi.

Zaporojyeliklar pillapoyadan chiqib, eng oldindagi katta dolonga kirdi. Taqachi oyog'i sirg'anib, ular keti-dan zo'rg'a-zo'rg'a borardi. Uch dolondan o'tdilar, lekin taqachi hali ham hayratda. To'rtinchi dolonga kirganda

¹ Borgoh – katta uy.

beixtiyor, devorga osig'liq surat tagiga keldi. Bu surat qo'lida Iso payg'ambarni ko'tarib turgan bibi Maryam edi. «Ajoyib surat ekan, xo'b chiroyli yasabdi! Xuddi gapirib turgandek, tirikka o'xshaydi-ya! Aziz bolasini qarang, qo'llarini siqib olibdi, bola faqirning kulishini qarang! Bo'yoqlari muncha yaxshi! Yo, Parvardigor, bo'yog'ini qaranglar?! Oxra bo'yoqdan bir chaqalik ham ishlatmabdi, nuqul zok-u lojuvard. Toblanishini qarang lojuvardini! Ishiga ofarin-e! Tak siriga nuqul asil oqdan bergen bo'lsa kerak. – Eshik oldiga kelib, qulfini tutib ko'rarkan: – va lekin bu surat har qancha g'alati bo'lsa ham, manavi jez qabza undan ham alomat ekan, xo'b toza ishlabdi-da! Nemis temirchilari juda qimmatbahoga yasab berishgandir, deb o'layman...»

Agar zar uqalar taqqan malay kelib qo'ltig'idan turrib, ortda qolmang, demasa, hali anchagacha shu zaylda anqayib turaverardi. Mehmonlar yana ikki dolondan o'tgach to'xtashdi. Shu yerda to'xtab turishga amr bo'lgan edi. Zarga g'arq bo'lgan bir necha generallar bunda to'dalashib yurishardi. Zaporojyedan kelganlar enkayib salom bergach, hammalari bir yerga g'uj bo'lib turdi.

Bir lahzadan keyin xiylagina semiz, baland bo'yli, getmancha chakmon kiygan, oyog'ida sariq ko'n etik kiygan basavlat odam birtalay mahramlari bilan kirib keldi. Sochlari to'zigan, bir ko'zi sal qing'irroq, ulug' sifat va salobatli, amr-farmon qilib o'rganib qolgani har bir harakatidan ko'rinish turibdi. Zarvaraq kiyimlarda juda kerilib, qanqayishib savlat bilan yurib turgan generallar darrov dabdabadan tushib, hammasi uning og'zidan bir so'z chiqar-chiqmas yoki sal imo qilguncha bo'lmay ta'zim bilan darrov yugurib, uning amrini bajo keltirishga hozir bo'lib, tipirchilab turardi. Ammo Getman ularni hech pisand qilmay, boshi bilan andak imo qilib, zaporojyeliklar oldiga keldi.

Ularning hammalari oyog'iga bosh urib salom berdi. Getman sal dimog'i bilan so'zlab, salmoq bilan:

– Hammangiz shu yerdamisiz? – deb so‘radi.

Ular yana engashib salom qilib:

– Ha! – dedilar.

– Esingizdan chiqib qolmaydimi? O‘rgatganimday gapiring-a!

– Yo‘q, otaxon, esimizdan chiqmaydi!

Taqachi zaporojyeliklarning biridan:

– Malika shumi? – deb so‘radi.

– Shoshma, hali, bu malika emas, Potyomkin¹ degani shu bo‘ladi, – dedi.

Narigi uydan g‘uvur-g‘uvur ovoz chiqib qoldi. Orqa etagi uzun quyruqday sudralgan shoyi ko‘ylak, orqasida burma gullik kimxob kamzul kiygan bir qancha basavlat xotinlarni ko‘rib taqachining ko‘zi javdirab, besaranjom bo‘lib qoldi. Uning ko‘ziga yiltiroqdan boshqa hech narsa ko‘rinmasdi. Zaporojyeliklar birdaniga yi-qilib:

– Onaxon, marhamat qil! Marhamat! – deb baiqirishdi.

Taqachi ham ko‘ziga hech narsa ko‘rinmay uzala tushib, yotib oldi.

– Turinglar! – dedi buyruq ohangda, lekin quloqqa xush eshitilgan ovoz. Saroy ahllaridan ba‘zilari tipir-chilab, zaporojyeliklarni turtkilab qo‘ydi.

– Onaxon, turmaymiz, o‘lsak ham turmaymiz! – deb qichqirishdi.

Potyomkin lablarini tishlardi, keyin aloha bo‘lmay o‘zi ular tepasiga kelib, birining qulog‘iga shivirlab amr qilganday bo‘ldi, bundan keyin ular turishdi.

Taqachi ham jasoratga minib boshini ko‘tarib qarasa, o‘rta bo‘yli, moviy ko‘zli, upa surtgan, to‘ladan kelgan bir xotin, yolg‘iz malikalarga xos bo‘lgan jozibali shirin tabassum bilan tepasida turibdi.

Moviy ko‘zli xotin zaporojyeliklarni taajjub bilan tomosha qilarkan:

¹ Knyaz G. A. Potyomkin (1739–1791) Yekaterinaning mahrami bo‘lib, bir qancha vaqt butun mamlakat boshqaruvi uning idorasini qo‘lida edi.

– Onhazrat, bugun, haligacha hech ko'rmagan xalqim bilan meni tanishtirmoqqa va'da qilgan edilar, – dedi. Keyin ularga yana yaqinroq kelib: – tuzuk kutyabdilarmi bunda sizlarni? – deb so'radi.

– Ha, onaxon, minnatdormiz! Xo'ragimiz yaxshi (garchi bu yerning qo'yи biznikiday bo'lmasa ham) nega xursand bo'lmaylik?..

– Potyomkin, zaporojyeliklar uning o'rgatganini gapirmay bo'lakcha gap boshlaganlarini ko'rib, bujmayib qo'ydi...

Zaporojyeliklardan biri o'ziga oro berib, oldinroqqa chiqdi:

– Onaxon, marhamat qil! Sadoqatli xalqingdan nima gunoh o'tdiki, g'azab qilding? Tatarning harom qolini tutdikmi, biror ishda badbaxt turk bilan ittifoqlik qildikmi yoki fe'lizmida, dilimizda senga biron xiyonat qildikmi? Nega bizga g'azab qilding? Avval eshitdikki, bizning xilofimizga har yerda qo'rg'onlar solishga amr qilibsan, keyin eshitdikki, bizlarni itoat qildirib, sipohlik xizmatini o'tamoqqa majbur qilmoqchimishsan, endi yana yangi noxush gaplar eshitib turibmiz. Zaporoye sarbozlarining gunohi nima? Gunohi qrimliklar bilan urush qilganda qo'shiningni Perekopdan¹ o'tkazib, jondorollaringga yordam bergenimizmi?..

Potyomkin qolidagi qator-qator uzuklarning olmos ko'zini kichkina cho'tkacha bilan tozalash bilan ovora bolgani uchun indamasdan turardi.

Yekaterina mehribonlik qilib:

– Nima tilaysiz? – deb so'radi.

Zaporojyeliklar nima deymiz degandek bir-biriga qarab olishdi.

Taqachi ichida, malika tilagingiz nima deb so'rayabdi, shekilli, vaqt g'animat, degan xayol bilan to'satdan o'zini yerga tashladi.

¹ Perekop – Qrim yarimorolining qit'aga tutashgan tor joyi, tatarcha *qopu* deyiladi.

– Ulug' malika, bir qoshiq qonimdan kechgaysiz, gunohimdan o'tgaysiz, shohona marhamatingizni aymang, g'azab qilmay ayting, oyog'ingizdag'i etikchan-giz nimadan tikilgan? Bundoq zaifona etikni hech bir shved tikolmasa kerak, hech bir mamlakatda bunday etik bo'limgandir. Yo Xudo, mening ham xotnim shunday etikdan kiysa nima qilar ekan!

Malika kulib yubordi. Turgan saroy ahllari ham kulishdi. Potyomkin bir xo'mrayar, bir kulardi. Zaporoj-yeliklar, taqachini jinni bo'lib qoldi, degan xayol bilan uning biqiniga turtar edilar.

Malika iltifot bilan:

– Tur! Muroding menikidek boshmoq bo'lib, mushkuling oson bo'lsa, darhol keltiring, eng qimmat-baho zar boshmoqdan! Uning bu soddaligi menga ni-hoyatda yoqdi! – dedi. So'ngra boshqalardan bir chekkaroqda turgan, rangpar yuzi to'ladan kelgan, katta-katta sadaf tugmalik sodda kamzuli uning saroya daxldor emasligini ko'rsatib turgan¹ kishiga tikilib turib:

– Qarang, sizning o'tkir qalamingizga loyiq bir namuna! – dedi.

Sadaf tugmalik odam ta'zim bilan javob berib:

– Malikai muhtarama, lutf va marhamatingiz had-dan ziyoda, bu o'rinda loaqal Lafonten² lozimdir! – dedi.

– Rostini aystsam, «Brigadir»ingiz hali ham xayolimdan ketmaydi. Ajab yaxshi o'qiysiz! – dedi malika. So'ngra yana zaporojyeliklarga boqib:

– Biroq sizning yurtingizda sira uylanishmas ekan deb eshitgan edim, – dedi.

– Nega, onaxon, o'zing xo'b yaxshi bilasanki, odamzod xotinsiz tiriklik qilolmaydi, – dedi taqachi bilan so'zlashgan haligi odam. Taqachi uning savodxon-

¹ D. I. Fonvizin (1744–1792) – mashhur rus yozuvchisi, «Tentak» va «Brigadir» nomli komediyalarning muallifi.

² Lafonten (1621–1695) – latifalari bilan shuhrat topgan mashhur fransuz yozuvchisi.

lar tilini yaxshi bila turib malika bilan so'zlashganda jo'rttaga mardikorlar tili deyilgan bunday dag'al til bilan so'zlashganini ko'rib, ichida: «Mug'ombirlar-ey! Bunday qilishi bejiz bo'lmasa kerak!» – deb qo'ydi.

Haligi zaporojyelik:

– Bizlar tarki dunyo qilganlardan emasmiz, biz ham gunohkor bandalardanmiz. Isavilar singari biz ham man etilgan ovqatlarga o'chmiz. Oramizda ayolmandlar ko'p va lekin ular Sechda xotinlari bilan turmaydilar. Xotinini Polshaga tashlab kelganlar ham bor, Ukrainada xotini borlar ham bor, Turkiya yurtida xotini borlar ham bor¹.

Shu onda taqachiga boshmoq keltirishdi. Taqachi uni mahkam ushlab olib:

– Xudoyo tavba, muncha chiroyli! Ulug' malika, yaxmalak otgani borganingizda ham oyog'ingizga shunaqa boshmoq kiyib borasizmi, ajabo? Bunday boshmoq kiyadigan oyoqlar qanday ekan, toza qanddan bolsa kerak deyman, – dedi.

Oyoqlari risoladagidek chiroyli va raso bo'lgan malika, garchi beti qoracharoq bolsa ham libosi o'ziga yarashganidan chiroyli desa deguday soddadil taqaching og'zidan bunday xushomadni eshitib, kulumisrab qo'ydi.

Malikaning iltifotini ko'rib taltayib ketgan taqachi, podsholar bol bilan moydan boshqa narsa yemasliklari rostmi, yana shunga o'xshash allanimalarni so'ramoqchi bo'lib turgan edi, zaporojyeliklar biqinidan turtayotganlarini fahmlab, indamay qo'ya qoldi. Malika qariyalarga boqib, ulardan yurtlaridagi rasm-rusmlarni surishtirib, hol-ahvol so'rab turganida, sekin ortiga tissarilib, cho'ntagiga engashibroq: «Darrov meni bu yerdan olib ket», – deyishi bilan, shu ondayoq o'zini g'ovdan nariroqda ko'rди.

¹ Zaporojyening rasmi-odati bo'yicha u yerga xotin keltirganlarga o'lim jazoysi berilar edi.

Bo'zchining xotini ko'chaning o'rtasida bir gala xotinni yig'ib olib:

– Xudo ursin, suvga oqdi, yolg'on bolsa turgan joyimdan siljimay o'lay! – deb javrardi.

– Axir men yolg'on gapirib yurgan xotinmanmi? Bitta-yarimtaning molini o'g'irladimmi? Birovga ko'zim tegdimi, nega menga ishonmaysizlar? – deb baqirardi, burni ko'kargan, kazakcha ko'ylak kiygan xotin qo'lini paxsa qilib: – Taqachi o'zini o'zi osganini kampir Pere-perchixa o'z ko'zi bilan ko'rmagan bolsa suv tiqilib o'lay!

Chubnikidan chiqib kelayotgan oqsoqol bu gapni eshitib:

– Ana xolos, taqachi o'zini osibdi-ya, – dedi-da, mojarlo qilib turganlarga yaqinroq keldi.

– Araq icholmay o'lay desang-chi undan ko'ra, qurib ketgur bangi! – deb javob qaytardi unga bo'zchining xotini. – Senga o'xshagan jinni bolsa, o'zini o'zi osardi, suvga tashladi, muzni yorib suvga cho'kdi! Sening shu tobda araqxonadan chiqqanining qanday bilsam, uning suvga cho'kkanini ham shunday bilaman.

Burni ko'kargan kampir achchiqlanib:

– Voy yengiltak, sharmanda, topgan gapini qarang! Yashamagur, senga kim qo'yibdi gapni, har kuni kechqurun pop senikiga kirib yurganini bilmaydi, deb o'ylaysanmi? – dedi.

Bo'zchining xotini tutaqib ketdi.

– Poping nimasi? Kimnikiga kiradi? Yolg'onchi!

Ko'k xitoyi mato bilan sirma qilib quyon terisidan tikilgan nimcha po'stin kiygan popning xotini mojarolashib turganlar tepasiga borib:

– Xo'sh, – dedi cho'zilib, – pop bilan bitishgan jazo-sini ko'radi, kim aytdi?

Burni ko'kargan xotin bo'zchining xotiniga ishora qilib:

– Pop anavinikiga kirib-chiqib yuradi! – dedi.

Popning xotini bo'zchining xotinini tepasiga o'qtalib borib:

– Sen mochaxarmi hali, unga issiq-sovuq ichirib, boshini gangitib yurgan, senmisan hali?

Bo'zchining xotini orqasiga tisarilib:

– Alvasti, nari tur-e! Nari tur! – derdi.

– Ha, la'nati ajina, bolang o'lsin ilohim, qurib ketgur, tuf basharangga... – Popning xotini bo'zchi xotining xuddi ko'ziga tupurdi.

Bo'zchining xotini ham uning basharasiga tupurmoqchi edi-ku, biroq mojaroni tuzukroq eshitib olay deb xotinlarga yaqinroq kelib turgan oqsoqolning tarashlangan boshiga tupurib yubordi. Oqsoqol etagi bilan basharasini artarkan:

– Ha, mochaxar, – deb qamchisini ko'tarib, bir dag'dag'a qiligandi, xotinlarning barisi qarg'ashib har tarafga to'zib qochishdi. Oqsoqol aft-basharasini artarkan so'kishini qo'ymay: «Ha, iflos palid! – derdi. – Shunday qilib, taqachi suvga cho'kibdi-da, Xudoyo tavba! Xo'b usta suratkash edi-ya! Qanday pishiq pichoqlar, o'roqlar, omochlar yasardi! Quvvati ham o'lguncha bor edi, azamat edi-ya, ha, deb qo'ydi, so'ogra biroz o'ylanqirab turgandan keyin: – Qishlog'imizda unday odam kam. Qop ichida o'tirganimdayoq fahmlagan edim-a, bechoraning avzoyi yomon edi. Ana xolos, taqachi! Kecha bor edi, bugun yo'q! Targ'il baytalimni taqalatmoqchi edim-a!..

Oqsoqol bunday shafqat xayollariga cho'mganicha asta-asta uyiga yetib keldi.

Oksana bu xabarni eshitib ichidan kuydi. Pereperchixanining o'z ko'zim bilan ko'rdim, deganiga, xotinlarning poyma-poy gaplariga uncha ishonmas edi, taqachining xiyla taqvodor odam bo'lib, o'z joniga o'zi qasd qilishiga ham ishonmasdi. Lekin qishloqqa sira qaytib kelmaydigan bo'lib, bosh olib chiqib ketgan bo'lsa nima qilaman? Taqachidek azamat menga yana chiqarmikin, meni juda yaxshi ko'rardi, hech kim chidayolmagan erkaliklarimni u ko'tarib kelayotgan edi-ku, deb o'ylanib qoldi. Go'zal qiz kechasi bi-

lan betoqat bo'lib, o'rnidida tinch yotolmay u yoqdan-bu yoqqa ag'anab, tong otguncha sira uxlamadi. Goh tun qorong'isidan parda qilib qip-yalang'och o'ziga o'zi da-kki berib to'lg'anar, goh orom olib hech o'ylamay derdi-ku, ammo xayolida qaror yo'q edi. Kechasi bilan kuyib-o'rtanib, ertalabgacha taqachining maftuni bo'ldi.

Taqachining taqdiriga Chub xafa ham, hursand ham bo'lmasdi. Uning fikri yolg'iz bir narsa bilan band: Soloxaning bevafoligini hech unutolmadi, uyqusida ham uni so'kardi.

Tong otdi. Odamlar erta sahardan butxonaga kela boshladi. Doka ro'mol o'ragan, oq movut kamzul kiygan dindor, keksa xotinlar butxona eshididan kirar-kirmas cho'qinishardi. Ko'k va sariq nimcha, ba'zi orqasida popugi bor zar to'n kiygan boyvuchcha xotinlar ham-madan oldinda turardi. Sochiga jamalaklar taqqan, bo'yni to'la marjon, but va jevak taqib olgan qizlar meh-robga yaqinroq borib olishga harakat qilardi. Ammo hammadan oldinda mo'ylovdor, kokil qo'ygan, bo'yni yo'g'on, iyagi tarashlangan, aksari tagidan oq, ba'zida ko'k kamzuli chiqib turgan, chakmon kiygan boy-u kambag'allar aralash turardi. Qayoqqa qarasang ham-ma hayitga chiqqandek, oqsoqol esa ro'zasini kolbasa bilan ochish xayolida tamshanar edi. Qizlar yigitlar-ga qo'shilib, muz otamiz deb suyunardilar, kampirlar duo-fotihani bugun astoydil o'qirdilar. Kazak Sverbi-guz bosh egib sajda qilganda butxonadagilarning ham-masiga eshitilardi, yolg'iz Oksana behuddek turardi. Ibodat qilyaptimi, yo'qmi, ma'lum emas. Biridan biri alamli, biridan biri g'amgin birtalay tuyg'ular ko'ngliga g'am solar, qayg'usi shunchalik oshgan ediki, chehra-sida g'am-u hasratdan o'zga hech narsa ko'rinsasdi. Ko'ziga jiqla yosh to'ldi. Qizlar uning bu holiga sabab nimaligini aslo tushunolmadi, sabab taqachi ekani ularning xayoliga ham kelmadi. Ammo xayoli taqachi bilan band bo'lgan yolg'iz Oksana emasdi. Qishloq ahl-larining nazarida hayit hayitga o'xshamas, bir narsa

yetmagandek edi. Aksiga olib, pop ham qopga tushgandan beri xirillab qolib, bo'g'ilib, zo'rg'a o'qirdi. Qal'adan kelgan hofiz yaxshi o'qisa ham, taqachining yo'qligi bilinib turardi, chunki ibodat vaqtida «E, bor Xudoyo»ni yoki «g'ulmonlar bilan»ni o'qiganda taqachi ham hofizlar yoniga chiqib, poltavachasiga hofizlik qilib ketardi. Bundan tashqari, taqachidan boshqa hech kim butxonaga mutavallilik qilmasdi. Ertalabki ibodat o'tdi, peshingisi ham o'tdi, lekin taqachi qayoqqa yo'qoldi, darvoqe?

Shayton avvalgidan ham qattiqroq jadalga olib bir zumda taqachini uyiga olib keldi. Taqachi qarasa uyingning oldida turibdi. Xuddi shu paytda xo'roz qichqirdi. Shayton «qutuldim», deb ketmoqchi bo'lishi bilan, taqachi uning dumidan tutib, «Qayoqqa borasan? Shoshma, birodar, hali ishing bitgani yo'q, xizmat haqqining berganim yo'q», – deb qo'liga gavron olib, uch marta boplاب urdi. Bechora shayton, dodxohnning darrasini yegan kambag'aldek juftak urib qochib qoldi. Shunday qilib, odamzodning dushmani vasvasa qilib, birovni yo'ldan ozdiraman, deb o'zi tanbehini yedi. Keyin Vakula og'ilxonaga kirib, tushgacha pi-chan ichida xo'b uxladi. Uyg'ongach oftobning ancha ko'tarilib qolganini ko'rib, ertangi ibodatni ham, tushkisini ham o'tkazib yuboribman, deb kapalagi uchib ketdi; Xudojo'y taqachi, o'z jonimga o'zim qasd qilib, imonimni sotmoqchi bo'lganimga Xudoning qahri kelib, meni g'aflat bostiribdi, bunday ulug' ayyom kunlarda butxonaga borolmapman, deb ko'ngli ancha xira bo'ldi. Ammo kelar haftadayoq pop qoshiga borib, gunohimni aytib, tavba qilay, kafforatni beray, bugundan boshlab yil bo'yi har kuni ellik martadan ibodat qilay, degan niyatni qilib uyiga boqdi; uyida hech kim yo'q. Soloxa hali qaytib kelmabdi shekilli. Boshmoqni sekin avaylab qo'ynidan oldi, do'zandasiga qoyil qolib, yana bir marta tomosha qilib qo'ydi, so'ngra o'tgan kechasi ko'rgan ajoyibotlariga xo'b taajjublandi. Keyin

yuvindi, zaporojyeliklardan olgan ko'ylakni kiyib, yasanib oldi. Poltavaga borganda olgan bo'lsa ham haligacha sira kiymagan tepasi ko'k barra telpagini ham sandiqdan oldi. Rang-barang yangi belbog'ini ham oldi; bularning hammasini, tugib, bitta qamchin ham qo'shib to'ppa-to'g'ri Chubnikiga jo'nadi.

Taqachini ko'rib, Chubning ko'zi kosasidan chiqqudek bo'ldi. Taqachining tirilib kelganigami, uning yurak yutib unikiga kelganigami yoki bunday yasanib, zaporojyelik olifta bo'lib kelganigami, qaysinisiga ajablanishini bilmay, hayron bo'lib qoldi. Le-kin taqachi Vakula tugunni yechib, ohori to'kilmagan, olamda misli yo'q yangi telpak bilan belbog'ni Chub oldiga qo'yib, oyog'iga yiqilib:

– Ota, rahming kelsin! Mendan hafa bo'lma! Mana qamchin, oyog'ingga yiqildim, xohlaganingcha ur, tavba qildim, ur, xafa bo'lmasang bo'lgani! Marhum otam bilan do'st, non-qatiq edingiz, shirinkona olib birga ichardingiz, – deb yalinganda Chubning taajjubi yana oshdi.

Qishloqda hech kimga bo'yin bermagan, hech kimni pisand qilmagan va bir mirilik chaqani qo'li bilan bemalol bukkan, shunday taqachi oyog'iga kelib yiqilganiga ichida xursand bo'ldi. Chub obro'sini tushirmaslik uchun qamchinni olib, uning yelkasiga uch marta urdi.

– Bo'ldi, tur! Keksalarning so'zini tingla! O'rtamizdagi yomon-yaxshi gaplarni unutaylik! Qani, gapir, muroding nima?

– Ota, Oksanani menga ber!

Chub biroz o'ylanib turgach, telpak bilan belbog'ga ko'z tashlab qo'ydi; telpak nihoyatda yaxshi, belbog' ham undan qolishmas edi: Soloxaning bevafoligi esiga tushib ketib:

– Ma'qul! Sovchingni yubor! – deb yubordi.

Oksana uyning ostonasiga qadam qo'yishi bilan taqachini ko'rib, «voy!» degancha hayron bo'lib, suyunganidan unga tikilganicha qoldi.

– Ko'r-chi, qanday etikcha keltirdim senga?! Malika-ning oyog'idagi etikchadan! – dedi Vakula.

Oksana ko'zini undan olmay, qo'llarini siltab:

– Yo'q, yo'q, kerakmas! Etikcha keltirmasang ham men... – Oksana so'zining u yog'ini aytolmasdan qiz-ariib ketdi.

Taqachi unga yaqinroq kelib, qo'lidan tutdi, barno qiz ko'zini suzib yerga qaradi. Qiz aslo shu tobdagidek go'zal ko'rinxmagandi. Shavqi oshib shodlangan taqa-chi sekin o'pib olgan edi, yuzi yana qizarib, husni ya-na-da oshdi.

Cherkovning marhum ruhoniysi bir kun Dikan-ka qishlog'idan o'tib borarida bu yerni maqtab, bir ko'chada yangi solingan uy oldiga kelib to'xtadi. Hazratlari, eshik oldida qo'lida bolasi bilan turgan chiroyli juvondan:

– Bunday yaxshi sirlangan uy kimniki? – deb so'radi.

Eshik oldida turgan ayol ta'zim bilan:

– Taqachi Vakulaniki! – dedi. O'sha juvon Oksana-ning o'zi edi. Hazratlari uyning eshik va darchalarini tomosha qilarkan:

– Xo'b yaxshi ishlanibdi, yaxshi? – deb qo'ydi.

Derazalarning to'rt tomoni qizil bo'yoq bilan bo'yagan, eshiklarda og'zida mushtugi bilan ot minib turgan kazaklarning surati solingan edi.

Ammo hazratlari Vakulaning tavbasini buzmay butxonaning chap tomonini tekinga, ko'k bo'yoq ustiga qizil bilan gul solib bo'yab bergenini eshitib, yana ham alqadi. Bundan tashqari, butxonaga kiraverishda chap tomondagi devorga, shayton mal'unning do'zaxda yonayotgan suratini solib qo'ydi; shayton nomardni shunday xunuk-badnoma qilib soldiki; kimki o'tsa tupurib o'tar, xotinlar bo'lsa, bolalari yig'laganda surat oldiga olib kelib, «anavini qara, muncha tasqara-ya!» deyishardi. Bolalar ham darrov ko'z yoshlarini ar-tib, suratga bir tikilib qarashi bilan onasining bag'riga yopishib olishardi.

DAHSHATLI INTIQOM

I

Kiyevning bir chekkasida to'polon, to'y-tomosha. Yasovul Gorobets o'g'lini uylantiryabdi, to'yga har yoq-dan mehmonlar kelgan. Burun yaxshi yemoqni suyadilar, ichmoqni bo'lsa yana ziyod, xursandchilikni esa yanada ko'proq. Zaporojyelik Mikitka ham to'riq otiga minib, Pereshlya polyada polyak boyonlariga yetti ke-cha-yu yetti kunduz ziyofat berib, qizil mayni xo'b ichib, aysh-ishrat qilgan joyidan to'ppa-to'g'ri to'yga keldi. Yasovulning tutingan og'asi bo'l mish, Dneprning narigi tomonida ikki tog' orasida uy qilgan Danilo Burulbosh ham yosh xotini Katerina va bir yashar o'g'li bilan yetib keldi. Katerinaxonning oppoq yuzini, barxitdek qora qunduz qoshini, keng etakli yubkasini, havorang ipak ko'ylagini, kumush nag'allik etigini ko'rgan mehmonlar uning husniga hayron qoldilar. Ammo chol otasining kelmaganini eshitib, bunga hammadan ortiq taajjub-landi. Otasi Dneprning narigi tomonida atigi bir yilgina turib, keyin yigirma bir yil nom-nishonsiz yo'qolib ket-gach, qizi erga tegib, o'g'illi bo'lgandan keyin kelgandi. U kelsa, ajoyib-u g'aroyiblardan so'zlab berardi. Shuncha jahongashta bo'lib yurgan odamda so'z bo'lmaydim! Boshqa yurtning odamlari bo'lak, isaviylar butxonasi u yerlarda yo'q. Biroq attangki, kelmabdi.

Mehmonlarga mayiz va olxo'ri solib pishirilgan varaqi, katta laganda ko'pchitma non keltirdilar. Mashshoqlar orasiga pul tiqib yopilgan nonning tagini sindirib, pullarini olgach, surnay, kamon va chirmandalarini yonlariga qo'yib birpas tindilar. Juvon va qizlar guldar ro'molchalari bilan yuzlarini artib, o'rta ga tushishdi. Yigitlar ham biqinlarini ushlab, u yon-bu yonga bir ko'z tashlab qo'ygach, endigina o'yinga tush-moqchi bo'lib turgandilar. Shu paytda keksa yasovul kelin-kuyovga fotiha berish uchun ikki butni ko'tarib

chiqib qoldi. Yasovul keltirgan butlar unga Varfolomey buzrukdan qolgan meros bo'lib, oltin-kumush qoplanmagan, yaraqlamagan, sodda bo'lsa ham xosiyatli edi. Kimning uyida bo'lsa, bu uyga ins-u jinsning ziyon-zahmati tegmasdi. Yasovul butlarni ko'tarib, endi duosini o'qimoqchi bo'lgandi... o'ynab o'tirgan bolalar birdan qo'rqib, baqirib yuborishdi, orqaroqda turgan boshqa odamlar ham birdaniga o'zlarini orqaga tashlab, qo'llarini bigiz qilib o'rtada turgan odamni ko'rsatishardi. O'rtada turgan odamning kimligini hech kim bilmas, ammo u bir daf'a o'yin tushib ham mani qoyil qoldirgan, atrofida davra olib turganlarni xo'b kuldirgan edi. Yasovul butni ko'targanda uning aft-basharasi allanechuk o'zgarib, burni cho'zilib bir tomonga qiyshayib ketdi, qo'y ko'zi chag'ir bo'lib qoldi, lablari ko'karib, iyaklari qaltirab, cho'zinchoq bo'lib uzayib, oziqlari og'zidan chiqib ketdi, orqasi bukchayib chol bo'lib qoldi.

Turganlar bir-birining pinjiga tiqilishib, har tarafdan:

– Anavi, anavi, – derdilar.

Bolali onalar bolalarini ushlab:

– Jodu yana chiqipti! Yana chiqibdi! – deyishardi.

Yasovul savlat bilan kerilib o'rtaga chiqdi-da, butlarni jodugarga ro'para keltirib:

– Yo'qol, daf bo'l shayton, nima qilasan bunda! – dedi shovqinlab. Badnamo chol, xuddi bo'ridek tishlarni g'ijirlatib, o'shqirgancha ko'zdan g'oyib bo'ldi.

Havo aynib, dengizda to'polon boshlanganda qanday alg'ov-dalg'ov bo'lsa, xaloyiq orasiga ham shunday g'avg'o tushib, har xil mish-mish gaplar boshlandi.

Hech narsani ko'rmagan yoshlari:

– Jodusi nima?! – deb so'rashardi.

Qariyalar boshlarini sarak-sarak qilib:

– Bir balo bo'ladi! – derdilar.

Yasovulning katta hovlisida odamlar har yerda to'p-to'p bo'lib sehrgar jodu hikoyasini eshitardilar.

Ammo har kim har narsa der, birovning so'zi birovni-kiga to'g'ri kelmasdi.

Bir bochka sharbatni hovliga dumalatib chiqardilar, yunon mayidan bir necha chelak keltirdilar, yana xursandchilik, o'yin-kulgi boshlandi, mashshoqlar mashq qildilar, yosh qiz-juvonlar, sho'x yigitlar rang-barang to'nlarini hilpillatib o'yinga tushib ketishdi. To'qsonga, yuzga kirgan qariyalar ozroq aysh qilib ol-gach, behuda o'tmagan yoshlik chog'larini eslab, ular ham o'yinga tushib ketishdi. Tun yarmigacha xo'b aysh qildilar, shunday aysh qildilarki, endigi zamonda unday xursandchilik sira bo'lmaydi. Mehmonlar tar-qalisha boshlashdi, ammo ko'pchiligi ketmasdan yaso-vulning keng hovlisida yotib qoldi. So'ri tagidami, hovli yuzasida yerdami, ot-arava tagidami, og'ilxonadami sarxushlikdan duch kelgan joyda dumalab, butun shaharni boshiga ko'tarib xurraq otib yotganlarning soni yo'q edi.

II

Yer yuzi munavvar. Tog'ning narigi yog'idan oy ko'tarilmish. Dnepr bo'yining tog'-u toshlari go'yo op-poq qordek, qimmatbaho misqoli dokaga o'ralgandek oy nuriga botmish, kolanka ham o'zini qarag'ayzor ichiga olmish.

Dneprda katta qayiq boradir. Qayiqning tumshug'ida ikki azamat yigit borar, ikkovi ham telpagini chakkasiga kiyib olgan, kurakni har urganlarida suv xuddi chaqmoq o'tdek, yiltirab sachraydi.

Nega yigitlar qo'shiq aytmay jim boradi? Nak-senzdlar¹ Ukrainiani kezib yurib kazaklarni o'z din-lariga kirgizayotganlaridan, na sho'r ko'l bo'yida O'rdanining ikki kun urush qilganidan so'zlashadi. Qanday qilib qo'shiq aytsin, qanday qilib mardliklar-

¹ Polyak ruhoniylari.

dan so'zlasin! Beklari Danilo juda xomush, qizil movut to'nining yengi tushib suvgaga tegib bormoqda, bekalari Katerina bo'lsa bolasidan ko'zini olmay asta-asta allalab bormoqda, yalangqavat movut kamzuliga sachragan suv zarralari xuddi movutga o'tirgan to'zonga o'xshaydi.

Daryoning qoq o'rtaidan turib qaraganda baland tog'-toshlar, bag'ri keng chamanzorlar, sabzadek ko'kargan daraxtzorlar, qanday go'zal! Bu tog'lar tog' emas, chunki tog'ning etagi bo'ladi, bularning etagi yo'q, pastga qarasangiz ham, yuqoriga qarasangiz ham, cho'qqi, tagiga qarasangiz ham tepasiga qarasangiz ham baland osmon; qirlarda o'sgan daraxtlar ham daraxt emas, chakalak boboning paxmoq boshidagi sochidir, uning tagida osilib tushgan soqoli, soqoli tagiga qarasangiz ham osmon, boshining tepasida ham osmon. O'lanzor chamanlar ham o't emas, dumaloq osmon beliga bog'langan ko'k belbog'dir, yuqorida ham, pastda ham oy sayr qilib yuribdi.

Danilo bek hech yoqqa boqmaydi, yosh xotinidan ko'zini olmaydi.

– Ne bo'ldi suyganimga, tillaginam Katerina, nega xafasan?

– Xafa emasman, begin Danilo! Sehrgar to'g'risida eshitgan g'alati hikoyalar ko'nglimga qo'rquv soldi. Tug'ilishidan shunday xunuk ekan, go'daklardan hech qaysisi u bilan o'ynamas ekan. Begin, gapimga qulqolning, nazarida hamma uni masxara qilib kulayotganday bo'larkan. Qorong'i kechada birovga duch kelib qolsa ham, og'zini ochib, tishini ko'rsatib kulayotganday ko'rinaverarkan-da, ertasi u odamning o'ligi topilarkan. Bu gaplarni eshitib yuragimga vahima tushdi, qo'rqedim, – dedi Katerina, qo'lida uxlab yotgan bolasining betini ro'molchasi bilan artarkan. Ro'molchaga qizil ipakdan yaproq, yaproq ichida meva solingan edi.

Danilo bek hech nima demay, daraxtzor orqasida qorayib turgan tepaga, tepaning narigi yog'ida turgan

baland va ko'hna qasrga qarab qoldi. Peshonasi buri shdi. Chap qo'li bilan kelishgan xush mo'ylovini silab qo'ydi.

– Sehrgarligidan qo'rqlmayman, ammo shum oyoq mehmonligi yomon. Qaysi falokat uni to'yxonaga sudrab keldi ekan? Lyaxlar, Zaporoyje yurtiga yo'limizni to'sish uchun yo'lga qal'a solayotgan emish, deb eshitdim. Agar rost bo'lsami... Agar iblis u yerda makon qilganligini eshitsam, uyasini yer bilan yakson qilib yuboraman, sehrgar cholni kuydirib kulini ko'kka sovurtirayki, quzg'unlar har gardini ham topolmasin. Biroq oltin-kumush dunyosi yo'q emasdир, deb o'ylayman. Bu jodugar mana shu yerdarda yashaydi. Agar oltin-kumushi bo'lsa... Hozir go'ristonlik yonidan o'tamiz, nomardning ota-bobolari shu yerda chirib yetibdi! Bu urug'ning hammasi, eski to'niga qo'shib imonini shaytonga sotaverar ekan, deb eshitganman. Agar oltini borligi aniq bo'lsa, fursatni boy bermaslik kerak, chunki urushda ham doim o'lia tushavermaydi...

– Nima g'avg'o boshlamoqchililingizni bilaman, lekin u bilan uchrashishning menga hech xayrliги yo'q. Ammo nafasingiz muncha bo'g'ilib ketyabdi, nega muncha xo'mrayib qaraysiz, qovoqlaringiz ham solinib ketdi!

Danilo jahl qilib:

– Gapirma, xotin kishisan. Xotin kishi bilan baravar bo'lgan ham hezalak! – dedi-da, keyin qayiqni surib borayotganlardan biriga qarab:

– Hoy o'g'lon, tamakini tutatib ber! – dedi.

U chekib turgan tamakisi bilan begining tamakisini tutatib berdi. Danilo hali ham achchig'idan tushmay:

– Sehrgar, deb meni qo'rqlamoqchi bo'ladi-ya! Xudoga shukr, kazak na jindan qo'rqadi, na ksendzdan. Agar ayollarimiz gapiga qulq solib o'tiraversak biz odam bo'larmidik! To'g'rimi, yigitlar? Bizning xotinimiz – mushtugimiz bilan o'tkir qilichimiz! – dedi.

Katerina sokin suvgan tikelgancha indamay qoldi. Shamol suvni jimirlatar, daryo kechasi bo'rining juni oq tovlanib yiltiragandek jimir-jimir qilardi.

Qayiq chakalak bosgan sohilga qarab burildi. Daryo bo'yidagi go'riston ko'rindi. Ko'hna butlar shapaloqdek qadalib turardi. Ular orasida na bir tup chakalak va na o't bor, yolg'iz osmondag'i oy yorug'ini sochib turibdi.

Danilo bek qayiqchilariga qarab:

– Yigitlar, tovushni eshityapsizmi, birov dodlayabdi? – dedi.

Yigitlar birdaniga:

– Eshityapmiz, ana shu yoqdan kelyabdi shekilli, – deyishdi go'riston tomonga ishora qilib.

Ammo darrov jimjit bo'lib qoldi. Qayiq daryoning muyulishiga kelib qayrilishi bilan, qayiqchilar kuraklarini tashlab, hayron bo'lib, ag'rayib qolishdi. Danilo bekning ham quti uchib, qoni qochib qotib qoldi.

Go'rga qadalgan but joyidan qimirlab, qotib ketgan bir murda uning ostidan sekin chiqib kelaverdi. Soqoli qorniga tushgan, tirnoqlari o'sib, barmog'idan ham uzayib ketgan, murda qo'llarini sekin ko'tardi, aft-basharasi qaltirab, qiyshayib ketdi. Qattiq azobda ekanligi uning vajohatidan ma'lum edi. Murda odam tovushiga o'xshamagan ovoz bilan bo'kirib: – «Bo'g'ildim! Bo'g'ilib ketdim!» – dedi. Uning bu faryodi kishining bag'rini pichoq bilan tilgandek bo'ldi. Murda yana yerga kirib ketdi... Keyin yana bir but qimirlab, uning ostidan ham bir murda chiqdi. Bu haligisidan ham battar, xunuk, badbashara, novcha edi. Soqoli tizzasiga tushgan, tirnoqlari haliginikidan battar o'sgan. «Bo'g'ildim!» – deb, faryod urib, bu ham yana yerga kirib g'oyib bo'ldi. Yana bir but qimirlab, undan ham murda chiqdi. Quruq suyak cho'zilib chiqqandek bo'ldi. Soqoli tovonigacha tushgan, tirnoqlari o'sgan barmoqlari yerni changallab qolibdi. Osmondag'i oyni olmoqchi bo'lgandek dahshatli qo'llarini yuqori cho'zdi, so'ng sarg'aygan suyaklarini biroz arralagandek baqirib yubordi...

Katerinaning quchog'ida uxlab yotgan bola qichqirib, uyg'onib ketdi. Boyvuchchaning o'zi ham chinqirib yubordi. Qayiqchilar qalpoqlarini suvgaga tushirib yubordi, Danilo bekning o'zi ham qo'rqiб ketdi.

Bu ko'ringan narsalar bir pasda g'oyib bo'lib, boyagidek jim bo'lib qoldi, ammo yigitlarning esi og'ib xiylagacha kurakka qo'llari bormay turdi.

Burulbosh, tinmasdan yig'lab turgan bolasini qo'liga olib, qo'rquv ichida hadeb allalayotgan yosh xotinini suyib, peshonasidan o'parkan:

– Qo'rhma, Katerina, qara, hech narsa yo'q. Sehrgar jodu: «Kasofat makonimga hech kim yaqin kelmasin!» – deb odamlarni qo'rqtimoqchi bo'ladi. Xotinlar qo'rqlama, boshqa hech kimni qo'rqtolmaydi. O'g'limni menga ber! – dedi.

Danilo bek o'g'lini ko'tarib o'parkan:

– Ivan, jodugarning sehridan qo'rqmaysan-a? Yo'q, qo'rqlamayman, mard kazakman, deb ayt! Bas, yig'layverma, hozir uyga yetamiz! Uyga borganda onang sut beradi, belanchakka yotqizib:

Alla bolam, alla-yo,

Shirin o'g'lim, alla-yo,

Guli lolam, alla-yo.

Erka qo'zim o'sa qol

Kazaklarning shoniga.

Dushmanlardan qasos ol,

Vahima sol joniga,

Alla bolam, alla-yo, –

deb uxlatadi.

– Katerina, menga qara, nazarimda shu otang biz bilan chiqishgisi kelmaydi, shekilli-da. Xuddi urushgandek xo'mrayib, tumshayib keldi... Xush ko'rmasang kelma, qo'y. Biz kazaklarning omonligi uchun ichmadi, bolani aqalli qo'liga olmadi! Ko'nglimdagi hamma gapimni ayta solay degan edim, hech aytolmadim, tilim tutildi. Otangning ko'ngli biznikidek emas! Kazak shundayki, ikkitasi bir yerda uchrashib qolsa,

suyunganidan yuragi qinidan chiqqudek bo'ladi. Omon bo'lgur yigitlarim, daryo bo'yiga yetay dedikmi? Hammangizga bittadan yangi qalpoq beraman, senga-chi Stetsko zar tikilgan baxmal qalpoq beraman. Tatarning boshini uzib telpagini olgan edim; kiyimining hammasini yechib olib, yolg'iz jonini qo'yib yuborgan edim. Shu telpakni senga beray! Ana yetdik, o'g'lim; hadeb yig'layverasan, bog'la qayiqni. Katerina, ma, ol bolangni!

Hammalari qayiqdan chiqdi. Balandlik tepaning narigi tomonida poxol yopilgan tom ko'rindi. Danilo bekning bobosidan qolgan uy – shu. Undan narida yana bir qir, narigi yog'i sirt, yuz chaqirim yursang ham bitta kazak topilmaydi.

III

Danilo bekning qo'rg'oni ikki qirning o'rtasidagi Dneprga tushadigan soylik ichida. Qo'rg'oni uncha baland emas, sirtidan qaraganda unchalik kazaklarni-kidan farqi yo'q. Uyi bittagina, lekin bitta bo'lsa ham, xotini, kampir enagasi, o'nta azamat yigit, o'zi, xul-las hamma sig'adi. Uyning to'rt tomonida gir aylan-gan taxta tokcha. Tokchalarda qator-qator idish-to-voq, sovg'aga kelgan katta yog'och tog'aralar, urushda o'lja tushgan kumush kuvachalar, oltin qoplangan zarrang kosalar, tokcha tagida qimmatbaho qilich-u nayzalar osig'liq. Bu qilich va nayzalar to'ra va tatar-lardan g'animat tushgan, shuning uchun ham yoyilib, dami qaytib qolgan. Danilo bek bu asbloblarga qara-ganda go'yo ularda yozilgan bitiklarni o'qigandek qil-gan urushlari esiga tushardi. Pastda, devor yonida sil-liq randalangan taxta. Uning yonida so'ri, so'ri oldida shipga qoqligan halqaga belanchak osilgan. Uyning tagi xo'b shibbalanib, loy bilan shuvalgan. Taxtada Danilo bek xotini bilan yotadi, so'rida kampir enaga-si. Belanchakda chaqalog'i o'ynab yotadi, azamatlari

yerda dumalashib yotishadi. Ammo kazakka yalangda, taqir yerda yotgani yaxshi. Unga momiq to'shak, yumshoq ko'rpa kerak emas. Boshiga barra pichandan yostiq qilib, o'tda yayrab-yayrab yotadi. Yarim kechada uyg'onib, yulduz sepilgan osmon tomoshasidan zavq oladi, bo'g'im-bo'g'imlariga rohat yetkazgan shabadadan huzur qiladi. Uyqu aralash kerishib olgach, javrab-javrab mushtugini chekib oladi-da, keyin po'stiniga burkanib olib, yana yotaveradi.

Kechagi xursandchilikdan keyin bugun Burulbosh uzoq uxladi. Uyqudan turgach, bir burchakdagi kursiga o'tirib olib, yaqinda alishtirib olgan turk qilichini qayrashga kirishdi. Katerina beka bo'lsa ipak ro'molchaga zar tikib o'tirgan edi, bir mahal og'zida boshqa yurtdan keltirilgan g'alati mushtugi bilan qovog'ini solib, xo'mraygancha otasi kirib keldi. Qiziga yaqin kelib, zarda bilan:

– Nega muncha kech qolding, – deb surishtira boshladi.

– Ota, bunday gaplarni mendan so'rang! Javob xotindan emas, erdan. Xafa bo'lma, bizda rasm shu! Boshqa g'ayridinlar orasida balki unday emasdir, unisini bilmayman, – dedi Danilo, ishini qo'lidan qo'ymay.

Qaynotaning badqovoq chehrasi qizardi, ko'zları o'tdek yondi. G'uldirab:

– Qizni otasi tiymasa, tergamasa kim tergaydi! – dedi. – Hoy, sendan so'rayabman, qayerda tentirab yurding yarim kechagacha?

– Hurmatli ota, mana bu gapingiz ma'qul! Bu so'zingizga aytadigan javobim shuki, yo'rgakdan chiqqanimga ancha bo'ldi, ot minishni ham, o'tkir qilich bilan chopishni ham bilaman. Bilganim yana bor... Nima qilsam ham o'zim bilib, birovga tergov bermaslikni ham bilaman.

– Danilo, sen janjal chiqarmoqchiga o'xshaysan, ko'rib turibman. G'alamisning ko'ngli egri. Nima desang deyaver, o'zing bilasan. Men ham o'zim bilaman.

– Xudoga shukr, haligacha g’alamislik qilganim yo‘q. Hamisha dinimiz, yurtimiz yo‘lida fidokorlik qilib kelganman. Pravoslav dini yo‘lida jonbozlik qilib urushib turganlarida, Xudo bilsin, qaysi go‘rlarda tentirab yurib, keyin ekmagan bug‘doylarini o‘rgani keladigan ba‘zi daydilardan, butxona betini ko‘rmagan, din hukmini tutmagan betavfiqlardan emasman. Bunday daydilarni tutib xo‘b adablarini berish, qay go‘rlarda sang‘ib yurganlarini surishtirish kerak edi.

– Hoy, kazak! Bilasanmiki... otishga no‘noqman, yuz sarjin joydan otgan o‘qim kishining yuragidan parron o‘tadi, xolos. Qilich chopishga ham ustaligim yo‘q, odamni qiyma-qiyma qilib yuboraman, eti oshga soladigan so‘kdek mayda-mayda bo‘lib ketadi.

Danilo qilichini bekorga charxlamaganini bilgandek qilichini cho‘qintirib olgach:

– Xo‘b, men tayyorman, – dedi.

Katerina uning qo‘liga mahkam yopishib olib:

– Begin! Esingizni yig‘ing, kimga qilich ko‘tarmoqchisiz, o‘ylasangiz-chi! Ota, soch-soqolingiz oppoq qordek bo‘lsa ham, esi yo‘q yosh boladek badjahllik qilasiz! – dedi qichqirib.

Danilo dahshat bilan baqirib:

– Xotin! Bilasanki, bu xil bemazagarchilikni yoqtirmayman, o‘z ishingni qil, aralashma! – dedi.

Qilichlar chaqir-chuqur urusha ketdi. Po‘latdan chiqqan uchqunlar ikkovi ustiga go‘yo tuproqdek yog‘ildi. Katerina yig‘laganicha ichkari uyga kirib ketdi, qilich ovozini eshitmaslik uchun yostiqqa mukka tushib qulog‘ini bekitib, yotib oldi. Ammo ikki mard o‘rtasida bo‘layotgan qilichbozlik quloqni bekitgan bilan ovozi eshitilmaydigan hazilakam emasdi. Katerinaning yurakbag‘ri pora-pora bo‘lib ketgandek edi. Qilich ovozidan a’zoyi-badani larzaga kelardi. «Toqatim yo‘q, qolmadisabrim, oq badanlaridan qizil qon tirqirab ketgandir. Suyukligim jon berayotgan bo‘lsa-yu, men munda yotsam!» – dedi-yu, rangi o‘chib, zo‘rg‘a nafas olib, narigi uyga kirdi.

Kazaklar bir-biriga bas kelolmay galma-gal olib, ikkovi ham mardona olishishmoqda. Katerinaning dadasi hamla qilsa u turib beradi, bu hamla qilsa u turib beradi. Shu zaylda xo'b olishishdi. Ikkovi ham g'azabga kelib, chunonam urishdi. Bir mahal qilichlari dastasidan sinib, uchib ketdi.

Katerina Xudoga shukr qilib turgan ediki, ikkovi tuffangchaga kirishishdi. Buni ko'rgan Katerina yana chinqirib yubordi.

Tuffangchalari chaqmog'ini rostladi, tepkisini ko'tardi.

Avval Danilo bek otdi, tegmadi. Dadasi nishon oldi... U keksaroq, yaxshi mo'ljallay olmaydi, ammo qo'li mahkam, titramaydi. Otdi...

Danilo bek gandiraklab ketdi. Choponining chap yengi qizil qonga bo'yaldi.

– Yo'q! O'zimni muncha arzon sotmayman. Chap qo'l emas, o'ng qo'l hisob. Devorda osig'liq turgan turk to'pponchasi bor, u meni hech darmonda qoldirgan emas. Qani, qadrdon oshnam, endi devordan tush! Do'stingga bir xizmat qil! – Danilo buni deb qo'lini to'pponchaga cho'zdi.

Katerinaning quti uchib, erining qo'liga mahkam yopishib, o'zini oyog'i tagiga tashlab:

– Begin! O'zim uchun tilamayman, o'lim bitta, eridan keyin umr ko'rgan xotin xotin emas, ammo o'g'lingizga boqing. Dadasi, o'g'lingizga qarang. Bechorani kim bag'riga bosadi? Kim uni erkalatadi? Qora otga minib, javlon urishni unga kim o'rgatadi, din uchun, ozodlik uchun jang qilishni, mard kazaklardek ichishni, o'ynashni kim o'rgatadi? O'g'lim, juvonmarg bo'lding, otang sendan bezor bo'libdi, sendan yuzini o'girishini ko'rdingmi! Endi bildim sizning kimligin-gizni, odam emas, vahshiy ekansiz! Bo'ribag'ir ekansiz, niyatizingiz buzuq, tilagingiz shum, o'zingiz badbaxtsiz. Yuragingizda jilla qursa zig'irdek rahm-shafqat bor, deb o'ylagan edim. Tanangiz toshdek qattiq bo'lsa ham

odamgarchilik hissi bor, deb yurardim. Ahmoq bo'lib qoldim. Sizga xush keladi bu. Baxti qaro o'g'lingizni badbaxt vahshiy lyaxlar o'tga tashlaganida, ular xanjari o'g'lingiz qonini sochganda, qaynab turgan munga tashlaganida bolangiz faryod ursa, sizning suyagingiz go'rda yotib o'ynasa kerak. Bildim sizni men! Go'ringizdan turib o'g'lingiz tashlagan o'tni qalpog'ingiz bilan yelpib, alangalatsangiz shunga suyunardingiz!

– Shoshma, Katerina! Beri kel, shirin-shakar o'g'limni bir o'pay! Bolam, sening bir tukingni ham hech kim qimirlatolmaydi. Yurtimizning sha'n-shavkati bo'lasan, boshingda baxmal qalpoq, qo'lingda qilich bilan kazaklar qoshida javlon urasan. Ota, qo'lingizni bering, oramizdag'i adovatni tashlaylik. Nima gunoh qilgan bo'sam uzr so'rayman, gunohimning bahridan o'ting. Nega qo'lingizni bermaysiz? – dedi Danilo qaynotasiga boqib.

U bo'ssa chehrasida na g'azab, na sulhdan hech asar ko'rsatmay, turgan joyida qadalib turardi.

Katerina otasini quchoqlab:

– Otajon, bu qadar bag'ritosh bo'l mang. Daniloning gunohidan o'ting, bundan buyon sizni aslo xafa qilmaydi! – dedi.

– Qizim, seni deb gunohidan o'tdim! – dedi-yu, qizini o'pdi, biroq ko'zları allanechuk charaqlab ketdi.

Katerina andak cho'chidi: otasining o'pishi ham, ko'zining yonishi ham unga g'alatiroq tuyildi. Danilo yarador qo'lini xontaxta ustiga qo'yib tang'irkан, hech gunohi bo'l magani holda o'tinch so'rab, nomardlik qilganiga pushaymon yeb, o'y o'ylab turgan edi, Katerina ham shu xontaxta yoniga kelib yonboshladi.

IV

Tong yorishdi, lekin kun xira, osmonning qovog'i soliq, dalalarga, o'rmonzorlarga, keng yoyilgan Dneprga yomg'ir maydalab yog'ardi. Boyvuchcha Katerina

uyqudan turdi, lekin xafaroq, ahvoli parishon, dili tangroq.

– Begin, jonim, ajab bir tush ko'rdim!

– Azizam Katerina, nima tush ko'rding?

– Juda g'alati tush ko'rdim, xuddi o'ngimda ko'rgandek; yasovulnikida ko'rgan badburush, xunuk, bedavo odam mening otam emish. Ammo sizdan o'tinchim shuki, tushga ishonmang, tushga har balo kiraveradi! Men uning oldida qaqshab turgan emishman. Uning har bir so'zi tomir-tomirimni qaqshatar emish. Uning menga aytgan so'zini eshitsangizmi...

– Tilloim Katerina, aytaver, nima dedi?

– Aytdiki: «Katerina, menga yaxshilab boq. Men yaxshiman! Odamlar meni yomon deb bekor aytadi. Men senga eringdan ko'ra yaqinroqman. Ko'zimga boq, qanday yaxshi!» Yonib turgan ko'zlarini olaytirib men-ga qaradi, qo'rqqanimdan chinqirib, uyg'onib ketdim.

– Tushning o'ngidan kelish hollari ko'p uchraydi. Mayli, lekin tog' orti notinchroqligini bilasanmi? Lyaxlar yana bosh ko'tarayotganga o'xshaydi. Gorbets hushyor bo'ssin, deb aytib yuboribdi. Biroq bekor tashvish qilibdi, o'zim ham g'aflatda emasman. Yigit-larim bu kecha o'n ikki joyga shox bosib, g'ov to'sdi. Pospolitlarni¹ qo'rg'oshin g'o'laga to'ydiramiz, polyaklar bo'lsa qamchinimiz zarbidan o'ynashar.

– Bundan otamning xabari bormi?

– Otang menga ortiqcha dardisar bo'ldi! Haliga-cha uning nimaligini bilolmayman. Musofirchilikda yurib ko'p gunoh ishlar qilganga o'xshaydi, yo'qsa kelganiga bir oycha bo'lib qoldi, nega odam bo'lib tuzukkina bir xursandchilik qilmaydi, chehrasi sira ochilmaydi! Axir sharbatni ham ichmadi-da, hoy Katerina, eshitdingmi, Brestdagi juhudlardan zo'rg'a yalinib-yolvorib olgan sharbatimni ichmadi-ya. – Danilo qichqirib: – Hoy yigit, yerto'laga kirib, juhud-

¹ Pospolitaya rech – Polsha–Litva qirolligi.

dan olib kelgan sharbatni keltir! Hatto chag'irni ham ichmaydi, qanday balo ekan! Katerina, nazarimda otang Xudoga ham ishonmasa kerak, nima deysan bu gapimga?

– Xudo urdi, qanday gaplarni gapisiz-a?

Danilo yigit qolidan sopol kosachani olarkan:

– Hayronman, xotin, hatto palid katoliklar ham chag'irni yaxshi ko'radi. Yolg'iz turklar uni ichmaydi. Hoy, bola, yerto'lada sharbatdan xo'b shimirdingmi?

– Xo'jayin, tatib ko'rdim xolos!

– Bekor aytibsan, itvachcha! Mo'ylovingga pashshalarning yopishishini qara! Yarim chelakni ichdim, deb ko'zlarining aytib turibdi. Bu kazaklar xo'b g'alati xalq-da! Oshnasidan hech narsasini ayamaydi va lekin ichkiligi bo'lsa o'zidan ortmaydi. Xotin, men anchadan beri mast bo'lganim yo'qmi, nima deysan?

– Ana xolos, anchadan beri deysiz-a, o'tgan...

– Qo'rhma, qo'rhma, bir kosadan ortiq ichmayman!

Shu paytda eshikdan kirmoqchi bo'lib engashgan qaynotasiga ko'zi tushib, kesatiq bilan:

– Ana, turk so'fisi ham keldi! – deb qo'ydi.

Otasi boshidan qalpog'ini olib, qimmatbahो toza toshlar qadalgan qilichi osig'liq belbog'ini rostlarkan:

– Qizim, nima bo'ldi, kun ko'tarilib qoldi-yu, haliga-cha ovqating tayyor bolmabdi? – dedi.

– Otajon, ovqat tayyor. Hozir dasturxon yozamiz! – Katerina yog'och idish-tovoqlarni artib turgan kampir enagasiga qarab: – xurmadagi bulamug'ni olib keling! – deb buyurdi. Keyin yana: – to'xtang, o'zim olaman, siz yigitlarni chaqiring! – dedi.

Hammalari gir aylanib o'tirishdi. To'rdagi butlar turgan burchak ro'parasiga otasi o'tirdi, uning chap tomonida Danilo, o'ng tomonida Katerina bilan turli-tuman ko'k-sariq to'n kiygan o'n yigit qator o'tirishdi.

Otasi ovqatdan ozroq yegach, qoshiqni qo'yib:

– Bulamiqni xush ko'rmayman, hech mazasi yo'q! – dedi.

Danilo ko'nglida: «Aytmasang ham bilaman, senga juhudlarning uvrasi yaxshi», – deb qo'ydi. Keyin ovozini chiqarib:

– Ota, nega bulamiqni bemaza deysiz? Osh yomon bo'libdimi? Mening Katerinam bulamiqni shunday mazali qiladiki, bunday mazali ovqatni getmanlar ham ahyon-ahyonda yeydi. O'zimizning nasroniycha ovqatimizdan hazar qilmang! Bu taomni axir aziz avliyolar suygan.

Otasi churq etmadi, Danilo ham jim bo'ldi.

Keyin karam bilan olxo'ri aralash qovurilgan mol go'shti keltirildi. Katerinaning otasi karamni qoshiqlab olib:

– Mol go'shtini jinim suymaydi! – dedi

– Nega mol go'shtini yoqtirmaysiz? – so'radi Danilo.

Qaynota javob berish o'rniga yana battarroq qovog'ini solib oldi.

Katerinaning chol otasi qora bug'doy bo'g'irsog'ini sutga qo'shib yedi-yu, boshqa narsa yemadi, keyin chog'ir ham ichmadi. Ammo uning o'rniga qo'ynidagi tunuka idishdan qora suvga o'xshagan narsa quyib ichib oldi.

Danilo ovqatdan keyin xo'b yaxshi uxbab, kechga yaqin turdi. Uyqudan turgach, qo'l ostidagi askarlarga noma yozdi. Boyvuchcha xotini bo'lsa so'rida o'tirib oyog'i bilan belanchagini tebratardi. Danilo bekning chap ko'zi nomada bo'lsa, o'ng ko'zi darchada edi. Darchadan qaraganda uzoqdagi tog'-toshlar va Dnepr daryosi ko'rinish turardi. Dneprning u beti yashil chakalakzor, osmonda bulutlar tarqalib, havo ochildi, lekin Danilo na osmonni, na yashil chakalakzorni tomosha qilardi. Uning ko'zi turtib chiqib turgan joydagi ko'hna qal'ada edi. Uning nazarida qal'aning kichkina darchasi ochilib, chiroq ko'ringanday bo'ldi-yu, lekin tiq etgan tovush yo'q. Hamma yoq jimjit. Xayolida ko'rindi shekilli. Daryoning guvullashidan boshqa bo'lak ovoz eshitilmaydi, uch tomondan bir-birini quvalashib kel-

gan to'lqinning sohilga urilgan ovozi eshitiladi, xolos. Daryo yuvosh, sho'rish yo'q, keksalardek javraydi, qaqshaydi-yu, lekin tug'yoni yo'q. Daryo hammadan beozor. Atrofidagilarning bari unga begona – o'zga. Tog'lar, daraxtzorlar, o'lanzor, chamanzorlar hammasi unga yov. Ular ustidan arz qilgani Qora dengizga chopadi.

Keng daryo ustida bir qayiqning qorasi ko'rindi, tog' ustidagi qal'ada ham yana bir narsa yiltiraganday boldi. Danilo sekingina hushtak chalgan edi, sodiq yigitlardan biri yugurib chiqdi.

– Stetsko, tez bo'l, o'tkir qiliching bilan miltig'ingni ol, ketimga tush!

Xotini Katerina:

– Ketyabsizmi? – deb so'radi.

– Ha, xotin, ketyabman, hamma yoqni bir qarab chiqay, joyidamikin?

– Yolg'iz qolgani qo'rqaman. Uyqu bosib ketyabdi. Agar yana tushimga kirsa nima qilaman? Tushimi yo o'ngimmi o'zim ham yaxshi bilmayman, xuddi o'ngimdagidek.

– Kampir yoningda qoladi-ku; dahlizda, tashqari hovlida yigitlar yotishibdi!

– Kampir allaqachon uqlab qoldi, yigitlarga ishongim kelmaydi. Begim, meni uyga qamab, ustimdan quflab, kalitni o'zingiz bilan olib keting. Shunda ko'nglim tinchroq bo'lib qo'rqlayman. Yigitlar eshik tagiga kelib yotishsin!

Danilo miltig'inining changini artib, piltaxonasiga dori solarkan:

– Mayli, shunday qila qol, – dedi.

Sadoqatli yigit Stetsko shaylanib, tayyor bo'lib turgan edi. Danilo barra bo'rkini kiyib oldi, derazani berkitdi. Eshikni tambalab quflagach, uqlab yotgan yigitlar orasidan bildirmaygina o'tib, asta tashqariga chiqdi.

Osmonda bulut qolmadi. Daryo tomonidan mayin shabada esar, uzoqdagi baliqchi qushlarning chiyil-

lagan ovozi bo'lmasa, atrof chuqur sukunatga botgan edi. Shu sukunat ichida bir tarafdan shitirlagan ovoz eshitildi... Burulbosh sodiq yo'ldoshi bilan birga shox to'silgan g'ov ortidagi tikan chakalak panasiga yashirindilar. Ikki yonida ikki to'pponcha, belida bir qilich bilan qizil choponli kimsa tog'dan tushaverdi. Danilo chakalak orasidan mo'ralab qaragach:

– Qaynotam-ku! – dedi. – Stetsko, shu mahalda qayerga ketayotgan ekan, nima qilar ekan? Sen hushyor bo'l, qarab tur-chi, qayoqqa borar ekan, – dedi.

Qizil to'nlik odam tog'dan daryo yoqasiga tushdi, keyin tog' tepasidagi qal'a tomonga burilib ketdi.

– Ha, bildim qayoqqa ketayotganini, – deb qo'ydi Danilo. – Stetsko, sen nima deysan? Jodugar mokoniga ketyabdimi?

– To'g'ri, Danilo bek. Xuddi o'sha yerga, boshqa joyga emas. Agar u yerga kirmagan bolsa narigi tomonaga o'tganda ko'rinaridi, qal'aga yaqinlashganda g'oyib bo'ldi.

– Shoshmay tur, bu yerdan chiqib olaylik, izidan poylab boramiz, bir sir borga o'xshaydi. Xotin, otang tuban odam, degan edim-ku, qilgan ishining hammasi teskari, kofirning ishi demabmidim.

Danilo sodiq yigit bilan allaqachon daryo yoqasiga yetib keldi. Qal'a atrofidagi chakalakzor ularni ko'zdan g'oyib qildi! Yuqoridagi darcha sekin yorishdi. Pastda turgan ikki yigit yuqoriga qanday chiqish mulohazasini qilardi. Qal'aning na darvozasi, na eshigi ko'rinaldi. Hovli tomondan yo'l bolsa kerak, lekin hovliga kirish iloji bormi? Zanjirlarning ovozi, itlarning yugurishi uzoqdan eshitilib turibdi.

Danilo darcha oldidagi chinorga ko'zi tushib:

– Haligacha o'y o'ylab turganimni qara. Sen azamat shu yerda tur, men chinor tepasiga chiqib qaray, oynadan ko'rsa bo'ladi, – dedi.

U belidagi qilichining ovozi chiqmasin deb, belbog'ini yechib qilichni tashladi. Keyin shoxma-shox sakrab,

daraxt tepasiga chiqdi. Darchadan hali ham yorug' tushib turgandi. Shundoqqina darcha oldidagi shoxga o'tirib, bir qo'l bilan butoqni ushlab olib darchadan mo'ralab qarasa, ichkarida chiroq yo'g'-u, lekin yorug'. Uyning devorlariga g'alati xatlar yozilgan. Devorda har xil asboblar osig'liq, lekin hammasi g'alati, na turklarda, na qrimlarda, na lyaxlarda va boshqa nasroniy-larda, na dong'i ketgan shved xalqida bu xil yarog'-asla-ha bor. Shiftda ko'rshapalaklar uchib yuribdi, devor va eshiklarga ularning soyasi tushardi. Bir mahal hech bir ovoz chiqarmasdan, g'irchillamasdan eshik ochildi.

Qizil choponlik kimsa to'ppa-to'g'ri oq dasturxon yozilgan xontaxta yoniga kelib to'xtadi. Danilo: – «Qaynotam, qaynotam», – deb sal pastroq tushib, o'zini butoq panasiga oldi.

Lekin kelgan qizil choponlikning fursati yo'q, darchadan birov qarayabdimi-yo'qmi parvo qilmaydi. Xafa bo'lib keldi, achchig'i chiqqan, noxush. Stol ustiga yozilgan dasturxonni yig'ishi bilan uyni ko'kintir yorug' bosdi. Ammo boyagi zarhal chiroq yorug'i bu ko'kintir nur ichida ko'm-ko'k dengiz suviga g'arq bo'lib, marmardek toblanib jilvalanardi. Xontaxta oldida turgan odam bir xumchani stolga qo'yib, allaqanday giyohlar dan xumcha ichiga tashlayverdi.

Danilo tikilib qarab turgandi, ichkarida turgan odamning qizil to'ni g'oyib bo'lib, turklar kiyadigan keng shalvar paydo bo'ldi, belida to'pponchalari, boshida ruscha ham emas, polyakcha ham, allaqanday g'alati xat yozilgan telpak paydo bo'ldi. Qarab tursa bir mahal yuzi ham o'zgarib, burni osilib, lablari do'rdayib osildi, og'zi birpasda qulog'iga yetib qoldi, tishlari og'zidan chiqib ikki tomonga qarab o'sib ketdi, xullas yasovulning to'yida ko'ringan xunuksurat odamga aylandi. Burilbosh o'z ichida, Katerina, tushing to'g'ri ekan, deb qo'ydi.

Sehrgar stol atrofida yura boshladi, devordagi alovatlar tez-tez o'zgarib, ko'rshapalaklar ham jadal olib ucha boshladi. Ko'kintir nur xira tortib, keyin butun-

lay o'chdi. Nur o'chgach, uyning ichi mayin qizg'ish bo'lib yorishdi. Go'yo chiroyli bu nur qo'ng'iroqdek ovoz chiqarib, uyning har tarafiga yoyilgandek bo'ldi-yu, birpasda o'chib uyni qorong'i bosdi. Hamma yoqni jimjilik bosgan sokin bir kechada ohista-ohista esgan shabada ko'zgudek suvning yuzida gir-gir aylanib, kumushdek tol barglarini suvga egayotgandek ajab bir xush ovoz eshitilardi, xolos. Daniloning nazarida ichkarida oy yorishib, yulduzlar o'ynab yurgandek, ko'mko'k osmon jimirlashib, kechaning salqin shabadasi uning yuziga tekkandek bo'ldi. So'ngra xayolida, ichkarida ko'ringan bu manzara osmon emas, balki uning o'z oromgohiga o'xshaydi, tushimmi-o'ngimmi deb mo'ylovini tortib ko'rdi. Devorda uning tatar va turk qilichlari osig'liq, tokchalarda idish-tovoqlari terig'liq, xontaxta ustida non bilan tuz, o'rtada belanchak osig'liq... Lekin uydagi butlari ornida vahimali suratlar, so'rida... Shu onda tuman yog'ilib, hammani ko'zdan g'oyib qildi, uyni qorong'ilik bosdi va uy yana yorishdi. Qip-qizil bo'lib yorishdi, sehrgar boshida sal-lasi bilan tippa-tik turipti. Ohista chiqayotgan ovozlar endi balandroq ko'tarildi. Mayin qizil shu'la ravshanlandi. Uyning o'rtasida bulutga o'xshagan oq bir narsa hilpillab paydo bo'ldi. Daniloning nazarida hilpillab, oqarib turgan bu narsa bulut emas, xotin kishiga o'xshaydi. Biroq xotin bolsa uning vujudi nimadan, havodanmi? Nega oyog'i yerga tegmaydi? Hech narsaga suyanmay muallaq turibdi. Butun badani shu'la urib yorishib turibdi, devorga bitilgan alomatlar jimirlashib o'ynashadi. Xotin yop-yorug' boshini sekin bu tomon-ga qaratdi. Zumraddek ko'zlarida zaif bir nur, jingalak-jingalak bo'lib yelkasiga tushgan kokillari g'ira-shira tumanga o'xshaydi. Lablarida qon yo'q, ertalab endi yorishib kelayotgan oftob nuridek so'niq, nimjon qoshlarining qorasi ham so'niq... Oh! Katerina-ku! Shu onda Daniloning a'zoyi-badanida mador qolmagandek bo'ldi, gapiray desa lablari qimirlaydi, ovozi chiqmaydi.

Jodugar qimirlamasdan joyida tek turibdi.

– Qayerda eding? – deb so'ragan edi, oldida turgan xotin titrab ketdi.

– Hoy sen! Nega meni chaqirib keltirding? – dedi alam bilan. – Qanday shod edim. Tug'ilib, o'n besh yoshimgacha yayrab yurgan joylarda edim. Qanday go'zal joylar! Bolalik chog'lariimda yurgan, o'ynagan, kulgan joylarim qanday go'zal ko'kalamzor, chaman-zor edi. Chamandagi gullar hali ham o'sha, uyimiz, chor bog'imiz qanday bo'lsa shunday turibdi! Mehribon onam og'ushiga tortib qanday quchoqlab yotar edi. Ko'zlarida qanday mehr nuri bor edi! Erkalatib, silab-siypab lablarimdan, yuzimdan o'pardi, malla sochimni tarardi... Ota! – dedi-yu, nursiz ko'zlarini unga tikdi. – Ota! Nega onamni so'ydingiz?

Jodugar barmog'ini nayzalab, po'pisa qildi:

– Bu gapni men sendan so'raganmidim? – dokadek hilpillab turgan go'zalning badaniga larza tushdi. – Shu paytda egang qayerda?

– Egam Katerina hozir uyquda, men fursatni g'animat bilib, tanasidan chiqib parvoz qilib ketdim. Anchadan beri onamni ko'rgim kelardi. Birdan o'n besh yashar bola bo'lib qoldim, qushdek yengil tortdim. Nega meni chorlading?

Jodugar eshitilar-eshitilmas qilib ohistagina:

– Kecha aytgan so'zlarim yodingdami? – deb so'radi.
– Yodimda, yodimda. Lekin u gaplaringni unutish uchun nima desang berardim. Bechora Katerina! Ruhi bilgan narsalarning ko'pini u bilmaydi.

Danilo ko'nglida, u Katerinaning ruhi ekan, deb qo'ydi va lekin qimirlashga hali ham majoli yo'q.

– Ota, tavba qiling! Qo'lingizda jon bergenlarning har biri go'rida tik tursa qo'rqmaysizmi?

Jodugar dahshat bilan:

– Sen yana eski gaplarni boshlayabsanmi? Men aytganimni qildiraman, murodimga yetmay qo'ymayman. Katerinani o'zimga moyil qilmaguncha qo'ymayman!

Arvoх alamli bir ovoz bilan ingrab:

– Siz ota emas, gazandasiz! Yo'q, aytganingiz bo'lmaydi, murodingizga yetmaysiz, jodugarlik bilan arvoхni chaqirishni, uni qiyashni bilibsiz, lekin ruh Xudodan boshqa hech kimga itoat qilmaydi. Katerina ning tanasida men bor ekanman, u xudobezlarning yomon yo'liga kirmaydi. Ota, qiyomat yaqin, agar siz otam bo'lsangiz ham vafodor erimga xiyonat qilishga meni majbur etolmasdingiz. Erimni sevmasam, vafosi bo'lmasa ham baribir haqqiga xiyonat qilmas edim, chunki ahd-paymonini buzganlardan, vafosizlardan Xudo bezor.

Shu paytda go'zal xotin nursiz ko'zlarini Danilo qarab turgan darcha tomonga tikdi, qaradi-yu jim, qimirlamay qoldi...

Jodugar:

– Qayoqqa qarayabsan? Kimni ko'rding, u yerda? – dedi qichqirib. Katerinaning arvoхi titrab ketdi. Ammo Danilo allaqachon pastga tushib vafodor hamrohi Stetsko bilan qir tomonga jo'nab qoldi. Danilo yo'lda ketarkan, botir yuragiga allaqanday vahima tushib, ko'nglida «dahshat, dahshat!» der edi. Birozdan keyin uyiga yetib keldi. Hovlisidan o'tib ichkari kirdi. Hovli da posbonlik qilib uxlamasdan tamaki chekib o'tirgan bir yigitdan boshqa hamma qattik uyquda yotardi.

Osmon to'la charaqlagan yulduz.

V

Uyg'onib ketgan Katerina gul tikkan yengining uchi bilan ko'zlarini ishqalarkan, tepasida turgan erining boshidan oyog'igacha tikilib:

– Xo'b yaxshi bo'ldi uyg'otganingiz! Vahimali yomon bir tush ko'rdim, nafasim tiqilib, bo'g'ilib ketdim. Voyey!.. Jonim chiqquday bo'ldi, – dedi.

– Nima tush ko'rding, haligi emasmi? – Burulbosh boy a ko'rganlarini xotiniga bir-bir so'zlab berdi.

Katerina hayron bo'lib:

– Begim, siz buni qanday bildingiz? – dedi. – Le-kin siz aytgan gaplarning ko'pini men bilmayman. Otam onamni o'ldirganini ko'rganim yo'q. O'liklarni ham ko'rganim yo'q. Yo'q, begin siz andak boshqa-cha so'zlayabsiz. Voyey! Otam qursin, qanday qo'rqinchli!

– Men aytganlarning ko'pini tushingda ko'rma-ganingga ajablanma, ruhing bilgan narsalarning o'ndan birini ham bilmaysan. Otang dajjol, jodugar ekanini bilasanmi? Bultur lyaxlar bilan birga bo'lib qrimliklar ustiga otlangan vaqtimda (men u vaqtda bu kofir xalqqa yordamlashar edim) ibodatxona rahna-mosi aytgan ediki, xotin, bu odam valiylardan edi, shu kishi dajjol, har kimning arvohini chaqira oladi, degan edi. Odam uxlaganda ruhi tanasidan chiqib, fa-rishtalar bilan birga arshi a'loda sayr qilib yurar emish. Avval dafa' ko'rishdayoq otangning basharasi menga yoqmagan edi, agar uning bunaqaligini bilsam seni ol-magan bo'lar edim; shayton jinsi bilan urug' bo'lib gu-nohga qolmas edim, seni tashlab ketardim.

Katerina yuzini ikki qo'li bilan bekitib:

– Begim, mening gunohim nima? Suyukligim, ayt-ting-chi, men xiyonat qildimmi sizga? Aybim nimaki muncha g'azab qilasiz? Xizmatingizni bajo keltirma-dimmi? Aysh-ishrat majlisidan sarxush kelganingizda ko'nglingizni og'ritadigan bir so'z aytdimmi? Yoki qora qosh o'g'il tug'ib bermadimmi?.. – deb ho'ngrab yig'ladi.

– Katerina, yig'lama, seni endi bildim, aslo tashlab ketmayman, hamma gunoh otangda.

– Otang demang uni menga! Endi u menga ota emas, bezorman undan, unga o'xshagan otadan kech-dim! Xudobezor iblis! Suvga oqsa ham, olsa ham qo'limni uzatmaganim bo'lsin. Bexosiyat giyohdan ta-nasi qurib qovjirasa ham bir ho'plam suv bermayman. Mening otam ham, onam ham, umr yo'ldoshim ham sизsиз!

Jodugar Danilo bekning chuqur yerto'lasida qo'l-oyog'i zanjirda yotibdi. Ustdidan bir emas, uch qulf solingan. Daryo yoqasidagi tog' tepasidagi shaytonxona makoni o't ichida yonmoqda. Qondek qip-qizil alangalar ko'hna bu uyning devorlari atrofida gir-gir aylanmoqda. Jodugarning zindonga tushishiga bois uning iblisligi ham, Xudobezor ishlari ham emas. Bu ishlarning jazosini Xudoning o'zi berar. Rus xalqiga xiyonat qilib, uning dushmanlari bilan birlashib, Ukraina xalqini katoliklarga sotmoqchi, cherkovlari-mizga o't qo'ymoqchi bo'lganidan kishanga tushdi. Jodugar xafa, ko'ziga butun dunyo qorong'i, boshida tun qorong'isidek qora xayollar aylanadi. Atigi bir kunlik umri qoldi, ertaga yorug' dunyo bilan vidolashadi, jazosini ko'radi. Ertaga ko'radigan jazosi yengil emas, agar boshqa battarroq jazo bermasalar, tiriklayin qaynoq suvga solib pishirsalar yoki terisini shilsalar kerak. Jodugarning baxtiqaro boshi solig'liq. Olim soati yaqinlashayotganini bilib, tavba qilayotgandir, biroq Xudo qoshida qilgan gunohi kechiriladigan gunoh emas. Yerto'laning yuqorisida temir panjara qoqilgan kichkina tuynuk bor. Qo'l-oyog'idagi zanjirlarini chaqirchuqur qilib, qizim o'tib qolmasmikan degan umidda tuynukka kelib qaradi. Qizi rahmdil, ko'ngli yumshoq, kek saqlaydigan emas, otasiga rahmi kelsa ajabmas... Lekin tuynuk oldidan o'tgan hech kim ko'rinnadi. Quyi qarab ketgan yo'ldan hech kim yurmaydi; bu yo'ldan yana pastroq tushilsa daryo bo'yiga chiqiladi. Daryoning hech kim bilan parvosi yo'q, daryo gurillab mavj uradi, uning tinmasdan bir maromda gurillashi bandining jonini yana siqadi.

Yo'lda ketayotgan birovni ko'rib qoldi, bandi uni ko'rib, oh tortdi. Yana jimjit, hech kim yo'q. Yashil beshmati shamoldan hilpillab, boshida kimxob durraча bilan yuqoridan yana birov tushib kelaverdi... Ke-

layotgan Katerina. Zindonda yotgan bandi uni ko'rib, tuynukka yastanib yotib oldi. Keldi, juda yaqin kelib qoldi...

– Katerina! Qizim, rahming kelsin, rahm-shafqat qil!..

Undan sado chiqmadi, qulq solgisi ham kelmadi, qamoqxonaga qayrilib ham qaramasdan o'tib ketdi. Butun jahon ko'ziga zindon ko'rindi. Daryoning shovullagan ovozi ham mungli. Yuraklarda qayg'u ila hasrat. Bu qayg'u, bu hasratni jodugar biladimi?

Kun og'ib, kech kirdi. Oftob allaqachon botdi, shom bo'ldi. Salqin tushdi, qayerdadir ho'kiz ma'radi. Allaqayerlardan qo'shiq ovozi eshitildi. Ishdan qaytib kelayotganlar bo'lsa kerak. Daryoda bir qayiqning qorasasi ko'rindi... Bandi bilan kimning nima ishi bor. Osmonda kumush o'roqday bo'lib oy chiqdi. Ro'paradan ham bir odam kelaverdi, qorong'ida uning kimligini bilib bo'lmaydi. Hali o'tib ketgan Katerina qaytib kel-yabdi shekilli.

– Qizim! Xudo haqi, rahm qil, yirtqich bo'rilar ham o'z onasini o'dirmaydi, badbaxt otangga hech bo'lmasa bir boq. –

Qulq solmasdan o'tib ketdi. – Qizim, bechora onang hurmati!.. – Katerina to'xtadi. – Beri kel, so'nggi so'zimni tingla!

– Xudodan qaytgan noinsof, nega meni chaqirdingiz? Qizim demang meni! Ota-bolalik o'rtamizda qolmadi... Bechora onamni o'rtaga solib mendan nima tilaysiz?

– Katerina! Paymonam to'ldi, ering meni nima qilmoqchi bo'lganini bilaman. Baytal dumiga bog'lab sudratmoqchi yoki bundan ham battarroq bir jazoga solmoqchi...

– Gunohlaringizga baravar keladigan jazo olamda bormi? Jazoingizni ko'ring, hech kimsa sizni yo'qlamas.

– Qizim! Men bu jazodan qo'rqmayman, meni vahimaga solgan u dunyoning azobi... Qizim, sen pok,

ruhing Xudoning makonida sayr qilgusidir. Lekin Xudo urgan otangning joni do'zax o'tida kuyar, bu o't sira o'chmas, borgan sari shiddatlanar, bu o'tga qatra suv uruvchi bo'lmas, birdan shamol kelib sovutmas...

Katerina yuzini o'girib:

– Bu azobdan sizni qutqarish qo'llimdan kelmaydi, – dedi.

– Katerina, to'xta, bir so'z aytay. Meni emas, jonimni qutqarish qo'lingdan keladi. Sen bilmaysan, Tangring dargohi keng, marhamati ulug'. Avliyolardan Pavl qissasini eshitganmisan, shuncha gunohkor bo'lsa ham tavba qilib, oxirida valiylar qatoriga kirdi.

– Joningizni azobdan qutqarish uchun mening qo'llimdan nima keladi! Buning tadbiri mendek zaifa xotinlar ishimi? – dedi Katerina.

– Agar men bu bandilikdan qutulsam, barcha yomonligimni tashlardim. Tavba qilib g'orlarda makon qilardim. Jun qop qiyib kecha-kunduz Xudoga yig'lab, umrimni toat-ibodat bilan o'tkazardim. Et u yon tursin, baliqni ham og'zimga olmasdim, tagimga to'shak solmasdim, toat-ibodatdan boshqa bilan ishim bo'lmasdi. Xudoning rahmi kelib gunohimning loaqlar yuzdan birini kechmasa o'zimni tiriklayin ko'mardim yoki devor ichiga kirib tosh qalardim, yemoq-ichmoqni tark qilib jon berardim, bor-yo'q dunyomni faqirlarga ulashardim, qirq kecha-yu qirq kunduz haqqimga duo qilardilar.

Katerina o'ylanib qoldi:

– Eshikni ochganim bilan zanjiringni uzolmayman, – dedi.

– Zanjirdan qo'rqlayman. Sen mening qo'l-oyog'im kishanda deysanmi. Yo'q, men ular ko'zini bog'ladim, qo'lim o'rniga quruq yog'och uzattdim. Mana boq, qo'lim zanjirda emas, – deb o'taroqqa borib turdi. – Men bu devorlarni ham pisand qilmasdim, teshib chiqib ketardim, lekin bu devorlarning qandayligini ering ham bilmaydi, bu hujrani bir kimyogar avliyo qurgan. Avliyo qulflab

ketgan qulfning kaliti topilmaguncha bundagi bandini hech kim qutqarib ketolmaydi. Bu yerdan qutulib chiqsam, men ham o'zimga shunday bir tilsim g'or qilay.

Katerina eshik oldiga kelib:

– Xo'p, men sizni chiqarib yuboray, lekin aldasan-giz nima qilaman? Tavba qilmay yana iblisga qo'shilib ketsangiz men nima qilaman? – dedi.

– Yo'q, Katerina, dunyoda bir necha kunlik umrim qoldi. Oldirmasalar ham ajalim yaqin. O'zimni o'zim do'zax azobiga solaman, deb o'ylaysanmi?

Qulf ochildi.

Jodugar Katerinani o'pib xayrashdi:

– Xush qol, seni Xudo o'z panohida saqlasin, bolam, – deb ketdi.

Katerina:

– Misli yo'q gunohkor, menga yaqin kelmang, tezroq keting!.. – deguncha ham bo'lmay jodugar allaqachon g'oyib bo'ldi.

Katerina qilgan ishidan o'zi qo'rqib, vahima bilan devorlarga alanglab:

– Chiqarib yubordim, erimga endi nima deb javob beraman? Rasvo bo'ldim. Tiriklayin go'rga kirishdan boshqa ilojim qolmadi! – dedi-yu, faryod urib yig'lagancha bandi o'tirgan to'nkaza yiqilguday bo'ldi. Keyin ohistagina: – Lekin uning imonini qutqarib savob ish qildim. Ammo erimga nima deyman... Umrinda endi birinchi marta uni aldadim. Qanday qilib unga yolg'on so'zlayman, qanday azob, qanday uqubat. Biror kelayotganga o'xshaydi! Erim! – dedi-yu, toqati qolmay hushidan ketib, yiqildi.

VII

Katerina ko'zini ochib, oldida turgan kampir enaganini ko'rdi.

– Menman, jonim qizim, men! Dilporam, menman! – derdi kampir.

Kampir uning boshiga engashib, shivirlab bir narsalar o'qir va qurishgan qo'llari bilan uning yuziga sovuq suv separdi.

Katerina boshini ko'tarib, u yon-bu yon qaragach:

– Qayerda turibman? Bu oqqan Dnepr-ku, orqamga qarasam tog'... Qayerga adashtirib keltirdingiz meni!

– Seni men adashtirganim yo'q, adashgan joyingdan topib keldim. Rutubatga to'lgan yerto'ladan ko'tarib chiqdim. Ering Danilodan baloga qolmagan, deb ustingdan qulflab qo'ydim.

Katerina beliga qarab:

– Kalit qani, yo'q-ku, – dedi.

– Ering jodugarni ko'rish uchun kalitni belingdan yechib oldi, bolam, – dedi kampir.

– Ko'rish uchun deysizmi?.. Endi nima qilaman? Rasvo bo'ldim! – deb qichqirib yubordi Katerina.

– Xudo o'z panohida saqlasin, bolam! Tovushingni chiqarmasang bo'ldi, jigarim, hech kim bilmaydi!

Danilo xotini tepasiga kelib:

– Mal'un iblis qochibdi! Eshitdingmi, Katerina, qochibdi! – dedi. Ko'zlarida o't yonar, titrashidan belidagi qilichi sharaqlar edi.

Katerinaning joni qolmadi. Titrab-qaqshab:

– Jonim, birov chiqarib yuboribdimi? – dedi zo'rg'a.

– Rost aytasan, birov chiqarib yuboribdi, lekin chiqarib yuborgan shayton. Buni qara, jodugarning qo'llari o'rniga zanjirga yog'och o'ralib turibdi Xudoning ishini qaraginki, shaytonni kazak qo'lidan xalos qilibdi! Agar bu narsa yigitlarimdan birontasining xayoliga kelsa, va men bilsam... bilmadim men qanday jazo berardim unga!

– Agar qo'yib yuborgan men bo'sam-chi?.. – Beixtiyor aytib yubordi-yu, ammo bu gapdan o'zi qo'rqib jim bo'lib qoldi.

– Agar sen shunday o'yga borgan bo'sang, sendek xotindan kechardim, qopga tiqib daryo qa'riga tashlardim...

Katerinaning nafasi ichiga tushib ketdi, nazarida boshidagi sochlari duv to'kilgandek bo'ldi.

VIII

Chegaraga yaqin yo'l ustidagi karvonsaroyda lyaxlar yig'ilishib, ikki kundan beri aysh-ishrat qilib yotishibdi. Nomardlar ozmuncha emas, biron talonga otlangan bo'salar kerak, miltiqlar ham bor, poshnalari-da ching'aldoqlar, hammasi shop-u shaloplik. Ulug'lari kayf-safo qurib, qilgan ishlaridan maqtanadi. Diniinizni mazax qiladi, Ukraina xalqini bizning malayimiz, xizmatkorimiz deydi. Ag'anashib yotgan joylarida mo'ylovlarini burab, chiranihadi. Ksendzlar ham bor. Ksendzlar ham o'zlariga munosib, aftiga qarasang nasroniy popiga sira o'xshamaydi, hammasi aralash-quralash birga ichishib aysh-ishrat qilaverishadi, bemaza, uyatli gaplarni aytaverishadi. Boshqa fuqarolari ham ulug'laridan qolishmaydi. Yirtiq choponlarining yengini orqaga tashlab, kerilib, o'z xayollarida juda yarashgandek savlat qilib yuradi. Qartabozlik qilib, bir-birining burniga qarta bilan chertishadi. Begona xotinlardan bir qanchasini ergashtirib kelibdilar, shovqin-suron, urush, janjal!.. Quturishib sho'xlik qilishadi, juhudni soqsolidan ushlab peshonasiga but chizishadi. Paxtavonlik qilib, miltiq otib xotinlarni qo'rqitishadi, nopok poplari bilan qo'l ushlashib o'yin tushishadi. Rus tuprog'iga kelgan tatarlar ham bunday nojoyaliklarni qilmagan edi. Rus elining gunohi ko'p shekilli, bunday haqoratlarga qoldi! To's-to'polon ichida Danilo bekning u tomondagi qo'rg'oni, chiroyli xotini to'g'risida ham gap chiqib qolardi... Bu nomard o'g'rilar bu yerda yaxshilikka to'plangan emas!

IX

Danilo bek oq uyida tirsagiga tayanib xayol surib kursisida o'tirardi. Boyvuchchasi Katerina so'rida qo'shiq kuylardi.

– Xotin, bilmadim, negadir xafa bo'lib ketyabman!
– dedi Danilo. – Boshim og'rib, yuragim siqilyabdi.
Diltang bo'lib diqqatim oshib ketyabdi! Ajalim yaqinlashib, shu orada yurganga o'xshaydi.

Katerina: «E! Shamchirog'im, umr yo'ldoshim bag'-rimga keling, yelkamga boshingizni qo'ying! Nega bunday qora xayollarga cho'masiz», – demoqchi bo'ldi-ku, lekin botinolmadi. Gunohkor bo'la turib eriga erkilik qilgani o'zi uyalib xafa bo'ldi.

– Xotin, so'zimga qulqoq sol. Men o'lsam o'g'limga tashlama. Tashlasang Xudoning qahriga uchraysan. Go'rda yotgan suyaklarim chirimay seni qarg'ab yotar. Arvohim norozi bo'lar.

– Begim, bu gaplaringiz nimasi, xotinlarni mush-tipar ojiza, deb mensimagan sizmasmidingiz, endi o'zingiz ojizalarning gapini qilasiz. Siz hali dunyoda ko'p yashamog'ingiz kerak.

– Yo'q, Katerina, o'limim yaqinligini bilib turibman. Yuragim siqilib, dunyo ko'zimga qorong'i. Dorilomon zamonlar o'tdi, xo'b yaxshi zamonlar edi, endi u vaqtlar qaytmas. Qo'shinimizning sha'n-shavkati bo'lgan keksamiz Konashevich¹ tirik edi. U zamondagi sarbozlarimiz hozir ko'z o'ngimda saf-saf o'tayotir. U zamonlar oltin zamon edi. Getmanimiz qora otga minib qo'lida cho'qmor bilan turar, botir-u shotirlari atrofida hozir turardi. Zaporojyelik botirlar qip-qizil alvon kiyimlarga g'arq bo'lib turardi. Getman so'z boshlaganda hamma jim bo'lib tinardi. Burungining ishlari, Secha zamonni yodiga tushib, u vaqtlni qo'msab yig'lardi. E, xotin, burungi vaqt-larda turklar bilan qilgan qirg'inimizni bilmaysan-da. Boshimda qilich jarohatidan qolgan yamoq hali ham bor. To'rt yerimdan o'q teshib ketgan. Yaralarimning hech qaysisi haligacha bitgani yo'q. Qancha-qancha

¹ Sagaydachniy degan laqab olgan Petr Konashevich Ukraina getmani, ya'ni podshosi edi.

tilla g‘animatimiz bo‘ldi! Askarlarimiz qimmatbaho javohirlardan telpak-telpak olishdi. Otlarni aytgin. Haydab ketgan otlarimizni senga aytgan bilan tamom qilib bo‘lmaydi. Afsuski, endi bunday janglar qilolmayman! Qariganim yo‘q, badanimda quvvatim bor va lekin qilichim qo‘limda turmaydi, umrim behuda ga o‘tmoqda, nimaga yashab yurganimni o‘zim ham bilmayman. Ukrainianada tartib qolmadi. Askar boshi bilan yasovullar bir-biri bilan itdek olishadi. Hammasiga bosh bo‘ladigan bir ulug‘ yo‘q. Boyonlarimiz hamma rasm-odatimizni polyaklarnikiga o‘xshatib yubordilar. Hamma quv bo‘lib ketdi, Rim papasiga itoat qilib imonini sotdi. Juhudlar kambag‘al xalqni ezyabdi. Esiz-esiz, zamon o‘tib ketdi! Yoshligimdan nima qoldi! Hoy bolam, yerto‘ladan bir oyoq sharbat keltir! O‘tgan baxtimni, qismatimni sog‘inib, o‘tgan yillarni qo‘msab bir ichay!

– Begin, mehmonlarni nima bilan kutib olamiz? To‘qay tomondan lyaxlar kelishyapti! – dedi tashqaridan kirib kelgan Stetsko.

– Nima uchun kelayotganlarini bilaman, – dedi Danilo o‘rnidan turarkan. – Sadoqatli yigitlarim, otlarni egarlang, yarog‘-aslhangizni taqing, qilichingizni yalang‘ochlang! Qo‘rg‘oshin talqondan ham oling, mehmonlarning izzati bajo kelsin!

Biroq kazaklar otlariga minib, tuffang miltiqlarini o‘qlaguncha ham bo‘lmay, lyaxlar kuzda to‘kilgan xazondek tog‘ bag‘riga to‘kilib chiqishdi.

Hammadan oldinda zarbop kiyimlar kiyib savlat bilan yo‘rtib kelayotgan, qorni katta polyaklarni ko‘rgan Danilo:

– E-ha, yoqalashadiganlar ko‘p-ku! Yana bir marta maydonda javlon urish nasib ekan! Ey kazak, oxirgi marta to‘yguningcha yayrab ol! Yigitlar, bugun bizning to‘y, yayrang!

Tog‘ma-tog‘ yurib jang qila ketdilar. Ma’raka boshlanib o‘lim bozori qizidi, qilichlar o‘ynadi, tig-

lar sakradi. Otlar xangillab har tarafga chopdi, g'avg'odan bosh garang bo'ldi, tutun ko'zni ko'r qildi. Hamma aralash-quralash bo'lib ketdi, lekin kazak do'st qayerda, dushman qayerda, biladi. Vijillab kelgan o'qi otliqni otdan uchiradi, qilichining zarbasi boshlarni uzadi, uzilib tushgan bosh g'ildirab, dumalab ketadi.

Olomon ichida Danilo bekning tepasi qizil bo'rki ko'rindi, yashil choponi ustidan bog'lab olgan zarin kamari ko'zga chalinadi, chora otining yoli to'zib o'ynaydi. Lochindek har tarafga parvoz qiladi, na'ra urib Damashq shamshiri bilan o'ng-so'lni uradi, chopardi! Kazak yigit chop, kes, javlon ur, armoning qolmasin, lekin oltin-kumushga, kimxob chonplarga nazar solma, oltin-kumushni, javohirlarni oyog'ing ostiga olib bos, paymol et! Mard yigit, armoning qolmasin, javlon urib qol. Ammo ketingga ham qarab qo'y, nobakorlar uylarga o't qo'yib hurkigan mollar ni haydab ketdilar. Bundan xabardor bo'lib qolgan Danilo qayrilib yildirimdek yetib keldi. Qizil bo'rki uyining oldida ko'riniq qoldi, duch kelganni qirib borardi.

Ikki tomon bir soatmas, ikki soatmas, ko'p jang qildilar. Ikki tomondan ham odam kam qoldi, lekin Danilo hali charchagani yo'q. Uzun nayzasini kimga suqsa otdan yiqitadi, piyodalarni oti tuyog'i bilan ezadi. Hovliga kirganlarni qirib bitirdi, lyaxlar tum-taraqay bo'lib qochishdi. Kazaklar o'lganlarning zarbop kiyimlarini, qimmatbaho aslahalarini yechib olmoqda. Danilo bek dushman orqasidan quvlash uchun yigitlarni chaqirmoqchi bo'lib qayrilib qaradi... Qaradi-yu, g'azabiga chidamadi. Katerinaning otasiga ko'zi tushdi. Tog' tepasida turib, uni miltiq nishoniga olmoqda. Danilo otini to'ppa-to'g'ri uning tomoniga surdi... Hoy kazak, ajalni yo'qlab ketyapsan!.. Miltiq otildi-yu, jodugar ko'zdan g'oyib bo'ldi. Qip-qizil alvon to'niga, g'alati bo'rkiga vafodor Stetskoning ko'zi tushib qoldi,

xolos. Danilo gandiraklab yerga yiqildi. Sadoqatli yigit Stetsko yugurgancha kelsa, begi yerda yotibdi, ko'zlarini yumuq, ko'kragidan qip-qizil qon tirqirab turibdi. Lekin vafodorining kelganini payqadi shekilli, ohistagina ko'zini ochdi. Javdirab:

– Stetsko, alvido, Katerinaga ayt, o'g'limni yetim qilmasin! Sadoqatli birodarlarim, sizlar ham uni yolg'izlatib qo'y mang! – dedi-yu, ko'zini yumdi. Mardning joni asl tanasini tashlab ketdi, lablari ko'kardi, uyg'onmas uyquga kirdi.

Vafodori faryod urib, ishora bilan Katerinani chaqirdi:

– Beri kel, bekam, kel beri, begingdan ayrilding, mast bo'lib yotibdi tuproqda, bu mastlikdan endi hushiga kelmas!

Katerina ikki qo'li bir tepe bo'lib, o'roq bilan o'rolgandek erining jasadi ustiga yiqildi. «Oshig'im, begin, ko'zlariningizni yumib yotgan sizmisiz, aziz shunqorim, turing o'rningizdan, qo'lingizni uzating menga, boshingizni ko'taring, Katerinangizga bir boqing, lablaringiz qimirlasin, bir og'iz so'zingizni eshitay!.. Nega indamaysiz, shamchirog'im egam! Qora dengiz suvidek ko'karibsiz, yuragingiz urmaydi, nafasingiz chiqmaydi. Badaningiz nega bunday sovuq. Ko'z yoshlarimning harorati yo'qmi, badaningizni isitmaydimi? Yig'im ovozi qulog'ingizga kirmaydimi, uyg'otmaydimi sizni? Askaringizga endi kim bosh bo'ladi? Qora ottingizni kim minadi, kim na'ra tortib, kim qilichingizni o'ynatadi? Kazak yigitlari, davlatingiz, nomusingiz, sha'n-shavkattingiz qani? Ko'zi yumilib yerda yotibdi. Ko'ming, ko'ming meni ham unga qo'shib, ko'zlarim tuproqqa to'lsin. Tiriklayin tobutga tiqing, husnim kerakmas endi menga!

Katerina yig'lab hasrat ichida kuyib o'rtanmoqda, ammo uzoqda chang ko'tarildi. Yasovulboshi Gorobets ot choptirib kelyabdi.

Havo sokin chog'larida Dnepr ajab xushmanzara, daryoning toshqin suvlari tog'-toshlar orasidan, o'rmonzorlardan o'tib jim-jit oqib boradi. Na gurillaydi, na shovullaydi. Daryo suviga tikilib qarab turgan odam viqorli bu daryoning suvi oqqanini ham, jim turganini ham bilmaydi, daryo emas, qotib qolgan bir shisha. Ko'kalamzorlar orasidan aylanma bo'lib o'tgan eni benihoya, bo'yi bepoyon oynadek tekis yo'lga o'xshaydi. Bunday chog'larda shu xushmanzaraga issiq oftobning ham suqi tushib, shishadek sovuq suvga, qirg'oqdag'i daraxtlarga shu'ladek nayzalar otadi, daraxtzorlar yorishib ketadi. Daladagi chechaklar bilan birga daraxtlar ham yashil kokillarini yoyib, suvga engashar, suvga boqib o'z husnini suvga solib tomosha qilib to'ymas va barglari bilan imo qilib tabassum ila kulishar edi. Daryoning o'rtasiga qarashga ularda had yo'q; bu yerlarga oftob bilan ko'm-ko'k osmondan boshqa hech kimsaning ko'zi tushmaydi. Unday-bunday qush ham bu yerlarga borolmaydi. Yer yuzida Dneprdek yasangan, basavlat daryo yo'q. Yoz chog'ining iliq kechalarida odamzoddan tortib, darranda-yu parrandalar barisi oromga kirib, yolg'iz Tangrining o'zi shukuh bilan yer-u ko'kni tomosha qilib, zerbop to'nining etagini dabdaba bilan yelpigan paytlarda ham, bu daryo ajab go'zaldir. Tangrining etagidan yulduzlar sochilar, sochilgan yulduzlar ning nuri olamga tarqalib, barchasining aksi suvda ko'rinar, daryo og'ushidan saqlar, osmonda turib so'nmasa, bittasi ham uning og'ushidan chiqib ketolmaydi. Gala-gala qarg'alar qo'nog'i bo'lgan qorong'i daraxtzor, yorilib-yorilib ketgan ko'hna tog'lar daryo ustiga engashib, loaqal uzun-uzun ko'lankalari bilan uning yuzini yopmoqchi bo'ladi, lekin bekorga urinadilar! Dneprning suviga qopqoq bo'ladigan matoh bu olamda yo'q. Uning suvlari tun-u kun baravar ko'm-

ko'k shishadek yoyilib, viqor bilan oqar, inson ko'zi ilg'agancha joydan ko'rinar, tunning sovug'idan qo-chib, noz-u karashma bilan qirg'oq bag'riga kirishni istaydi, egri qilichdek qayrilganda, kumushdek tobish urib tovlanib ketadi, bir tovlanadi-yu, yana ko'm-ko'k ko'karib tinadi, uyquga toladi. Dnepr tingen joyida ham go'zal, unga tenglashadigan o'zga bir daryo olamda yo'q! Osmonni qora bulutlar qoplab, qorong'i o'rmondagi daraxtlar ildizigacha qimirlashganda, chinor daraxtlar qirsillab, bulutlar orasida chaqqan chaqmoq yer yuzini yoritgan chog'da Dnepr dahshatli bo'lar! Daryoning suvi alg'ov-dalg'ov chay-qalib, qirg'oqqa kelib uradi. Yarqirab, hayqirgancha ketiga qaytadi, chinqirib yig'laydi, yoyiladi. O'g'lini askarlikka jo'natayotgan onadek alamiga chidayolmay faryod uradi. O'g'li qora otga minib, g'ururlik, sho'xlik bilan bo'rkini yarimta qilib, belini ushlab boradi, ammo sho'rlik onasi faryod ko'tarib orqasidan yuguradi, uzangisiga yopishadi, yuganidan ushlaydi, qarsak urib, hasrat yoshini to'kib qoladi.

Kuyib ko'mir bo'lgan to'nkalar, do'ngak qirg'oqdagi toshlar bir-birini quvalashib kelayotgan to'lqinlar orasida tanho qorayib turadi. Daryo bo'yiga yaqin kelgan qayiq goh baland ko'tarilib, goh pastga tushib qirg'oqqa uradi. Ko'hna Dnepr sho'rishga kelganda qayiqqa tushgan mard kim ekan? Bunday chog'larda daryo odamni pashshadek yutishidan bexabar.

Qayiq suv bo'yiga kelib to'xtagach, undan jodugar chiqib keldi. U xafa, kazaklarning o'lgan beklariga motam tutib qilgan azalari unga ko'p alam yetkazdi. Lyaxlardan ko'p kishi qirildi. Shop-shalop taqqan, kimxob kiygan ulug'laridan qirq to'rt kishi o'ldi, yigitlaridan o'ttiz uch kishi qiymalandi. Qolganlarini ot-ulovlari bilan bandi qilib, tatarlarga sotgani olib ketishdi.

Jodugar toshdan-toshga sakrab, kuygan to'nkalarni oralab pastdagi yer bag'rini yorib, o'zi qurgan uyiga keldi. Eshikni g'irchillatmasdan ohista-

gina olib, ichkari kirdi; dasturxon yozig'liq xontax-taga ko'zachasini qo'yib, uzun-uzun qo'llari bilan unga g'alati giyohlardan tashlaydi, keyin ajabtovur g'alati yog'och kosani qo'liga olib shivirlab, duo o'qib dam urgach, bu kosa bilan ko'zachaga suv quydi. Shu onda uyda qizil shu'la paydo bo'lib, jodugarning basharasi xunuk, badnamo bo'lib ketdi. Yuzidan qip-qizil qon tomar, burishgan-tirishgan ajinlari taram-taram qorayib ketdi. Nopok mal'un! Soqoli oppoq, betlari ajin bosgan, o'zi qotib-qurishib ketgan bo'lsa ham nobakorligini hanuz qo'ymaydi. Uyning o'rtasida oq bulutga o'xshagan bir narsa paydo bo'ldi, iblisning chehrasi ochilib, kulgandek bo'ldi. Biroq nega yana og'zini ochgancha qotib qoldi, qimirlashga majoli yo'q. Boshidagi sochlari nega tikkaydi? Uning oldida turgan oq bulutda allakimning xushro'y yuzi ko'rindi. Chaqirilmagan, chorlanmagan bu mehmonning yuzi tobora ravshan tortib, aniq ko'rindi. Ko'zlar jodugarga o'qdek qadaldi. Uning afti, qoshko'zi, lablari barchasi unga yot, tanimaydi. Bu suratni umrida hech ko'rgan emas. Uncha qo'rqinchli ham emas, lekin uning ko'ngliga dahshatli bir vahima tushdi. Bulut ichidagi u tanimagan chiroyli surat unga tikilgancha qimirlamasdan tek turardi. Bulut tarqalib ham ketdi, lekin jodugar tanimagan bu suratning qiyofasi yana ravshan tortib aniqlashdi. O'tkir ko'zlar unga tikilgancha qolaverdi. Jodugarning rangi o'chib, bo'zardi. Dahshatli bir ovoz bilan bo'kirib ko'zachasini ag'darib tashlagan edi, ko'ringan narsa bir zumda g'oyib bo'ldi.

XI

Keksa yasovulboshi Gorobets:

– O'zingni notinch qilma singlim, tushga e'tibor qilishga hojat yo'q. U ahyon-ahyonda bir to'g'ri chiqishi mumkin, – degan so'zlarni aytardi.

Uning yosh kelinchagi:

- Yot singlim, duoxon kampirni chaqirib kelay, uning dami juda o'tkir. Dam urib qaytariq qilib qo'yadi, – derdi.

Yasovulboshining o'g'li bo'lsa qilichiga dast urib:

- Hech qo'rhma, hech kimning haddi yo'q seni xafa qilgani! – derdi.

Katerina indamasdan so'niq ko'zlarini javdiratib, hammaga bir-bir termular. «O'zimni o'zim halok etdim. Uni chiqargan o'zim», – derdi. Keyin birpas turib:

– Menga hech tinchlik bermaydi! Kiyevga kelganima-ga mana o'n kun bo'lib qoldi, lekin g'amim zig'ircha ham kamaymadi. Bunda tinchgina yotib, o'ch olish uchun o'g'limni tarbiyalayman, degan edim... Tushimda uni qo'rinchli holatda ko'rdim! Bunday tushni Xudo hech kimga ko'rsatmasin, yuragim haligacha o'ynaydi. «Menga tegmasang o'g'lingni so'yaman», – deb baqirdi. Katerina ho'ngrab yig'lagancha beshikka yopishdi, cho'chib ketgan go'dak ham qo'lini cho'zib yig'ladi.

Yasovulboshining o'g'li bu so'zlarni eshitib, g'azabiga chidayolmay ketdi. Yasovulboshi Gorobetsning ham fig'oni oshdi:

– Qani, la'natি iblis kelib ko'rsin-chi, keksa kazakning bilagida quvvati bor-yo'qligini ko'rар, – deb qo'ydi. So'ngra uzoqni ko'rgan o'tkir ko'zlarini osmon-ga tikib: – Og'am Daniloga ko'maklashay deb, jadal bilan kelganimni Xudoning o'zi ko'rib turibdi! Xudoning xohishi shu ekan, nachora. Yostig'i qurib, to'shagi so-viganda keldim. Kazak xalqidan ko'p kishi bu sovuq to'shakka kirgan, lekin uning janozasidek dabdabali janoga bo'lganmi? Lyaxlardan bittasi omon qoldimi? Tinchingni buzma, bo'tam! Men tirikman, yonimda o'g'lim bor, hech kim sening bir tola sochingni ham to'kolmaydi.

Yasovulboshi bu gaplarni aytib, beshik tepasiga keldi. Bola uning kamariga osilgan kumush qoplama mushtugini, chaqmoq hamyonini ko'rgach, kulib

qo'lini uzatdi. Yasovulboshi belidagi mushtugini olib, go'dakka uzatarkan:

– Otasining o'rmini bosadi, yo'rgakdan chiqmay turib, mushtukka havas qilyapti, – dedi.

Katerina ohistagina uf tortib, belanchakni tebrata boshladi. Bu kecha hammalari shu yerda qolmoqchi bo'lib, birpasdan keyin yotishdi. Katerina ham uyquga ketdi.

Ichkari-yu tashqari, hamma yer jimjit. Posbon turgan yigitlardan boshqa hamma uyquda. Bir mahal Katerina chinqirib uyg'onib ketdi. Boshqalar ham uyg'ondi. Katerina beshik tepasiga kelib: «O'ldiribdi, so'yib ketibdi!» – deb dodladi. Hammalari yig'ilishib beshik tepasiga keldi, beshikda yotgan bolaning o'lganini ko'rib, hammaning es-hushi chiqib ketdi. Misli ko'rilmagan bunday battollik va bunday vahshiylikka nima deyishlarini bilmay, hayron bo'lib, qotib qolishdi.

XII

Ukraina tuprog'idan uzoqda, Polshadan oshib o'tib ulug' Lemberg shahridan ham o'tgach, qator-qator baland tog'lar keladi. Bu tog'lar, go'yo toshdan to'qilgan zanjirdek, yerni o'ng-so'ldan o'rab, doim sho'rishda turgan to'polon dengizning suvidan yerni qo'riqlab turgan tosh qal'adir. Tog' Valaxiya bilan Sedmigrad o'lkasigacha borib, galich xalqi bilan venger xalqi o'rtasida katta taqaga o'xshagan silsila hosil qiladi. Bizning yurtimizda bunday ulug' tog' yo'q, tepasiga kishining ko'zi yetmaydi, ba'zi cho'qqilariga odamzod oyoq bosgan emas. Ajab g'alati manzarasi bor. Bo'ron turib dovul boshlanganda, sho'x daryo to'polon qilib, sohillardan oshib, haybatli to'lqinlarini osmonga irg'itgan-u, ular toshga aylanib, osmonda muallaq qolganmikin? Yoki osmondagi haybatli bu-

lutlar uzilib, yerga tushganmikin? Chunki bu tog'lar ham bulutdek oq, cho'qqilari quyoshdan yiltirab, jimirlab tovlanadi. Karpat tog'lariga yetguncha rus tili qulooqqa kiradi. Tog'dan o'tgach ham unda-bunda eshitilib qolganda qulooqqa xush tuyiladi. Lekin bundan nariga o'tgach, din ham boshqa, til ham boshqa. Bunda venger degan ulkan el bor: ot minishda, qilich chopishda, ichkilikda kazaklardan qolishmaydi. Yaxshi egar-jabduqqa, qimmatbaho liboslarga oltinini ayamaydi. Tog' oralarida toshgan-oshgan ulkan ko'llar bor. Ko'llarning suvi shishadek tiniq, sokin. Tog'larning yalang'och cho'qqilari, sabzazor yashil etaklarning aksi ko'l suvida oynada ko'ringandek ko'rindi.

Tun yarmida yulduzlar yorishar-yorishmas azamat qora otta borayotgan kim? Tog'-toshlar tagida, ko'llar bo'yida ot choptirib borayotgan bo'yi terakdek botir kim? Ko'lning sokin suvlarida azamat otining aksi ko'ringan, tog'-toshlarga uzun-uzun haybatli ko'lanka tashlab borayotgan kim bo'ldi? Ustidasovuti yiltiraydi, yelkasida nayzasi, egar qoshida qilichi, emanulg'asini bosib kiyib olgan, mo'ylovi qora, ko'zi yumuq, kipriklari tushgan, uyquda, lekin ot jilovini qolidan qo'ymaydi, orqasiga bir navjuvonni mingashtirib olgan, u ham uyquda, bahodirni quchoqlab olgan. Kim bo'ldi bu odam, qayerga borar? Kim bilsin. Bir kun emas, ikki kun emas, necha vaqtlardan beri tog'ma-tog' oshadi. Tong otib, oftob yorishishi bilan undan asar qolmaydi. Tog'liklar goh-gohda tog' bag'riga tushgan uzun-uzun ko'lankani ko'rishardi, lekin osmonda bulut yo'q, ni-maning ko'lankasi bo'ldi bu? Qorong'i tushar-tushmas yana paydo bo'lib, ko'l bo'ylarida ko'rindi, soyasi orqasidan qolmay yuguradi, tog'-toshlardan oshib Krivan tog' tepasiga chiqdi. Karpat tog'larida bundan baland tog' yo'q, hammasidan yuksak. Bu yerga chiqqanda oti to'xtadi, otliq yana qattiqroq uyquga kirdi, ustiga bulutlar tushib qopladi.

«Jim... asta, xotin! Taqirlatma, bolam uxladi. Yig'lab-yig'lab endi uxladi. Men, xotin, chakalakka borib kelay! Nega menga bunday qaraysan? Haybatingni qara, ko'zingdan temir sixlar chiqyabdi, munchayam uzun, o'tdek yonadi-ya! Ajinaga o'xshaysan! Yo, piray, jin bo'sang yo'qol ko'zimdan, o'g'limni olib qochma. Yasovulboshining tentakligini ko'r. Xayolida Kiyevda meni yoziladi, o'ynab-kuladi dedi, shekilli! Yo'q, erim ham, bolam ham shu yerda. Uyga kim qaraydi? Astagina chiqib ketganimni na mushuk, na it biladi. Hoy xotin, yosh bo'lmoqchi bo'sang bu qiyin emas. O'ynasang, kulsang bo'lgani. Mana menga qara, o'ynashimni ko'r...» Katerina bu xil poyma-poy so'zlarni aytib, o'yinda tushib ketdi. Belini ushlab, telbalardek har to-monga alanglab, o'yinda tushardi. Faryod urib yer tepinar, kumush nag'allari na maqom, na ohang bilmay jaranglar, parishon kokillari oq tomog'iga cho'lg'anar, boshini sarak-sarak to'lg'atib, qollarini o'ynatib, qush-dek qanot qoqib, charx urib uchar, har damda kuch-quvvatdan ketib ana-ana yiqlguday yoki bu dunyodan chiqib ketguday bo'lardi.

Kampir enagasi qayg'u va hasratga botib hayratda turar, yuzidagi burushlari ko'z yoshiga to'lgan. Sado-qatli yigitlari ham boyvuchchalarining holini ko'rib bag'irlari ezilardi. Katerina holdan toydi, turgan joyida oyoqlarini zo'rg'a ko'tarib depsinar, xayolida o'ynayotgan edi. Turib-turib:

– Yigitlar, mening marjonim bor, sizlarniki yo'q!.. – dedi. So'ngra belidagi istambuliy xanjariga qo'l urib: – qani mening begin? Ey! Menga kerak pichoq bu emas! – deb qichqirdi-yu, ko'zi jiq-jiq yoshga to'ldi, yuzida qayg'u va hasrat dog'i ko'rindi. – Otamning qalbi chuqurda, bu pichoq unga yetmaydi. Uning qalbi temirdan. Yalmog'iz kampir do'zax o'tida toblab bergen. Nega haligacha kelmaydi otam, yoki ajali yetib

so'yilish vaqtি kelganini bilmaydim? Chamasi o'zi kelsin, deydi shekilli... – So'zini oxiriga yetkazmay, ajab bir ovoz chiqarib kuldi. – G'alati bir voqeа yodimga tushdi, erimni tiriklayin ko'mganlari xotiramga keldi.. Shunday kuldimki... Hoy tinglanglar! Tinglanglar! – dedi-yu, gap o'rniغا:

Yuguradi qonli arava,
Unda yotar bir yigit – kazak,
Yaralangan, tani dabbala.
O'ng qo'lida qilich yarqiroq,
Undan qonlar tirqirab tomар,
Oqar edi qonli bir anhor.
U anhorning yonida chinor,
Chinorda-chi, qarg'a qag'illar.
Kazak uchun yig'lar onasi,
Qo'y, yig'lama, ona, chekma g'am.
O'g'ling xotin oldi.
Sevgisi – Pan naslidan.
Oldi yerni ham.
Taqir dala o'tasida uy,
Na eshigi bor, na derazasi.
Shuning bilan ado bo'ldi kuy.
Qisqichbaqa baliq-la o'ynar...
Agar birov meni sevmasa,
Onasiga tegsin marg-balo, –

degan qo'shiqnи aytdi.

Qo'shiqlar ham poyma-poy bo'lib ketdi. Bir-ikki kundan beri o'z uyida, lekin Kiyevga borishni istamaydi. Toat-ibodatni ham tark qildi, odamlardan qochadi, ertadan kechgacha chakalakma-chakalak tentiraydi. Shox va butoqlar oq betini, yelkalarini tirnaydi, yoyilgan sochi shamolda selkillaydi. Oyog'i ostida xazon bo'lgan yaproqlar shitirlaydi, lekin uning hech narsaga parvosi yo'q. Kech kirib, oftob shu'lsasi so'ngan, yulduzlar ham chiqmagan, oy ko'rinmagan, lekin

daraxtzorni qorong'i bosib vahima tushgan chog'da, cho'qinmay o'lgan bolalarning arvohi daraxtlarga tirmashib, butoqlarga osilib nola qilganda, yo'l ustida, daladagi kakra o'tlar ichida dumalashib yurganda o'z qoniga o'zi tashna bo'lib o'zini suvga tashlagan qizlar, daryo to'lqinlari orasidan galalashib qator-qator chiqadilar. Yashil sochlari kiftlariga to'kilgan, sochlarining har tolasidan jildir-jildir suv oqar, badanlari suvdan shisha ko'ylik kiygandek tiniq ko'rindi, lablarida xush tabassum, betlari qip-qizil, shaxlo ko'zlari jon olgudek... muhabbat o'tida yongudek, cho'qingan birovni ko'rsa timmasdan o'pgudek... E, cho'qingan odam! Yugur, uning qoshiga bor, lablari yaxdan, to'shagi suvdan, qitiqlayverib tinkangni quritar, daryoga tortib ketar. Ammo Katerina hech narsaga parvo qilmaydi, tentak, suv parilaridan ham qo'rqmaydi, qo'lida pichoq bilan har tarafga yuguradi-yeladi, otasini izlaydi.

Erta bilan bir mehmon kirib keldi. Bo'yłari kelishgan, egnida qizil chakmon, Danilo bekni so'radi. Birdan voqeani eshitib, ko'z yoshi qilib, yengi bilan yoshini artarkan, ko'p afsus yeb achindi. Marhum Burulbosh bilan urushganini xo'b so'zladı. Danilo bekning boshiga bunday kulfatlar tushadi, deb kim o'ylardi, degan so'zlar bilan dildorlik ko'rsatgan bo'ldi. Mehmon u yoq-bu yoqdan gaplashgach, Katerinani ko'rmoqchi bo'lganini aytdi.

Katerina avval boshda mehmonning gaplariga sira qulq solmadi, ammo keyin esi kirgandek uning gaplarini tingladi. Mehmon Danilo bilan og'aynidek birga turganini, bir kuni qrimliklardan qochib, g'aram tagiga yashiringanlarini so'zlab berdi. Katerina ko'zini undan olmay so'zini xo'b tingladi.

Katerinaning ahvoliga tikilib turgan yigitlar ichida: «Endi tuzalib qoladi, bu mehmon uning dardini tuzata-di, esi kirib gapni tinglayabdi!» – derdi.

Mehmon so'zini aylantirib kelib: «Bir kuni Danilo bilan hasratlashib o'tirganimizda, og'aynim Kopryan,

paymonam to'lib dunyodan o'tsam, xotinimni sen olgin, mayli senga xotin bo'ssin degan edi», – dedi.

Katerina dahshat bilan unga tikilib qaradi, keyin: «Ha bildim, otam ekan!» – deb qichqirdi-yu, qo'lida pichoq bilan unga yugurdi.

Mehmon pichoqni Katerina qo'lidan yulib olishga ko'p urindi. Keyin aloha tortib oldi-yu, urdi. Dahshatlari bir hodisa bo'ldi, ota esidan ajragan qizining qonini to'kdi.

G'aflatda qolgan yigitlar uni tutmoqchi bo'ldi, lekin jodugar allaqachon otiga minib ko'zdan g'oyib bo'lgandi.

XIV

Kiyev shahrining orqa tomonida quloq eshitmagan ajib hodisa bo'ldi. Shaharning katta-kichik ulug'lari, hakim va beklari bu hodisa tomoshasiga chiqdilar. Voqeal shuki, dunyoning to'rt tomoni ochilib, hamma yoq kaftdek ravshan ko'rinish qoldi. Uzoqda ko'mko'k ko'karib Liman ko'rinishadi. Limandan nariyog'i bepoyon Qora dengiz. Ko'pni ko'rib ko'zi pishgan kishilar dengizdan tog'dek yuksalib turgan Qrimni, to'qay bosgan Sivoshni ham tanidilar. Chap tomonda Galichiston, yerlari ham ko'rinish turibdi.

Tomoshaga chiqqan xaloyiq uzoqda, osmon baravar yuksalib, bulutga o'xshab oqarib turgan narsani ko'rsatib keksalaridan:

– Ha anavi nima? – deb so'rardilar.

Keksalar:

– Karpat tog'i. Qori sira erimaydigan, bulutlar qo'nib o'tadigan baland cho'qqilari bor, – derdilar.

Shu paytda yana bir ajoyibot ko'rindi. Tog'ning baland cho'qqisidagi bulutlar tarqalib, baland tog' tepasidasovut kiygan, qurollangan bir pahlavon ustida ko'rindi. Yaqin turganga o'xshaydi, ammolko'zlari yumuq.

Vahima ichida hayron bo'lib turgan xaloyiq orasidan birov sakrab otiga mindi, birov ketimdan quvlab kelayotgani yo'qmi, degandek, qo'rquv ichida to'rt tomonga alanglab, birzumda otini choptirgancha ketdi. Qochgan bu odam jodugar edi. Nimadan u buncha qo'rqib ketdi? Tog' tepasida ko'ringan pahlavonga tikilib qarab turgach, sehrgarlik qilib turgan chog'ida paydo bo'lgan, tanimagan odamiga o'xshatdi. Unga ko'zi tushishi bilan nega bunday qo'rqib ketganligini o'zi ham bilmay vahimaga tushib, otiga minganicha, kech kirib yulduzlar yorishadigan vaqtgacha to'xtamasdan ketaverdi. Bu hikmatning sababini jodu qilib bilmoqchi bo'ldi shekilli, kech bo'lgach, uyiga qaytdi. Yo'l bo'yiga kelib, daryodan ayrilib chiqqan kichik bir irmoqdan sakrab o'tmoqchi bo'ldi, lekin sakraganida oti to'xtab, boshini urib, unga irjayib qaradi. Qorong'ida uning oq tishlari vahimali ko'rindi. Jodugarning sochlari tikkayib ketdi. To'satdan baqirib, birov bo'g'gandek bo'kirib, yig'lab yubordi-da, so'ngra otining boshini to'ppa-to'g'ri Kiyevgaga burdi. Nazarida odamlar uni tutmoqchi bo'lib har tomondan quvlab kelayotganga o'xshadi. Daraxtlar har tomondan uni qurshab, xuddi joni borddek, qop-qora soqollarini silkib, uzun-uzun shoxlarini cho'zib, uni bo'g'moqchi bo'lganga o'xshardi. Osmondag'i yulduzlar uning oldiga tushib, go'yo uni hammaga ko'rsatib borayotgandek birga chopardi. Borayotgan yo'l ham, uning izidan quvlab kelayotganga o'xshardi. Nima qilarini bilmay gangib qolgan jodugar azizlarga sig'inish uchun Kiyevgaga yo'l oldi.

XV

Tarkidunyo qilib, g'or ichida toat-ibodatga mashg'ul bo'lgan bir darvesh oldidagi qora chirog'i bilan kitobidan bosh ko'tarmay o'tirardi. Necha yillarki g'orni makon etmish, yotog'i to'shak emas taxta tobut edi.

Buzruk kitobini yopib, fotiha o'qib turgan chog'ida bahaybat, xunuk bir odam kirib keldi. Buzruk daf'ataniga uni ko'rishi bilan hazar qilib, orqaga tisarilib, yaproq-dek titradi, ko'zlar ola-bula bo'lib ketdi. Vahimali ko'zlaridan dahshatli bir o't chiqdi. Kelgan kishining badnamo, xunuk basharasi zohidning badaniga larza soldi.

Jodugar:

– Ota, duo qil! Duo qil! Imoni halok bo'lganlar haqiga duo qil! – dedi-yu, yerga yiqlidi.

Darvesh cho'qinib kitobini ochdi, lekin qo'rqib qo'lidan kitobi tushdi:

– E battol, gunohkor! Senga afv yo'q, ket bu yerdan, yo'qol. Haqqingga duo qilolmayman!

Gunohkor telbalanib:

– Yo'qmi? – dedi.

– Qara, muqaddas kitob harflariga qon quyildi.

Sendek gunohkorni haligacha dunyo ko'rmabdi!

– Padar, meni masxara qilyabsan!

– Yo'qol mal'un, osiy. Men seni masxara qilganim yo'q, a'zoyi badanimga vahima tushdi. Sen bilan bir joyda turish gunohdir!

– Yo'q, bekor aytasan, masxara qilganing rost, ana ko'rib turibman, og'zing ochildi. Kemshik tishlaring oqarib ko'rindi!..

U go'yo quturgan kishidek bechora darveshni tutib, o'ldirdi.

Dahshatli bir faryod ko'tarilib, dasht-o'rmonlarni larzaga keltirdi. Chakalak orqasidan eti suyagiga yopishib, qurishib ketgan, tirnoqlari o'sgan ikki qo'cho'zilib chiqdi-yu, siltab-siltab g'oyib bo'ldi.

Jodugarning qo'rquvi, vahimasi qolmadı. Nazarida olamni xira bosdi. Xuddi mast kishidek karaxt, boshi gangib qulog'i shang'llar, nimaiki bor bo'lsa hamma narsa parda ichida yashiringandek g'ira-shira ko'rinardi. Sakrab otiga mindi. Cherkasistondan o'tib, to'ppa-to'g'ri tatarlar yurti Qrimga bormoqchi

bo'lib, Kanev shahriga qarab yo'l oldi, lekin nega bu yo'lga kirganini o'zi ham bilmasdi. Ikki kun yo'l yurdi, ammo shaharga yetmadi, yo'ldan adashgani yo'q, bas allaqachon yetishi kerak edi, lekin shahar hanuz ko'rinxaydi. Olisdan butxonalarning gumbazlari yiltirab ko'rindi, lekin ko'ringan bu shahar Kanev emas, Shumsk shahri edi. Jodugar boshqa yo'ldan ketayotganini bilib, hayron bo'lib otining boshini Ki-yev tomonga burdi. Kuni bilan yo'l yurib bir shaharga yetdi, qarasa Kiiev emas, balki undan ham uzoqdagi vengerlar yurtiga yaqin Galich shahri ekan. Nima qilarini bilmay ketiga qayrildi, lekin yana qarasa teskari tomonga ketyabdi. Bu paytda jodugarning ko'nglidan kechganlarini aytib beradigan odam dunyoda yo'qdir. Agar bunday odam bo'lsa-yu, jodugarning diliga qarab, unda kechayotgan hollarni sezsa, ko'ziga uyqu harom bo'lar, umrida hech kulmas edi. Uning dilida bu chog'da uyg'ongan tuyg'ular qahr-u g'azab ham emas, qo'rquv ham emas, afsus-nadomat ham emas. Bu tuyg'ularni ifoda qiladigan so'z dunyoda yo'q. U kuyar, yonar, o'rtanar, ro'yi zaminni oti oyog'i ostida poymol qilgisi kelar, Kiyevdan to Galichgacha yurtu olamning barchasini kaftiga olib, barcha odamlari bilan birga Qora dengizga tashlab, g'arq qilgisi kelardi. Lekin alamiga chidayolmaganidan emas. Yo'q, bu tuyg'ularning sababini o'zi ham bilmaydi. Bir mahal qarasa, Karpat tog'lariga yaqin kelib, bulutdan qalpoq kiygan Krivan tog'i etagiga yetib qolibdi, mingan oti esa sira to'xtamay tog' orasiga kirib boryabdi. Tog' tepasidagi bulutlar tarqalishib ketdi. Tog' tepasidagi otliq pahlavon mahobat bilan turibdi. Jodugar otini to'xtatishga ko'p urindi, lekin ot jilovini har qancha tortsa ham hangillab, yolini dikkaytirib pahlavon turgan yoqqa yugurmoqda. Jodugarning majoli qolmay tinkasi qurigandek bo'ldi. Jim turgan otliq pahlavon qimirlab, yumuq ko'zlarini ochganday ot choptirib kelayotgan jodugarni ko'rib kulib yubordi. Uning

kulgusi go'yo ko'k gumbirlagandek tog'-u toshlarni titratdi, jodugarning ich-toshini qaltiratdi. Uning nazarida zo'r bir pahlavon ichiga kirib, bag'rini, qon tomirlarini bolg'a bilan urayotgandek bo'ldi... Pahlavonning kulgisi uni shunday vahimaga soldi.

Tog' tepasida turgan otliq pahlavon qo'lini uzatib jodugarni osmonga ko'tardi. Bir damda uning joni chiqib oldi va o'lgach ko'zi ochildi, lekin endi jonsiz quruq jasad, ko'zida ham nur yo'q. Qarashi shunday xunukki, tirik ham, o'lib tirilgan ham bunday qaramaydi. Ruhsiz o'lik ko'zlarini har tarafga alanglatib qaradi, Kiyevgami, Galich tomongami, Karpatgami qaysi tomonga qarasa, har yoqda yerdan bosh ko'tarib chiqqan va hammasining basharasi uning o'ziga o'xshagan o'liklarni ko'rdi.

Bo'yłari bir-biridan baland, bir-biridan battar bo'zargan qoq suyak o'liklar har tarafdan yig'ilishib, dahshatli jasadni qo'lida ko'tarib turgan otliq pahlavonni qurshab oldi. Pahlavon yana kulib, qo'lidagi jasadni jahannamga tashladi. O'liklar ham darhol uning orqasidan tushib, jahannam qa'riga yetguncha qo'ymay yo'lda tutib, tishlari bilan g'ajiy boshladi. Hammasidan novcha, hammasidan bahaybat yana bir o'lik yerdan chiqmoqchi bo'ldi-yu, lekin har qancha urinsa ham chiqolmadi, yerga shu qadar kirib ketgan edi. Agarda yerdan chiqsa, Karpat tog'ini ham, Sedmigrad bilan turk tuprog'ini ham ag'dar-to'ntar qilib tashlar edi. O'lik, yerostida biroz qimirlaganidan yer yuzi titrab ketdi, ko'p yerkarda uylar yiqildi, odamlar tom tagida qoldi.

Karpat tog'ida aksari, xuddi bir necha ming tegirmon parragi aylanayotgandek guvillagan ovoz eshitildi. Odamzoddan hech kim ko'rmagan, hamma vahimasidan qo'rqib, nariroqdan o'tib ketadigan bu tagsiz jahannamda o'liklar jodugar jasadini g'ajiydi. Tog'dan chiqqan dahshatli guvillagan tovush shundan. Gohida yer qimirlab, yer yuzi mag'ribdan mashriqqacha lar-

zaga keladi. Mullalar aytadilarki, sho'r daryo bo'yida bir tog' bor emish, bu tog'dan o't chiqib daryodek oqarmish. Ammo Vengriya va Galich o'lkasida turgan keksalar buni yaxshiroq biladi, boyagi bahaybat o'lik yer bag'ridan chiqmoqchi bo'lib qimirlaganda zilzila bo'larmish.

XVI

Gluxov shahrida do'mbirachi bir so'qir mo'ysafidning atrofiga xalq to'planib, bir soatdan beri uning do'mbirasini eshitmoqda. Do'mbirachi hech o'shanday yaxshi kuylamaydi, o'shanday yaxshi aytolmaydi. Avval Sagaydok va Xmelnitskiylardan burun o'tgan getmanlar zamonidan o'qidi. U zamonlar boshqacha edi, kazak-larning dong'i chiqqan, dushmanlar ular oyog'i ostida poymol bo'lgan, hech kim ularga til tekkizolmaydigan zamon edi. So'ngra chol boshqa quvnoq qo'shiqlar ham aytib berdi. Kuylarkan, sog' kishidek ko'zlarini yirtib-yirtib odamlarga qarar, noxunlik¹ barmoqlari torlar ustida pashshadek yo'rg'alar, tamburning torlari o'zi chalinayotganga o'xshar edi. Do'mbirachini qurshab o'tirganlarning keksalari boshini quyi solib pinakda o'tirar, yosh-yalanglar esa do'mbirachi cholga mahliyo bo'lib, churq etmasdan jim o'tirishardi.

– Shoshmay turinglar, burungining ishlaridan aytib berayin, – dedi chol. O'tirganlar siljishib, do'mbirachiga yaqin o'tirib oldi. Chol dostonini boshladi:

«Sedmigrad knyazi Stepanshoh polyaklarga ham podsholik qilgan zamonda ikki botir bor edi. Birining oti Ivan, yana birining oti Petro. Ivan bilan Petro og'a-inidek edilar. Bir kun ikkovi: «Nimaiki topsak o'rtada bo'lamiz. Xafalikni ham, xursandchilikni ham baravar ko'ramiz, boshimizga qayg'u tushsa baravar tushsin, o'lja tushirsak baham ko'raylik. Birimiz bandi bo'lib

¹ Noxun – tambur chalganda barmoqqa taqib olinadigan uzuk.

qolsak, birimiz bor-yo'g'imizni sotib, ajratib olaylik yoki bo'lmasa bandi tushgan qatorida bandi bo'lib ketaylik» – deb, o'rtada ahd-paymon qilishdi. Ahdlarida turib, nimaiki topsalar bo'lishdilar, birovning molini haydar ketsalar, otini olib qochsalar ham, o'rtada taqsim qildilar.

* * *

Stepanshoh turklarga urush ochdi. Uch hafta jang qilib yovni yurtidan haydolmadi. Turklarining bir podshosi bor edi, o'n yangichari¹ bilan bir qo'r askarning qironini keltirardi. Stepanshoh: «Kimki turk podshosini tiriklayin tutib kelsa yoki boshini olib kelsa jami askarning maoshini hadya qilaman», – deb jar chaqirtirdi. Ivan botir Petroga qarab: «Podshoni tutib kelmaymizmi», – dedi. Ikki botir ikki tomonga turk podshosini qidirib ketdi.

Petro podshoni tutarmidi, yo'qmi, lekin Ivan podshoni tutib, bo'ynidan arqon bog'lab, Stepanshohning huzuriga keltirdi.

Stepanshoh xursand bo'lib:

– Barakalla, botir! – deb jami qo'shinga beriladigan maosh berilsin, deb amr qildi. Yana: – Qayerdan xohlasa yer berilsin, xohlaganicha mol berilsin! – dedi. Ivan, podshodan olgan barcha in'omlarining yarmini darhol Petroga bo'lib berdi. Petro podsho bergen in'omlarning yarmini oldi-yu, lekin Ivanning podshodan bunday izat-hurmat ko'rganiga chidayolmay alam qilib ko'ngliga tugib qo'ydi.

* * *

Ikki botir Karpat tog'idan narida podsho in'om qilgan yurtga jo'nadilar. Ivan o'g'lini otga min-

¹ Y a n i c h a r – Usmonli turk imperiyasida davlat xazinasidan maosh olib turgan muntazam piyoda qo'shin askari.

gashtirib orqasiga bog'lab oldi. Kun botib qorong'i tushdi, lekin botirlar to'xtamay yo'lda ketyabdi. Ivan-nning bolasi uxbab qoldi, o'zini ham mudroq bosdi. Botir yo'lga chiqsang uxlama, tog'-toshlarda xatar ko'p!.. Ammo botirning oti egasini darmonda qoldi-radigan ot emas, yo'ldan adashmaydi, toymaydi. Tog' orasida bir jarlik bor, uning tagini odam bolasi hali ko'rman; yer bilan osmon o'ttasi qancha bo'lsa, uning tagi ham shuncha. Jar yoqasiga tushgan yo'lga ikki otliq sig'sa sig'adi-yu, lekin uchtasi sig'maydi. Ot ustidagi mudroq bosgan egasi bilan asta-sekin odimlab boradi. Yonboshida Petro suyunganidan nafasi ichiga tushib qaltiraydi. U yon-bu yonga qarab, ahd-paymonlashgan og'asini itarib yubordi. Ivan oti va ortidagi o'g'li bilan jarga qulab ketdi.

Ammo Ivan botir butoqni ushlab osilib qoldi, oti dumalagancha ketdi. Orqasida bolasi bilan tirmashib, yuqoriga chiqmoqchi bo'ldi. Chiqishiga ozgina qolganda boshini ko'tarib qarasa, Petro nayza bilan yana itarib yubormoqchi bo'lib turibdi. «E, odil Xudo! Koshki boshimni ko'tarib yuqori qaramagan bo'ssam, qadr-don og'amning meni jarga itarmoqchi bo'lib nayza o'qtalganini ko'rmas edim. Jon og'am, peshona ekan, mayli, nayzangni suq, lekin o'g'limni yoningga ol, go'dakning gunohi yo'q, bunday azob bilan o'lmasin!» - dedi. Petro xoxolab kuldi-yu, nayzasi bilan turtib yubordi, Ivan orqasidagi bolasi bilan jar tagigacha dumalab ketdi. Petro hamma dunyoga ega bo'lib pod-shodek maishat kechirdi. Yilqisi hammanikidan ko'p edi, qo'ylarining sanog'i yo'q, ammo bir kun ajali yetib u ham oldi.

* * *

Petro o'lgach, Xudo ikki og'a-inining arvohini qoshi-ga chaqirib qozilik qildi. «Bu bandamning gunohidek og'ir gunoh yo'q! Ivan, bunga nima jazo berishni bil-

mayman, o'zing gunohiga yarasha bir jazo top!» – dedi Xudo. Ivan o'ylab aloha topdi. «Bu bandangdan menga ko'p alam yetdi. Ahd-u paymonini buzib, o'z qadrdoniga xiyonat qildi, mening surriyotimni quritdi, dug'yuda urug'im qolmadi. Halol surriyoti bo'lмаган одам ўрга sepilgan va lekin unmasdan chirib ketgan tuxumdir. Ekilgan tuxum unib chiqmasa, tuxum ekilganini kim bilsin, – dedi u. – Xudoyim! Bu bandangga shunday jazo berginki, uning urug'i yer yuzida badbaxt bo'lsin! Avlodining oxirgisi dunyoda tengi bo'lмаган jallod bo'lsin, har gal birovga zulm qilganda, ota-bobolari go'rda tinch yotolmay, azob-uqubatga chidayolmay go'rlaridan chiqishsin! Xoin Petroning o'zi go'ridan sira chiqolmay qiyalsin, quturgandek yerni g'ajib, tirishib yotsin! Bu bandang qilgan zulmlariga jazo topadigan vaqtı yetganda otim bilan qulagan jardan meni baland tog' tepasiga chiqar, bunda qoshimga kelsin, men uni jahannamga itaray, o'lgan ota-bobolari qayerda o'lgan bo'lishsa ham yig'ilishib kelsin, ularni buncha azob-uqubatga qoldirganligi uchun uning suyagini doim g'ajishsin! Xiyonatkor, Petro yer panjasidan qutulolmasdan, alamiga chidayolmay o'zini o'zi g'ajisin, yulsin-yulqisin, suyaklari borgan sari yerga kirsin, bundan battar qiyalsin. Ana shu azob uning uchun eng yaxshi jazodir, chunki odam bolasiga o'chini ololmay, murodiga yetolmay qiynalishdan battar azob yo'q».

* * *

«Bandam, xo'b yomon dahshatli jazo topding, – dedi Xudo. – Nimaiki so'ragan bo'sang, bari ro'yobga chiqadi, ammo sen ham otingdan tushmasdan qiyomatgacha shu yerda turasan, otingdan tushmaguncha senga o'lim yo'q!»

Xudo nima degan bo'lsa bu ham bo'ldi. Otliq pahlavon Karpat tog'ida hali ham bor. Tagsiz jarning qa'rida birovning tanasini g'ajib yotgan o'liklarni

tomosha qilib turadi, yer panjasidan chiqolmasdan qiynalib yotgan o'lik o'z suyaklarini o'zi g'ajiyotganini tomosha qiladi. Azob ichida yotgan o'lik qimirlagan-da, yer yuzida zilzila bo'ladi.

So'qir do'mbirachi so'zini tamom qilib do'mbirasini bas qildi. Chol do'mbirasini yana qo'lga olib, cho'p-chaklardan, ikki landavur oynachi serkadan o'qib ketdi... lekin yosh-u qari hali ham hushiga kelmay, boshlarini quyi solib, qadimda bo'lgan vahimali ishlardan xayol surib o'tirardi.

IVAN FEDOROVICH VA UNING XOLASI

Bu mojaroning o'z sababi bor. Buni bizga Gad-yachdan kelgan Stepan Ivanovich Kurochka so'zlab berdi. Shunisini aytib qo'yayki, esarligimni aytgan bilan ado qilib bo'lmaydi, birov gapirsa-gapirmsa baribir g'alvir bilan suv ko'targandek. Bu nuqsonimni bilganimdan atayin daftar qilib yozavering, deb so'radim. Salomat bo'sin, hamisha menga muruvvati yaxshi edi, iltimosimni qaytarmay yozib berdi. Daf-tarni men kichkina g'aladonimga solib qo'ygan edim. Shundoqqina eshikdan kiraverishdagi g'aladonimni ko'rgandirsiz, deb o'ylayman... E, siz menikiga hech borganingiz yo'q-ku, yodimdan chiqibdi. O'ttiz yildan beri birga umr kechirib kelayotgan kampirimning xat-savodi yo'q, har zamonda bir pand beradigan bu aybini yashirib bo'ladimi? Qachonki, somsa qiladigan bo'lsa qog'oz ishlatadi. Hurmatli o'quvchi, shuni aytib qo'yay, kampirim somsaga nihoyatda usta, shunday pazandaki, bunday shirin somsani hech qayerda yemagansiz. Bir kun pishgan somsasining tagiga qarasam xat tushib qolibdi. Darrov ko'nglimga keldi, g'aladonimni ochdim, ichidagi daftarning yarmisi ham qolmabdi! Hammasini kampirim somsaga ishlatib yuboribdi. Nima qilay? Qarigan chog'imda xotnim bilan urishib o'tiraymi?

O'tgan yil Gadyachga yo'lim tushib qolgan edi. Stepan Ivanovichdan so'rab olish esimdan chiqmasin deb, shaharga yetmasdan yolda ro'molchamga tugun solib qo'ydim. Lekin harakatlarim behudaga ketdi, shahardan o'tib ancha borgach, ro'molchamni olib, peshonamdag'i terni artdim, hammasi esimdan chiqib ketibdi. Shahardan chiqib olti chaqirimcha yo'l yurgandan keyin yodimga tushdi. Noiloj, hikoyaning oxiri bo'lmasa ham bostirdim. Mabodo, birov hikoyaning oxirini bilmoqchi bo'lsa, Gadyach shahriga borib, Stepan Ivanovichdan so'rashi mumkin. U kishi bajonidil qabul qilib, hikoyaning boshdan oyog'igacha qaytarib so'zlab beradi. U kishining uyini so'rasangiz g'isht butxonaning shundoqqina yonida. Bu yerga borsangiz kichkina tor ko'cha bor, muyulishdan ikkinchi yoki uchinchi darvoza, osonrog'i shuki, uzun xodaga bedana osib qo'yilgan hovlini ko'rsangiz shunga kiraving. Yashil yubka kiygan semiz xotin chiqadi (shunisini ham aytib qo'ysam yomon bo'lmaydi, u kishi bo'ydoq). Bozorda duch kelib qolsangiz ham ajab emas, chunki har kuni ertalab soat to'qqizgacha bozor qilib, ovqatlari uchun baliq, turli sabzavotlar xarid qilib keladi. Antip hazratni ko'rib qolsalar yoki bozor ijarachisi juhud duch kelib qolsa gaplashib qoladi. Ko'rsangiz darrov taniysiz, chunki u kishidan boshqa hech kim olacha ishton, xitoyi malla to'n kiymaydi. U kishining tag'in bir alomati shuki, yurganda qo'lini silkib-silkib yuradi. Bu shaharning dodxohi bo'lgan marhum Denis Petrovich u kishini olisdan ko'rib qolsa ham darrov tanib:

– Ana, yeltegirmon kelyapti! – derdi.

IVAN FEDOROVICH SHPONKA

Ivan Fedorovich Shponka amaldan tushib, to'rt yildan buyon Vitrebenka qishlog'idagi qo'rg'onida yashaydi. Bolalik chog'ida Gadyachdag'i uezd mak-

tabida o'qirdi. Shuni ham aytib qo'yayki, maktabda o'qiganda zehni hammadan baland va boadab bola edi. Rus tili fani muallimi Nikifor Timofeyevich Deyeprichaste, maktabdagi bolalarning hammasi Shponkadek tirishqoq bolsa, sinfga kirganda chizg'ich bilan kirishga hojat qolmasdi, chunki yalqov va sho'x bolalarning qo'liga uraverib charchadim, derdi. Daftari hamisha toza, chiziqlari to'g'ri-to'g'ri, siyoh tegmagan ozoda edi. Sho'xlik qilmasdan jim o'tirar, ko'zi hamisha o'qituvchisida, oldida o'tirgan shergining orqasiga qog'oz yopishtirib o'ynamas, eshshakni yo'nmas, boshqa sheriklaridek o'qituvchisi kelguncha juvoz-juvoz o'ynamas edi. Uning qalamtaroshi borligini hamma bilganidan, kimga qalamtarosh kerak bolsa, darrov undan so'rashardi. U vaqtida hamma Vanyusha, deb chaqirgan Ivan Fedorovich, kulrang kamzulini bog'ichiga osilgan charm qinidan pichog'ini chiqarib berarkan, qalamni pichoqning tig'i bilan tarashlamang, agar lozim bolsa orqasi bilan tarashlang, deb uqtirib qo'yardi. Uning bunday boadabligini ko'rgan lotin tili fani muallimi ham unga bir muncha iltifot qiladigan bo'lib qoldi, yo'qsa bu o'qituvchining achchig'i yomonligidan boshqa maktab bolalari uning yashil chakmonining etagini, cho'tir basharasini ko'rmasdan avval, tashqarida yo'talganini eshitiboq qo'rqib ketardi. Oldidagi kursisida doim ikki dasta savag'ich turgan va bolalarning yarmisini cho'kkalatib qo'yadigan shu badjahl o'qituvchi ham Ivan Fedorovichni xafa qilib qo'yan edi. Vaholanki unga qaraganda ancha zehni baland bolalar ko'p edi.

Bu o'rinda Ivan Fedorovichning taqdiriga katta ta'sir ko'rsatgan bir voqeani aytib o'tmasdan bo'lmaydi. Maktab bolalaridan biri xalfasining ko'nglini olib ro'yxatga «sabog'ini biladi», deb yozdirib olish niyatida moy belangan bir dona chalpakni qog'ozga o'rab keltirdi. Ivan Fedorovich, garchi insof va to'g'rilikni afzal ko'rsa ham, shu paytda qorni ochinqirab turgani-

dan nafsi g'olib kelib, chalpakni oldi va oldiga kitobini qo'yib chalpakni yeyishga tushdi. Chalpak bilan ovo-ra bo'lib, maktab bolalarning birpasda jim bo'lib qol-ganlarini payqamabdi. Bahaybat bir qo'l, yashil chak-mon yengidan chiqib uning qulog'idan tortib o'rtaga chiqargach, hushyor bo'lib, quti uchib ketdi. «Ber bu yoqqa chalpakni! Senga aytaman ablah, ber!» Bad-jahl o'qituvchi ikki barmog'i bilan chalpakni ushlab, derazadan tashqariga otib yubordi va maktab hov-lisida o'ynab yurgan o'quvchilarga tanbeh qilib, ola ko'rmanq, deb qo'rqtib qo'ydi. Keyin Ivan Fedorovich-ning qo'liga bir-ikki marta achitib-achitib urdi. Ajab bo'lsin, chunki ayb qo'lda, chalpakni tutgan boshqa a'zo emas, qo'l. O'zi ancha qo'rroq edi, endi battar qo'rroq bo'lib qoldi. Ba'zida aybni bekitib ketish iloji bo'lmasligini tajribada ko'rib, xizmatga kirishni sira xohlamaganligi shu boisdan bo'lsa ham ajab emas. O'n besh yoshga yaqinlashib qolganda ikkinchi sinfga o'tdi, bunda muxtasar qoidalar va to'rt amal o'rniغا insonlik vazifalari va kasr hisobini o'rganishga tush-di. Ammo ilmning borgan sari qiyinlashganini ko'rib, buning ustiga padari dunyodan o'tib qolganidan yana ikki yil maktabda o'qib, keyin onasining rizoligi bilan P... piyodalar polki xizmatiga kirdi.

P... piyodalar polki o'zga polklarga o'xshamagan, juda boshqacha edi. Garchi, aksari qishloq joylarda tursa ham, ba'zi otliqlar polkidan sira qolishmasdi. Zobitlarining ko'pi ichkilikni to'ngitib ichardi, juhudlarni kokilidan tortib mazax qilishda otliq gusarlardan qolish-masdi. Bir nechtasi, hatto mazurkaga o'zin tushishni ham bilardi, shuning uchun bu polknинг polkovnigi bir necha odam ichida gaplashib qolgudek bo'lsa, o'z qo'li ostidagi zabitlarning bu fazilatidan, albatta gapi-rardi. Har bir gap orasida qornini shapatilab: «Mening zabitlarimning ko'pi mazurkaga¹ o'zin tushishni biladi,

¹ Mazurka – polyakcha raqs.

ko'pi, talay biladi» derdi. P... polkining ilm-ma'rifatdan ko'p bahramandligini yana ham ravshanroq ko'rsatish uchun, yana shuni aytamizki, uning zabitlaridan ikkisi shunday qartaboz ediki, ustidagi mundirini, boshidagi bosh kiyimini, shinelini, qilichining ilmog'ini qimorga tikib yuborishardi. Ba'zida, hatto ko'ylak-ishtonini ham yutqizib qo'yishardiki, bunday qimorga mukkasiidan ketgan qimorbozlar otliqlar orasida kam uchrardi.

Ivan Fedorovich shunday odamlarga sherik bo'lib ham qo'rqoqligini tashlamadi. To'ng'igan araqdan bir qadah to'g'ri araqni a'lo ko'rib, tushki va kechki ovqat oldidan andak ichib olar, mazurkaga o'yin tushmas, qarta o'ynamasdi va shu sababdan ta'bi birdek qoldi. Shu tariqa boshqa zabitlar o'rta boylarnikida mehmon-dorchilik qilib ziyoftlarda yursa, Ivan Fedorovich uyidan chiqmay, yumshoq va shafqatli ko'ngliga to'g'ri kelgan ishlar bilan mashg'ul bo'lardi. Chunonchi tugmalarini tozalar, fol kitobini mutolaa qilar yoki uyingning burchak-burchagiga qopqon qo'yib sichqon tutar, ba'zida mundirini yopinib olib, uxlardi. Lekin tartib va intizom yo'sinida hech kim Ivan Fedorovichga teng bo'lomasdi. Qo'l ostidagi bir dasta askarga shunday yaxshi komandirlilik qilardiki, tepasida turgan kattasi hamma vaqt uni namuna qilib ko'rsatardi. Tez fursatda praporshchik martabasiga mindirilgandan o'n bir yil o'tgach, podporuchiklik¹ martabasiga minganligi shu tufaylidir.

Shu orada onasining vafot qilganligidan xabar oldi. Onasining tug'ishgan egachisi bo'lmish xolasi bilan tanishligi faqat shu ediki, yoshlik chog'ida unga nashvati qoqi va o'z qo'li bilan pishirgan shirin nonlar sovg'a qilib keltirar, hatto Gadyachga ham yuborardi; xolasi Ivan Fedorovichning onasi bilan arazlashib qolganidan keyin, u xolasini ko'rmay ketgandi. Ana shu

¹ Podporuchik – Chor Rossiyasi qo'shinida: praporshchik, ya'ni eng kichik zabit unvonidan yuqori, ammo poruchikdan past harbiy zabitlik unvoni.

xolasi jiyaniga mehribonchilik yuzasidan, uning ona-dan qolgan andak mol-mulkini o'z tasarrufiga oldi va bu to'g'rida xat yozib ma'lum qildi. Ivan Fedorovich xolasining esli-hushli xotinligiga juda ishonganligi-dan xotirjam bo'lib, odatdagiday xizmatini qilaverdi. Boshqa odamga bunday martaba tekkuday bo'lsa takabburligi oshib ketardi, va lekin u takabburlikni sira bilmasdi. Podporuchik martabasiga minsما ham, fe'l-atvorini sira o'zgartirmay praporuchiklik mar-tabasida qanday bo'lsa, shu zaylda qolaverdi. Uning uchun nihoyatda muhim bo'lgan bu voqeadan keyin yana to'rt yil bu mansabda qolib, butun polk bilan baravar Mogilev gubernyasidan Velikorossiyaga safar qilmoqchi bo'lib turgan chog'ida tubandagi mazmun-da bir xat oldi:

«Marhamatli jiyanim, Ivan Fedorovich!»

Senga ko'yak-ishton yubordim. Besh juft ip pay-poq, to'rt surp ko'yak. Yana ba'zi ishlar to'g'risida sen bilan so'zlashib olmoqchiman. Martabang uncha-muncha emas, buni o'zing ham bilsang kerak, deb o'ylayman. Bundan tashqari yoshing ulg'ayib, mol-mulkingni tasarruf qila oladigan bo'lib qolding, shun-ing uchun endi askarlik xizmatini bas qilsang ham bo'ladi. Men bo'lsam qarib qoldim, ro'zg'oringni sa-ranjom qilolmayapman. Darvoqe, yana o'zingga ayta-digan ko'p gaplarim bor. Vanyusha, kel, diydoringni ko'rishga mushtoqlik tortib qoluvchi mehribon xolang

Vasilisa Supnevskaya

Chorbog'imizda sholg'om ekkan edim, nihoyatda yaxshi bo'ldi, sholg'om emas, kartoshkaga o'xshaydi».

Ivan Fedorovich bu xatni olgandan keyin bir hafta o'tgach, quyidagi javobni yozib, xolasiga yubordi:

«Hurmatli xolam, Vasilisa Kashporovna!»

Yuborgan ko'ylak-ishtoningiz uchun ko'p minnatdorman. Xususan, yuborgan paypoqlaringizga ham juda xursand bo'ldim, chunki paypoqlarim nihoyatda eskib, xizmatkorim to'rt marta yamab berdi va shu sababdan juda tor kelib qolgandi. Endi mening xizmatim borasida aytgan so'zlariningizga tamomila qo'shilaman va bugun iste'foga chiqqanima uch kun bo'ldi, ijozat olishim bilan darhol izvosh kira qilurman. Arnouud bug'doyidan urug'lik yubormoq to'g'risidagi iltimosingizni bajo keltirilmadim, chunki Mogilev gubernyasida hech qayerda bug'doyning bunday xili yo'q. Bu yoqda cho'chqanining aksarini sal achigan pivo qo'shilgan ardob berib boqadilar.

Marhamatli mehribon xola, sizga hurmat-u ehtirom bilan qolguvchi jiyaningiz

Ivan Shponkadirman».

Vaqti-soati yetib Ivan Fedorovich poruchik¹ mansabida qolib iste'fo oldi va qirq so'mga Mogilevdan Gadyachgacha bir juhudning aravasini kira qilib, daraxtlar endi barg yozib kelayotgan, yer yuzi sabzazor bo'lib, ko'klam hidi dimoqqa kirib qolgan chog'da soyavon aravaga mindi.

II

YO'L

Yolda aytishga arzigulik hech bir voqeа bo'lmasdi. Ikki haftadan ortiqroq yo'l yurishdi. Bundan ham tezroq yetishlari mumkin edi, lekin nihoyatda dindor bo'lgan juhud shanba kunlari to'xtab, yopinchig'ini yopinib olib, ertadan kechgacha toat-ibodat qilardi. Boya aytganimdek, Ivan Fedorovich xafagarchilikni

¹ Poruchik – Chor Rossiyasi qo'shinida podporuchikdan yuqori zabitlik unvoni.

o'ziga sira yaqin keltirmaydigan odam edi. Juhud toatibodat bilan mashg'ul bo'lganda, Ivan Fedorovich jomadonini ochib, kiyim-boshlarini olib, toza yuvulganmikin, yaxshi taxlanganmikin deb birma-bir ko'zdan o'tkazar, yangi tikilgan pogonsiz formasiga o'tirgan to'ztonni astagina tuflab tozalar edi. Kitob o'qishni uncha xush ko'rmas, goh-gohida fol kitobiga qarab qo'yishdan maqsadi, necha marotaba takror-takror o'qigan tanish joylarini yana bir ko'zdan kechirish edi. Shaharda turuvchi odam har kuni klubga borganida, u yerda biron ta yangi gap eshitish uchun emas, balki eskidan tanish bo'lgan va hangomalashib o'rgangan oshnalarini ko'rish uchun borgandek, u ham eskidan tanish kitobini o'qir edi. Chunonchi, mahkama amal-dori manzil kitobini kunda necha marotaba o'qiganida siyosat bobida bir hunar ko'rsatish uchun o'qimay, balki unda bosilgan nomlarni o'qib, zavqlanar edi. «Ana falonchi, falonchi o'g'li! Mana mening ham nomim bor ekan!..» – deb qo'yadi, ichida quvonib. Bu nomlarni qayta-qayta o'qisa ham zavqlanaveradi.

Ivan Fedorovich ikki hafta safarda yurgach, Gadyach shahridan yuz chaqirimlik joydagi kichkina qishloqqa yetdi. Bu qishloqqa kelib tushganida juma kuni ekan: Soyabon aravada juhud bilan hamroh bo'lib saroyxonaga tushganida kun botgan edi.

Kichkina qishloqlarning aksarisidagi saroyxonalar bilan bu saroyxona o'rtasida hech farq yo'q edi. Bu saroylarning qaysi biriga kelib tushsang yo'lovchi musofirning otdan farqi yo'qdek, oldingga darrov poxol bilan suli soladi. Garchi o'zingizni tuzukkina bir odam bilib, odam yeydigan durustroq ovqat yemoqchi bo'lsangiz, u holda nafsingizni tiya turasiz. Ivan Fedorovich bu gaplardan xabardor bo'lganidan ikki shoda teshik kulcha bilan bir bo'lak go'sht g'amlab olgan edi. Lekin araq desangiz, saroyxonalarning hammasida bu narsa serob. Shuning uchun Ivan Fedorovich bir qadah araq olib, yerga mahkamlab qadalgan qayin

stol yoniga qo'yilgan eshakka o'tirib olib, kechki ovqatni yeishga kirishdi.

Shu orada shaldiroq aravaning ovozi eshitilib qoldi, darvoza g'ijirladi, lekin arava ha deganda hovliga kelavermadidi. Birov shovqinlab traktir¹ tutgan kampir bilan koyishar edi. «Kirishga kiraman, lekin uyingda meni bitta qandala chaqqudek bo'lsa, Xudo haqi sen ajinani sog' qo'ymayman, Xudo haqi sog' qo'ymayman, pichaningga pul ham bermayman!» – degan so'z Ivan Fedorovichning qulog'iga kirdi.

Birozdan so'ng eshik ochilib, yashil chakmon kiygan semiz kishi kirib keldi, durusti zo'rg'a tiqilib kirdi. Baqbaqasi osilib, ikki qavat bo'lib ketganidan, battarroq yo'g'on ko'ringan gardanidagi boshi qimir-lamas edi. Mayda-chuyda tashvishlarga boshi sira og'rimagan va umri rohatda o'tayotgan odamlar jumlasidan ekanligi rang-ro'yidan ma'lum edi.

Kelgan odam Ivan Fedorovichni ko'ra solib:

– Marhamatli afandim, salomatmisiz! – dedi.

Ivan Fedorovich indamasdan ta'zim qilib salom berdi.

– Aybga buyurmaysiz, o'zlarini kim bo'ladilar? – dedi semiz odam.

Ivan Fedorovich uning bu so'rog'ini eshitib, beixtiyor darrov o'rnidan turdi va polkovnigi undan biron narsani so'ragandagi odatini qilib, g'oz turdi, keyin:

– Iste'foga chiqqan poruchik Ivan Fedorovich Shponka – deb javob berdi.

– Qayerga ketayotganingizni so'rasam maylimi?

– Vitrebenka qishlog'idagi o'z qo'rg'onimga.

Tergab-tejab surishtirayotgan semiz kishi Vitrebenka deng, deb taajjublangach, xuddi uning qo'llarini ushlab birov yolinini to'sgandek depsihib va qo'llarini silkib uning yaqiniga kelarkan:

– Shoshmang, shoshmang taqsir! – deb uni mah-

¹ Traktir – oshxona, takya.

kam quchoqlab oldi, so'ngra o'ng betidan, keyin chap betidan, yana o'ng betidan o'pdi. Uning bu o'pichi Ivan Fedorovichga yoqdi, chunki uning kulchadek beti semiz kishining lablariga yumshoq yostiqdek tegdi. Semiz kishi yana so'z qotib: – mumkinmi, tanishsak! Men o'sha qishloqning zamindori va sizning qo'shningiz bo'laman. Sizning qo'rg'oningizdan ko'p bo'lsa besh chaqirim nariroqda Xortishcha qishlog'ida turaman, otim – Grigoriy Grigoryevich Storchenko. Janobingiz albatta, albatta biznikiga mehmon bo'lib bormasalar juda xafa bo'laman. Hozir men zarur ish bilan shoshib turibman.

Shu paytda yengiga yamoq tushgan kazakcha chakmon kiygan, tugun va qutilarni stolga keltirib qo'yib, angrayib turgan aravakash bolasiga qarab:

– Xo'sh, bu nimasi, bu nimasi, – dedi Grigoriy Grigoryevichning ovozi tobora oshib, achchiqlangan-day bo'ldi-da, dag'dag'a bilan, – axir men senga bu narsalarni shu yerga qo'y dedimmi, shu yerga qo'y dedimmi, nomard. Avval tovuqni isitgin, demabmidim, shum? Yo'qol! – dedi dag'dag'a bilan depsinib. – Hoy bashara, shoshma! Shisha solingan quticha qani? Marhamat qiling, Ivan Fedorovich! Dorilikka! – dedi qadahni uzatarkan.

Ivan Fedorovich tutilinqirab:

– Azbaroyi Xudo, icholmayman, bir marta ichib baloga qolganman... – dedi.

– Janoblari, qo'ying, gapingizga qulq ham solmayman! Ichmaguningizcha o'rnimdan qimirlamayman, qo'ymayman... – dedi zamindor ovozini balandroq chiqarib.

Ivan Fedorovich qaytarib bo'lmasligini ko'rgach, xo'b ishtaha bilan ichib oldi.

Semiz Grigoriy Grigoryevich yog'och quti ichidagi tovuq go'shtini to'g'rarkan:

– Muhtaram afandim, bu tovuq go'shti edi. Shuni aytib qo'yayki, oshpazim Yavdoxa ba'zida qittak ichib

olishni yaxshi ko'radi, gohida juda qovjiratib yuboradi, - dedi. So'ngra ko'rpa-to'shak, yostiq ko'tarib kirib kelgan kazakcha kamzullik bolaga qarab: - hoy bolam! Menga uyning o'rtasiga o'rin sol, yostiq tagiga pichandan ko'proq qo'y, baland bo'lsin! Kampirning piltakachidan ozroq paxmoq yulib ol, kechasi qulog'imga tiqib yotay! Janobingizdan maxfiy qolmagayki, bir kun rus takyaxonalaridan birida yotganimda qulog'imga suvarak kirib ketgandan beri, kechasi qulog'imga paxta tiqib yotadigan bo'ldim. Keyin bilsam, rus mardikorlari suvarak tushgan karam sho'rvani ham yeaverar ekan. Shunday azob chekdimki, aytib tamom qilib bo'lmaydi, qulog'imning qichiganiga hech toqat qilolmadim. Shahrimizga qaytgandan keyin ancha vaqt o'tib, bir kampir tuzatdi. Qanday qilib tuzatdi deysiz? Avrab tuzatdi. Tabiblar to'g'risida janobingizning fikrlari qanday? Fikrimcha bizlarni laqillatib ahmoq qilsal kerak, deyman. Ba'zi kampirlar borki, kasalni tabibrardan yuz chandon yaxshi biladi.

- Darvoqe, juda to'g'ri aytasiz. Ba'zi kampirlar... - tuzukroq so'z topolmasdan to'xtab qoldi.

Joyi kelganda men ham shuni aytib qo'yayki, bu kishi so'zga uncha chechan emas edi. Yuraksizligidanmi yoki do'ndiribroq gapirishni istaganidanmi, har holda juda kamgap edi.

Grigoriy Grigoryevich xizmatkoriga qarab:

- Pichanni yaxshi titib tozala! Bu yerning pichani iflos bo'ladi, ehtirot qilmasang, cho'pi-churtagi xafa qiladi. Janobingizdan ijozat bolsa, sizga tinch uyqu tilab men ham yotay! Ertaga ko'risholmaymiz, chunki men tong otishi bilan yo'nga chiqaman. Sizning juhudingiz ertaga yumush qilmaydi, chunki ertaga shanba, shuning uchun siz erta turmasangiz ham bo'ladi. Iltimosimni unutmang, bizning qishloqqa bormasangiz betingizga qaramayman.

Grigoriy Grigoryevichning xizmatkori uning kamzuli va etigini yechib, yaktagini kiygizib qo'ydi. Grigoriy

Grigoryevich to'shak ustiga katta momiq to'shak tashlangandek cho'zildi.

— Hoy bola! Qayerda qolding haromi? Beri kel, ko'rparmni rostlab qo'y! Bola, yostig'im tagiga ko'proq pichan qo'y! Otlarni sug'ordingmi! Pichandan yana qo'y, bu yonboshimga qo'y! Haromi, ko'rpani tuzatib qo'ysang-chi, ha barakalla!..

Grigoriy Grigoryevich bir-ikki marta voy-voylagach, shunday pishillab uyquga ketdiki, uyni boshiga ko'targudek bo'ldi. Gohda otgan xurragidan so'rida yotgan kampir cho'chib tushib, u yon-bu yonga alan-glab qaragach, uyda hech narsa yo'qligini bilib yana bemalol uyquga ketardi.

Ertasiga Ivan Fedorovich uyqudan tursa, semiz zamindor ketib qolibdi. Yo'lda bo'lgan katta voqeа faqat shu edi. Bundan boshqa hech voqeа bo'lmasdan, ertasiga o'z qo'rg'oniga yaqinlashib qoldi.

Yel tegirmонning aylanib turgan qanoti uzoqdan ko'rinib, juhudning otlari ham qamchi zarbidan o'rлab yuqori chiqib borgan sari pastlikdagi tollar ko'rinishi bilan uning yuragiga g'ulg'ula tushib, o'ynay boshladi. Tolzor ichidagi hovuzning suvi yiltirab ko'rinar, salqin edi. Ivan Fedorovich bir vaqtlar bu hovuzda cho'milar, bolalar bilan bo'ynigacha suvga kirib qis-qichbaqa tutardi. Soyabon arava tepaga chiqishi bilan Ivan Fedorovich qamish yopgan kichkina ko'hna uyni, yoshlik chog'ida har zamonda ustiga chiqqan olma va gilos daraxtlari ko'rindi. Hovliga kirishi bilan to'rt tomondan qora targ'il olapar va boshqa itlar yugurib kelishdi. Itlarning bir nechtasi vovullab otning oyog'iga yopishdi, bir nechtasi aravaning gupchagiya moy surtilganini payqar, arava orqasidan kelardi. Oshxona oldida bir it suyakni oyog'i ostiga olib irillardi, yana biri nariroqda turib vovullar, xuddi hoy mo'min bandalar, azamatligimni qarang, degandek, dumini likillatib yugurib kelishdi. Kir ko'yakli bolalar har tomondan tomoshaga yugurib keldilar. O'n oltita

bolasini ergashtirib hovlidagi cho'chqa bir narsani fahmlagandek tumshug'ini yuqori ko'tarib, odatdagidan qattiqroq xurillardi. Hovli yuziga allaqancha sholcha yoyilib, bug'doy, arpa, tariq quritilib qo'yilibdi. Tomda ham allaqancha choy o't, semiz o't va boshqa turli alaflar qurib yotibdi.

Ivan Fedorovich bularning tomoshasiga juda mahliyo bo'lib ketgan ekan, olapar it kelib, aravasidan tu-shayotgan juhudning boldiridan tishlab olgandan keyin zo'rg'a esiga keldi. Bir oqsoch kampir, jundan ko'ylak kiygan bir juvon va ikki qizdan iborat bo'lgan xizmatkorlar har tarafdan yugurishib kelib, boyvach-chamiz kelibdilar, deb hoy-huvalashgandan keyin, xolasi qizaloqlardan Palashkani yoniga olib, ham aravakash, ham qorovul, ham bog'bon bo'lgan Omelka bilan birga chorvoqqa jo'xori ekayotganini bildirdilar. Lekin uzo-qdan chipta soyabonlik aravaga ko'zi tushgan xolasi allaqachon yetib kelgan edi. Xolasi kelishi bilan uni ko'tarib olgudek bo'lib quchoqlagan edi, qarib qoldim, kuch-quvvatdan ketdim, deb xat yozgan xolam shumi yoki bu boshqa odammi, degandek hayron bo'lib qoldi.

III

XOLA

Xolasi Vasilisa Kashporovna bu vaqtda ellik yosh chamasida edi. Sira erga tegmagan va aksari, menga bo'ydoq yashashdan yaxshi narsa yo'q, derdi. Biroq biron joydan sovchi kelganini haligacha bilmayman. Buning sababi shu ediki, erkaligi bor hammasi uning savlatidan qo'rqib, muhabbatini unga izhor qilishga botina olmasdi. Kuyovlarning hammasi «Vasilisa Kashporovna juda o'ktam!» – deyishardi. Ularning bu gapi, darvoqe, rost ham edi, chunki Vasilisa Kashporov-na har qanday odamni popugini pasaytirib qo'yardi. Qo'lidan hech bir ish kelmagan noshud, araqxo'r tegir-

monchini erkaklarnikiga o'xshagan qo'llari bilan har kuni sochidan tutib uraverib, binoyidek odam qildi. Bo'yi novchadan kelgan, basti, quvvati ham shunga yarasha polvon xotin edi. Bo'yi va jussasiga qaragan-da uzun mo'ylov qo'yib, qo'nji baland etik kiyib yursa, munosibi shu edi, lekin tabiat xato qilib, uni ulug' ayyom kunlarida, so'ngra tug'ilgan kunida kashmiri qizil shol ro'mol o'rab, boshqa kunlari to'q jigar- rang matodan mayda burmador ko'ylak kiyadigan xotin qildi. Ammo qilgan yumushlari o'ziga juda munosib edi. Qayiqqa tushsa, qayiqni har qanday baliqchidan yaxshi yurgizar, parranda otar, o'roqchilarning tepasi-dan sira ketmas, polizdagi qovun-tarvuzlarning sonini sanagandek bilar, ko'tarma yo'lidan o'tgan har aravadan besh tiyindan bosh olardi. Daraxtga chiqib nok qoqar, odamlaridan birontasi yalqovlik qilsa zabardast qo'li bilan urar, yaxshi xizmat qilganlariga yana shu zabardast qo'li bilan araq tutardi. Hali ip bo'yagan, hali oshxonaga yugurgan, hali birovni koyib ketgan, kvas pishirgan, asal qiyom qilgan hammasi o'zi edi, xullas kuni bilan tinmas, hamma ishi saranjom. Shu sababdan Ivan Fedorovichning oxirgi ro'yxat bo'yicha o'n sakkiz jondan iborat bo'lgan kichkina davlati kundan-kunga tobora rivojlanib bordi. Buning ustiga jiyanini nihoyatda yahshi ko'rganidan tergab-tejab unga chaqa to'plardi.

Ivan Fedorovich yurtiga kelishi bilan turmushi tamomila o'zgarib, juda boshqa yo'nga kirib ketdi. Tabiat uni o'n sakkiz jonga ega bo'lgan mulkning tasarrufi uchun yaratgandek ko'rindi. Xolasi ham uning tasarrufli kishi ekanini ko'rди-yu, lekin shunday bo'lsa ham xo'jalikning hammasini unga topshirmay, hozircha ba'zi ishlarga uni aralashtirmadi. Ivan Fedorovichning yoshi qirqqa yaqinlashib qolgan bo'lsa ham xolasi: «Vanya hali yosh, har narsa bilavermaydi!» – derdi.

Ammo o'roqchilar tepasida doim o'zi turar va uning yumshoq ko'ngli bundan juda xursand bolardi. O'n-

o'n beshta yiltiragan chalg'i o'roqning baravariga tushishi, o'rilgan o'tning qator-qator bo'lib yotishi, o'roqchilarning goh mehmon kutgandagidek quvnoq, goh judolik qo'shilg'idek mungli-mungli aytgan ashulalari, oqshom paytidagi tinchlik uni zavq-shavqlarga to'ldirar edi. Qanday go'zal oqshom! Havo yayragan, toza va musaffo! Butun tabiatga jon kirgan: biyobon bir qizarib, bir ko'karib tovlanadi, chamandek ochiladi. Bedanalar, dudog', baliqchi qushlar, chirildoq chigirtkalar, ming-ming har xil hasharotlarning chiyillagan, g'o'ng'illagan, chirillagan ovozi olamni tutib, ajab bir nag'ma hosil bo'ladi. Bu nag'ma hech timaydi. Oftob botib yashirindi. Qanday salqin, qanday xush havo. Unda-bunda qozon qurilib, o't yoqildi. Uzun-uzun mo'ylov dor o'roqchilar ishdan charchab qozonni o'rab o'tiradi. Qozonda qaynagan xamir oshidan chiqqan bug' tevarak-atrofga yoyildi. Shom bo'lib qorong'i tushdi... Ivan Fedorovichning bunday chog'dagi holatining tavsifi qiyin. Xamir oshini yaxshi ko'rsa ham, o'roqchilar qoshiga kelganda yaxshi ko'rgan bu ovqatidan tatib ko'rishni ham unutib, osmonda uchib borayotgan qushlarga tikilib yoki o'rib qo'yilgan bug'doy g'aramlarini sanash bilan ovora bo'lib, ag'raygancha turardi.

Tez orada Ivan Fedorovichning dong'i chiqib, uning ishbilarmonligiga hamma qoyil qoldi. Xolasi jiyandan nihoyatda xursandligini qayerda joyi kelsa, al-batta, bir maqtab qo'yardi. O'roq tamom bo'lganda, ya'ni iyul oyining oxirida bir kun Vasilisa Kashporovna ohistagina kelib, Ivan Fedorovichning qo'lidan ushlab, ko'p vaqtlardan beri ko'nglida saqlab kelgan bir ish to'g'risida so'zlashmoqchi bo'lganini aytди.

Gapini boshlab dediki:

– Jonim, Ivan Fedorovich, qo'rg'oningda senga qarashli o'n sakkiz jon borligini o'zing bilasan, ammo ro'yxatga qaraganda o'n sakkiz bolsa ham, haqiqatda ko'p, yigirma to'rttaga yetsa ham ajab emas. Lekin gap

bunda emas. Zovurning orqasidagi hov anavi daraxt-zorni-ku bilasan, daraxtzor orqasidagi yalanglikdagi pichanzorni ham bilasan. Bu yer sal kam yigirma botmon keladi, har yil yuz so'mlik o't o'rib sotsa bo'ladi, xususan, agar odamlarning gapi rost bo'lib, Gadyacha-ga otliq askar kelgan bo'sami, undan ham ortig'iga sotsa bo'ladi.

– Nega bilmay xola, bilaman, juda yaxshi o't.

– O'tning juda yaxshiligin o'zim ham bilaman, lekin bu yerning hammasi seniki ekanini bilasanmi? Nega ko'zingni baqraytiras, Ivan Fedorovich, quloq sol! Stepan Kuzmich degan odam bor edi, yodingdam? Gapimni qara-ya, nima deyapman, sen u vaqtida uning otini ham tuzukkinna aytolmaydigan go'dak eding. Xuddi o'sha kuni kelganida, seni qo'limga olgan edim, ko'ylagimni bulg'ading. Xayriyatki, seni darhol onang Matrena qo'liga tutqiza qoldim. Shunday yaramas eding!.. Lekin gap bunda ham emas. Bizning qo'rg'onimiz orqasidagi yerning hammasi Stepan Kuzmichniki edi. Xortishcha qishlog'inining o'zi ham unga qarardi. Senga shuni aytishim kerakki, Stepan Kuzmich sen dunyoga kelmasdan avval ham onang oldiga kelib turardi. Albatta, otang uyda yo'qligida. Lekin men bu gapni unga ta'na qilib aytayotganim yo'q. Marhuma doim men bilan chap edi, joyi jannatda bo'lsin, mayli! Gap bunda ham emas, nima bo'lsa ham muddao shuki, men aytgan o'sha yerni Stepan Kuzmich senga in'om qilib vasiyat qoldirgan edi. Ammo gap shu yerda qolsin, marhuma onangning g'alati xulqi bor edi, Xudoyo gapimga tavba qildim, uning odatiga shayton ham tushunolmasdi. Vasiyatnomani nima qilganini Xudodan boshqa hech kim bilmaydi, nazarimda umri bo'ydoq o'tgan anov Grigoriy Grigoryevich Storchenko qo'lida bo'lsa kerak. Stepan Kuzmichning hamma mol-mulki ana shu semiz mut-tahamga qoldi. Vasiyatnomani shu odam yashirgan bo'lmasa men har narsa bo'lay.

– Xola, shoshmay turing, Storchenko degan oda-mingiz men bekatda tanishgan kishi emasmi? – Ivan Fedorovich bekatda uchrashgani haqida so'zlab berdi.

Xolasi biroz andishadan so'ng:

– Kim bilsin, balki yomon odam emasdir, ularning bu yerga ko'chib kelganiga ham atigi yarim yilgina bo'ldi, yarim yilda birovni darrov tanib bo'lmaydi. Kam-pir onasi juda aqli xotin deb eshitaman, yana bodring tuzlashga nihoyatda usta ekan, deb ham eshitdim. U kishining qizlari juda yaxshi gilam to'qir emish. Agar aytganingdek senga yaxshi muomala qilgan bo'lsa, borib kel oldiga! Zora muttaham nomard insofga kelib, birovning omonatiga xiyonat qilmay o'ziga qaytarsa. Brichka aravani qo'shib borsang ham bo'ladi, biroq shum bolalar orqasidagi mixlarini sug'urib olibdi. Ara-vakash Omelkaga aytay, ko'chib ketgan charmni yax-shilab qoqib qo'yisin.

– Xola, ovora bo'lib nima qilasiz. Ba'zida parranda oviga chiqqanizingizda siz minadigan aravani qo'sha qolaman.

Suhbatlari shu bilan tamom bo'ldi.

IV

ZIYOFAT

Ivan Fedorovich tush vaqtida Xortishcha qishlog'iga kirib keldi. Boyning uyiga yaqin kelganda yuragi sal uvishdi. Boyning uyi, bu atrofdagi aksari zamindor-larning uyiga o'xshab qamish emas taxta tom edi. Hov-lidagi ikki omborxonaning tomi ham taxtadan, dar-vozasi esa qayin taxtadan edi. Ivan Fedorovich katta ziyofat majlisiga kelib, qayoqqa qarasa undan yaxshi-roq kiyinganlar ichida qolgan olifta yigitga o'xshardi. Uy egasiga hurmat yuzasidan, aravasini omborxona oldiga qo'yib, ostonagacha piyoda bordi. Bo'yinbog'siz, yelkabog'siz kamzul kiyib hovlida yurgan semiz

Grigoriy Grigoryevich kelgan mehmonga ko'zi tushdi. Kamzuli ham unga og'irlilik qilib turganday ko'rinaridi, chunki yuzidan sharillab ter oqardi.

– Ha, Ivan Fedorovich! – dedi. – Xolamga ko'rinish berib, keyin darrov oldingizga boraman, degan edingiz, nega kelmadingiz? – dedi yana. Bu so'zlardan keyin Ivan Fedorovichning lablari yana o'sha yumshoq yostiqqa tegdi.

– Ro'zg'or tashvishlari bilan band bo'ldim... Oldingizga birpasga keldim, andak yumush bilan...

– Birpasga? Bu gapingiz behuda! – dedi. Keyin semiz mezbon: – hoy bolakay! – deb qichqirishi bilan kazakcha kamzul kiygan bola otxonadan yugurib chiqdi. – Kasyanga ayt, darrov darvozani berkitsin, eshitdingmi, mahkam berkitib qo'ysin! Boyvachchaning otlarini darrov chiqarib qo'ysin! Qani ichkari kiring, bu yer juda issiq, ko'ylagim ivib ketganini qarang.

Ivan Fedorovich ichkari uyga kirishi bilan fursatni qo'ldan bermaslikka qaror qildi. Yuragi dadil bo'lmasa ham «bir botinib ko'ray», dedi.

– Xolam sizga... Xolam menga aytdiki, marhum Stepan Kuzmichning vasiyatnomasi...

Bu so'zlarni eshitgan Grigoriy Grigoryevichning tovoqday yuzi qanday suratga kirganini ta'rif qilib bo'lmaydi.

– Azbaroyi Xudo, qulog'im sira eshitmaydi. Sizga aytib qo'yayki, chap qulog'imga suvarak kirib ketgan. Nomard mujiklar hamma yoqqa suvarak yoyib yubordi. Tortgan azobimni qalam bilan yozib, ado qilib bo'lmaydi. Qulog'imda g'imirlagani-g'imirlagan, hayriyat bir kam-pir davolab tuzatdi...

Ivan Fedorovich qarasa, Grigoriy Grigoryevich jo'rttaga gapni boshqa yoqqa burmoqchi. Buni fahmlab uning so'zini boldi:

– Aytmoqchimanki, marhum Stepan Kuzmichning vasiyatnomasida yer in'om qilinganligi mazkur ekan, bu vasiyatga ko'ra menga...

– Bildim, xolangiz allaqachon xo'b uqtiribdi. Lekin bu gaplar yolg'on, azbaroyi Xudo, yolg'on! Ama kim hech qanday in'omnoma qoldirgan emas, garchi vasiyatnomada bu haqda aytilgan bo'lsa ham, lekin in'omnomaning o'zi yo'q, hech kim uni ko'rsatgani yo'q. Bu gaplarni sizga samimiy xayrixohlikdan, sizga yaxshilik tilaganimdan aytaman. Xudo haqi, yolg'on!

Ivan Fedorovich, darvoqe xolam noto'g'ri xayol qilgan bo'lsa ham ajab emas, degan mulohazaga borib, indayolmay qoldi.

– Onamiz singillarim bilan kelyabdilar, ovqat tayyor bo'lgandir, qani yuring! – deb Ivan Fedorovichning qo'lidan tutib, araq va ovqat qo'yib, dasturxon yozilgan xonaga boshlab ketdi.

Shu chog'da boshini sirib, tang'ib olgan pak-pakana kampir, birining sochi malla, birining sochi qora ikki qiz bilan boshlashib kelib kirdi. Ivan Fedorovich odobli yigit bo'lganidan avval kampirning, so'ngra ikki qizning qo'llini ushlab ko'rishdi.

– Ona, bu kishi qo'shnimiz Ivan Fedorovich Shponka! – dedi Grigoriy Grigoryevich.

Kampir Ivan Fedorovichga tikilib qoldi yoki faqat tikilgandek bo'lgan esa ham ehtimol, har holda kampir nihoyatda yaxshi ayol edi. Uning yuzi xuddi, Ivan Fedorovich, qishga qancha bodring tuzlaysiz, deb so'ramoqchi bo'lib turganga o'xshardi.

– Araq ichasizmi? – deb so'radi kampir.

– Onajon, bugun uyqungiz chala bo'lganga o'xshaydi. So'rab bergancha urib ber, deyishgan. Siz mehmon qilavering, ichamizmi, yo'qmi unisini o'zimiz bilamiz, – dedi Grigoriy Grigoryevich. – Ivan Fedorovich! Marhamat qiling, chog'irning qaysi navini xush ko'rasiz, ming oltin xilidan ichasizmi yoki Traximovnididanmi? Grigoriy Grigoryevich orqasiga qayrilib qaragach: – Ivan Ivanovich, nega qarab turibsan? – dedi.

Shu paytda Ivan Fedorovichning ko'zi uzun kamzulining baland yoqasi gardanini o'rab olgan Ivan Ivanovich-

ga tushdi. Yoqasining balandligidan, boshi aravaga tushib olgan kishining boshidek qo'nqayib turardi.

Ivan Ivanovich araqqqa yaqin kelib o'tirdi. Qo'llarini ishqalab, qadahlarni xo'b tomosha qilgach, araqdan quyib yoruqqa solib ko'rgach, bir qadah araqni og'ziga quyib yubordi. Lekin darrov yutib yubormay, avval og'zini xo'b chayqab, keyin yutdi. Tuzlagan qo'ziqorinni nonga qo'shib yeb olgach, Ivan Fedorovichga qarab dedi:

– Hurmatli Ivan Fedorovich Shponka bilan gapla-shayotgan bo'lsam kerak?

– Balli, – dedi javobida Ivan Fedorovich.

– Sizni tanigan vaqtimdan beri juda o'zgarib ketibsiz, – dedi Ivan Ivanovich. So'ogra yana so'z boshlab:

– Men sizni mana bunday vaqtingizdan beri bilaman,

– kaftini yerdan bir gaz baland ko'tarib ko'rsatdi. –

Marhum otangiz, joyi jannatda bo'lsin, juda topilmaydigan odam edi. U kishining qovun-tarvuzlari shunday bitar ediki, endi unday qovun-tarvuzni hech qayerdan topolmaysiz. – Keyin Ivan Fedorovichni bir chekkaga tortib: – Mana bu yerda ham hali qovun keltiradilar, ko'rasiz, shuyam qovunmi, qaragingiz kelmaydi, – deb qo'ydi. Keyin xuddi bir sir aytayotgandek ohista so'zlab va yo'g'on daraxtni quchmoqchi bo'lgandek qo'llarini yozib: – Janobingiz ishonsalar, ishonmasalar ham, azbaroyi Xudo, mana bunaqa tarvuzlar bo'lardi! – dedi.

Grigoriy Grigoryevich Ivan Fedorovichning qo'lidan ushlab:

– Qani dasturxon ga o'tiringlar! – dedi.

Hammalari birgalashib dasturxon yozilgan uyga kirdi. Grigoriy Grigoryevich o'zining doim o'tiradigan joyiga o'tirdi va kattakon sochiqni bo'yniga ilib oldi. Uning bu turishi sartaroshlarning o'z viveskalariga solib qo'yadigan suratga o'xshardi. Ivan Fedorovich qizaringirab ikki qizning ro'parasidan ko'rsatilgan o'ringa o'tirdi. Ivan Ivanovich bo'lsa o'z bilganlarini aytib, xo'b

gaplashib oladigan odam topganiga ich-ichidan quvonib, darrov Ivan Fedorovichning pinjiga kirib oldi.

Qoradan yamoq tushgan kulrang kamzul kiygan xizmatkor laganda ovqat keltirdi. Kampir Ivan Fedorovichga qarab:

– Kurka-tovuq edi, dumg'azasini olib bekor qildingiz! To'shini oling edi! – dedi.

Grigoriy Grigoryevich onasiga qarab;

– Ona, kim aytdi sizga aralashing, deb! Qayerini olishni mehmonning o'zi biladi! Ivan Fedorovich oling, manovi qanoti bilan putakasini oling! Muncha kam oldingiz? Oling, sonini oling. Sen nima qilib qo'lingda lagan bilan ag'rayib qolding? Oling degin! Haromi, tiz-zalab o'tirib so'rakin! Ayt darrov, Ivan Fedorovich sonini oling, degin!

Laganda ovqat ko'tarib kelgan xizmatkor darrov cho'kkalab:

– Ivan Fedorovich oling, sonini oling! – dedi.

Ivan Ivanovich yoniga o'tirgan mehmonga qarab, ovqatni mensimagandek:

– Hm, qanday tovuq ekan! – deb qo'ydi. – Kurka tovuq bunday bo'ladi? Menikidagi tovuqlarni ko'ring! Ishoning, ishonmang har birining moyi bu xil tovuqning o'ntasini moyiga teng keladi. Ishonasizmi axir, semizligi shunchalikki, hovlida yurganida ko'nglim aynib, qaragim ham kelmaydi!..

Grigoriy Grigoryevich uning so'ziga qulop solib turib:

– Ivan Ivanovich, yolg'on so'zlayabsan! – dedi.

Ivan Ivanovich uning so'zini eshitmagan bo'lib, Ivan Fedorovich bilan so'zlashaverdi:

– Men sizga aytsam o'tgan yil shaharga yuborganimda, har donasiga ellik tiyindan berishdi, shunda ham sotgim kelmadi, – dedi.

Grigoriy Grigoryevich yaxshiroq eshitsin, deb tovushini avvalgidan balandroq chiqazib, salmoq bilan dedi:

– Ivan Ivanovich, yolg'on aytasan, deyman!

Lekin Ivan Ivanovich, bu gaplarning unga sira tegishligi yo'qdek, bemalol gaplashaverdi, faqat endi tovushini ancha pasaytirib, ohistaroq so'zлади:

– Taqsir, bergim kelmaganligi rost. Gadyach shahridagi zamindorlarning bittasida ham...

– Ivan Ivanovich! Axir sen qip-qizil nodon sen, – dedi Grigoriy Grigoryevich qattiqroq. – Axir Ivan Fedorovich sendan ko'ra yaxshiroq biladi va sening gaplaringga ishonmasa ham kerak.

Ivan Ivanovich nihoyatda xafa bo'lib ko'ngli qirildi va indamasdan tovuq go'shtiga tutindi. Uning hovlisidagi semizligidan ko'rgan odamning ko'ngli ayniydigan tovuqdek semiz bo'lmasa ham, xo'b tushirdi.

Suhbat to'xtab pichoq, qoshiq va laganlarning chaqir-chuquri boshlandi. Xususan, Grigoriy Grigoryevichning ilik qoqishi hammadan qattiqroq eshitilardi.

Biroz jim turishgandan so'ng Ivan Ivanovich yoqasidan bo'yinini cho'zib, Ivan Fedorovichga qarab dedi:

– «Korobeynikovning muqaddas joylarga sayohati»¹ kitobini o'qiganmisiz? Jon-u taningizning rohati! Endi bu xil kitoblarni chop qilishmaydi! Afsuski yiliga qaramapman.

Ivan Fedorovich suhbat kitobga ko'chganini bilib, qovurmaning sho'rvasiga hafsalan qilib qoldi.

– Janobingizga aystsam, darvoqe ajoyib, anchayin odam shuncha yurtni ko'rib kelganligi hazil emas. Axir taqsir, uch ming chaqirimdan ortig'-a! Uch ming chaqirim-a. Xudo nasibasini qo'shma, Falastin-u Quddus shariflarga kim bora oladi!

Mahramidan Quddus sharif to'g'risida har xil gaplarni ko'p eshitgan Ivan Fedorovich:

– Quddus sharifga ham borgan deysizmi? – dedi.

¹ «Moskvalik savdogar Trifon Korobeynikovning bir necha hamrohlari bilan birga Quddusga, Misr va Sino tog'iga 1568-yilda qilgan sayohati» kitobi. Ushbu asar 1783-yilda ilk bora nashrdan chiqqan.

Kursining bir chekkasida o'tirgan Grigoriy Grigoryevich:

– Gapingiz nima ustida, Ivan Fedorovich? – dedi.

– Men, ya'ni ro'yi zaminda qanday olis mamlakatlar borligini aytayotgan edim, – dedi Ivan Fedorovich bunday uzun va qiyin gapini eplab gapirganiga ich-ichidan quvonib.

Grigoriy Grigoryevich Ivan Ivanovichning so'zini yaxshi tinglamagan bolsa ham:

– Ivan Fedorovich, buning so'ziga ishonmang, hammasi yolg'on! – dedi.

Shu orada ovqatlanib boldilar. Grigoriy Grigoryevich odati bo'yicha andak uxbab olish uchun o'z uyiga kirib ketdi. Mehmonlar kampir va qizlar bilan boshlashib, mehmonxonaga kirishdi. Bunda ular ovqatga kirib ketganda ustida araq qolgan xontaxta ustiga qaysi bir hikmat bilan dasturxon yozilib, har xil qiyomlar, tarvuz, qovun va olchalar paydo bo'lib qolibdi.

Grigoriy Grigoryevichning yo'qligi bilinib turardi. Kampir ancha sergap bo'lib, hech kim so'ramasa ham mevadan holva qilish, nashvatini qanday qoqi qilish to'g'risida hech kim bilmagan ko'p hikmatlarni so'zlab berdi. Hatto qizlar ham tilga kirib ketdi. Ammo opasidan olti yosh kichik bo'lib, bu chog'da aftidan yigirma beshlarga borib qolgan malla sochligi hali ham indamay turardi.

Lekin Ivan Ivanovich hammadan sergap va serharakat edi.

Endi uning gapidan yanglishtiradigan va xalaqit beradigan hech kim yo'qligini bilib, bodring-u kartoshka, hech narsa qolmay gapiraverdi va qadimgilarning endigilarga qaraganda ancha aqli bo'lganlari va endi hamma tobora quv bo'lib, har xil g'alati narsalar chiqarayotganligi to'g'risida so'zlab ketdi. Xullas bu odam, bemaza hangomadan juda zavq oladigan va bolalar-bo'lmas har narsa to'g'risida so'zlayveradigan kishilar jumlasidan edi. Agar gap aziz va muborak

narsalar borasiga o'tsa, Ivan Ivanovich har gapda bir uf tortib, boshini chayqab qo'yardi. Garchi suhbat dunyoviy ishlar borasiga o'tsa, gardanini cho'zib yo-qasidan chiqarib, vajohatini shunday o'zgartirar ediki, uning bu chog'dagi vajohatini ko'rgan odam nashvatini kvas qilish qoidasini o'qiyverar, u aytgan qovunlarning qanday kattaligini, uning hovlisida yurgan g'ozlarning qanday semizligini ko'rib turgandek bo'laverardi.

Ivan Fedorovich kechgacha o'tirib, kech kirgach zo'rg'a xayrlashdi. Garchi gapga ko'nadigan, bo'shligiga va yotib qolning deb ko'p qistashlariga qaramay, qilgan jazmidan qaytmay jo'nab ketdi.

V

XOLANING YANA BIR G'ALAMISLIGI

– Xo'sh nima qilding? Eski noinsofdan xatni olding-mi? – Eshik tagiga chiqib bir necha soatdan beri uning kelishini kutib o'tirgan va kelavermaganidan toqati toq bo'lib, darvozaxonaga yugurib chiqqan xolasi jiyani kelishi bilan darrov shuni so'radi.

Ivan Fedorovich aravadan tushib turib:

– Yo'q, xola, Grigoriy Grigoryevichning qo'lida hech qanday xat yo'q ekan, – dedi.

– Uning gapiga ishondingmi? Yolg'on aytibdi, bad-baxt! Mabodo duch kelib qolsam, o'z qo'lim bilan yaxshilab savalayman. Shoshmasin, shunday tobga olayki, biroq avval o'zimizning dodxoh sudimiz bilan so'zlashib ko'rish lozim, sud bilan olib bo'lmasmikin... Lekin hozir gap bunda emas. Xo'sh ziyofat tuzuk bo'ldimi?

– Juda...a xola, juda yaxshi bo'ldi.

– Qani gapirib ber-chi, qanday ovqatlar qo'ydi? Kampirning pazandaligidan-ku xabarim bor-a!

– Xola, somsani qaymoqqa botirib yedik, kaptar do'lma yedik...

– G‘aynoli qo‘sib pishirilgan kurka-tovuq go‘shti yemadingizmi? – deb so‘radi xolasi, chunki bu ovqatga o‘zi juda pazanda edi.

– Kurka-tovuq ham bor edi!.. Grigoriy Grigoryevichning nihoyatda chiroyli singillari bor ekan. Xususan, malla sochligi!

Xolasi:

– Nima? – deb Ivan Fedorovichga qattiq tikilib qaragandi, u qizarib yerga qaradi. Uning miyasida darhol yangi fikr tug‘ildi. Darrov muloyim ohangda: – xo‘s? Ha, nima jimb qolding? Qoshlari qanday ekan? – deb so‘radi. Shuni aytish kerakki, xolasi xotin kishining husni hammadan avval qoshida bo‘ladi, deb bilardi.

– Yoshlik chog‘ingizdagи qoshingizni maqtar edingizku, uning qoshi ham xuddi sizning yoshligingizdagи qoshingizga o‘xshar ekan. Yuzlari mayda seckilli ekan.

Xolasiga xushomad qilish Ivan Fedorovichning xayoliga kelmagan bolsa ham, uning boyagi gapidan xolasining dimog‘i chog‘ bo‘lib:

– Ha! Ko‘ylagi qanday ekan? Lekin endi mening ustimdagi ko‘ylagim singari pishiq mato topib bo‘lmaydi. Ammo gap bunda emas. Xo‘p, lekin sen qiz bilan gaplashdingmi?

– Ya‘ni, xola, nima demoqchisiz?.. Balki siz allaqachon o‘ylayotgandirsizki...

– Nima qilibdi, buning ajablanarli tomoni yo‘q, Xudoning aytgani bo‘ladi. U qiz bilan just bo‘lish peshonangga yozilgan bo‘lishi mumkin!

– Xola, bunday gapga tilingiz borganiga hayronman. Bas, ma‘lum bo‘ldiki, siz meni yaxshi bilmas ekansiz...

Xolasi:

– Ana xolos, darrov xafa bo‘ldi! – deb qo‘ygach, «Xali yosh hech narsani bilmaydi, ikkovini bir-biri bilan uchrashadirish kerak, tanishishsin!» – degan fikrni ko‘nglidan o‘tkazdi.

Xolasi oshxonaga kirib ketdi. Ivan Fedorovich yolg‘iz qoldi. Ammo xolasi shu kundan boshlab tez-

roq jiyanini uylantirish va nabiralar ko'rish xayoliga tushib qoldi. Fikri-zikri to'ya tayyorgarlik bo'lib, ancha behalovat bo'lib qolganligi har bir harakatidan ma'lum bo'lib turardi. Lekin besaranjom va bexalovatligidan ishlari qaytaga sira unmaydigan bo'lib qoldi. Somsani avvallari ham oqsoch xotinga ishonmasdan o'zi pishirar va aksari somsa pishirayotganda xayoli qochib, mazmuni orqasida nabirasi somsa, deb harxasha qilayotgandek xayol qilsa kerak, somsadan bir burdasini orqasiga uzatganida, kuchugi fursatni g'animat bilib olib qochardi. Somsani yeganda ku-chukning irillaganini eshitib, keyin esa o'ziga kelib, kosov bilan uni urib ketardi. Eng xush ko'rgan ishi ov qilish edi, buni ham tark qilib qo'ydi. Bir kun kaklik deb qarg'ani otib qo'ygandan keyin, ovga chiqmay qo'ydi, chunki bunday xatoni avval sira qilmagandi.

Oradan to'rt kuncha o'tgach, bir kun qarashsa bostirma tagida turgan arava hovliga chiqib qolibdi. Aravakashlikdan tashqari qorovullik va bog'bonlik vazifasini ham o'tovchi Omelko sahardan turib aravaning ko'chib ketgan charmini mixlab taqir-tuqur qilardi. Itlar har tarafdan kelib aravaning g'ildiragini ylashar, Omelko bo'lsa tinmasdan ularni quvlardi. O'quvchilarni ogohlantirib qo'yishni o'zimga burch bilib aytamanki, odam Atodan qolgan arava xuddi shu edi. Mabodo birov chiqib boshqa bir aravani odam Atodan qolgan deb da'vo qilgudek bo'lsa, g'irt yolg'onchi, shak-shubhasiz qallobdir. Bu aravaning to'fondan qanday omon qolganligini hech kim bilmaydi. Nuh Alayhissalomning kemasida unga alohida bir joy tayinlangan ekan, deyish lozim bo'ladi. Aravanning suratini ta'rif va tavsif qilish imkonи yo'qligiga achinamiz. Shuni aytib qo'ya qolamizki, aravaning suratidan egasi juda rozi edi va eskicha aravalarning oyoqdan qolib, botib ketganligiga juda afsuslanardi. Arava bir tomonga qiyshayib turar, ya'ni o'ng tomoni chap tomonidan ancha baland bo'lib, bu Vasilisa

Kashporovnaga yoqardi, chunki bir tomonidan baland bo'yililar minsса, bir tomonidan past bo'yililar minadi, derdi. Aravaga past bo'yilardan besh kishi, xolaga o'xshaganlardan yana uch kishi sig'ardi.

Aravakash aravani rostlash bilan ovora bo'lib, tush paytida otxonadagi uch otli izvoshga qo'shiladigan otning uchovini chiqarib, haligi savlatli aravaga qo'shdi. Aravaning jabduqlari arg'amchidan edi. Ivan Fedorovich chap tomondan, xolasi o'ng tomondan aravaga minib jo'nadilar. Yo'lda uchragan mardikorlar bunday basavlat aravani ko'rib, bosh kiyimlarini olib, ikki bukilib salom berardi. Chunki xolasi bu aravani ahyon-ahyonda bir minardi. Arava ikki soat yo'l yurib, birovning zinasi oldiga kelib to'xtadi. Kimnikiga kelib to'xtaganini aytib o'tirmasak ham bo'ladi, deb o'ylayman. Storchenkoning zinasi oldiga kelib to'xtaganligi ma'lum bo'lsa kerak. Grigoriy Grigoryevich uyda yo'q edi. Kampir bilan ikki qiz mehmonlarni mehmonxonada kutib oldilar. Xola savlat bilan kerilib kelib, bir oyog'ini oldinga chiqarib qattiq ovoz bilan dedi:

- Bekam, sizga bo'lgan izzat va hurmatimni shaxsan arz qilish menga tuyassar bo'lganligi uchun shodman. Izzat va hurmatimni bildirish bilan birga, jiyanim Ivan Fedorovichga qilgan muruvvatingiz uchun nihoyatda minnatdorligimni ham bildiraman. U kishi muruvvatingizni ko'p maqtadilar. Xonim, qora bug'doyingiz xo'b yaxshi bitibdi, qishloqqa kiraverish joyida ekan, ko'rib keldim. Bemalol bo'lsa aystsangiz, botmon yerdan necha g'aram olasiz?

Bundan keyin hammalari o'pishib ketdilar. Mehmonxonaga kirib o'tirishgandan keyin kampir so'z boshladi:

- Qora bug'doy to'g'risida sizga hech narsa deyolmayman, buni Grigoriy Grigoryevichdan so'raysiz. Anchadan beri bu ishlar bilan shug'ullanmayman, qo'llimdan ham kelmaydi, qarib qoldim. Avvallari qora bug'doyimiz belboqqa chiqardi, endi bilmayman, nima

Xudo urdi. Qaydam, avvalgidan endi yaxshi deyishardi. – Kampir bu o'rinda bir oh tortib, hasrat chekib qo'ydi. Agar bunga diqqat qilib turgan odam bo'lsayu, uning ohini eshitsa, o'tib ketgan qadimgi XVIII asr hasrati ekanini fahmlardi.

– Xonim, qizlaringiz nihoyatda yaxshi gilam to'qir emishlar, deb eshitdim, – dedi Vasilisa Kashporovna. Uning bu gapi kampirning nozik tuyg'ularini qo'zg'atib, ko'ngliga juda ta'sir qildi shekilli, ip qilish va bo'yash qoidalari to'g'risida sayrab ketdi. Gilam borasidagi gaplar tamom bolgach, tuzlagan bodring bilan nashvat qoqi gapi boshlandi. Xullas oradan bir soat o'tar-o'tmas ikki xonim xuddi qadimgan oshno kishilardek apoq-chapoq bo'lib ketishdi. Vasilisa Kashporovna ko'p gaplarni faqat uning o'ziga eshittirib ohista-ohista gapir-gidan Ivan Fedorovich bu so'zlarni hech eshitolmadi.

Uy egasi kampir o'rnidan turib:

– Bir aylanib kelmaysizlarmi? – dedi.

Kampir ketidan qizlar bilan Vasilisa Kashporovna ham turib, hammalari qizlar haramxonasiga qarab yurdi. Biroq xolasi Ivan Fedorovichga shu yerda qolgin, deb ishora qildi va kampirga shivirlab bir narsa dedi.

Kampir malla sochli qizga qarab:

– Mashenka! Sen mehmon bilan gaplashib o'tira tur, zerikib qolmasinlar! – dedi.

Qiz mehmonxonadan chiqmay shu yerda qolib, divanga o'tirdi. Ivan Fedorovich o'z kursisida bezovta bo'lib, qizarib-bo'zarib ko'zini yerga tikib, nina qadal-gandek zo'rg'a o'tirardi. Lekin qiz uning bu holini sira payqamaganday bo'lib, deraza va devorlar tomoshasi bilan mashg'ul edi, yo bo'lmasa kursilarning oyog'i orasida o'ralashib yurgan mushukdan ko'zini olmay, hech narsaga parvo qilmagandek o'tirardi.

Birozdan so'ng Ivan Fedorovichga dalda kirib, so'z boshlamoqchi bo'lib ko'rdi, ammo bilgan gaplarining hammasini yolda tushirib qo'yganga o'xshardi. Hech bir gap fikr esiga kelmadni.

Chorak soatcha indamasdan o'tirishdi. Qiz ham o'tiraverdi.

Ivan Fedorovich nihoyat jasorat qilib, qaltiraganroq ovoz bilan:

– Yoz bo'lsa pashsha ko'payadi-da, oyim! – dedi.

Qiz javobida:

– Nihoyatda ko'payadi! Akam atayin ovora bo'lib onamning eski kovushidan yelpig'ich qilib qo'ydi, shunday bo'lsa ham pashsha juda ko'p, – dedi.

Bu gapdan keyin suhbat yana to'xtadi. Ivan Fedorovich hech gap topolmadi.

Xolasi kampir va qora soch qiz bilan qaytib kelishdi. Kampir bilan qizlar yotib qolinglar deb, har qancha qis-tasalar ham bo'lmay, yana biroz gaplashib o'tirgandan keyin Vasilisa Kashporovna ketmoqchi bo'lib xayrlashdi. Kampir bilan ikki qiz mehmonlarni kuzatib eshikkacha chiqdi. Xola bilan jiyan anchagacha aravadan boshlarini chiqazib xayrlasha-xayrlasha jo'nadilar.

Yo'lda xolasi:

– Xo'sh, Ivan Fedorovich, qiz bilan yolg'iz qolganingizda nimani so'zlashdingiz? – deb so'radi.

Mariya Grigoryevna nihoyatda xushfe'l va odobli qiz ekan, – dedi Ivan Fedorovich.

– Gapimga qulq sol, Ivan Fedorovich! Sen bilan astoydil so'zlashmoqchiman. Yoshing, Xudoga shukr, o'ttiz sakkizga borib qolding. Martabang ham yomon emas, endi oila qurib, bola-chaqalik bo'lish vaqt ham keldi! Albatta, bir xotin olmog'ing lozim...

Ivan Fedorovichning quti uchib:

– Xola, nimalar deyapsiz! Xotin ol deysizmi! Aslo xola, marhamatingizga balli... Meni juda uyaltir dingiz... Haligacha sira o'ylaganim yo'q xotinni nima qilishimni bilmayman!

Xolasi kulimsirab:

– Bilibqolarsan, Ivan Fedorovich, bilibqolarsan, –dedi. Keyin ichida o'ylab: «Albatta, hali yosh, nimani bilsin!» – degach, jiyaniga boqib: – ha, Ivan Fedorovich, Mariya

Grigoryevnadan boshqa yaxshi xotin topolmaysan. So'ngra o'zingga ham u ancha yoqqanga o'xshaydi. Kampir ikkovimiz bu borada ancha so'zlashdik, uning ham seni kuyov qilgisi bor. Lekin fosiq Grigoryevichning bunga nima deyishi hali ma'lum emas, lekin biz, uning nima deyishiga qarab o'tirmaymiz, mabodo qizning moli va sepini bermayman deydigan bo'lsa, unda sud bilan...

Shu paytda arava hovlilariga yetib qoldi. Qirchang'i qari otlar ham og'ilxonanining hidini bilib, ancha ildam-ladi.

— Omelko, menga qara, otlarni chiqargandan keyin darrov sug'orma, hozir issiqlab turibdi, avval yaxshilab sovutgin, — dedi xolasi. So'ngra aravadan tusharkan, jiyaniga qarab: — endi, Ivan Fedorovich, senga maslahatim shuki, yaxshilab o'yla. Men darrov oshxonaga kirib chiqay, ketayotganda, Soloxaga ovqat qilib qo'ygin, deb buyurib ketmapman. U juvonmarg esiga kelib, o'zi qilib qo'ymagandir, — dedi.

Lekin Ivan Fedorovich karaxt odamdek esi og'ib, anqayib turardi. Mariya Grigoryevnaning husni yomon emas, lekin uylanishga kelsak!.. Xotin olish unga juda g'alati ko'rinar, uylanish desa quti uchardi. Xotin olib birga yashash!.. Bunga uning aslo aqli yetmasdi. O'z uyida yolg'iz emas, birov bilan birga tursin!.. Bu to'g'rida o'ylagan sari vahimasi oshib, ter bosardi.

Bugun har kundagidan avvalroq yotdi, lekin har qancha urinsa ham uxbay olmadi. Ancha uyg'oq yotgandan keyin, hammaga orom beruvchi uyqu, nihoyat unga ham yetib uyquga kirdi. Lekin qanaqa uyqu! Bunday bemaza, poyma-poy tushni hech ko'rmagan edi. Bir mahal tush ko'rsa, atrofida nimaiki bor, hammasi to's-to'polon ko'tarib o'ynar, uning o'zi bo'lsa, oyog'i bor-yo'qligini bilmay chopar emish... Chopa-chopa tinkasi qurib turganida, to'satdan biroz kelib qulog'idan cho'zib qoldi. «Voy, voy kim?» «Men, xotiningman!» — dedi

birov baqirib. Shu paytda uyg'onib qoldi. Xayolida allaqachon uylangan, uyida g'alati, ajoyib ishlar bo'lib ketgandek ko'rindi. Bir kishilik karavot o'rniga ikki kishilik karavot turgandek. Kursida xotini o'tiribdi, lekin unga juda g'alati tuyiladi, qanday qilib uning yaqiniga borishni, nima gapirishni bilmaydi. Xotinining yuziga qarasa, uning yuzi g'udda bosgan g'adir-budur emish. Bu yoniga qayrilib qarasa bu yog'ida yana bir xotini o'tirgan mish, buning ham yuzi g'adir-budur emish. Bu yoniga qarasa yana bir xotin, orqasiga qarasa, u yoqda ham bir xotin o'tirgan mish. Bularni ko'rib, g'am bosib, yugurgancha boqqa qochib chiqdi. Boqqa chiqsa issiq, boshidan shlyapasini olsa, shlyapasida ham bir xotin o'tirgan mish. Terlab ketib ro'molchasini olmoqchi bo'lib cho'ntagiga qo'l solsa, cho'ntagida ham bir xotin o'tirgan mish. Qulog'iga tiqib qo'yilgan paxtasini olsa, unda ham bir xotin o'tirgan mish... Bir mahal qarasa, bir oyog'i bilan hakkalab ketyabdi, xolasi bo'lsa, uning hakkalashini ko'rib, astoydil: «Ha, hakkalayver, chunki xotinlik bo'lding», – dermish. Xolasiga yaqinroq kelsa, xolasi emas, mezana emish. Birov uning bo'yniga arqon bog'lab mezanga tortayotgan emish. Yig'lagudek bo'lib: «Meni sudrayotgan kim?» – desa, «Xotiningman, sen kim-san, mezanaga osmoqchiman» – dermish. U bo'lsa baqirib: «Men jom emasman, Ivan Fedorovich bo'la man!» – dermish. P... polkining polkovnigi bu yerdan o'tib turib: «Balli! Jomsan» – dermish. Yoki bir mahal tush ko'rsa xotini odam emas, allaqanday jun gazlama emish, Ivan Fedorovichning o'zi Mogilev shahrida bir do'konda turgan mish. Do'kondor: «Qanday mol kerak? Xotin degan mato bor, juda yaxshi, shundan oling, juda chidaydigan, hozir hamma shundan kiyim tiktiyabdi», – dermish. Do'kondor xotin o'lchab, yirtib bersa, Ivan Fedorovich qo'lltig'iga olib, mashinachi juhud oldiga kelgan mish, lekin juhud: «Bo'lmaydi,

matoingiz yaramaydi, bunday matodan hech kim kiyim tiktirmaydi», – dermish.

Ivan Fedorovich vahimasidan hushi uchib, uyg'onib ketdi. A'zoyi badanidan sovuq ter chiqib ketdi.

Ertalab o'rnidan tura solib, fol kitobiga qaradi. Beg'araz va boriyo saxiylikda yagona bo'lgan bir kitob sotuvchi savob uchun fol kitobining oxiriga muxtasar ta'birnomha ham ilova qilib qo'ygan ekan. Ammo af-suski, mazkur ta'birnomada Ivan Fedorovich ko'rgan poyma-poy tushlarning ta'biri yo'q ekan.

Bu orada xolasining boshida yana boshqa yangi mojaro fikri tug'ildi, lekin bu mojaroni endi kelasi bobdan bilasiz¹.

JIN TEKKAN PALAKAT YER

...butxonaning ruhoniysi aytgan hikoya

Azbaroyi Xudo, hikoya aytishdan bezor bo'ldim! Axir o'zingiz o'ylang! Qayta-qayta aytgan bilan qutulib bo'lmas, bezor bo'lmaysizmi! Xo'p, aytsam aytay, lekin azbaroyi shifo, boshqa aytmayman. Mana siz boyaa ytdingizki, shaytonni odam bolasi minib olsa bo'ladi, deb. Albatta, bolsa bordir, chunonchi yaxshi muloha-zha qilib ko'rsangiz, yorug'dunyoda nimalar bo'lmaydi... Biroq bunday chakki gapni aytmang, shayton nomard vasvasa qilaman desa, unga bas kelib bo'lmaydi, Xudo haqi, bas kelib bo'lmaydi!.. Quloq soling, men sizga aytay: bizlar otadan to'rt farzand edik, men u vaqtida tentak edim, o'n bir yoshga endi kirgan edim, nega o'n bir bo'lsin, o'n bir emas. Hali esimdan chiqmaydi, bir kun emaklab it bo'lib qopib edim, otam boshini chayqab: «Hoy, Foma! Uylanadigan bo'lib qolsang ham toychoqqa o'xshab borgan sari aqling ketyabdi!» – deb koyidi.

¹ Gogol bu hikoyasini davom ettirmoqchi bo'lsa ham, bu niyatini amalga oshirmadi.

Go'ringda tinch yotgur rahmatli bobomning ko'zi ochiq, belida quvvati bor edi. Gohida...

Keling, gapirib ham nima qildim? Biring bir soatdan beri tamaki chekaman deb cho'p titkilaysan, biring bilmasam nimaga dahlizga chiqib ketding. Bu nima degan gap!.. Men sizlarni qistab aytayotgan bo'ssam mayli edi. O'zingiz yalindingiz. Eshitadigan bo'sangiz tuzuk eshitining!

Otam ko'klam boshidayoq tamaki yuklab, Qrimga savdogarchilikka ketgan edi. Esimda yo'q, ikkita yo uchta arava edi. O'sha vaqtida tamakining bozori chaqqon bo'lgan. Karvonlikni o'rgansin, deb uch yashar ukamni ham olib ketgandi. Uyda qolganlar bobom bilan onam, men va ikki ukam. Bobom shundoqqina yo'l ustiga paykal qilib qovun-tarvuz, maydachuya ekkanligidan chayлага ko'chib chiqdi. Ekinni qo'riqlaysizlar, deb bizlarni ham olib chiqdi. Biz esa bundan maza qillardik, har kuni qovun-tarvuz, bordering bormi, sholg'om bormi, piyoz bormi xo'b to'yar edik, qornimiz shishib ichimizda xo'roz qichqirgan-dek bo'lardi. Bundan tashqari dehqonchilikdan ko'p foyda qilar edik. O'tgan-ketgan qovun-tarvuz yemasdan o'tolmasdi. So'ngra atrofdagi qo'rg'onlarda tovuq bormi, tuxum bormi keltirishib qovun-tarvuzga almashtirib ketishardi. Turmushimiz yomon emasdi.

Lekin bobomga hammadan ko'p yoqqani shu edi-ki, har kuni ellikdan ortiq karvon o'tardi. Karvonlarni bilasiz-ku, hammasi ko'pni ko'rgan odam, hikoyaga tushib ketsa og'zingiz ochilib, ag'rayib qolasiz. Ularning hikoyasi bobomga, och odamga umoch edi. Ba'zida eski oshna-og'aynilari kelib qolishar (bobomni tanimagan yo'q edi), qariyalar yig'ilishganda bo'ladihangomaniku qo'yavering, o'zingiz bilasiz, hangoma shunday qiziydiki, falon vaqtida falonchi falon ishlarni qilgan, falon bo'lgan, piston bo'lgan, xullas, to'xtamas edilar... Hangoma avjiga chiqib, qachon-qachongi gaplarni qo'zg'ashardi.

Bir kun, kunbotar paytda (xuddi shu bugun bolgandek esimda bor), bobom qovun ichini oralab yurib, kunduz kuni oftob urmasin deb qovunlarning ustiga tashlab qo'yan barglarni yig'ib yurardi.

Men ukamga qarab:

– Ostap, bu yoqqa qara, hov ana, ko'rdingmi, karvon kelyabdi! – dedim.

Bolalar yeb qo'ymasin deb qovunga belgi qo'yib qo'yan bobom mening so'zimni eshitib:

– Qani? – deb so'rab qoldi.

Yolda chamasi oltita arava qator kelardi. Ular dan oldinda bir shop moylov odam kelyabdi. Qancha desam bolarkin, taxminan o'n qadamcha qolganda haligi karvonboshi to'xtadi-da:

– Salomatmisan, Maksim! Xudoning taqdirini qara ya, bizlarni shunday joyda uchratdi! – dedi.

Bobom ko'zini qisib qaragach:

– Ha! Qalaysan, salomatmisan! Qayerdan kelyab san? Ey, Bolyachka ham kelyabdi-ku, omonmisan, esonmisan, og'ayni! Yo, piray! Og'aynilarning ham masi shunda-ku! Krutotrishchenko, Pecheritsya, Kovelyok ham, Stetsko ham shu yerda ekan, obbo!.. – deb bir-biri bilan o'pishib ketdi.

Ho'kizlarni aravadan chiqarib o'tga qo'ydilar, aravalari ko'chada qoldi. Hammalari chayla boshida davra olib tamaki chekishdi. Hangoma boshlandi, so'zning dumi uzilmay tamaki chekish ham qolib ketdi. Choshgohdan keyin bobom mehmonlarning oldiga qovun qo'ydi. Har qaysisi o'z boshiga bittadan qovun olib, pichoq bilan po'stini archib (bularning hammasi ko'pni ko'rgan, ko'zi o'tkir ulug'lar das turxonini ko'rgan puxta odamlar edi), barmoq bilan teshib, suvini xo'b so'rgandan keyin, tilim-tilim qilib kesib yedilar.

Bobom:

– Ey bolalar, nega ag'rayib turibsiz, qani itvachchalar, o'yinka tushinglar-chi. Ostap, surnaying qani? –

deb qichqirib berdi. – Qani, tush o'yinga! Foma, ushla belingni! Mana bunaqasiga, xop, xop!

U vaqtida men yosh bo'sam ham sho'x edim. Qarilik qursin, hafsala qani, o'yin tushay desam oyog'im chalishadi. Bobom karvonlar bilan o'tirib, bizlarning o'yin tushishimizni ko'rib, o'zi o'ynab ketgudek bo'lyabdi. Oyog'idan birov tortayotgandek jim turmas edi.

Ostap:

– Qarab tur, Foma, choli qurg'ur hozir o'yinga tushib ketadi, – deyishi bilan, uni qarangki, cholning sabri chidamay o'yinga tushib ketdi. Karvonlarga maqtanmoqchi boldi-da.

– Ha, shaytonvachchalar, shu ham o'yin bo'ldimi? Mana bunday tushmaysanlarmi! – o'rnidan turgancha yer tepib o'ynab ketdi.

Shunday o'yin tushdiki, aslo qo'yavering, getmanning xotini bilan tushsa ham qoyil qilardi. Bizlar bir chekkaga chiqib oldik. Chol qurg'ur bodring ekilgan tekis yerga tushib olib xo'b o'ynadi. O'ynab-o'ynab avjiga chiqqandan keyin chirillab aylanib turgan edi, o'rtasiga borganda birdan oyog'i jonsiz bo'lib qimirlamay qoldi. Yo, piray! Keyin yana aylanib ketdi, ammo yana haligi joyga borishi bilan oyog'i yana qotib qoldi. Shuncha urinsa ham qimirlata olmadi, yog'och bo'lib qoldi. «Yo, piray! Jin tekkan joy ekan, makring qur-sin mal'un shayton! Odamzodning dushmani badbaxt shaytonning ishini qarang!»

Karvonlar oldida sharmanda bo'lib qolaversinmi? Tapir-tupurga olib yana o'ynab ketdi, juda qoyil qildi. Chir-chir aylanib, haligi joyga borganda oyog'i yana boyagidek qotib qoldi, hech qimirlata olmadi.

– Ha badbaxt shayton! Sasigan qovunni yeb tiqilib o'lqur! Juvonmarg itvachcha, qarigan chog'imda sharmanda qilding! – deb, juda koyidi. Darvoqe, orqadagliordan biri masxara qilib kuldi. Shu paytda bobom orqasiga qayrilib qarasa, na qovun poliz bor, na karvonlar. Qayoqqa qarasa tep-tekis yalanglik.

– Ana xalos, yo, piray!..

Ko'zini qisib qarasa, turgan joyini tanigandek bo'ldi. Yonboshida daraxtzor, ichida osmonga yetadi-gan yog'och chiqib turibdi. Nima balo bo'ldi, popning ekinzoridagi kaptarxonasi-ku! Bu yonida ham bir nar-sa qorayib turibdi, tikilibroq qarasa viloyat mirzabosh-isining xirmoni. Shayton mal'unning ishini qara! Shu yoqqa keltirib tashlabdi-ya! Adashib-adashib yo'lga chiqdi. Oy ko'rinas, bulut orasidan g'ira-shira shu'la ko'rinar edi, xolos. Bobom ko'nglida: «Ertaga shamol bo'larkan-da!» – deb qo'ydi. Yo'lning bir tomonidagi mozorda sham ko'rrib qoldi. Bobom hayron bo'lib ikki qo'li bilan belini ushlagancha tikilib qarab tursa, boyagi sham o'chib, nariroqda yana bir sham yondi. Bobom hovliqib:

– Dunyo, nimadan desang ham babs boylashaman, shu yerda dunyo bor! – deb allaqachon qo'liga tupurib qazimoqchi bo'ldi, lekin qo'lida na kurak, na belchasi borligi esiga tushib qoldi. – Attang, biroq kim bilsin, chimni ko'chirsa basdir, shundoqqina yuzada yotgan bo'lsa ham ajab emas! Nima qilay, hech bo'lmasa taniydigan qilib belgi qo'yay, esimdan chiqib ketmasin.

U shamoldan sinib tushgan bo'lsa kerak, yotgan katta bir shoxni sudrab chiroq ko'ringan go'rning usti-ga tashlab, o'zi yo'lga tushdi. Chakalak bo'lib yotgan yosh bolut daraxtlar siyraklanib qolgandan keyin uzoq-da chetan devor ko'rindi. Bobom ko'nglida: «Popning zovur yeri demabmidim, chetan devor ham uniki, mening paykalim bu yerda bir chaqirim ham kelmaydi» – deb qo'ydi.

Lekin uyga juda kech keldi, umochini ham yemadi. Ukam Ostapni uyg'otib, undan: «Karvonlar qachon ketdi?» – deb so'radi, xolos. Keyin po'stiniga burkanib, yotib oldi.

Ukam:

– Bobo, bugun qayerda qoldingiz? – deb so'radi.

Bobom po'stiniga yana qattiqroq burkanib olib:

- So'rama, aytsam soching oqarib ketadi, – dedi. Keyin shunday xurrik otdiki, paykalga tushgan chumchuqlar ham qochishdi. Lekin uyqu qayoqda? Joyi jannatda bo'ssin, juda quv chol edi, har narsaning hiylasini topardi. Gohda gapni shunday o'rirlatar ediki, hayron bo'lib labingni tishlab qolaverarding.

Ertasiga qorong'i tushar-tushmas kamzulini kiyib, belini bog'lab, belkuragini olib, boshiga telpak kiyib oldi. Keyin bir kosa sharbatni ichib olib, labini etagi bilan artib, to'ppa-to'g'ri popning yeriga qarab ketdi. Chetan devordan, chakalakdan ham o'tdi, qarasa xuddi o'sha joyning xuddi o'zi kecha belgilab ketgan yeri. Uzun yog'och uchidagi kaptarxona ham turibdi, lekin xirmon ko'rilmaydi. «Yo'q, bu joy emasga o'xshaydi, nariroqda bo'lsa kerak. Xirmon tomonga qaytay!» – dedi. Orqasiga qaytib, boshqa yo'l bilan xirmon tepasiga bordi, biroq endi kaptarxona ko'rilmay qoldi! Qaytib kaptarxona oldiga kelsa, xirmon yo'q bo'lib qoldi. Aksiga olib yomg'ir tomchilay boshladi, yugurgancha xirmon oldiga kelsa, kaptarxona g'oyib bo'lib qoldi, qaytib kaptarxona oldiga kelsa, xirmon yo'q bo'lib qoldi.

- Ha, nomard shayton, bolalaringdan ayrilgur, la'nati! – deb shaytonni koyib ketdi.

Yomg'ir chelakdan quygandek sharillab yog'ib turibdi.

Oyog'idagi yangi etigini yechib, yomg'irda ivimasin, deb ro'moliga o'rab oldi. Keyin chunonam juftak urib qochdiki, boyning yo'rg'asi ham unga yetolmasdi. Shalabbo bo'lib ivib, chayлага kirib ketdi. Po'stinini boshiga ilib olib, shivir-shivir bir narsa duolar o'qib, men sira eshitmagan allaqanday so'zlar bilan shaytonni alqab ketdi. Agar kunduzi bunday ishni qilgan bo'lsa orim kelardi.

Ertasiga uyg'onib qarasam bobom paykalni oralab yuribdi, hech narsani ko'rilmagan-bilmagan kishidek, tarvuzlarni barg bilan yopib yuribdi. Ovqat ustida chol

yana boyagi-boyagidek gaplashib o'tirdi, seni tovuqqa almashib yuboraman, deb kichik ukamni yolg'ondan qo'rqiitdi. Ovqat yeb bo'lgandan keyin yog'ochdan sibizg'a qilib chalib o'tirdi. Ilonga o'xshab, o'ralib-o'ralib g'alati, qiyshiq bitib qolgan qovunni, manglar turk qovuni, deb masxara bilan bizga berdi, tomosha qilib o'tirdik. Endi bunaqa qovunning urug'i qolmadi. Uning urug'ini allaqayerdan olib kelganligi rost edi.

Kechqurun ovqat yegandan keyin belchasini olib, kechki qovoqqa jo'yak olgani chiqib ketdi. Boyagi jin tekkan joydan o'tayotganda qarg'amasdani o'tib ketolmadi. Ha la'nat yoqqan joy, deb o'yin tushayotganda, oyog'i qotib qolgan joyga borib, achchig'lanib, kuragi bilan yerni bir urdi. Atrofiga qarasa yana o'sha ko'ziga ko'ringan joylar ko'rindi. Bir yog'ida yog'och boshidagi kaptarxona, bir yoqqa qarasa xirmon. Ichida: «Xayriyatki belkurakni olib kelgan ekanman. Anov ko'rgan yo'llim! Manavi go'r, tashlab qo'yan shoxim ham turibdi, yonib turgan chiroq ham xuddi o'sha, endi yanglishmasam bo'lgani», – deb, qovunga kirgan qobonni urmoqchi bo'lgandek belchasini ko'tarib, yugurgancha go'rning tepasiga bordi. Borishi bilan sham o'chdi; go'rning tepasida o't bosgan katta tosh bor ekan. Ichida: «Bu toshni ko'tarib qarash kerak», – deb uning to'rt tomonini qaziy boshladi. Tosh qurg'ur katta ekan, shunday bo'lsa ham oyog'ini yerga mahkam tirab turib, uni ag'darib tashladi. Tosh gumbullagancha dumalab ketdi. «Xo'b qildim, endi ish osonlashdi», – dedi bobom ichida.

Toshni dumalatib yuborgandan keyin qortig'ini chiqarib, burunakisidan kaftiga solib endi otmoqchi bo'lib turganida boshi tepasida birov: «hapshu!» – deb aksirib yubordi, hatto daraxtlarning uchi qimirlab, bobomning yuz-ko'ziga tupik sachradi. Yuz-ko'zini artarkan:

– Aksirganda teskari qarasang bo'lmaydimi! – deb qayrilib qarasa, hech kim yo'q. Qortig'ini qo'yniga so-

lib, belkuragini olarkan: – Nomard shaytori burunakini yomon ko'rар ekan, bo'lmasa bunday asil burunakini ota-bobosi ko'rgan emas! – deb yerni qaziy boshladi.

Yer yumshoq, belkurak o'zi botib ketyabdi. Bir mahal jang'illagan ovoz chiqdi. Tuproqni tortib qarasa, qozon ko'rindi. Bobom qozonning tagiga belini tiqib:

– Ha barakalla, shu yerda ekansan-ku! – dedi.

Tumshug'i parrandanikiga o'xshagan bir mavjudot chiyillab:

– Ha barakalla, shu yerda ekansan-ku! – dedi.

Bobom o'zini chetga tortib belkuragini tushirib yubordi.

Qo'y boshli bir mavjudot daraxt tepasidan turib:

– Ha barakalla, shu yerda ekansan-ku! – dedi.

Chakalak ichidan ayiq boshini chiqarib:

– Ha barakalla, shu yerda ekansan-ku! – dedi.

Bobomning quti uchib, sekingina:

– Bunda bir og'iz so'z aytib bo'lmas ekan-ku! – deb g'uldiradi.

– Bunda bir og'iz so'z aytib bo'lmas ekan-ku! – deb chiyilladi, tumshug'i parrandanikiga o'xshagan bir mavjudot.

– Bunda bir og'iz so'z aytib bo'lmas ekan-ku! – dedi qo'y boshli mavjudot.

– Aytib bo'lmas ekan! – deb o'kirdi ayiq.

Bobom:

– Hm... – dedi-ku o'zi qo'rqib ketdi. Darrov boyagi tumshug'i parrandanikiga o'xshagan mavjudot chiyillab:

– Hm! – deb qo'ydi. Keyin qo'y boshligi ma'rab:

– Hm! Hm! – dedi, ayiq ham.

Vahimasi kelib, u yon-bu yonga qarasa, qop-qorong'i zulmat osmonda na yulduz bor, na oy. Qay-oqqa qarasa tegi yo'q jahannam, tepasiga qarasa tog' osilib, tepasiga ag'anab tushgandek bo'lib turibdi. Nazarida toshning orqasida badbashara bir mavjudot mo'ralab turganga o'xshaydi. Voy-bo! Burnini

qarasang temirchining damidek, har kavagiga bir chelakdan suv ketadi; lablari, azbaroyi Xudo, har qaysisi g'o'ladek. Qip-qizil ko'zlar orqasiga aylanib ketibdi, tag'in tilini chiqarib, masxara qilib ham qo'yadi.

– Bor-ey! Dunyoying boshingda qolsin! Badbashara asting qursin! – deb qozonni tashlab qochmoqchi bo'lib turgan edi, aylanib qarasa boyagi-boyagidek hech narsa yo'q. Ajina qo'rqtyabdi shekilli deb, yana qozonga yopishdi.

– Hech iloji yo'q, og'ir! Nima qilsin, tashlab ketib bo'lmaydi. Hamma kuchini yig'ib qo'li bilan ko'tarib, bir-ikki zo'r urgan edi, qozon qo'zg'aldi.

Qozonni chiqarib, bir burunaki otib olay, deb qortig'ini oldi. Lekin burunakisini otmasdan avval bitta-yarimta yo'qmi, deb u yon-bu yonga qarab qo'ydi. Hech kim yo'qqa o'xshaydi. Biroq turgan to'nka pishillab, do'mbira bo'lib shishayotganga o'xshadi, ikki qulqoq, ikki ko'z chiqardi, burun paydo qildi, burnining kavagi kerilib, tepasi tirishdi, aksiray-aksiray dedi-yu, aksirolmadi. Bobom qortig'ini qo'yniga tiqib ichida: «Ochmay qo'ya qolay, bachchag'ar shayton yuz-ko'zimni yana tupuk qilmasin!» – deb, qozonni ko'targancha urra qochdi. Ketidan birov xipchin bilan oyog'iga savalab kelayotganini biladi, xolos. Oyog'ida kuchi boricha voy-voylab qochib ketaverdi. Popning chorborg'iga yet-guncha dam olmadi.

Bizlar, bobom qayoqda qoldi, deb uch soatcha poyladik. Onam qo'rg'onдан bir xurmada issiq umoch pishirib keltirdi, lekin bobomdan hali ham darak yo'q. Kechqurun ovqatni yana o'zimiz yedik. Onam, hamma yoq ekin emasmi, shuning uchun idish-tovoqni yuvib, yuvindini qayerga to'kishni bilmay turganda ro'parasidan bir bo'chka to'ppa-to'g'ri dumalab kelayotganga o'xshadi. Tim qorong'i emasmi, hech narsani ko'rib bo'lmaydi, bolalar bochkani o'ynab dumalatib kelishyabdi shekilli, shunga to'ka qolay deb, issiq yu-

vindini ag'darib yubordi. Birov baqirib yubordi, qarasa bobom ekan. Kim bilsin, azbaroyi Xudo, bochka kel-yabdi, degan edik. Xudoyo tavba, gapirgani ham odam qo'rqadi, uyat, bobomning oppoq soch-soqoli yuvindiga belanib, kartoshka po'choq bormi, taruz po'choq bormi, bobomning soqol-mo'yloviga ilinib qolibdi, buni ko'rib toza kuldik.

Bobom etagi bilan yuz-ko'zini artarkan:

– Ha opala qurg'ur! Rojdestvoga so'yilgan tovuqni maromiga yetkazib pishirding-ku! – dedi, so'ng bizlarni chaqirdi. – Bolalar, bu yoqqa kelinglar, endi shirin non yeydigan bo'ldingiz! Itvachchalar endi kiyganingiz kimxob bo'ladi! Beri keling, nima olib kelganimni ko'ring! – deb qozonni ochdi.

Nima ekan deb o'ylaysiz? Yaxshigina o'ylab ko'rib gapiring, tilla deysizmi? Tilla qayoqda! Axlat, najaosat... Aytishga ham uyat. Bobom «tuf» deb qozonni irg'itib yubordi, keyin qo'lini yuvib keldi.

Shundan buyon bobom shaytonga hech bir ishonmaydigan bo'ldi, bizlarga ham aksari nasihat qilib:

– Xudoning dushmani mal'un shaytonning yo'liga aslo kirmanglar, itvachcha hamma vaqt aldaydi, bir chaqalik rost gapi yo'q! – derdi.

Shundan beri, qachonki bir yerda notinchlikni eshitsa:

– Qani shovvozlar, cho'qintiringlar! Barakalla, cho'qintiringlar, qo'ymanglar nomardni! – deb o'zi ham hadeb cho'qintiraverardi. O'yin tushayotganda oyog'i qotib qolgan palakat yerning atrofini chetan devor bilan o'rabi: «Nimaiki axlat, xas-xashak bo'lsa, shu yerga tashlanglar!» – dedi.

Jin degan mavjudot odamzodni ana shunday al-daydi! Shu palakat yerni juda yaxshi bilaman, uni qo'shnilarimiz bobomdan ijara olib ekin ekdilar, yerning tuprog'i nihoyatda unumdar, ekin hamisha yaxshi bitardi, lekin jin tekkan haligi palakat yerda hech narsa bitmasdi. Har qancha hafsala bilan eksa-

lar ham, keyin bitgan narsaning nima ekanligini bilib bo'lmasdi, tarvuz desa tarvuz emas, qovoq desa qovoq emas, bodring desa bodring emas, allanima balo!..

QADIMGI ZAMON ZAMINDORLARI

Malorossiyada qadimgi zamon zamindorlari deb nomi ketgan va hozir ham olis qishloqlarda yashaydigan ba'zi mulkdorlarning xilvatda kechirgan umrini, soddagina hayotini men nihoyatda yaxshi ko'raman. Chunki bunday odamlar xilma-xil bo'lgani uchun ajoyib, xushmanzara, ko'hna uylar singari go'zal bo'ladi va yangicha solingan, hali devori yomg'ir, tomi ko'kat ko'rmagan, suvoqsiz zinapoya g'ishtlari nuramagan sip-silliq binodan eski uy tamoman farq qilganidek, bular ham boshqalarga sira o'xshamaydi. Ba'zan men shu xilvatgoh og'ushiga kirib, birpas orom olgim keladi. Chunki bunda hech qanday orzu-havas kaftdek hovlini o'rab olgan yog'och devordan, olxo'riyu olmaga to'lgan bog'chetanidan oshib o'tmaydi, tol-u qoraqat va noklar soyasidagi bir tomonga qiyshayib ketgan qishloqcha uylardan nari chiqmaydi. Bu uylarda yashovchilarining turmushi shu qadar tinch va halovatda o'tadiki, bu yerga kelgan odam barcha hirs-u havaslarini, yer yuzida shayton vasvasasi bilan paydo bo'lgan g'ala-g'ovurlarni oz bo'lsa-da unutadi va bu hirs-g'avg'olarni haqiqatda yo'q, ular faqat ajoyib, g'alati bir tush deb o'ylay boshlaydi. Menga bu yerdan: chaqmoq chaqib, do'l yog'ib turganda derazalarning darpardasini yopgani tashqariga chiqqanda yomg'irda ivimaslik uchun uyning atrofiga qurilgan ayvon-chaning qorayib ketgan ustunlari va pastakkina uycha ko'rinish turibdi. Uyning orqasidagi xushbo'y shumurt daraxti, qator-qator pastak meva daraxtlari, qizarib turgan olchalar, qahrabodek olxo'rilar, ustini kumushday gard bosgan, har tarafga shox otgan zarang daraxti va istirohat uchun uning soyasiga

solingan gilam, uy oldidagi barra o't o'sgan keng hovli, omborxonadan oshxonaga, oshxonadan boyning oromgohiga boradigan, yuraverib toptalib ketgan yolk'a, momiqdek jo'jalari bilan suv ichayotgan bo'yni uzun g'oz, shoda-shoda nashvati hamda olma qoqi osilgan va shamollatiladigan gilamlar yoyib qo'yilgan yog'och devor, ombor oldida turgan bir arava qovun, aravadan chiqarilgan, bemalol cho'zilib yotgan dangasa ho'kiz hozir ham ko'zimga ko'rinish turibdi, balki, ko'pdan beri bu manzarani ko'rmaganim uchunmi yoki yiroqdagi narsani sog'inib o'rganganimizdanmi, ishqilib bular hammasi men uchun juda ajoyib va qandaydir go'zal edi. Nima bolsa ham, aravam bu uyning ostonasiga yaqinlashdi deguncha, ko'nglim shunday orom olar ediki, aslo qo'yavering; otlar o'ynoqilab zina yonida – arava yonida to'xtar, aravakash ham xuddi o'z uyiga kelgandek asta egaridan tushib, mushtugiga bemalol tamaki tiqar edi; erinchoq ko'ppak, olapar laychalarining vovullagani ham qulog'imga yoqardi. Ammo bajonidil kutib mening oldimga chiqqan xilvatgohning bu kamsuqum egalari – chol-u kampir menga hammadan ortiq yoqardi. Ba'zan modaga ergashib, frak kiygan gala-gala odamlar orasida bo'lgan chog'larimda bu chol-u kampirning chehrasi ko'zimga ko'rinish, birdaniga esim og'ib, xayol surib ketaman, shunda o'tmish zamonalr ko'z o'ngimdan birma-bir o'taveradi. Ularning chehrasi hamisha shunday ochiq, ko'ngillari shunday tozaki, bu chehrani ko'rganda, garchi biroz bolsa ham beixtiyor hamma sho'x va qaltis xayollardan qaytib, butun hissiyot bilan shu beg'alva, osoyishta hayot og'ushiga kirib ketganini kishi o'zi ham bilmay qoladi.

O'tmish asr odami bo'lgan va afsuski, endi hech topilmaydigan chol-u kampirni haligacha sira unutmayman! Lekin ko'nglim hali ham ularga achinadi; vaqt kelib bir kuni ular yashagan joyga borsam-u, pastakkina uy o'rnida vayrona, qurigan hovuz va o't

bosgan ariqdan boshqa hech narsani ko'rmasam-a, degan xayollar miyamga kelganda yuragim orqasiga tortib, orziqib, ezilib ketadi. Hasratlarga to'laman, qayg'um oshadi, halitdan yuragim ezila boshlaydi!

Ammo hikoyaga kelaylik.

Afanasiy Ivanovich Tovstogub va u kishining xotini Pulxeriya Ivanovna Tovstogubixa, o'sha atrofdagilarning ta'rifiga qaraganda, men gap boshlagan chol-kampirning xuddi o'zginasi edi. Agar men rassom bo'lsam-u, Filemon va Bazkidaning¹ suratini olmoqchi bo'lsam, nusxa uchun bulardan boshqa hech kimni olmas edim. Afanasiy Ivanovich oltmishtga, Pulxeriya Ivanovna ellik beshga kirgan edi. Afanasiy Ivanovich novcha bo'lib, kalta en barra po'stin ustidan tushmas, doim bukchayibroq o'tirar, gapirsa yoki birovning gapini tinglayotgan bo'lsa, doim iljayib turardi. Pulxeriya Ivanovna biroz sipo bo'lib, kamdan kam kular, ammo uning mehr-shafqatli ekani va sizdan hech narsasini ayamasligi yuz-ko'zidan shunchalik ayon ediki, agar bunday mehribonlik ustiga yana chehrasi ham ochilib tursa, buni siz, albatta, haddan tashqari xushfe'llikka yo'yar edingiz. Ularning yuzidagi mayda ajinlar shunday yoqimli ediki, agar bu ajinlarni rassom ko'rsa, albatta o'g'irlardi; bu ajinlar ularning tinch va halovatda o'tgan umrlarining go'yo bir kitobi, eski milliy urf-odatni saqlagan, obro'li, soddadil va boy kishilar hayotining bitigi edi. Bular mahkama va idoralarga, xuddi chigirtkadek yopirilayotgan va o'z hamshaharlarining bir chaqasini qo'ymay shilib oladigan, Peterburgni chaqimchi g'alamislarga to'ldirayotgan, dastmoyador bo'lgan, ismi sharifining oxiridagi «o» ga «v» qo'shib oladigan, bir xil qoramoychi savdogarlardan chiqqan zoti pastlarga sira o'xshashmas edi; yo'q, bular

¹ Filemon va Bazkida – umrlarining oxiriga qadar tinch-totuv yashagan er-xotin, ularning chin muhabbati va ahilliklari evaziga Xudo bir kunda jonlarini olib, ikki daraxtga aylantirgan. (*Yunon afsonasi*.)

mutlaqo bu kabi muttaham va pastkash kishilarga sira o'xshashmas edi, bular Malorossiyadagi qadimgi obro'li xonadonlardan edi.

Bu chol-u kampirning bir-biriga bo'lgan mehribon-chiligini ko'rganda kishining havasi kelmay qolmasdi. Ular bir-birini siylashar, sira sensirashmas, doim sizlashib: «Siz Afanasiy Ivanovich, Siz Pulxeriya Ivanovna», «Afanasiy Ivanovich, kursini siz bukib yubordingizmi? Xafa bo'lmanq, Pulxeriya Ivanovna, zarari yo'q, men bukdim», – deb so'zlashardilar. Tirnoqqa zor bu ikki yorti bir butun er-xotin bir-biriga suyanishib, juda mehribon bo'lib qolgan edilar. Afanasiy Ivanovich bir zamonlar, yigitligida otliq askarda xizmat ham qilgan, kichik to'ralik darajasiga ham yetishgan edi. Lekin oradan ancha vaqt o'tib ketganligidan buni Afanasiy Ivanovich allaqachon esidan chiqarib yuborgan edi. Afanasiy Ivanovich, yoshi o'ttizga yetib, uqalik kamzul kiyib oliftagina yigit bo'lganda uylangan edi. Qarindoshlari Pulxeriya Ivanovnani juda ustalik bilan olib qochgan edi, biroq bu voqeani hali ham unutib yubormagan bo'lsa-da, haytovur, sira ham og'ziga olmasdi.

Bir zamonlar bo'lib o'tgan bu g'alati voqealar unutilib, xilvat qishloqda osoyishta turmush boshlandi; ular o'rnini endi kishining bahrini ochadigan yomg'ir daraxt barglarini shitirlatib, jildir-jildir ariq bo'lib oqqanda, a'zoyi badaningiz uvishib mudroq bosganda, osmondag'i kamalak bir tomoni qulab tushgan gumbazdek yetti xil tovlanib daraxtlar orasidan mo'ralab g'ira-shira shu'la tashlaganda, qishloq uyining chorboqqa qaragan boloxonasida uyqu bosib o'tirganda, yoki o'lanzor ichidan, chakalakzor orasidan o'tib ketayotgan arava sizni tebratib allalaganda, bedanalar sayrashib, xushbo'y o'lan va chechaklar, bug'doy boshoqlari bilan arava eshikchasidan kirib yuz-ko'zingizga, qollarining tegib, bulardan zavqshavqingiz oshib, gasht qilib borayotgan chog'ingizda tug'ilgan totli xayollar egallaydi.

Uyiga kelgan mehmonlar gapirganda u kulimsi-rab qulq solar, ba'zida o'zi ham gapirar, ammo ko'pincha so'roqlar edi. U eski zamonni maqtaydigan, yangi zamondan nolib, hammani bezor qiladigan bir xil chollardan emas edi. U, aksincha, sizning holahvolingizni ko'proq so'rар, surishtirar, jonkuyar qariyalar singari ishingiz o'ngidan kelganiga sevinar, omadingiz yurishmagan bo'lsa kuyunar edi. Keksalarning bu odatlari siz bilan gaplashib turganda, soatingiz tamg'asini o'ynagan go'dakning qilig'iga o'xshanqirab ketsa ham, hammasida shu odat bor. Bu chog'larda uning chehrasidan nur, saxovat yog'ib turadi, desak ham bo'ladi.

Chol-kampir turgan hovlining uylari aksari qadimgi oqsuyaklarnikidek kichkina va pastak edi. Har uyda, taxminan uyning uchdan birini egallagan bittadan kattakon pechka bo'lib, uylar hammomdek issiq edi, chunki Afanasiy Ivanovich ham, Pulxeriya Ivanovna ham issiqni juda yaxshi ko'rardi. Hamma pechkalarning olovxonasi dahliz tomondan yoqilardi va bu dahliz hamisha shipigacha poxol bosib tashlangan bo'lardiki, Malorossiyada bu narsa o'tin o'rnida ishlatalardi. Qish kechalari bironta qora ko'z ketidan tentirab to'ng'igan sho'x yigitlar qo'lini ishqalagancha dahlizga kirganida poxolning qirsillab yonishi, olovning shu'lsi dahlizni allaqanday chiroyli qilardi. Uyning devorida qadimgi, ensiz ramkalar ichida bir nechta katta-kichik suratlar osig'liq turardi. Bu suratlar nimaning tasviri ekanini uy egalarining o'zları ham allaqachon esdan chiqarib yuborganiga sira gumonim yo'q; agar birov bu suratlarning bir-ikki-tasini olib ketsa ham payqamasalar kerak. Suratlardan kattakon ikkitasi sir bo'yoq bilan ishlangan bo'lib, biri qandaydir rahnamoning surati, ikkinchisi – Pyotr III ning surati edi. Cho'zinchoq ramkalarning birida malika Lavalerning¹ surati turardi, uning bu-

¹ Malika Lavaler – fransuz podshosi Lyudovik IV ning ma'shuqasi.

tun basharasiga pashsha o'tirgan edi. Derazalarning yon-verida, eshiklar tepasida yana birtalay har xil suratlar osig'liq edi-yu, lekin bular kishining nazariga devordagi dog'-duqqa o'xshab ko'ringanidek, ularga tuzukkina e'tibor berilmasdi. Hamma uyning tagi tu-proq bolsa ham, shunday top-toza shuvalib, chinidek qilib qo'yilgan ediki, quyruqli kamzul kiygan va uyquga to'ymagan xizmatkorlar hech bir saroyning parket polini bunday toza tutmasdi.

Pulxeriya Ivanovnaning uyi katta-kichik sandiq va qutilarga to'lа edi. Devorga osig'liq birtalay, xalta-xul-talarda har xil gul, qovun-tarvuz, sabzavot va rezavor-larning urug'i turardi. Sandiq va qutilarning burchak-burchagiga va oralariga koptok-koptok, rang-barang tivist iplar, ellik yil avval tikilgan ko'hna kiyimlarning laxtaklari tiqib qo'yilgandi. Pulxeriya Ivanovna ni-hoyatda saranjom-sarishta xotin bolganidan, gohida nimaga yaratilishini o'zi bilmasa ham, har narsani yig'ib yurardi.

Ammo ularning uyidagi eng g'alati narsa – nag'malik eshik. Tong otishi bilan eshiklarning nag'masi boshlanardi. Men bu eshiklarning nimaga nag'ma qilganini bilmayman, oshiq-moshiqlari zan-glab qolganidanmi yoki eshiklarni qurgan usta hiyla bilan ichiga biron nima yashirib qo'yganmi, ayta ol-mayman, lekin ajibligi shuki, har eshikning o'ziga xos nag'masi bor edi: yotoqxonaga kiradigan eshik ingichka ovoz chiqarib g'ijirlar, oshxonaga kiradigan eshik do'rillagan yo'g'on tovush chiqarar, ammo dahlizdagи eshik shunday titroq ovoz bilan nola qilar ediki, yaxshi tinglab quloq solsangiz: yo, piray, to'ng'idim-ku, deganini aniq eshitardingiz. Ko'p odamlarga eshikning bu ovozi yoqmasligini bila-man, lekin menga juda yoqadi, agar men bu yerda eshikning g'ichirlaganini eshitib qolsam, darhol dimog'imga qishloq hidi keladi, burungi shamdon-larga sham yoqib qo'yilgan pastakkina uylar, kech-

ki payt dasturxonda tayyor turgan ovqat, may oyi kechasida chorborg' tomonidagi ochiq darchadan xontaxta ustidagi idish-tovoqlarga tushib turgan qorong'ilik, sayrashi bog' va uylardan oshib, uzoqdagi daryo bo'yida ham eshitilib turgan bulbulning ovozi, daraxtlar novdalarining shitirlagani, buning vahimasi darhol ko'nglimga keladi. Bunday choqda har xil xotiralar xayoldan birma-bir o'taveradi. Yo, piray!

Qadimgi kursilar qanday bo'lsa, ularning uylari-dagi yog'och kursilar ham shunday puxta ishlangan, og'ir va pishiq edi, boz ustiga hammasining suyanchig'i baland bo'lib, o'ymakor guli bor, lekin sira bo'yoqsiz, aslicha edi, hatto ustiga hech narsa qoplanmagan, haligacha butxonalarda rahnamolar o'tiradigan kursilarga o'xshab ketardi. Burchaklarda uchburchak xontaxtalar, nozikkina yaproq-yaproq gul o'yilgan va pashsha o'tirgan zarhal ramkadagi ko'zgu bilan divan oldida gulga o'xhash qushlar va qushga o'xhash gullar surati solingan gilam osig'liq. Chol-kampir turgan uyning soddagina jihizi ana shundan iborat edi.

Cho'ri qizlar turadigan uyda yo'l-yo'l matodan yubka kiygan allaqancha yosh va «qari» qizlar bor edi. Pulxeriya Ivanovna ba'zida ularga chok tiktirar, meva tozalatar, ammo ular ko'proq oshxonaga yugurar va uxlardilar, xolos. Pulxeriya Ivanovna ularni uydan chiqarmaslikni ma'qul ko'rib, qattiq tergab turardi. Biroq oy o'tmay bir-ikki qizlarning qorni do'ppayib qolganini ko'rib, juda hayron bo'lardi, chunki uyda ovqat-u uyqudan boshqani bilmaydigan, nimchasi ustidan tushmay, doim yalang oyoq yuradigan yolg'iz o'g'il boladan boshqa hech bir bo'ydoq kishi yo'q desa bo'lardi. Pulxeriya Ivanovna gunoh ish qilib qo'ygan qizni xo'b koyigach, bundan buyon bunday ish qilinmasin, deb qattiq tayinlardi. Derazalarning oynasiga yopirilib g'ing'illashib yotgan pashshalarning hisobi

yo'q, lekin qovog'ari va arilarning g'o'ng'illashi oldida pashshalarning g'ing'illashi holva edi. Ammo sham yoqildi deguncha, bu maxluqlar uyning shipiga qop-qora bo'lib yopishar va uyquga ketardi.

Afanasiy Ivanovich ahyon-ahyonda o'roqchilar tepasiga borib, ularning ishlarini tomosha qilgani bo'lmasa, dehqonchiligi bilan bog'liq ishi yo'q, ro'zg'or tashvishining bari Pulxeriya Ivanovnaning boshida edi. Pulxeriya Ivanovnaning ro'zg'ordagi ishi nuqul omborxonalarini ochib yopish, turli-tuman meva va o'lanlarni quritib qoqi qilish, tuzlash, qaynatib murabbo qilishdan iborat edi, xolos. Uning uyi xuddi kamyogarning laboratoriyasiga o'xshardi. Olma tagidagi o'choqning o'ti hech o'chmas, sepoya¹ ustidan mis jom yoki qozon sira tushmas, doim murabbo, sharbat, asal qo'shilgan, asal bo'lmasa, shakarmi, yana bilmadim, nima balolar solingan har xil mevalar qaynab turardi. Yana bir daraxt tagida aravakash mis ko'zaga o'xshash idishda shaftoli bargi, shumurt guli yoki shichang degan o't, olcha danagidanmi araq solib tortardi. Aravakash bu ishni tamomlaguncha tili so'zga kelmay aljib qolar, Pulxeriya Ivanovna nima deganini tushuna olmasdi, so'ngra u oshxonaga kirib uxlardi. Bunday bemaza narsalar shunchalik ko'p pishirilar ediki, agar yarmidan ko'pini cho'ri qizlar yeb bitirmasa, hovliga sig'may ketardi, chunki Pulxeriya Ivanovna hamisha ko'ngil to'q bo'lib tursin deb ro'zg'orga keragidan ancha ortiq g'amlar edi. Ammo cho'ri qizlar omborxonaga kirib olib, bu ovqatlarni chunonam yer edilarki, keyin kechgacha qorinlari og'rib, inqillab yurardi.

Don ekish va shu kabi hovlidan tashqarida bo'ladigan boshqa yumushlarga aralashishga Pulxeriya Ivanovnaning qo'li tegmasdi. Gumashtalari oqsoqol bilan til biriktirib, toza o'g'irlashardi. Ikkovi birgalashib olib, xo'jayinning o'rmonini o'zlarinikidek

¹ Sepoya – uch oyoqli temir o'choq.

qiyratishardi, daraxtlarni kesib chana qilar va yar-markaga eltib sotishardi. Bundan tashqari yo'g'on eman daraxtlarini tevarak-atrofdagi tegirmonchi kazaklarga sotishardi. Bir kuni Pulxeriya Ivanovna o'rmondan xabar olib kelmoqchi boldi. O'rmonga borib kelish uchun oldiga charm fartuk tutilgan kat-takon izvoshni qo'shdi. Aravakash yuganni siltab yuborishi bilan, mirshab qo'lidan chiqqan otlar qo'zg'aldi deguncha, aravaning har bir mix va temiridan baralla nay, doira va nog'ora sadosiga o'xshagan har xil ovozlar chiqa boshladи. Tegirmon bilan hovli o'rtasi ikki chaqirimdan kam bo'lmasa ham, boyvuchcha hovlidan chiqishi bilan boyagi nag'ma sadolari tegirmonga borib yetardi. Pulxeriya Ivanovna daraxtlari qiyralib, huwillab qolgan o'rmonni, o'zining bolalik chog'idan bilgan azamat emanlarning g'oyib bo'lganini fahmlamay iloji yo'q edi.

Pulxeriya Ivanovna yonida turgan gumashtasiga qarab: «Nichepor, nega emanlar bunday siyrak tortib qolibdi? Bilib qo'y, tag'in sochlaring ham siyrak bo'lib qolmasin», – dedi.

Gumashtasi: «Nega, siyrak deysizmi? Nobud bo'lib ketdi! Qiyrab ketdi! Yashin tegdi, qurt tushdi, xonim oyim, shunday qilib nobud bo'lib ketdi», – deb javob berardi.

Pulxeriya Ivanovna uning bu javobidan qoniqib, uuga kelgach, chor bog'dagi katta olcha bilan katta kuzgi nok tagiga ko'proq qorovul qo'yilsin, deb buyruq berardi.

Hamma narsaga ega bo'lib olgan gumashta bilan oqsoqol hamma uni xo'jayin omboriga to'kishni chakki fahmlab, unga yarmisini ham bersak bo'ladi, derdi. Bu yarmisi ham nam tortib bo'rsib qolganidan yarmakadan sotilmay qaytgan edi. Ammo gumasha ta bilan oqsoqol har qancha talon-toroj qilsa ham, omborchidan tortib cho'chqalargacha, hovlidagilar ning barisi har qancha yesa ham, cho'chqalarning

ko'pi tumshuqlari bilan silkitib, olxo'ri va olmani duv to'kib, yer bilan yakson qilsa ham, chumchuq va qarg'alar har qancha cho'qisa ham, xizmatkor va melaylar, boshqa qishloqlardagi qarindosh-urug'lariga har qancha tashisa ham, hatto ombordagi eski mata ip bormi, xullas, quridim daryodan beshbattar hamma narsani yutaveradigan va araqxonada o'tadigan nimaiki bo'lsa, shuni har qancha talon-toroj qilsa ham, mehmonlar, lavang aravakashlar, xizmatkorlar har qancha o'g'irlasa ham, barakali yerdan shuncha yemish unar va Afanasiy Ivanovich bilan Pulxeriya Ivanovna ehtiyoji uchun kerak bo'ladigani shuncha kam ediki, ularning ro'zg'ori shuncha o'g'irlangani bilan sezilmasdi.

Chol-u kampir, qadimgi zamон zamindorlarining burungi odatlaricha mazali ovqatning quli edilar. Tong otib, eshiklarning boya aytilgan nag'masi boshlanar-boshlanmas (ular har vaqt juda erta turishardi) das-turxon yozilib, allaqachon qahvaxo'rlikka o'tirishardi. Afanasiy Ivanovich qahvani xo'b ichib olgach, eshik tagiga dahlizga chiqib, zina oldida turgan g'ozlarni ro'molchasi bilan haydab: «kisht-kisht»lardi. Hovlida aksari gumashtasiga duch kelib, undan har bir ish to'g'risida shunday qattiq surishtirar, shunday amr-farmonlar qilardiki, bunday ter gab-tejashini ko'rgan odam uning ro'zgor ishlarida bunday ishbilarmonligiga hayron qolardi, yangi kelgan odam bo'lsa, bunday xo'jayinning biron narsasini o'marib ketish mumkinligini xayoliga ham keltira olmasdi. Ammo gumashtasi pixini yorgan va tullak odam edi, nima javob qilishni, xususan ro'zg'orni qanday idora qilishni ho'b yaxshi bilardi.

Shundan keyin Afanasiy Ivanovich oromgohiga kir-gach, Pulxeriya Ivanovna yoniga borib:

— Xo'sh, Pulxeriya Ivanovna, ovqatlanish vaqtি ham bo'ldimi, biron narsa yeb olsakmikan? — derdi.

Pulxeriya Ivanovna bo'lsa:

– Afanasiy Ivanovich, ko'nglingiz nimani istaydi, shirin nonga moy surtib beraymi yoki ko'knor urug'i solingan somsami, yo bo'lmasa tuzlangan qo'ziqorindan beraymi? – derdi.

Afanasiy Ivanovich:

– Qo'ziqorinmi, somsami, mayli, nima bo'lsa bering, – derdi. Shundan keyin dasturxonda darhol bu ovqatlar hozir bolardi.

Afanasiy Ivanovich tushki ovqat vaqtiga bir soat qolganda yana andak ovqatlanib, eski kumush qadahni to'ldirib araq ichar, tamaddiga qo'ziqorinmi, qoq baliqmi – ishqilib bir nima yeb olardi. Soat o'n ikki bo'lganda, tushki ovqatga o'tirishardi. Dasturxon ga lagan va qayladonlardan tashqari, ichidagi burungidan qolgan lazzatli taomning hidi chiqib ketmasin deb og'zi shuvalib qo'yilgan bir necha ko'zachalar ham qo'yilardi. Dasturxon tepasida bo'ladigan suhbat ham ovqat doirasidan chiqmasdi.

Afanasiy Ivanovich:

– Nazarimda, bu shovla biroz tagiga olgan ko'rindi, sizga-chi Pulxeriya Ivanovna? – derdi.

– Yo'q, Afanasiy Ivanovich, sarimoydan ko'proq solsangiz, kuyganga o'xshamaydi yoki manavi qo'ziqorin qaylasidan ozroq sola qoling.

Afanasiy Ivanovich:

– Mayli, qani ko'raylik-chi, mazasi qanday ekan? – deb likopchasini tutardi.

Ovqatdan keyin Afanasiy Ivanovich bir soat dam olardi, dam olib bo'lgach, Pulxeriya Ivanovna tarvuz so'yib keltirardi-da:

– Afanasiy Ivanovich, juda yaxshi tarvuz ekan, yeb ko'ring, – derdi.

Afanasiy Ivanovich tarvuzdan lo'ndagina bir tilimini olarkan:

– Pulxeriya Ivanovna, tarvuzning qizilligiga ishonmang, ichi qizil bo'lsa ham, o'zi bemaza bo'ladi, – derdi.

Ammo tarvuz bir zumda yo'q bolardi. Afanasiy Ivanovich nokdan ham bir nechtasini yeb olgach, Pulxeriya Ivanovna bilan bog' sayliga ketardi. Uyga qaytib kelgach, Pulxeriya Ivanovna o'z yumushi bilan ovora bo'lar, Afanasiy Ivanovich bo'sha hovli tomonga qaragan ayvon tagida o'tirib, omborxona eshigining dam-badam ochilib yopilishini, bir-birini itarib, yashikda, g'alvirda, tog'orachada va boshqa idishlarda narsa tashib, kirib-chiqib yurgan xizmatkor qizlarning ishini tomosha qilib o'tirardi. Biroz vaqt o'tgach birovni Pulxeriya Ivanovnani chaqirgani yuborar yoki o'zi borib:

– Pulxeriya Ivanovna, biron ovqat yeb olsam degan edim, – derdi.

– Nima bersam ekan? Sizga deb atayin olib qo'yan mevali somsa bor edi. Aytay, shuni keltirishsinmi? – derdi Pulxeriya Ivanovna.

Afanasiy Ivanovich:

– Mayli, somsa ham tuzuk narsa, – derdi.

– Yoki, ko'nglingiz sharbat istaydimi? – desa, u: «Mayli, sharbat ham tuzuk», – deb javob berardi. Bu savol-javobdan keyin aytilgan taomlarning barchasi tayyor qilinib, sira qoldirilmasdan, batamom yeylimardи.

Kechki ovqatdan oldin Afanasiy Ivanovich yana bir marta ovqatlanib olar, soat to'qqiz yarim bo'lganda esa kechki ovqatni yerdi-da, darhol uxlagani yotardi. Ana shundan so'ng bu serharakat va osoyishta hovli yoppasiga oromga kirardi. Afanasiy Ivanovich bilan Pulxeriya Ivanovna yotadigan uy chunonam issiq edi-ki, unaqa-bunaqa odam bu uyda sira bir necha soat turolmasdi. Ammo uydagi issiq zo'rlik qilib, kechasi bir necha marta o'rnidan turib, uyni aylanib yursa ham Afanasiy Ivanovichga bu issiq ham kifoya qilmay, yana ham issiqroq bo'lsin, deb pechka ustiga chiqib yotardi.

Ba'zida Afanasiy Ivanovich uying u yog'idan bu yog'iga ingrab yurganida, Pulxeriya Ivanovna:

– Nega ingraysiz, Afanasiy Ivanovich! – deb so'rardi.

– Pulxeriya Ivanovna, Xudo bilmasa, men nimani bilay, qornim andakkina og'ringirab turibdi, – deb javob qilardi Afanasiy Ivanovich.

– Afanasiy Ivanovich, biron narsa yeb olsangiz yaxshi bo'lmasmikan?

– Qaydam, Pulxeriya Ivanovna, tuzuk bo'larmikin! Mayli, bo'lmasa, yesammikan, nima yesam ekan?

– Qatiq yoki qaynatilgan meva suvi bilan nashvati qoqi yeng...

– Bo'lmasa, ozroq yeb ko'raman-da, – derdi Afanasiy Ivanovich.

Uyqusi chala bo'lgan xizmatkor qiz ko'zini ishqalab, jovonlarni axtarib ketar, Afanasiy Ivanovich bo'lsa, ul-buldan yeb olgach:

– Og'riq sal qolganga o'xshaydi, – deb qo'yardi.

Gohida havo yaxshi bo'lib, kun ochiq, uy ham yaxshi isitilgan bo'lsa, Afanasiy Ivanovichning dimog'i ochilib, Pulxeriya Ivanovna bilan hazillashib, u yoq-bu yoqdan so'z ochgan bolardi.

– Pulxeriya Ivanovna, mabodo uyimizga o't tushguday bo'lsa, nima qilamiz-a, qayoqqa boramiz? – desa, Pulxeriya Ivanovna, cho'qinib:

– Qo'ying, Xudo saqlasin, – deb qo'yardi.

– Albatta-yu, lekin mabodo uyimizga o't tushguday bo'lsa, qayoqqa ko'chardik?

– Afanasiy Ivanovich, qayoqdagi gaplarni gapirasiz? Uyga qanday qilib o't tushsin, Xudo bor-ku, o't tushirib qo'yadimi!

– Mabodo o't tushguday bo'lsa, deyman-da?

– Unda oshxonaga ko'chib qo'ya qolardik. Siz omborchi xotin turgan uyni egallab tura turardingiz.

– Agar oshxona ham yonib ketsa-chi?

– Xudo saqlasin! Uy-u, oshxona-yu hammasi birdaniga yonadimi? Oshxona ham yonsa, yangi uy solguncha, omborxonada tura turardik-da.

– Agar omborxona ham yonib ketsa-chi?

– Xudoyo tavba, qayoqdagi gaplarni gapirasiz!

Qo'ying, eshitgim ham kelmaydi! Bunday gaplarni gapirmang, gunohkor bo'lasiz axir.

Lekin Afanasiy Ivanovich Pulxeriya Ivanovnani kalaqa qilganligiga o'zi zavqlanib, jilmayib o'tirardi.

Ammo chol-u kampirnikiga mehmon kelganda, ular menga juda g'alati ko'rinishardi. Mehmon kelganda, ularning uyi tamoman o'zgacha bo'lib ketardi. Chol-kampir faqat mehmonni deb yashardi, desak ham bo'ladi. Mehmondan hech narsasini aymas, qizg'anmas, nimalari bolsa mehmon oldiga qo'yishardi. O'z ro'zg'orlaridan chiqadigan jami narsalarni oldingizga qo'yib, oling-oling qilishib, eslari ketardi: ammo, menga hammadan ham ko'proq yoqqani shu ediki, ularning mehmondo'stligida bemaza mu-lozamatdan sira asar bo'lmas, bunday mehmondo'st va ochiq yuzliklari o'zlariga juda yarashgan, shunday yoqimli ediki, ra'ylarini hech qaytarolmay, beixtiyor xo'p, derdim. Sodda dillarida sira g'arazi yo'q, toza va musaffo bo'lganidan fe'llari keng, o'zları xushmuomala edilar. Ularning bunday mehmondo'stligi, sizning lutf-karamingiz soyasida odam qatoriga kirgan va shuning uchun «valine'matim», deb oyog'ingizga bosh uruvchi bir xil mahkama amaldorlarining mehmondo'stligiga sira o'xshamaydi. Ular uylariga kelgan mehmonni o'sha kuni sira ketkazishmaydi, bir kecha yotqizmasdan qo'yishmaydi. Pulxeriya Ivanovna kelgan meh-monga hamisha:

– Bemahalda qayoqqa borasiz! Kechki paytda bu-naqa uzoq yo'nga chiqib bo'ladimi? – derdi. (Umuman olganda mehmon ulardan uch-to'rt chaqirim narida turardi.)

Afanasiy Ivanovich ham:

– Albatta, bir falokat bo'lmasin, qaroqchiga yo bo'lmasa biron ta nobakorga uchrab qolmang, – derdi.

Pulxeriya Ivanovna:

– Qaroqchidan Xudo o'zi saqlasin! Kechasi bema-halda yomon niyat qilmang. Qaroqchilar yo'liqmasa

ham, harnechuk kechasi, bemahalda yo'lg'a chiqish yaxshi emas. Aravangizni yaxshi bilaman, nimjongina jing'ircha odam, qo'lidan hech narsa kelmaydi, ichib olib allaqachon bir joyda uxbab qolgan bo'lsa ham ajab emas, – derdi.

Bu gaplardan keyin mehmon, albatta yotib qolar, ammo yotib olgani chakki bo'lmas edi. Kechqurun pastakkina uyning issig'i ko'nglingizni ochib, dimog'ingizni chog' qilib, huzur beradigan hikoyalar, pazandalik bilan pishirilgan va dasturxon ustida ho-vuri chiqib turgan mazali taomlar unga nasib bo'lardi. Afanasiy Ivanovichning kursida o'tirib, mehmonning gapiga zavq bilan quloq solib, jilmayib turgani hali ham ko'zimga ko'rinish turibdi! Ko'pincha, suhbat si-yosat doirasiga ham kirib ketardi. Ahyon-ahyonda bir marta zo'rg'a qishlog'idan chiqadigan mehmon ham, go'yo hech kim bilmagan sirli gapni bilgan kishidek, o'zicha yo'ygan gaplarni vahimali qilib gapirar, ingliz-u fransuz yeng ichida bitishib yana Bonapartni Rossiya ustiga otlantirmoqchi bo'libdi yoki yaqinda urush bo'larmish, derdi. Shunda Afanasiy Ivanovich aksari Pulxeriya Ivanovnaga qaramagan kishi bo'lib:

– Men ham urushga borsam degan niyatdaman, xo'sh, borolmaydi, deysizmi? – deb qo'yardi.

Pulxeriya Ivanovna uning so'zini bo'lib:

– Ana xolos, darrov urushga ham otlandilar, – der va mehmonga qarab, – bu kishining so'zlariga ishonmang, o'zi chol bo'lsa, qanday qilib urushga borsin! Duch kelgan zabit birpasda otib tashlaydi! Xudo ursin, mana bunaqa qilib otib tashlaydi! – derdi.

Afanasiy Ivanovich:

– Nima qilibdi, otsa men qarab turamanmi, men ham otaman-da, – derdi.

Pulxeriya Ivanovna bo'lsa:

– Aytaveradilar, qaysi hollariga urushga boradilar, miltiqlari ham zang bosib, hujrada yotibdi. Siz ko'rganingiz yo'q-da! Miltiqlari shunaqaki, tepkisini

bosmasdan avval otilib ketadi. Qollarini mayib qilib, basharalarini kuydirib, qaytaga umrbod nogiron bo'lib qolmasalar go'rga edi! – derdi.

Afanasiy Ivanovich:

– Xo'sh, nima qilibdi, yangi aslaha sotib olaman, qilich yoki kazaklarnikidaka nayza olivolaman, – derdi.

Pulxeriya Ivanovna erining gapini og'zidan olib, xafalanib, derdi:

– Bu kishining hamma gaplari behuda. Xayollari-ga nima kelsa gapiraveradilar. Hazil qilayotganlariga aqlim yetadi-yu, lekin shunday bo'lsa ham, kishiga al-lanechuk yoqinqiramaydi. Hamma vaqt shunday hazil qiladilar, gohida qulq solib turib, vahima bosib ketadi.

Ammo Afanasiy Ivanovich Pulxeriya Ivanovnaning andak qo'rqqanidan rohatlanib, o'tirgan joyida ikki bukilib, xo'b kulardi.

Pulxeriya Ivanovnaning kelgan mehmonni dasturxonga o'tqazayotgandagi muomalasi menga juda yoqardi.

Shisha idishning qopqog'ini ochib: «Mana bu – za'far-u yalpiz solingen araq; kurak yoki bel og'rig'iga juda davodir. Mana bunisi bir xil ajoyib o't solingen araq, bunisi, qulq shang'llashidan, betga tushgan temirat-kidan qutqaradigan davo. Ana unisi shaftoli danagidan tortilgan, bir qadah ichib ko'ring-a, biram xushbo'y hidi borki! Agar birov yotgan joyidan turayotganda xontaxta yoki javonning qirrasiga boshini urib olib, peshonasi g'urra bo'lsa, ovqat oldidan bir qadah ichsa bas, birpasda g'urrasi tuzalib, sog'ayib, ko'rmagandek bo'lib ketadi», – derdi. Keyin boshqa shisha idishlarda-gi araqlarni ham shu zaylda maqtab, ularning ham dardga davoligini aytardi. Bu dori-darmonlarning har qaysisidan mehmonga ichirib bo'lganidan keyin, uni dasturxonidagi likopchalar yoniga boshlab ketardi.

– Mana bu qo'ziqoringa jag'-jag' solib tuzlaganman, bunisiga qalampirmunchoq bilan bir xil yong'oq mag'izi solganman. Qo'ziqorinni bu xilda tuzlashni

menga bir turk xotin o'rgatgan edi; u vaqtida turklar bizda asir edilar. Shu qadar yaxshi xotin ediki, turkligi sira bilinmas, yurish-turishi – hammasi biznikiga o'xshab ketgandi, biroq cho'chqa go'shtini yemas edi, xolos. To'ng'iz yeyish bizga man etilgan, derdi. Mana bu qo'ziqorinlarni maymunjon bargi bilan javzi bobo¹ solib tuzlaganman! Mana bu yirik ko'katlarni oldin sirkada qaynatganman, bilmadim qanday bo'larkin. Men buning sirini Ivan hazratlaridan o'rganganman. Avval kichkina bochkaning tagiga eman daraxtining barglarini solib, keyin qalampir bilan ishqor solish, so'ngra nechu-ziter degan bir xil o't bor-ku, shuning gulini olib, bandini yuqoriga qilib, tashlab qo'yish kerak ekan. Somsadan ham oling, pishloq solib qilingan mana bu somsaga ko'knori urug'ini ezib solganman! Mana bunisi Afanasiy Ivanovich yaxshi ko'radigan somsa. Karam bilan qora bug'doy solganman, – derdi.

Afanasiy Ivanovich ham:

– Ha, to'g'ri, men yaxshi ko'rgan somsa; o'zi yumshoqqina, mazasi biroz nordon, – deb qo'yardi.

Xullas, uylariga mehmon kelganda, Pulxeriya Ivanovna benihoya xursand bo'lardi. Ko'ngilchan va ajoyib kampir! Mehmon desa jonini ayamasdi. Men ham ularnikiga borsam, garchi ko'p ovqat yeyish menga yoqmasa ham, yeyaverib bo'kib qolardim, shunday bolsa-da doim borgim kelardi. Ammo shunisi ham borki, Malorossiyaning havosida ovqat hazm qiladigan allaqanday xosiyat yo'qmikin deb o'ylayman, chunki agar bizning yurtimizda birov buncha ko'p ovqat yeydigan bo'lsa, boshi yostiqqa yetmay, to'ppa-to'g'ri taxtaga olinaveradi.

Chol-u kampirga balli! Biroq hikoya bu sho'rliklarning tinch turmushini abadiy o'zgartirgan qayg'uli voqeaga yaqinlashib qoldi. Bu voqeа arzimagan bir hodisa orqasida ro'y bergani uchun

¹ Javzi bobo – muskat yong'og'i.

ham g'alati va ajib ko'rindi. Ammo nechundir hamma vaqt shunday bo'ladiki, arzimagan sabab bilan katta ishlar vujudga keladi; gohida buning teskarisi bo'lib, juda katta ishlarning oqibati arzimaydigan natija bilan tugaydi. Bironta jahongir podsho chiqib, yurtining bor-yo'q quvvatini to'plab, bir necha yil urush qiladi, lashkarboshilari xo'b nom chiqaradi, lekin bu mojarolar kartoshka ekishga ham joy topilmaydigan bir parcha yerni egallash bilan tamom bo'ladi. Gohida ikki shahardagi ikki qassob behuda bir narsani talashib, urishib qolsalar, ularning janjali bu shaharlarning ikkoviga ham yoyilib ketadi, keyin ravot va qishloqlarga, bora-bora butun mamlakatga ham tarqaladi. Lekin bu gaplarni qo'yaylik, chunki bu yerda gapning o'rni emas va buning ustiga behuda mulohazalarni gapirib o'tirishni o'zim ham yomon ko'raman.

Pulxeriya Ivanovnaning bir kulrang mushugi bo'lib, doim uning oyog'ida kulcha bo'lib yotardi. Pulxeriya Ivanovna gohida mushukni erkalatib, silab-siypab bo'ynini qitiqlar, mushuk ham taltayib bo'ynini boricha cho'zar edi. Kampir mushukni uncha yaxshi ko'rmas edi-ku, lekin hamisha yonida bo'lganidan unga o'rganib, mehribon bo'lib qolgan edi. Afanasiy Ivanovich kampirning mushukka bunchalik o'rganib qolganini mazax qilardi:

– Pulxeriya Ivanovna, bilmadim, mushukning nimasini buncha yaxshi ko'rasiz, nima qilasiz uni? It bo'sha mayli edi, ovga yarardi, ammo mushuk nima qilib beradi?

– Qo'ysangiz-chi, Afanasiy Ivanovich, sizga gap bo'sha bas, it nopol bo'ladi, hamma yoqni iflos qiladi, uni-buni sindiradi, mushuk-chi, mushuk yuvosh hayvon, hech kimga ziyoni tegmaydi, – derdi Pulxeriya Ivanovna.

Sirasini aytganda, itmi, mushukmi, Afanasiy Ivanovichga baribir edi, lekin u Pulxeriya Ivanovna bilan hazillashish uchun atayin shunday derdi.

Ularning chorborg'i orqasida katta o'rmoni bo'lar, ammo uddaburon xizmatkori buni ayab, sira qo'l tekizmagan edi. Ehtimol boltaning ovozi Pulxeriya Ivanovna qulog'iga yetib qoladi, deb qo'rqanidanmi, har holda bu o'rmonga sira tegilmaganidan odam kirsa qo'rqaqidigan chakalak bo'lib ketgan, mayda yong'oq o'sib katta daraxtlar tanasi ko'rinxmay qolgan va shu sababdan, daraxtlarning tanasi paypoqdan kaptarning oyog'iga o'xshab ketgan edi. Bu o'rmonda yovvoyi mushuklar ko'p edi. Ammo o'rmonda bo'ladigan yovvoyi mushuklarni tomma-tom sang'ib yurgan xonaki mushuklardan farq qilish lozim. Xonaki mushuklar garchi fe'llari xunuk bo'lsa ham shaharda turganliklaridan chakalakdagi yovvoyi mushuklarga qaraganda odamga ancha yaqin bo'lib madaniylashgan. Chakalakda turuvchi mushuklarning vajohati ak-sari xunuk, vaxshiy bo'ladi. Ular doim och, ozg'in, miyovlashi ham beo'xshov va dag'al bo'ladi. Ba'zida bu sayoqlar yerni kavlab, omborxonalarga kirib, yog' o'g'irlaydi, oshpazning yo'qligidan foydalanib, ochiq qolgan oynadan lip etib sakrab, ichkariga kiradi. Xul-las, ularda hech qanday yaxshi xulq yo'q: darrandalik bilan yashaydilar, chumchuqlarning inlariga chiqib bolalarini yeyishadi, ana shu mushuklar omborxona tagidagi kavakdan kirishib, Pulxeriya Ivanovnaning yuvoshgina mushukchasi bilan bir qancha vaqtgacha hidlashib yurdi, keyin qishloqdan o'tib ketayotgan zabitlar laqma qishloqi qizini aldab olib ketganlaridek, mushuklar ham axiri bir kun Pulxeriya Ivanovnaning mushugini aldab olib ketishdi. Pulxeriya Ivanovna mushugi bedarak yo'qolib ketganligini payqab, xo'p qidirtirdi, lekin topolmadi. Oradan uch kun o'tgach, Pulxeriya Ivanovna ko'p achindi, keyin esidan ham chiqib ketdi. Bir kun u rezavor ekinlarini oralab, bir necha dona barra bodringni o'z qo'li bilan uzib, Afanasiy Ivanovichga olib kelayotib, zaif miyovlayotgan

mushuk ovozini eshitdi. Pulxeriya Ivanovna beixtiyor «pish-pish» deb uni chaqirgan edi, burgon o't ichidan targ'il mushugi miyovlab chiqib kelaverdi. Ozib juda xarob bo'lib qolganligidan bir necha kundan beri sira ovqat yemaganligi bilinib turardi. Pulxeriya Ivanovna mushugini har qancha chaqirsa ham, mushugi nari-roqdan turib miyovlar, yaqin kelgani qo'rqardi. Chunki daydi mushuklarga o'xshab u ham yovvoyilashib qolgandi. Pulxeriya Ivanovna yana chaqirgan edi, mushugi qo'rqa-pisa uning ketidan sekin devor ta-gigacha bordi, nihoyat o'z joyini tanib, ichkariga ham kirdi. Pulxeriya Ivanovna darrov: sut, go'sht beringlar, deb buyurdi va sho'rlik arzandasining go'sht va sutni qanday ochko'zlik bilan yejishini zavq bilan tomosha qilib o'tirdi. Ko'k mushuk birpasda ko'z oldida yo'g'on tortib semira boshladi va ko'zi ham ancha to'yib, avvalgi ishtahasidan tushdi. Pulxeriya Ivanovna mushugini silamoqchi bo'lib qo'lini uzatgan edi, ko'rnamak hayvon yovvoyi mushuklar bilan ancha el bo'lib qolgan shekilli yoki suyganing bilan bo'lsang, qora uy ham olabargoh ko'rindi, degan muhabbat qoidasini eshitib qolgan ekanmi (chunki boyagi yovvoyi erkak mushuklar osmondag'i lochindek bebisot, yalang'och edi), har holda derazadan bir sakrab qo'chib ketdi. Xizmatkorlar har qancha quvlasalar ham tutolmadi.

Bundan keyin, kampir o'y o'ylab, xayol surib: «Ajalim meni olib ketgani kelgan ekan», – dedi o'ziga o'zi va juda xafa bo'lib qoldi. Uning bu xafaligini hech narsa yozolmadi. Kechgacha xafa bo'lib yurdi. Afanasiy Ivanovich uning nega birdaniga xafa bo'lib qolishining sababini bilmoxchi bo'lib, ko'p urindi, hazillashib ko'rdi, lekin foyda bermadi: Pulxeriya Ivanovna indamas, indasa ham Afanasiy Ivanovichni xotirjam qilgudek ochiq-oydin gapirmsas edi. Erta-siga kampir o'zini ancha oldirib, ozib qoldi.

– Pulxeriya Ivanovna, sizga nima bo'ldi? Betob bo'lib qolmadingizmi?

– Yo'q, Afanasiy Ivanovich, betob emasman, bir hodisa bo'ldi, shuni sizga aytmoqchiman. Shu yoz o'ladiganga o'xshayman, ajalim bir marta kelib ketdi!

Afanasiy Ivanovichning ko'ngli buzilib, lablari burishib ketdi. Ammo sir boy bermasdan, ko'ngliga tushgan hasratni bildirmaslikka harakat qilib, jilmaydi-da:

– Pulxeriya Ivanovna, Xudo ko'rsatmasin-ey, qayoqdagi gaplarni aytasiz, doimo ichadigan dori-darmoningiz o'rniga adashib shaftoli suvini ichib qo'yganga o'xshaysiz, – dedi.

– Yo'q, Afanasiy Ivanovich, shaftoli suvidan sira ichganim yo'q, – dedi Pulxeriya Ivanovna.

Afanasiy Ivanovich kampirini bunday mazax qilganiga achinib, hasrat bilan tiqilib turgandi, ko'zi namlanib, jiqliq yoshga to'ldi.

Pulxeriya Ivanovna eriga qarab:

– Afanasiy Ivanovich, sizga vasiyatim shuki, men olsam, jasadimni butxona devori yoniga ko'ming, anavi tagi jigarrang mayda gulli ko'ylagim bor-ku, shuni kiygizing. Alvon yo'l-yo'l atlas ko'ylagimni kiydirmang, murdaga yaxshi kiyim nimaga kerak, kam-ko'stingizga yayar. O'zingizga to'n tiktiring, mehmon kelganda tuzukkina yasanib chiqarsiz, – dedi.

– Pulxeriya Ivanovna, qayoqdagi xunuk gaplarni, qayoqdagi o'limni gapirib o'tirasiz, axir bir kun o'lim bor, lekin haltdan vahima qilishingiz nimasi? – dedi Afanasiy Ivanovich.

– Yo'q, Afanasiy Ivanovich, qachon o'lishimni o'zim bilaman, ammo siz ko'p qayg'urmang, yoshimni yashab qaridim, lekin siz ham yosh emassiz, u dunyoda diydor ko'risharmiz.

Ammo Afanasiy Ivanovich yosh boladek ho'ngrab, yig'lab yubordi.

– Afanasiy Ivanovich, yig'lash gunohdir. Qo'ying, o'zingizni gunohkor qilmang, Xudoning qahri kelma-

sin. Men o'layotganimga afsus chekmayman (bir uh tortib andak fursat gapirolmay, tilsiz bo'lib qoldi), sizni kimga qoldiraman, deb qayg'uraman, xolos. Men o'sam sizga kim qaraydi, yosh boladeksiz, sizni parvarish qiladigan odam hozirdan sizni suymog'i kerak.

Bu so'zlarni aytganida, uning chehrasida shunday bir g'am-hasrat alomati paydo bo'ldiki, bu paytda uning yuziga hech kim qayg'urmay qarolmas, deb o'layman.

Pulxeriya Ivanovna omborchi xotinni atayin chaqirtirib, unga:

– Menga qara, Yavdoxa, men o'sam, xo'jayiningga yaxshi qara, ko'zingni cho'pdan qanday ayasang, uni ham shunday aya, o'z bolangdek ko'rib, parvarish qil. Oshxonadagilar u kishi yaxshi ko'rgan ovqatlarni pishirib bersin, ichki va tashqi kiyimlaridan xabar-dor bo'lib tur, toza bo'sin, mehmon kelganda tuzuk-roq yasantirib qo'y. Eski to'nini kiyib chiqa ko'rmasin, chunki gohida shunaqa odati bor. Hozir ham hayit oddiy kundan farq qilmaydi. Yavdoxa, u kishidan bexabar qolma, ko'zingdan yiroq qilma, men go'rimda haqingingga duo qilib yotaman. Xudoyim seni ham noumid qo'ymas. Sen ham qarib qolding, buni ham yodingda tut, o'z joningga jabr qilib gunohga botib o'tirma, agar u kishini yaxshi parvarish qilmasang, dunyoda xor bo'lasan, avvalo, men o'zim seni qarg'ayman, imonsiz ketasan, o'zing ham, bolalaring ham, yetti pushting Xudoning rahmatidan benasib bo'ladi, – dedi.

Sho'rlik kampir! O'zining qanday holatda yotgani-ni, o'z imonining nima bo'lishini o'ylamay, birga umr kechirgan, endi yetim va qarovsiz qolayotgan juftining g'aminini yerdi.

Kampir darrov hamma yoqni saranjom-sarish-ta qildirdi, ro'zg'orini shunday taxt qilib qo'ydiki, o'lganidan keyin Afanasiy Ivanovichga uning yo'qligi sira bilinmadi. O'limi yaqinligiga ko'zi yetib qolgan va o'zicha bunga shunday tayyorlangan ediki, oradan

bir necha kun o'tar-o'tmas betob bo'lib, ovqat o'tmay qoldi. Afanasiy Ivanovich jon-tani bilan uni parvarish qilar va boshidan nari ketmasdi. Hasrat bilan unga termilib turib: «Pulxeriya Ivanovna, ko'nglingiz biron narsa istaydimi?» – deb har qancha so'rasha ham, Pulxeriya Ivanovna sira indamas edi. Pulxeriya Ivanovna tilga kelib, bir narsa demoqchi bo'ldi-yu, lablari qimir-ladi, ammo ovozi chiqmay, joni uzildi.

Afanasiy Ivanovich kampirining olimiga sira chidolmay, es-hushidan ajrab, shunday merovlanib qoldiki, hatto ko'ziga yosh ham kelmadi. Go'yoki xotini o'lib qolganiga fahm-farosati yetmayotgandek ko'zlar xiralashib unga termilardi, xolos.

O'likni taxtaga oldilar, o'zi vasiyat qilgan ko'ylagini kiygizishdi, qo'lini ko'ksiga qo'yib, bir dona mum sham tutqazib qo'yishdi, ammo Afanasiy Ivanovich nima qilayotganlarini bilmay ag'rayib turardi. Har yoqdan har xil odamlar kelib hovli to'ldi, kuzatishga kelganlarning son-sanog'i yo'q, hovliga uzun-uzun xontaxtalar qo'yilib dasturxon yozildi, dasturxonda magizli shovla, sharbat, somsa va turli-tuman ovqatlar ko'p edi, azaga kelganlar marhumaning yaxshi sifatlarini maqtab gapirib, yig'lashar edi. Ammo Afanasiy Ivanovichning bu ishlarga sira aqli yetmay yana ag'rayib turardi, xolos. O'likni chiqarishdi, odam ko'p edi. Afanasiy Ivanovich ham xaloyiq ketidan ketaverdi. Poplar yasanib, salobatli bo'lib chiqqandi, oftob charaqlagan, onalarning qo'lidagi chaqaloqlar yig'lar, to'rg'aylar sayrar, ko'yakchan bolalar ko'chada yugurishib, sho'xlik qilardi. Tobutni go'r tepasiga keltirib qo'ygach, Afanasiy Ivanovichni chaqirishdi. Marhuma bilan vidolashing, oxirgi mar-ta o'pib qoling, deyishdi. Afanasiy Ivanovich tobut te-pasiga kelib, marhumani o'pdi, ko'zlariga yosh keldi-yu, biroq bunda hech qanday his va ma'no yo'q edi. Tobutni lahadga tushirishdi, pop belni qo'lga olib,

bir kurak tuproq tashladi. Osmon tip-tiniq edi. Butxonanining ikki hofizi-yu ruhoniysi yo'g'on tovush bilan marhumaga «alvido» o'qidi. Go'rkovlar belkuraklarini olib tuproq tortdi. Go'r tuproqqa to'lib tekis bo'ldi. Shu paytda Afanasiy Ivanovich oldinga chiqib kelaverdi. Odamlar uning nima qilmoqchilagini bilmoqchi bo'lib, unga yo'l berishdi. U ko'zini yuqoriga qilib, parishonlik bilan qaragach: «E, ko'mdingizmi? Nega ko'mdingiz?...» – dedi-yu boshqa hech narsa deyolmasdan qolaverdi.

Ammo qabristondan qaytib kelgach, uyda tanho qolganini, hatto Pulxeriya Ivanovnaning o'tiradigan kursisini ham tashqariga chiqarib tashlaganlarini ko'rib, ho'ngrab yig'lab yubordi, shunday ho'ngradiki, o'zini hech to'xtatolmadi, xira tortib qolgan ko'zlaridan daryo-daryo yosh oqdi.

Oradan besh yil o'tdi. Zamon har qanday g'amg'uussani ham eskirtiradi. Insonning qaysi bir hissi zamon bilan kurashda unga bardosh qila oladi? Men bir yosh yigitni bilardim. Haqiqatan himmati baland, oliyjanob kishi edi. Shu odam bir kun oshiqi shaydo bo'lib, muhabbat o'tiga shunday o'rtanib yondiki, toqati qolmadi. Rohat-farog'atidan ajradi. Husn-latofati behad bo'lgan ma'shuqasi xuddi ko'z oldida to'satdan, mechkay ajal dastidan o'lib qoldi. Boyaqish oshiq shunday dod-faryod ko'tarib, nolayu fig'on qildiki, uning bu motamzada holi, qayg'u va alamlari kishining jigarini ezib, dilini pora-pora qilardi. Shunday fojiaviy ahvolga tushdiki, bunday holni sira ko'rмаган edim va odam o'zini bu qadar azob-uqubatga solishini, najot umidining nishonasi ko'rilmagan bunday do'zaxga solishini sira o'ylamagan edim. O'z joniga qasd qilmasin, deb ota-onalari bechorani sira yolg'iz qoldirmaslikka harakat qilar, asbob va yarog'larni undan berkitardilar. Ikki haftadan keyin yigit o'zini tutib oldi, kuladigan,

hazillashadigan bo'ldi, bundan so'ng uni o'z ixtiyoriga qo'ydilar, ammo u erkinlikdan foydalananib, avvalo to'pponcha sotib oldi. Bir kun uydagilari bexosdan o'q tovushini eshitib qo'rqib ketishdi: yugurgancha uyga kirishsa, u boshi majaqlanib chalqancha tushib yotibdi. U vaqtida tajribasining ovozasi ketib, mashhur bo'lgan shifokor kelib ko'rsa, hali joni bor, yarasi o'ladigan darajada emas ekan, qarangki, shifokor uni davolab tuzatdi, shundan keyin uni juda qattiq ehtiyot qiladigan bo'ldilar. Hatto ovqat vaqtida ham, uning oldiga pichoq qo'ymaydigan va suiqasd uchun yaraguday hamma narsani undan berkitadigan bo'lishdi. Ammo bir kun yana fursat topib, o'zini arava tagiga tashladi, qo'li va oyog'i sinib, bundan ham tuzalib ketdi. Bu voqeadan bir yil o'tgach, men uni odamlar to'lgan katta bir zalda ko'rdim. Dimog'i chog', xontaxta qoshida o'tirar, bir qartani qo'li bilan berkitib, «petituvert»¹ derdi. Uning orqasida, kursining suyanchig'iga yastanib turgan yoshgina xotini rostlab turardi.

Pulxeriya Ivanovnaning vafotidan besh yil o'tgach, shu yoqqa kelib qolgan edim. Bir zamonlarda birga vaqtichog'lik qilgan va mehmondo'st uyning lazzatli taomlaridan ko'p yegan edim. Endi eski qo'shnimni ko'rib ketay, deb Afanasiy Ivanovichning qo'rg'oniga keldim. Uning uyiga yaqin kelganimda, nazarimda, uy nihoyatda eskip qolganga o'xshadi. Bundagi dehqonlarning uylari tob tashlab, bir yoqqa qiyshayib ketibdi, egalari ham uylariga o'xshab qolibdi. Hovli atrofidagi yog'och devor bilan chetan devor buzilib ketibdi. Oshpaz xotinga o'tin kerak bo'lsa, ikki qadam narida bostirib qo'yilgan shoxdan olmay, chetan devorning kaltaklarini sug'urib olayotganini o'z ko'zim bilan ko'rdim, ko'nglim buzilib, eshik tagiga kelib tushdim. O'sha-o'sha barbos, o'sha-o'sha laycha itlar chaka-

¹ Petituvert – qarta o'yiniga tegishli atama.

mug‘ bosgan gajak dumlarini dikkaytirib, vovullashib chiqishdi. Lekin endi ba’zi itlarning ko’zları shilpiq, oyoqlari cho’loq bo’lib qolibdi. Bir mo’ysafid eshikka chiqdi. Uning o’zi! Men darrov tanidim, biroq avvalgidan ham bukchayibroq qolibdi. U ham meni tanib, burungidek jilmayib salomlashdi. Uning ketidan uyga kirdim. Uyning ichi avval qanday bolsa, hali ham shunday, ammo nimaga boqsam qandaydir bir besaranjomlik ko’rinib turibdi, nimadir yo‘qqa o’xshaydi. Xullas, umr bo’yi bir yostiqqa bosh qo’yib kelgan xo-tini o’lib beva qolgan oshnamiznikiga daf’atan kirganimizda paydo bo’ladigan bir holat bor-ku, menda ana shunday holat ro’y berdi. Bu holat oyog‘i sog‘ odam oyog‘idan ajrab, cho’loq bo’lib qolganini ko’rganda, kishida paydo bo’ladigan holatga o’xshaydi. Saran-jom-sarishtali Pulxeriya Ivanovnaning yo’qligi har bir narsadan bilinib turardi. Dasturxon yoyganda keltirib qo’yan pichoqlardan bittasining bandi siniq, ovqatda ham avvalgi lazzat yo‘q edi, ro‘zg’orlari to‘g’risida surishtirgim kelmadi, hatto xo’jaliklariga ko’z solgani ham toqatim bo’lmadi.

Xontaxta qoshida o’tirdik, bir qiz kelib Afanasiy Ivanovichning bo’yniga sochiq osib qo’ydi. Yaxshi qildi, bo’lmasa ovqatning qaylasini to’kib, to’nini dog‘ qilardi. Uning ko’nglini ko’tarmoqchi bo’lib, u yoq-bu yoq yangiliklardan so’zlab berdim. Gapimga quloq solib, eski odaticha kulimsirab o’tirdi, lekin goh-go-hida ko’zidan nur o’char, xayoli qochishgina emas, tamoman aql-hushini yo‘qotish darajasiga yetardi. Gohida ovqatni og’ziga olmas, burniga eltar, qo’lidagi sanchqini tovoqdagi jo’jaxo’rozga tiqaman deb, shisha idishni turtib olar, boyagi qiz kelib qo’lini ovqatga rostlab qo’yardi. Ba’zida bir ovqatdan keyin ke-ladigan yanagi ovqatni anchagacha kutib qolardik. Buni Afanasiy Ivanovichning o’zi ham payqab: «Nega muncha hayallab qolishdi?» – deb qo’yardi. Ammo

men eshikning tirdishidan qarab, ko'rib turardim, ovqat tashib turgan o'g'il bola ovqat keltirish xayolida ham bo'lmay, o'rindiqqa boshini qo'yib, bemalol uxbab yotardi.

Suzma solingan qaymoqli somsa keltirilganda, Afanasiy Ivanovich qayta-qayta: «bu taomni... bu taomni», – deb so'z boshlagan edi, ovozi titrab, nursiz ko'zlariga jiq-jiq yosh to'lganini payqadim. Ammo o'zini to'xtatib, ko'zidagi yoshini to'kmaslikka harakat qildi. «Bu taomni mar...mar...marhuma...», – dedi-yu, ko'zidan yosh oqib ketdi. Qo'li likopchaga tushdi, likopcha yerga tushib sindi. Ovqat egniga to'kildi. Afanasiy Ivanovich qo'lida qoshiq bilan es-hushsiz o'tirar, ko'z yoshlari buloqdan qaynab chiqqandek shashqator bo'lib, bo'ynidagi sochiqqa to'kilar edi.

Uning holiga qarab: yo Rabbim! Hech narsadan asar qoldirmay hammani qatron qiladigan zamonning besh yili o'tsa-yu, barcha hissiyotlari so'ngan, umrida bir marta ham bir narsadan dili og'rib g'alayonga kelmagan, butun hayoti baland kursidan tushmay o'tirishdan, baliq qoqi va nashvati qoqi yeyishdan, qiziq-qiziq latifalar aytishdan iborat bo'lgan boyaqish bir chol bo'lsa-yu, besh yildan beri bunday qayg'ursa, bunday achchiq alam va hasrat cheksa! Bas, odamzodda nima ustun: hismi yoki odatmi? Qaysi biri kuchli? Yoki bizning barcha hissimiz, dilda qo'zg'algan, jo'sh urgan barcha tilak-armonlarimiz umrimizning porloq yosh chog'iga bog'liqmi va faqat shu tufayli, alamli, qayg'uli, fojiali ko'rindadimi? Har narsa bo'lsa ham, bizning barcha hislarimiz, nazarimda, uzoq muddat ichida asta-sekin paydo bo'lgan bu ruhsiz quruq rasm-odat oldida ancha go'daklar ishiga o'xshab qoldi. Marhumaning nomini aytmoqchi bo'lib ancha urindi. Ammo gapining yarmiga kelganda doim xotirjam ko'rindigan chehrasi bujmayib, tortishib,

go'daklardek yig'lab yuborar, uning yig'isi meni to qal-bimgacha g'ijimlab ezardi. Uning yig'isi qora baxtidan qaqshab, o'z holidan o'kinib, hasrat qiluvchi bir xil g'arib chollar yig'isidan emas, uning to'kkani yoshlari bu xil chollarning may ichib, mast bo'lgandagi ko'z yoshlari ham emas. Uning ko'zidan oqqan yoshlar buloqdan qaynab chiqqandek o'zi beixtiyor kelgan, so-vigan, so'ngan dildagi qayg'u va alamlar achchig'idan junbishga kelib, toshib chiqqan yoshlar edi.

Bundan keyin u ham uzoq yashamadi, yaqinda men uning o'lganligini eshitdim. Biroq ajib joyi shu ediki, Afanasiy Ivanovichning o'limi ham Pulxeriya Ivanovnanikiga o'xshardi. Bir kun bog'sayriga otlanib, hech narsani o'ylamasdan odatdag'i beparvoligi bilan asta-asta borayotganida, orqasidan birov juda aniq qilib: «Afanasiy Ivanovich!» deganini eshitibdi. Qayrilib qarasa, hech kim yo'q, to'rt tarafga alanglab, chakalakni ham oralab chiqibdi, hech zot yo'q emish. Atrof tinch va sokin, oftob charaqlagan. Biroz xayolga ketib o'ylab qolibdi, chehrasi birdan ochilib, so'ngra, «Pulxeriya Ivanovna meni yoniga chaqirdi, shekilli», – deb qo'yibdi.

Bunday hodisa sizda ham, albatta bo'lgandir, sizni ham birov chaqirgandek bo'lgani bordir. Odamlar orasida bunday holni, vafot etgan yaqinlaridan birining arvohi sog'inib chaqirdi, endi u o'ladi, deya izohlaydigan gaplar yuradi. Rostini aytsam, bu xil g'oyibdan kelgan ovozni eshitganimda, doim qo'rqardim. Bolalik chog'imda ko'p eshitganman. Gohida orqamdan birov otimni aytib chaqirgandek bo'lardi. Aksari havo ochiq, oftob chiqib turgan vaqtarda eshitilardi. Bog'dagi daraxtlarning bitta bargi ham shitirlamas, tiriklikdan asar yo'qdek jimjit, hatto ninachilarining ham tovushi chiqmas, bog'da hech zot yo'q edi. Rostini aytsam, kuppakunduzi bu sukunat shunday vahimali ediki, agar

kechasi havoda to's-to' polon ko'tarilib, tabiat alg'ov-dalg'ov bo'lgan chog'da, changalzor ichida yolg'iz qolsam ham buncha qo'rmas edim. G'oyibdan kelgan ovozni eshitib qo'rqqanimda nafasim tiqilib, yugurgancha bog'dan chiqardim va biron-bir odam uchrab, tanholikdan ko'ngilga tushgan bu mudhish vahimani yo'qotmaguncha o'zimga kelmasdim.

Afanasiy Ivanovich kampiri chaqirganligiga astoy-dil ishonib, ko'ngliga tushgan shu vahimaning asiri bo'lib qoldi. Qobil-u yuvosh go'dakdek bo'yin egib quridi, qovjiradi, shamdek erib oqdi, bora-bora yonib tugagach, shamning zaif o'ti so'ndi. O'limi oldidan aytgan bir so'zi shu bo'ldiki: «Meni Pulxeriya Ivanovna yoniga qo'yinglar», – dedi, xolos.

Uning xohishini bajo keltirib, butxona tagidagi Pulxeriya Ivanovnaning qabri yoniga ko'mishdi. Janozaga kelganlar uncha ko'p emas, lekin faqir-fuqaro, beva-bechora, miskin-gadolar juda ko'p edi. Boyning uyi tanho qoldi. Epchil gumashta bilan oqsoqol birgalashib olib, qadimgi yaxshi buyumlarni, so'ngra omborchи xotin olib ketolmagan barcha eski-tuskilarni o'z uylari-ga tashidi. Oradan ko'p o'tmay, bilmadim qaysi ham polkda poruchik¹ bo'lgan uzoq bir qarindoshi vorislik da'vosini qilib, hamma mol-u mulkka ega bo'lib oldi-da, ko'p g'alati ishlar ko'rsatdi: ro'zg'or nihoyatda vayron bo'lib, xarob holga tushib qolganini ko'rgach, darhol bu betartiblikka barham berib, hamma ro'zg'or ishlarini saranjom-sarishta qilishga kirishdi. Oltita yaxshi ingliz o'rog'ini sotib oldi, har uyga alohida raqam qoqtirdi, xullas, ishning saranjomi shu bo'ldiki, oradan olti oy o'tar-o'tmas hamma mol-mulk vasiylar qo'liga topshirildi. Dono vasiylar (vasiylarining bittasi avval sud a'zosi bo'lgan, yana bittasi mundiri to'zib, aynib ketgan shtab kapitani edi) qisqa vaqt ichida tovuq va

¹ Poruchik – harbiy zabitlik unvoni.

tuxum zotidan taqir qo'yamadi, qiyshayib yotgan uylar endi ag'anab tushdi, xizmatkorlar ichkilik payiga tushib, gala-gala bo'lib qochib ketdi. Merosxo'r esa, vasiyalar bilan apoq-chapoq bo'lib birga ichishar, ammo qishlog'iga ahyon-ahyonda bir kelar, kelganda ham ko'p turmasdan, darrov jo'nab ketardi. Bu merosxo'r hali ham Malorossiyaning qayerida yarmarka bo'ssa, un bormi, kanopmi, asalmi, shu xil ko'tara sotiladigan mollarning ulgurji narx-navosini surishtirib yuradi, lekin xaridga kelganda, chaqmoq toshi bormi, chilim nayini tozalaydigan sim bormi, xullas hammasini yig'ib kelganda, narxi bir so'mdan oshmaydigan mayda-chuydadan boshqa hech narsa xarid qilmaydi.

M U N D A R I J A

Dikanka qishlog'i oqshomlari 3

Birinchi qism

Muqaddima 3

Sorochi yarmarkasi 8

Ivan Kupal arafasidagi butxonaning
ruhoniysi aytgan hikoya 41

May kechasi yoki suv parisi 59

Ganna 60

Oqsoqol 67

Kutilmagan raqib. Qasd 71

Yigitlarning sho'xligi 74

Suv parisi 87

Uyg'onish 91

Yo'qolgan yorliq ...dagi butxonaning
ruhoniysi aytgan hikoya 95

Ikkinchchi qism

Muqaddima	110
Rojdestvo kechasi	113
Dahshatli intiqom	165
Ivan Fedorovich va uning xolasi	215
Ivan Fedorovich Shponka	216
Yo'l	221
Xola	227
Ziyofat	231
Xolaning yana bir g'alamisligi	238
Qadimgi zamon zamindorlari	256

MUNDAJLAR

Nikolay Vasilyevich Gogol

DAHSHATLI INTIQOM

Rus tilidan Nabi Alimuhamedov tarjimasi

«O'zbekiston milliy ensiklopediyasi»

Davlat ilmiy nashriyoti

Toshkent – 2017

Muharrir

Badiiy muharrir

Dizayner

Iroda Solihova

Asqar Yoqubjonov

Umid Sapayev

Nashriyot litsenziyasi AI № 160, 14.08.2016-y.

18.01.2018-yilda bosishga ruxsat etildi. Qog'oz bichimi 84x108 ^{1/32}.

•Times• garniturasi. Kegli 11. Shartli bosma taboq 9,00.

Nashriyot hisob tabog'i 10,5. Adadi 3000.

Bahosi shartnoma asosida. 03-buyurtma.

«O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti
100011, Toshkent Navoiy ko'chasi, 30-uy.

MChJ «IPAK YO'LΙ POLIGRAF» bosmaxonasida chop etildi.
100170, Toshkent sh., Avayhon ko'chasi, 98A.



NIKOLAY GOGOL

Nikolay Vasilyevich Gogol (1809.20.3, Poltava – 1852.21.2, Moskva) rus adabiyotida tanqidiy realizm asoschisi hisoblanadi. "Dikanka qishlog'i oqshomlari" (1831–32) to'plamiga kirgan hikoya va qissalari ("Sorochi yarmarkasi", "Dahshatli qasos", "Suv parisi" va boshqa qissalar) adibga katta shuhrat keltirdi. "Mirgorod" ("Ivan Ivanovich bilan Ivan Nikiforovich oralarida bo'lib o'tmish janjallar hikoyati", "Viy" va boshqa qissalar) hamda "Arabeskalar" ("Neva shoh ko'chasi", "Portret", "Tentak maktublari" qissalari) to'plamlarida (1835) shahar hayoti manzaralari "ko'zdan yosh chiqquncha" kulgi qo'zg'atadigan usulda tasvirlangan. Ukrain xalqining chet el bosqinchilariga qarshi kurashiga bag'ishlangan "Taras Bulba" (1835) qissasi, "Revizor" (1836), "Uylanish" (1842) nomli komediyalari ham mashhur.

Adibning ijod cho'qqisi bo'lgan "O'lik jonlar" (1842) doston-romanida Rossiyadagi o'sha davr hayotiga umumiy tavsif berilgan.

ISBN 978-9943-07-416-3



A standard barcode is positioned above the ISBN number. The ISBN is printed as 9789943074163.